

83
U-90

A. MUYDINOVA

O'ZBEK ADABIYOTI II



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

AROFATOY MUYDINOVA

O‘ZBEK ADABIYOTI II

Darslik

Ta’lim yo’nalishi: 60111400 – O‘zbek tili va adabiyoti

«ZEBO PRINTS»
Toshkent – 2025

UO‘K:

KBK:

Muydinova Arofatoy

O‘zbek adabiyoti II [Matn] : darslik / Arofatoy Muydinova. – T.:
– 2025.- 284 bet.

Mazkur darslik oliy ta’lim muassasalari o‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish yo‘nalishidagi talabalar uchun (Ta’lim yo‘nalishi: 60111400 – O‘zbek tili va adabiyoti) mo‘ljallangan bo‘lib, unda XIII asrdan XVI asr oxiriga qadar bo‘lgan mumtoz adabiyot vakillari haqidagi ma’lumotlar qamrab olingan.

Har bir mavzuni yoritishda mavjud tadqiqot hamda darsliklardagi zarur fikrlar qamrab olindi va ulardagi yangi qarashlar, tushunchalar bilan boyitildi.

Mas’ul muharrir:

Pardayev Qo‘ldosh Uzoqovich – filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Nodira Xolikova – filologiya fanlari doktori, dotsent.

Gulzoda Soatova – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2024-yil 11-noyabrdagi 429-sonli buyrug‘iga asosan nashrga tavsiya
etilgan.

ISBN

KIRISH

Ma'lum bir davrda yashagan xalqning o'z tarixi, o'z qadriyatlari, butun umr asragan e'tiqodiy qarashlari mavjud va bu qarashlar, albatta, tabiiy ravishda bu xalqning adabiyotida o'z aksini topadi. Insoniyat tomonidan yaratilgan ma'naviy madaniyat yaxlit bir butunlikni tashkil etadi. Sharq adabiyoti tarixida diniy-tasavvufiy g'oyalar bilan badiiy adabiyotning bevosita uyg'unligi, Qur'oni Karim va hadisi sharif ta'siri natijasida umuminsoniy g'oyalar va axloqiy mavzudagi nodir asarlarni o'rganish aynan hozirgi davrda dolzarb mavzu sanaladi.

O'zbek mumtoz adabiyotini har jihatdan izchil o'rganishning keng imkoniyatlari mustaqillikning ilk yillarida vujudga keldi. Darhaqiqat, yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev "Adabiyot xalqning yuragi, elning ma'naviyati ko'zgusi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo'l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta'sirchan kuchi beqiyos" deya begiz ta'kidlamagan¹.

Mana shunday ustuvor vazifalarni bajarishni maqsad qilib tayyorlangan mazkur darslikda XIII asrdan XVI asrgacha yashab ijod qilgan ulug' shoir va adiblarning ijod namunalari bilan tanishtiriladi. Har bir mavzuga oid tayanch so'z va iboralar, mavzuga oid savol va topshiriqlar berilgan.

Darslikni tayyorlashda N.M.Mallayevning "O'zbek adabiyoti tarixi" (1976), R.Vohidov, H.Eshonqulovlarning "O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi" (2006), N.Rahmonovning "O'zbek adabiyoti tarixi" (2017), D.Yusupovaning "O'zbek mumtoz va milliy uyg'unish adabiyoti tarixi" (2013), Sh.Sirojiddinov, D.Yusupova, O.Davlatovlarning "Navoiyshunoslik" (2018) singari darslik va o'quv qo'llanmalariga tayanildi. Mualliflarga o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqi // Xalq so'zi, 2017-yil, 20-sentabr.

PAHLAVON MAHMUD HAYOTI VA IJODI

REJA:

1. Pahlavon Mahmudning hayoti va ijodiy merosi.
2. Shoir ruboiylarining mavzu doirasi, timsollar tarkibi.
3. Shoir ruboiylarining g'oyaviy-falsafiy, badiiy xususiyatlari va mazmun-mohiyati.

Tayanch soʻz va iboralar: Puryorvaliy, Qitoliy, “Kanz ul-haqoyiq”, ruboiy.

Pahlavon Mahmudning hayoti va ijodiy merosi. Pahlavon Mahmud – XIII asr oxiri – XIV asr boshlarida Xivada yashab oʻtgan ulugʻ shoir, mutafakkir, “Pahlavon Mahmud”, “Puryorvaliy” deb dovrugʻ taratgan yengilmas pahlavon va mashhur avliyodir.

Pahlavon Mahmud moʻgʻullar istilosidan keyin yuzaga kelgan Xorazm adabiyoti va madaniyatining yorqin siymolaridan biridir. Uning otasi asli Koʻhna Urganchlik boʻlib, Shayx Najmiddin Kubroning murididir. Koʻhna Urganch moʻgʻul istilosi tufayli xarobaga aylangandan keyin, Pahlavon Mahmudning oilasi Xivaga koʻchib kelayotgan paytda tugʻilgan. Shoirning otasi hunarmand kishi boʻlib, poʻstin va telpak tikish bilan shugʻullangan. Oʻz hunarini oʻgʻliga ham oʻrgatadi. Natijada boʻlgʻusi shoir yoshligidanoq ota kasbi poʻstin va telpak tikish hunarini qunt bilan egallaydi va mohir poʻstindoʻz boʻlib yetishadi.

Pahlavon Mahmud dastlabki maʼlumotni oʻz otasidan, keyinchalik shu davrda koʻzga koʻringan shayx Said Alovuddindan hadis va tasavvuf ilmini oʻrganadi. Tarix va tazkira kitoblarda Pahlavon Mahmudning nomi koʻp uchraydi. Ayniqsa, Shamsuddin Somiyning “Qomus ul-aʼlom”, Lutf Alibek Ozarning “Otashkada” asarlarida, shuningdek, “Gʻiyos ul-lugʻat”, “Charo-gʻi hidoyat”, “Manoqib”da, Kamoliddin Husayn Fanoiyning “Majolis ul-ushshoq” singari moʻtabar manbalarda Pahlavon Mahmud haqida nodir maʼlumotlar yozib qoldirilgan².

² <http://xorazmiy.uz/oz/pages/view/113>

Alisher Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat min shamoyim ul-futuvvat” tazkirasida Pahlavon Mahmud to‘g‘risida shunday yozadi: “Pahlavon Mahmud Pakayor quddisa sirruhu Xivaqdindur va laqabi mashhur Puryorg‘adur, ba’zi Pakayor debdurlar, ammo Xivaqlik kishidan tahqiq va tashiq qildi, Pakayorg‘a qaror topdi, ya’ni barchag‘a yor Pakayor qassobning o‘g‘lidur. Kurashchilikda saromad bo‘lib, azim shuhrat tutubdur. Yoshurun suluk va riyozati ham bor ermish, andoqki fayz olamidin ko‘ngliga choshni yetkan ermish. Ta’bi ham xub ermish va nazm aytur ermish”. Bundan ko‘rinadiki, shoirning otasi po‘stindo‘zlikdan tashqari qassoblik bilan ham shug‘ullangan.

Ma’lumki, Pahlavon Mahmud “Puryoyvaliy”, “Qitoliy” taxalluslari bilan ruboiylar yozgan. “Charog‘i hidoyat” lug‘atida “Puryoyvaliy – pahlavonlar piriga beriladigan laqab” deyilsa, “G‘iyos ul-lug‘at”da esa “Puryoyvaliy Mahmud Xorazmiyning laqabi. Ba’zan bu so‘z majoziy ma’noda zo‘rxona (pahlavonxona) boshlig‘i bo‘lgan keksa pahlavonlarga ham nisbatan beriladi”, deyilgan. Demak, Pahlavon Mahmud kurashchi sifatida Markaziy Osiyo, Eron va Hindistonda keng shuhrat qozongan. Alisher Navoiy yozib qoldirgan va tazkiralardagi ma’lumotlardan Pahlavon Mahmudning kurashda yelkasi yerga tegmagan, doimo g‘olib kurashchi ekanini bilib olamiz. “Yoshurun suluk va riyozati ham bor ermish” iborasi esa uning tasavvufda yetuk inson bo‘lganini ochib beradi. Chunki otasi Kubroning muridi edi. Pahlavon Mahmud o‘z otasini vasiyatiga ko‘ra, tug‘ilgan joyi – Ko‘hna Urganchga ustozining kun botish tarafiga dafn etgan. Bo‘lg‘usi javonmard otasining piri Kubroning javonmardlik g‘oyalaridan oziq olmasligi mumkin emas. Aksincha, Pahlavon Mahmud ulug‘ Shayxning javonmardlik g‘oyalaridan va amaliy ibratidan ma’naviy oziq olgan va o‘ziga “Uvaysiy ustoz” deb bilgan. Biz Kubroning javonmardlik g‘oyalarini va shaxsiy ibratini Pahlavon Mahmudning ijodida yuksak bosqichga ko‘tarilganini kuzatamiz.

Alisher Navoiy Pahlavon Mahmudni hind podshohi kurashga taklif etganini, ammo uning borgisi kelmaganini, g‘oyibdan ishorat yetgachgina boranini yozadi. Pahlavon Mahmud Hindistonga borgach, o‘z qoidasiga ko‘ra kurash oldidan o‘sha yerdagi mo‘tabar mozorni tavof qiladi va u yerda bir kampirning nola qilib: “Xudoyo, bu kelgan pahlavon kurashchi

ma'rakasidan mening o'g'limni sharmanda chiqarmag'aysen!", degan ovozini eshitadi. Pahlavon kurashda bu kampirning o'g'liga yiqilib berishga qaror qiladi. Bu bilan Pahlavon Mahmud hind podshohi tomonidan beriladigan katta boylikdan o'z nafsini tiygan edi. Navoiy yozadi: "Podshoh ulug' ma'raka (maydon) yasab, Pahlavonni tilab, ul kurashchi bila kurashga solganda Pahlavon o'zi bila muqarrar qilg'ondek, bir-ikki hamla talashg'ondin so'ngra harif (raqib) ilgida yiqulur. Mundoq manquldurki, uchasi (yelkasi) yerga tegib, ko'zi ko'kka tushgach, hijoblar murtafi' bo'lub (pardalar ko'tarilib), malakut olami ko'ziga jilvagar bo'lub, ul podshoh ham murod-u maqsadiga yetar". Demak, o'z nafsini tiygan, mol-mulkdan, boylikdan voz kechgan, o'zini Allohga tavakkal qilib topshirgan buyuk avliyoga Alloh ham o'z marhamatini va inoyatini darig' tutmaganini ko'ramiz. Pahlavonning hurmatini saqlagan podshoh uni ovga taklif etadi. Ovning ketidan chopib, qoyadan yiqilishi muqarrar bo'lgan podshohni o'limdan qutqargan Pahlavonga hayrat bilan: " muncha tengsiz kuch bila ajab erdiki, ul kurashchidan yiqilding", – deganda Pahlavon quyidagi ruboiyni aytadi:

O'z nafsingga bo'lg'in amir – shunda mardsan,
O'zgalarga bo'lma haqir – shunda mardsan,
Yiqilganni tepib o'tish mardlik emas,
Aftodaga bo'lsang dastgir – shunda mardsan.

"Hazrati Pahlavon ota hikoyatlari"da Pahlavon Mahmud hind shohi Roy Rapoy Junani o'limdan qutqarib qolagani, xizmati evaziga Hindistonga olib ketilgan xorazmliklarni o'z vatanlariga qaytargani aytiladi.

Manbalardan ma'lum bo'ladiki, Pahlavon Mahmud javonmardlik (javonmardiy – arabcha futuvvat) oqimining ulkan namoyandalaridan biri bo'lgan. Farididdin Attorning "Tazkirat ul-avliyo"sida izoh berilishiga qaraganda, bu oqimning asosini saxovat, shafqat, xalqdan beniyozlig-u, xalqqa niyozmandlik tashkil etadi. Alisher Navoiy ta'biri bilan aytganda:

Muruvvat barcha bermoqdur, yemoq yo'q,
Futuvvat barcha qilmoqdur, demoq yo'q.

Eron olimlaridan Said Nafisiy "Sarchashmai tasavvuf dar Eron" nomli asarida: "Futuvvat – javonmardlik oqimining ulug' peshvolaridan biri mashhur shoir Pahlavon Mahmud Xorazmiydir", – deb ta'kidlaydi.

Pahlavon Mahmud pahlavonlarni tarbiyalovchi ustozgina bo‘lib qolmay, balki javonmardlik odobini o‘rgatuvchi pir ham edi. Javonmardlik o‘rta asrlarda musulmon mamlakatlarida keng tarqalgan g‘oyaviy oqimlardan biri bo‘lib, insonparvarlikning yuksak namunalarini o‘zida ifoda etdi. Taniqli tasavvufshunos olim, prof. N.Komilov javonmardlikni “mardlik dasturi” deb ta’riflagan edi. Javonmardlar oddiy xalq ichidan chiqqan hunarmandlar, sipohiyalar, ko‘chalarda tomosha ko‘rsatuvchi xalq teatrlari vakillari, pahlavonlar, qiziqchilar va boshqa toifalardan tashkil topgan. Javonmardlar mazlumlarni zolim shohlar, mahalliy hokimlardan himoya qilish, moddiy yordam ko‘rsatishdan tashqari, uyushib tashqi dushmanlarga qarshi kurashganlar ham. Javonmardlikning oliy namunasi – Vatanni himoya qilish bo‘lgan. Shuning uchun olimlar Abu Muslim, Muqanna, Ya‘qub ibn Lays, Mahmud Torobiylarni arab istilochilari va mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi janglarda boshchilik qilgan qahramonlarni javonmardlardan deb ataydilar. Ibn Battutaning sarbadorlarni javonmardlardan deb aytishi ham shundan. Husayn Voiz Koshifiy “Futuvvatnomai sultoniyy” asarida shunday yozadi: “Bilgilkim, “futuvvat” (javonmardlik) so‘zining lug‘aviy ma’nosi yoshlik, demak yosh yigitni “fatiy” derlar. Ba’zilar bu so‘zga izoh berib, futuvvatni javonmardlik deganlar. Istiloh sifatida futuvvat deb omma orasida yaxshi sifatlar va namunali axloq bilan mashhur bo‘lishni aytadilar, shu vajdankim, bunday odam hamisha axloqi bilan o‘z kasbdoshlari, toifa-tabaqasi orasida mumtoz bo‘ladi”.

Pahlavon Mahmudning tug‘ilish sanasi biror-bir manbada ko‘rsatilmagani holda vafoti 722-hijriy (1322-milodiy) ekanligi eslab o‘tiladi. Shoirning vasiyatiga ko‘ra shogirdlari uni o‘zining po‘stindo‘zlik do‘koni yaqiniga dafn etganlar. Keyinchalik u qabr ustida maqbara tiklanib, avliyo poyiga Qo‘ng‘irot urug‘idan bo‘lgan Xiva xonlari ko‘milgan. Maqbara devorlari shoir ruboiylari bilan bezatilgan. Bu maqbara nodir me’morchilik yodgorligi sifatida mana necha asrdiki, barchaning diqqatini o‘ziga tortib kelmoqda. Dunyoning turli burchaklaridan kelayotgan sayyohlar bu buyuk insonning qabrini ziyorat qiladilar.

Pahlavon Mahmud Sharq adabiyotida alohida o‘rin egallaydi. “Qitoli” – “jangchi”, Mahmud Puryoyvaliy taxalluslari bilan fors tilida ijod qilgan.

XV asrda tuzilgan “Majolis ul-ushshoq”dan boshlab barcha tazkiralarda shoirning “Kanz ul-haqoyiq” (“Haqiqatlar xazinasini”, hijriy 703, milodiy 1304) nomli masnaviysi borligi aytiladi. Yoqubjon Is’hoqovning ma’lumot berishicha, 1967-yili Eronda Said Muhammad Safir mazkur asarni Mahmud Shabustariyga nisbat berib nashr ettirgan bo’lsa-da, biroq birorta manba Shabustariyning shunday nom bilan asar yozganligini tasdiqlamaydi, balki barcha manbalarda Pahlavon Mahmudning “Kanz ul-haqoyiq” nomli asar yozganligi ta’kidlanadi³. 1299-hijriy (1881-yilda) Bombayda nashr etilgan “Otashkadai Ozariy” nomli mashhur Sharq tazkirasida ham Pahlavon Mahmud haqida quyidagilar yozilgan: “Ismi Pahlavon Mahmud, Puryoyvaliy laqabi bilan shuhrat topgan, uning pahlavonlik ovozi olamni tutgan, o’z asrining yagonasi bo’lgan. She’riyatda qudratli, “Kanz ul-haqoyiq” nomli masnaviysi bor. Keyingi vaqtlarda tasavvuf mavzuida yozgan ruboiylari ancha yaxshi chiqqan”.

“Kanz ul-haqoyiq” tasavvuf masalalariga doir she’riy muhokama yuritishga bag’ishlangan falsafiy masnaviylar jumlasidan bo’lib, asarning ko’p o’rinlarida muallif o’zining ilohiy-irfoniy o’y-mulohazalarini kichik hikoya va rivoyatlar yordamida ifodalashga harakat qiladi. Shu jihatdan mazkur masnaviy Jaloliddin Rumiy va Farudiddin Attorning ijodiy an’analarini zaminida yaratilgan o’ziga xos falsafiy-axloqiy doston hisoblanadi.

Pahlavon Mahmud ruboiylarining Muhammad Rahimxon Feruz, shuningdek Hasan Murod Qori va boshqa xattotlar tomonidan ko’chirilgan nusxalari ham borligi ma’lum. “Hazrat Pahlavon hikoyatlari”, “Manoqibi Pahlavon Mahmud” kabi risolalar alloma hayoti haqida xabar beradi.

Pahlavon Mahmud ijodidan ilhomlangan O’zbekiston xalq shoirlari Abdulla Oripov, Omon Matjon, manbashunos olim Mahmud Hasaniylar go’zal asarlar yaratdilar. Ayniqsa, Omon Matjonning “Pahlavon Mahmud” nomli dramatik dostoni o’zbek adabiyotida o’ziga xos iz qoldirdi va ijodiy jamoatchilik e’tirofiga sazovor bo’ldi.

Pahlavon Mahmud hayoti va ijodini o’rganish, ruboiylarini topib, xalqqa yetkazishda taniqli olim va zabardast mutarjim To’xtasin Jalolovning xizmatlari katta. T.Jalolov 1962-yilda Pahlavon Mahmud ruboiylarini

³ Qarang. Маҳмудов Ж., Карамий М. Манбаларда Пахлавон Маҳмуд Пурёввалий зикри. — Тошкент, 2007. — Б.84.

alohida kitob holida nashr ettirdi. Shoir ruboiylarini, shuningdek, Muin-zoda, Vasfiy, Ulfat (Imomiddin Qosimov), Boqir (Omonnulla Valixonov), Sh.Shomammedov, M.Abdulhakim, E.Ochilov kabi tarjimonlar ham tarjima qilganlar. Ayniqsa, M.Abdulhikimning 400 dan ortiq ruboiylarni to‘plab, tarjima qilib, nashr etishi va “Yaldoni yoritgan nur”, “Iymon tuhfasi” risolalari keng jamoatchilikning e’tirofiga sazovor bo‘ldi.

Y.Ishoqov, H.Homidiy, N.Komilov, S.S.Buxoriy, M.Hasaniy, Y.Jumaboyev J.Mahmudov kabi olimlar bu buyuk vatandoshimiz adabiy merosi va tarjimayi holini ma’lum darajada tadqiq etganlar. 2006-yilda Jasurbek Mahmudov “Pahlavon Mahmud hayoti va adabiy merosining matniiy tadqiqi”ni amalga oshirdi.

Shoir ruboiylarining mavzu doirasi, timsollar tarkibi. Pahlavon Mahmud qalamiga mansub ruboiylar uning adabiy merosidan namuna sifatida bizgacha yetib kelgan noyob badiiyat durdonalaridir. Shoir she’riy merosi jami 480 misrani tashkil etadi.

Pahlavon Mahmud ruboiylari badiiy tasvir vositalariga boy, xalqona sodda va yengil uslubda, ifoda tarzi aniq va lo‘nda, o‘ynoqi, sershiddat tuyg‘ularga yo‘g‘rilgan. Barcha Sharq shoirlari kabi Pahlavon Mahmud ham ikki ulug‘ manba – Qur’oni karim va Hadisi sharifdan ta’sirlangani, ulardan ilhomlanib qalam tebratgani qudsiy nafas ufurib turgan ruboiylaridan shundoqqina sezilib turadi. Ayniqsa, ilohiy ishq tarannum etilgan va vahdati vujud falsafasini tushuntirishga bag‘ishlangan she’rlarida bu narsa yaqqol ko‘zga tashlanadi. Lekin shoir faqat ilohiy mavzular bilangina chegaralanmay, zaminiy dardni ham qalamga olgan. Pahlavon Mahmud ruboiylarida ilohiy va dunyoviy dard ko‘pincha birga, o‘zaro qo‘shilib zuhur etadi.

N. Komilov: “Pahlavon Mahmud ruboiylarini to‘rt guruhga bo‘lish mumkin: birinchisi – zamona ahlidan nolish, ijtimoiy tengsizlikni ifodalovchi ruboiylar; ikkinchisi – tariqat suluki haqida yozilgan ruboiylar; uchinchisi – vahdati vujud falsafasi asoslarini tushuntiruvchi ruboiylar va to‘rtinchisi – ilohiy ishqni tarannum etgan ruboiylar”, – deb yozgan edi. Kezi kelganda, biz shu paytgacha shoirning axloqiy qarashlariga nisbat berib tadqiq etgan pand-nasihat ruhidagi ruboiylari aslida futuvvat ruknlarining she’riy ifodasidan iborat ekanligini ta’kidlab o‘tish lozim. Ha,

bunday she'rlarida u javonmardlar axloqini targ'ib etgan, ulardan ibrat olishga chaqirgan⁴:

Qumursqa bo'l, fil kabi gar zo'r bo'l sen,
Kimxobda aziz bo'l-u yupun, hur bo'l sen.
Ko'zingni ochib jahonda bor ayblarning
Barchasini ko'rib tur-u, ko'r bo'l sen.

Pahlavon Mahmud o'z asrining donishmandi edi, u o'zining uzoq umri davomida hayotni mushohada etib, to'g'ri xulosalar chiqargan, bu hol uning ruboiylarida yorqin aks etib, ularni hikmat darajasiga ko'targan. Mana shulardan biri:

Qora tosh sira ham bo'lmas lojuvard,
Toza qalbg'a yuqmas aslo chang-u gard,
Quloq solgin Puryoyvaliy so'ziga,
Qo'rloqlardan biron chiqqanmidi mard!

Darhaqiqat, yomon odamdan faqat yomonlik, yovuzlik kutish mumkin, mardlikka, vullomatlikka, ezgulikka u qobil emas!

Pahlavon Mahmudning nodonlardan, johillardan nafrati shu qadar zo'rki, uni shoirning o'z so'zi bilan aytmasdan boshqacha ta'bir bilan tushuntirish imkoni mahol. Mana u nima deydi:

Uch yuz Ko'hi qofni kelida tuymoq,
Dil qonidan bermiq falakka bo'yoq.
Yoinki bir asr zindonda yotmoq –
Nodon suhbatidan ko'ra yaxshiroq.

Shoir ruboiylarining g'oyaviy-falsafiy, badiiy xususiyatlari va mazmun-mohiyati. Pahlavon Mahmud ruboiylari uning xalq orasida shoir sifatida shuhrat qozonishini ta'min etdi. Shoir ijodida Xorazmda Najmiddin Kubro boshlab bergan javonmardlik tariqati hayotbaxsh g'oyalarining badiiy ifodasi ko'zga yorqin tashlanadi. Javonmardlik tariqati musulmon dunyosida o'ziga xos bir insonparvar ta'limot sifatida keng tarqalgan. Unda halimlik ulug'lanadi, saxovat, shafqat, ta'madan yiroq turish, muhtojlar g'amiga sherik bo'lish kabi yuksak insoniy fazilatlarga da'vat etiladi. Shoir ruboiylarida nafs insonning eng katta dushmani sifatida talqin qilinadi.

⁴ <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-she-riyati/fors-tojik-she-riyati/pahlavon-mahmud-1247-1326>

Inson nafsdek qattol dushmanidan doimo g'olib kelishga harakat qilmog'i lozim, deydi shoir ruboiylaridan birida.

Oh tortgan chog'ingda yo'lga ko'z tikkil,
Yo'lda quduq border, ehtiyoting qil.
Do'st uyida mahram bo'lgan chog'ingda,
Qo'lingni, ko'zingni, dilni tiya bil.

Pahlavon Mahmud mazkur ruboiyda nihoyatda muhim mavzudan bahs etadi. "Oh tortgan chog'" deganda shoir kishi boshiga tushgan kulfatlarni nazarda tutadi. Shunday chog'da inson, tabiiyki, yo'lga ko'z tikib, yaqin kishilaridan shu holatdan chiqib ketishi uchun biror madad kutadi, najotga katta umid qilib yashaydi. Biroq buni hayot deydilar, unda turli quduqlar mavjud. "Quduqlar" shoir satrlarida, majoziy ma'no tashiydi. Unda inson murakkab ruhiy iztiroblar girdobida qolganda, musibatzaada insonning ana o'shanday holatidan quvonadigan notavon, nokas shaxslar nazarda tutiladi. Shoir ta'kidicha, ulardan doimo ehtiyot bo'lmoq kerak. Ruboiyning keyingi misralarida esa shoirning tayanch g'oya, niyati o'z ifodasini topgan. Unda do'st uyida mehmon bo'lganda, qo'lni, ko'zni, dilni tiyib turish kerakligi ta'kidlanadi. Bu tasavvuf ta'limotidagi var'a maqomini boshidan kechirayotgan solikning oldida turgan burchlariga uyg'un keladi. Ayni maqomda solikdan qo'l var'asi, ko'z var'asi hamda qalb var'asiga qat'iy rioya qilmoq talab etiladi. "Var'a" – arabcha so'z bo'lib, "parhez qilmoq" ma'nosini anglatadi. Bu maqomda bo'lgan solikning qo'li nopokliklardan xoli bo'lishi, ko'zi nomahramga qarashdan tiyilishi hamda solik qalban ma'n etilgan ishlarni qilmasligi lozim. Ko'rinadiki, shoir ruboiyda o'zining oliyjanob axloqiy-ta'limiy mohiyat kasb etuvchi fikrlarini badiiylashtirgan. Bunday ruboiylarni Pahlavon Mahmud ijodida ko'plab uchratish mumkin.

Shoirning abadiy uyqudayotgan manzili – maqbarasining ziyoratgohga aylanishi, xalqimizning yuksak badiiy salohiyat sohibi bo'lgan so'z san'atkori, orif shaxs hamda saxovatli insonparvar Pahlavon Mahmudga hurmatining ramziy ifodasidir.

Savol va topshiriqlar

1. Pahlavon Mahmudning hayoti va ijodiy merosi haqida nimalarni bilasiz?

2. “Kanz ul-haqoyiq” qanday asar?

3. Alisher Navoiyning qaysi asarida Pahlavon Mahmud haqida ma’lumot keltiriladi?

4. Shoir ruboiylarining mavzu doirasi, timsollar tarkibi haqida ma’lumot bering.

5. Shoir ruboiylarining g‘oyaviy-falsafiy, badiiy xususiyatlari va mazmun-mohiyatini tushuntiring.

RABG‘UZIY HAYOTI VA IJODI

REJA:

1. Rabg‘uziy va uning “Qisasi Rabg‘uziy” asari.
2. “Qisasi Rabg‘uziy” asarining mavzusi, mundarijasi.
3. Asardagi qissa va hikoyatlar, ularning mazmun-mohiyati, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari.

Tayanch so‘z va iboralar: *“Qisasi Rabg‘uziy”, Nosiruddin To‘qbug‘abek, “Qisasi Odam – safiy alayhissalom”, Sulaymon va qarinchqa, Luqmoni hakim, Sulaymon va Bilqis, Sulaymon uzugi, Sulaymon taxti.*

Rabg‘uziy va uning “Qisasi Rabg‘uziy” asari. Islomni turkiy qavmlar orasiga keng yoyish, payg‘ambarlar hayoti bilan ommani tanishtirish va bu payg‘ambarlar tarixiga oid asarlarni yaratish Oltin O‘rda hukmdorlaridan bo‘lmish Berkaxon (1256-1266) hukmronligi davridan boshlandi. Payg‘ambarlar, avliyolarning hayot yo‘li, faoliyati, mo‘jizalari va boshqa qator xususiyatlari haqidagi asarlar agiografik asarlar deb yuritiladi. “Qisasi Rabg‘uziy” ana shunday asarlardan hisoblanadi.

Yuksak iste’dod sohibi bo‘lgan Nosiruddin Rabg‘uziyning hayoti va ijodi to‘g‘risida biron tarixiy yoki adabiy manbada ma’lumot saqlanib qolmagan. Bu ijodkor haqidagi qisqa ma’lumotni “Qisasi Rabg‘uziy”dan topish mumkin.

Asar inson zotini Olloh Taolo yaratgani, avvalo xotinni emas, erkak zotini yaratgani, insonni yovuz yo‘ldan qaytargani va pok yo‘lga solgani haqidagi hamd-u sano bilan boshlanadi. Shundan so‘ng Muhammad Mustafo sallallohu alayhi vasallam madhi va u zotga bag‘ishlangan bir g‘azal keltiriladi. Chamasi, Rabg‘uziy bu g‘azalni o‘zi yozgan⁵. Shundan so‘ng “Qisasi Rabg‘uziy” musulmon dinini qabul qilgan e’tiborli mo‘g‘ul bekларidan hisoblangan Nosiruddin To‘qbug‘aning iltimosiga ko‘ra Xorazmdagi Raboto‘g‘uz degan joyning qozisi Burxonuddin o‘g‘li Nosiruddin tomonidan yozilganligi bayon etiladi.

⁵ Rahmonov N. O‘zbek adabiyoti tarixi (Eng qadimgi davrlardan XV asrning birinchi yarmigacha). – Toshkent: Sano-standart, 2017, B. – 231.

XIV asrda Xorazmning Raboto‘g‘uzida yashagan Nosiruddin Burhonnuddin Rabg‘uziyning shaxsi, u yashagan joy haqida izlanish olib borayotgan olimlar To‘qbug‘a beklik qilgan qal‘a – Raboto‘g‘uz hozirgi davr yodgorliklari ro‘yxatida To‘qqal‘a nomi bilan qayd etilib, u hozirgi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Nukus tumanida joylashganligini⁶ aniqlashdi.

Adib Nosuruddin To‘qbug‘ani: “...toj ul-umaro va muhibbul-ulamo beklar urug‘i, yigitlar arig‘i (pokiza), ulug‘ otlig‘, qutlug‘ zotlig‘, ezgu xulqlig‘, islom yorig‘lig‘, mo‘g‘ul sanilig‘, musulmon dinlig‘, odamiylar inonchi, mo‘minlar quvonchi, himmati adiz (baland), aqli tegiz begimiz”, – deb ulug‘laydi.

Nosiruddin Rabg‘uziy asarning muqaddimasida uning yozilish sabablarini ham bayon etgan: “... payg‘ambarlar qissalariga g‘oyat rag‘batim bor. Tekma yerda, tekma kim ersada bo‘linur ba‘zisi mustaqim bor, ba‘zisi nomustaqim. Bir onchasi muqarrar va bir onchasi mubattar bor. Bir ozining so‘zlari kesuk bor, bir ozining maqsudlari o‘ksuk. Emdi sanung zim-mangdin chiqq‘an, qalamungdin oqq‘an, kitobatma saning, iboratma saning bo‘lib bizga “Qisas ul-anbiyo” bo‘lsa, o‘qumoqq‘a keraklik, o‘rganmakga yarog‘lig‘ bo‘lg‘ay erdi, teb iltimos yanglig‘ ishorat bo‘ldi ersa, nechama o‘zumni ul ishga loyiq, ul amalga muvofiq ermasin bilmish erkan o‘zumni og‘irlab nafs saqlamish bo‘lub o‘g‘ur bo‘lsun teb, bu og‘ir ishga o‘g‘radimiz. Izi azza va jalladan tamom bo‘lg‘ug‘a tavfiq tilab kitob boshladimiz”⁷. Ko‘rinadiki, payg‘ambarlar qissalariga rag‘bati bo‘lgan ijodkor g‘oyat ulug‘ ishga kirishadi. Rabg‘uziy keltirgan ma‘lumotlardan shu narsa anglashiladiki, To‘qbug‘a payg‘ambarlar tarixiga bag‘ishlangan qissalardan yaxshi xabardor. Shuning uchun To‘qbug‘abek unga payg‘ambarlar to‘g‘risida asar yaratishni iltimos qilishdan oldin bu xildagi qissalarning mazmuni va shakli to‘g‘risidagi fikrlarini bildiradi. Payg‘ambarlar to‘g‘risidagi ba‘zi asarlar to‘g‘ri, ba‘zilari noto‘g‘ri,

⁶ Зоҳидов П. Кун туғардин кун ботарға сўзи етган зот // Ўзбек адабиёти ва санъати. – Тошкент, 2002. – 2- февраль. – Б. 2; Абдушукуров Б. Эски туркий тили адабий тил лексикаси. – Тошкент: Тафаккур бўстони, 2015. – Б. 9.

⁷ Носируддин Бурхонуддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. 1 жилд. – Тошкент: Ёзувчи, 1990. В. – 11. (Keyingi o‘rinlarda shu manbaga murojaat etilganda, qavs ichida jildi va sahifasi ko‘rsatiladi)

ayrimlari nuqsonli, ba'zilarida kamchiligi borligini uqtiradi. Asarga "Qisasi ar-Rabg'uziy" deb nom qo'yganini muallifning o'zi qayd etadi. (I. 11)

Asar muallifining bundan ko'zda tutgan maqsad-muddaosi quyidagicha muxtasar ifodalangan: "Munda maqsud payg'ambarlar qissasi erdi valekin Odamdin burunroq yaratilg'an bor uchun andin boshlasamiz foydasi ortuqroq bo'lg'ay, deb tartib uza yaratilganlardin og'oz qildimiz. Ertikliga o'ngay, istakliga tebray bo'lsun teb "Qisasi ar-Rabg'uziy" ot berdimiz". (I. 11)

Nosuriddin Rabg'uziy asarning yozilish tarixi haqida quyidagicha ma'lumot beradi:

O'sh bitidim, bu kitobni, ey eranlar, er bo'zi,
Bir yil ichra kechti aning yeyi, qish, yozu, kuzi.
Uyqu buzdum, o'zum uzdum, so'zni tuzdum tun-la man,
Erta qo'ptum, xoma urdum, emgandim tun-kunduzi...
...Yetti yuz o'n erdi yilg'akim bitildi bu kitob,
Tug'mish erdi ul o'g'urda hut saodat yulduzi. (II. 216 -217)

Nosiruddin Rabg'uziy asarni bir yillik tinimsiz ijodiy mehnatdan so'ng hijriy 710-yilning hut oyida nihoyasiga yetkazadi. (Hut hijriy-shamsiy taqvimning so'nggi oyi sanaladi. Buni milodiy hisobga aylantiradigan bo'lsak, 1332-yilning fevral- mart oylariga to'g'ri keladi. Biroq ayrim ishlarda, jumladan, E.Fozilov "Qisasi Rabg'uziy" kitobiga yozgan so'zboshisida asar hijriy hisob bilan 710-yilning hut oyi va melodiy hisob bilan 1310-yilda yozilgan, deya ta'kidlaydi (I.7). Bunday xatolik hijriy-qamariy yilni milodiyga aylantirishdan kelib chiqqan⁸.)

Rabg'uziy asarni yozishda Qur'ondan, Abu Is'hoq Nishopuriyning forsha "Qisas ul-anbiyo"sidan, Vahb ibn Munabbihning arab tilidagi "Ka'b ul-axbor" (mil.728) asaridan foydalangan. Shuningdek, Sharqda yaratilgan va mashhur bo'lgan "Qisas ul-anbiyo" faqat shulardan iborat emas. Saxi bin Abdulloh at-Tustariy (mil. 896), Muhammad bin Abdulmalik al-Musabbihiy al-Xoroniyy (mil. 1029) ham arab tilida "Qisas ul-anbiyo" yozganlar. Rabg'uziyyning "Qisasi Rabg'uziy" asari boshqa "Qisas ul-anbiyo"lardan faqat tuzilishi va til jihatidangina emas, balki muallifning biron dalilni

⁸ Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi, 2006. B. – 107-108.

tasdiqlash yoki rad qilish uchun sinchkov olim sifatida munosabat bildirgani bilan ham farq qiladi.

“Qisasi Rabg‘uziy”ning XV asrda ko‘chirilgan eng qadimgi qo‘lyozma nusxasi Britaniya muzeyida, XV-XVI asrlarda ko‘chirilganligi taxmin etilgan asarning xuddi shunday yana bir nusxasi esa Sankt-Peterburgda saqlanadi.

“Qisasi Rabg‘uziy” XIX asrning II yarmi va XX asrning boshlarida Qozon va Toshkentda bir necha marta toshbosma usulida nashr qilingan. Asarning to‘la matni 1959-yilda Qozon shahrida rus turkshunos olimi N.I.Ilminskiy tomonidan chop etilgan. E.Fozilovning qayd etishicha, mazkur mo‘tabar adabiy yodgorlik V.Radlov, V.Tomsen, P.Melioranskiy, S.Malov, V.Kotvich, A.Fon, Gaben, G.Romstedt, A.Kononov, P.Sime, Basim Atalam, E.Najib, Rahmati Arat singari sharqshunos olimlar diqqatini o‘ziga tortgan va ularning bir qator ilmiy tadqiqotlarining vujudga kelishiga sabab bo‘lgan (I. 5).

Shuningdek, asar va uning muallifi ijodi bo‘yicha U.Mirzakarimova, T.G‘ofurjonova, B.Sarimsoqov, I.Haqqulov, M.Jo‘rayev, Sh.Turdimov, N.Jabborov, M.Jo‘rayeva, X.Rasulev, M.Abduvohidova, N.Hasan, M.Kurbaniyazov, I.Ostonaqulov, H.Safarova, Z.Masharipova, B.Abdushukurov kabi qator olimlar ilmiy izlanishlar olib borganlar.

“Qisasi Rabg‘uziy” 1990-1991 yillarda E.Fozilov, A.Yunusov, H.Dadaboyev, Y.Shokirov kabi olimlarimizning sa’y-harakatlari bilan ikki kitob holida sharh-u izohlar va lug‘at bilan Toshkentda nashr etilgan.

“Qisasi Rabg‘uziy” asarining mavzusi, mundarijasi. Ma’lumki, Nosiruddin Rabg‘uziy “Qisasi Rabg‘uziy” asarini yozish bilan adabiyotimiz tarixida badiiy nasrning ilk va nodir namunasini yaratdi. Bu asar tuzilishi jihatidan ham, mazmuni, g‘oyaviy yo‘nalishi, obrazlar tizimi, badiiy nafosati, turli adabiy janrlar, poetik unsurlarning qorishib kelishi nuqtayi nazaridan ham o‘ziga xos manbadir. Mazkur yodgorlik mavzu nuqtayi nazaridan boshqa shu silsiladagi asarlardan farq qiladi. Unda adib syujet, voqea-hodisalarni aynan keltirmay, ularni o‘z ijodiy niyati, ijtimoiy-ma’rifiy ideali bilan chambarchas bog‘liq holda tasvirlaydi. Inson umri, jamiyat taqdiri va ularning bir-biri bilan uzviy bog‘liqligi hayotiy voqealar

tasviri yordamida ochib beriladi. Demak, bu kitob turkum syujetli badiiy ijod namunalariga yaqin turar ekan.

“Qisasi Rabg‘uziy” 72 qissadan tarkib topgan. Asar hamd, na’t, muqaddima, lirik kechinmalar va xotima kabi tarkibiy qismlardan iboratdir. Qissalar nasrda, ulardan joy olgan ba’zi lirik kechinmalar, hikoyatlarning xulosalari va asar xotimasi nazmda ijod etilgan. Nosuriddin Rabg‘uziy Qur’oni karimda payg‘ambarlar haqida kelgan qissa va hikoyatlarni qayta ishlab, sayqal berib, takomillashtirgan. Manbalarda ta’kidlanishicha, ijodkor Qur’oni karimda mavjud bo‘lmagan qissalarni yozishda bir qator mumtoz sarchashmalardan, jumladan, Abu Is’hoq Nishopuriyning “Qisas ul-anbiyo” asaridan va islom diniga oid boshqa manbalardan foydalangan.

Asardagi qissa va hikoyatlar, ularning mazmun-mohiyati, g‘oya-viy-badiiy xususiyatlari. Asarning ilk qissasi olam, turli mavjudotlar, ins-u jins, dev, parilarning yaratilishi haqidadir. Ushbu qissada Tangrining buyukligi ulug‘lanadi. Adib olamning yaratilishini quyidagicha muxtasar bayon qiladi: “Xabarda andog‘ kelur: yakshanba kun ko‘klarni yaratti, dushanba kun oyni, kunni, yulduzlarni yaratti, falak ichinda turitti, seshanba kuni olam xalqidan qush-qurtlarni, farishtalarni yaratti, chahorshanba kun suvlarni yaratti, yerlarni, bulutlarni chiqardi, yig‘ochlarni, o‘t-emlarni yaratti, undirdi. Ro‘zilarni ulashturdi. Panjshanba kuni ujmo (jannat), tamug‘ni (do‘zax, jahannam), rahmat va azob farishtalarini, hurlarni yaratti. Azina (juma) kun Odamni yaratti. Shanba kuni narsa yaratmadi. Bu qamug‘ narsalarni taqi ming muncha narsalarni ko‘z yumub ochg‘uncha yaratg‘u yarog‘i bor erdi...» (I, 12) Mumtoz adabiyotda juda ko‘p e’tirof etilgan mazkur fikrlarni Nosuriddin Rabg‘uziy juda ixcham ifodalagan. Bunda Yaratuvchi zoti va sifatlarining cheksiz ekanligi va buyuk yaratuvchanlik xususiyati yaqqol ko‘zga tashlanadi. Asardagi qolgan qissalar Odam, Nuh, Muso, Iso, Ya’qub, Yusuf, Dovud, Sulaymon, Muhammad alayhis-salom kabi payg‘ambarlarga bag‘ishlangan. “Qisasi Rabg‘uziy”dagi Shis, Muso, Solih, Yusuf, Muhammad alayhis-salom va boshqa payg‘ambarlar haqidagi qissalar hajm jihatidan ancha katta bo‘lib, ular bir necha fasl – bo‘limlardan tarkib topgan. Shuningdek, asarda kichik hajmli qissa – hikoyatlar ham bor.

“Qisasi Rabg‘uziy”da dastlab payg‘ambarlarning fazilat, kashf-u karomatlari bayon qilinib, so‘ngra aksariyat holatlarda o‘sha Alloh

elchilarini ulug'lovchi she'rlar keltiriladi. Keyin esa nasrda nabi-yu rasullarning sarguzashtlari hikoya qilinadi. Bu holat deyarli barcha qissalar uchun mushtarakdir. Jumladan, "Qisasi Odam safiy alayhis-salom"da bu ilk payg'ambarning tuproqdan yaratilgani, yuksak ko'kka otilgani, ujmoh (jannat) ichiga kirgani, Havvodek juft berilgani, iblis vasvasasiga ilingani, yorug' jannatdan ayrilib, qorong'u dunyoga kelgani kabi sarguzashtlari bayon etiladi. Shundan so'ng zikri o'tgan voqealarning ixcham bayoni aks etgan she'riy parcha keltiriladi. Ana shunday tafsilotlardan keyin Odam alayhis-salom haqidagi qissaning mazmunini hikoya qilish boshlanadi. Alloh Odamni yaratishni istadi va Jabroilga borib yerdan bir hovuch tuproq olib kelishni buyuradi. Jabroil yerdan tuproq olmoqchi bo'lganida, yer unga mendan tuproq olmagil deb ont beradi. So'ngra shu maqsad bilan Isrofil, Mekoil yerga keladi, har ikkalasiga ham yer Jabroil bilan bo'lgani kabi ont beradi. So'ngra Azroil kelib: "Saning ontingdan manga mavlo taolo yorlig'i azizrak turur", – deb yer yuzidan bir hovuch tuproq oladi. Alloh taolodan nido keladi: "Ey Azroil, nihoyat qattiq ko'ngilluk ermishsan. Taqdir andoq qildim, qamug' tanlig'larning jonin senga oldirg'ayman". Ko'rinadiki, Rabg'uziy o'z asarida nega islom diniga ko'ra barcha mavjudotlarning jonini olish Azroilga topshirilgan, degan va butun insoniyatni qiziqtiradigan savolga lo'nda hamda ishonarli javob aytadi. Umuman olganda, ushbu qissada shu tarzda juda ko'p savollarga asosli javoblar beriladi. Jumladan, Odamning tuproqdan yaratilishiga shu ma'danning kamtarinligi, tavoze' qilib turishi bois bo'lganligi e'tirof etiladi. Shuningdek, Odam alayhis-salom jannatda turli noz-ne'matlarni ko'radi. Ammo o'ziga o'xshash mavjudot yo'qligidan ko'ngli to'lmagani uchun Alloh Odamni uzoq uxlatib, uning so'l qovurg'asidan Havvoni yaratadi. Zikri o'tgan jarayon qissada ishonarli badiiy lavhalarda ifodasini topgan. Rabg'uziy agar Parvardigor Odamni uzoq vaqt uxlatmasa, qovurg'asi og'rirdi va Havvoni o'ziga dushman deb bilardi, – deya o'zi qalamga olgan tafsilotlarga ishonchli izoh beradi. Shunday qilib, qissada Odam alayhis-salomga borliqdagi barcha mavjudotlarning nomlarini bilish nasib etganligi, uning jufti bilan jannatdagi hayoti, Odam, Havvo, Iblis, to'vus va ilonga jannatdan chiqish haqida yorliq kelishi hamda boshqa voqealar tizimi o'quvchini ishontirarli darajada badiiylashtiriladi. Qissalarning o'ziga xos xususiyatlari ularning

hajman katta-kichikligi, tarkibida hikoyat, rivoyat, gʻazal va boshqa sheʼriy shakllar namunalarining turli miqdorda uchrashi kabi tashqi belgilardayoq namoyon boʻladi. Baʼzi qissalarda paygʻambarlarning ibratli hayotiy lavhalari bayon etilishi bilan bir qatorda zaminiiy voqealar tasviriga urgʻu berilsa, baʼzilarida koʻproq hozirjavoblik, donolik, ilm-maʼrifatni ulugʻlash, maʼnaviy-maʼrifiy fazilatlar ifodasi yetakchilik qiladi. Xususan, Sulaymon paygʻambar va Luqmoni hakim haqidagi qissalarda axloqiy-taʼlimiy qarashlar ifodasiga urgʻu berilganligi kuzatiladi. Sulaymon Dovud paygʻambarning oʻgʻli boʻlib, Dovud yalavoch (paygʻambar) oʻz oʻgʻlini duo qiladi: “Iziyo (Egam) meni haqimda koʻp lutf-u karam qilding, oʻgʻlim Sulaymon ham andoq-oʻq qilgʻil” (II, 32-33). Qissada bayon qilinishicha, Sulaymon paygʻambar Magʻribdan Mashriqqacha boʻlgan keng dunyoning yagona hukmdoriga aylanadi. U jamiki hayvonot-u parrandalarning tilini biladi. Dev-u parilar, ins-u jins barchasi Sulaymonning tasarrufida edi. Hattoki qachon Sulaymon togʻdan kechar boʻlsa, oʻsha togʻdagi oltin, kumush, xullas, qanday maʼdan namunasi bor boʻlsa, barchasi tilga kirib: “Men mundamen, kerak boʻlsa olgil” (II, 33) – derdi. Hatto, dengiz ham xuddi shunday qilar edi. Sulaymonning qimmatbaho toshlar bilan ziynatlangan ulkan naqshinkor taxti mavjud boʻlgan. Rabgʻuziyning taʼkidlashicha: “Taxt bir yigʻoch yer ichinda erdi. Ul taxtini oltin, kumush birla qilmish erdi”. Mana shu ulkan taxtni yel koʻtarib yurardi. Mazkur qissa ichida Sulaymon paygʻambar bilan bogʻliq ravishda uning shaxsi, fazilatlarini ochishga xizmat qiluvchi qissachalar ham keltiriladi. Ular orasida “Sulaymonning qarinchqa bilan soʻzlashgani” (II, 35-36), “Sulaymon va uchar otlar” (II, 36-38), “Sulaymon va Bilqis” (II, 47-54) hikoyalari alohida ahamiyatga ega. Oʻshalarga koʻra, Sulaymon bir kun taxtida oʻtirganida, yel uning taxtini koʻtaradi. Askarlari esa taxt ostida yurar edilar. Shunda Mindir ismli qarinchqa (chumoli): “Ey qarinchqalar, qoching, evlaringizga kiring, Sulaymon cherigi sizlarni bosib halok qilmasun”, – deydi. Shunda Sulaymon paygʻambar bu murojaatga qiziqib qolib, qarinchqa bilan savoi-javob qiladi. Ular orasida boʻlib oʻtgan gaplar gʻoyatda taʼsirchanligi bilan kishi eʼtiborini oʻziga jalb qiladi. “Qarinchqa aydi: “Mavlodin ne tilading?” Sulaymon aydi: “Andoq mulk tiladimki, mandin oʻzga kim ersa boʻlmasun”. “Bu soʻzdin hasad isi kelur, manga

bo'lsun, o'zgalarga bo'lmag'ay. Toqi ne tilading?" Ko'rinadiki, qarinchqa xudbinlikka qarshi va o'zaro tenglik tarafdoridir. Ikkinchidan, bunda Allohning barcha maxluqotni teng qilib yaratgani ta'kidlanadi. Keyingi savolga Sulaymon quyidagicha javob beradi: "Yelni tiladimki, manga musaxxar qildi, minib yururman. Astxardin Shomga, Shomdin Astxarga bir oylik yer turur. Kunda borurman ham kelurman". Qarinchqa aydi: "Ma'nisi ul bo'lur: Sening ilkingdagi mulkning qamug'i yel turur. Ani minguncha ma'rifat markabini minsang, senga yaxshiroq bo'lur. Ko'z yumub ochg'uncha bir soatda Arshga tekkay erding". Qarang, mitti maxluq qarinchqaning teran irfoniy javoblari har qanday kitobxonni ham mulohazaga chorlaydi. Ikkinchidan, asardagi qarinchqa obrazida orif kishi siymosi mujassamlashtirilgan. U hukmdor sifatida barchani ma'rifatli bo'lishga da'vat etadi. Zero, ma'rifat kishini saodatga chorlaydi. Qissadagi "Sulaymon va Bilqis" hikoyatida esa payg'ambarning dono, tadbirkor, ma'rifatli hamda islom dini targ'ibotchisi ekanligi badiiy ifodasini topganligi bilan diqqatga molikdir.

Hajman ancha qisqa bo'lgan Luqmoni hakim qissasi ham (II, 74- 75) Sulaymon hikoyati kabi xalq og'zaki ijodi ta'sirida yozilgan. Undagi hikoyatchalarda hozirjavoblik va donolik ulug'lanadi. Shunday hikoyatlardan birida tasvirlanishicha, bir kun Xojasi Luqmonni bug'doy ekishga yuboradi. Luqmon borib arpa ekadi. Luqmon aydi: "Arpa eksa, bug'doy unmasmu?" Xojasi aydi: "Unmas". Luqmon aydi: "Andoq bo'lsa sen ham yomonlik ekib, yaxshilik umid etmagil". Hikoyat juda qisqa bo'lishiga qaramay, unda g'oyatda katta hayotiy mazmun mujassamlashtirilgan. Jamiyatdagi illatlar juda qisqa munozaralarda fosh etilgan hamda zolimlarni adolatli bo'lishga, aks holda xalqdan ham, Yaratuvchidan ham umid qilmaslikka chaqirilgan. Asarda bulardan tashqari, juda ko'p axloqiy-ta'limiy hikoyatlar, latifalar mavjud. Rabg'uziy asarda o'z davrining iste'dodli ijodkori va katta hayotiy tajribaga ega donishmandi sifatida namoyon bo'ladi.

Nosuriddin Rabg'uziy o'zining katta yozuvchlik mahorati bilan mavzu jihatidan rang-barang yo'nalishdagi hikoyat, rivoyat va latifalarni yagona maqsadni yuzaga chiqarish uchun yo'naltiradi. O'zidagi donishmandlikni payg'ambarlarning o'ziga xos xususiyatlarini ma'lum bir ketma-ketlik

asosida ochib berishga xizmat qildiradi. Ulardagi rang-barang obrazlar ham yozuvchi maqsad-muddaosini o'quvchiga yetkazishga qaratiladi.

Asardagi hazrati Yusuf alayhis-salom qissasi o'zining badiiy jihatdan barkamolligi, pishiq yaratilganligi, hajman kattaligi bilan adibning yirik so'z san'atkori sifatida ko'rsatish huquqini beradi. Shuningdek, "Qisasi Rabg'uziy"ning hikoyat, latifa va qissalari tarkibiga o'zbek, arab, fors tilida yozilgan she'riy parchalarning kiritilganligi asar muallifining bilimdonligi hamda katta shoirlik iste'dodidan dalolat beradi. Rabg'uziyning she'rdagi mahorati, ayniqsa, tabiat manzaralarining badiiy tasvirini chizishda ravshan namoyon bo'ladi. Jumladan, hazrati Yusuf qissasi tarkibida kelgan g'azalda shoir bahor manzaralarining mukammal turkiy tasvirini bergan, deyish mumkin. Mazkur she'r turkiy g'azalning ilk namunasi ekanligi bilan ham ahamiyatlidir. Unda ijodkorning tashxis badiiy san'atidan mohirona istifoda etganligi aniq ko'zga tashlanadi:

Kun hamalga kirdi ersa, keldi olam navro'zi,
Kechti bahman zamharir qish, qolmadi qori, buzi.
Kun kelu ming ko'rki ortib, tirilur o'lmish jahon,
Tong badizlab naqshi birla bezanur bu yer yuzi
Tong otarda esnayur to'rt bulungdin shamol, ziyo
Kin tuzar kindik yipor, yizmanur yobon yozi
Yorligi epgun-bag'irdin obug'i yoshil, qizil,
Orasi butoq, yaburg'oq, tol chechaklar tub tuzi
O'rlassa bulutlari gulchirar bog'-u bo'ston,
Tol yig'ochlar yeng solishur o'ynayurtek qo'y-qo'zi
Kirshani qor qani englik boqsa tog'lar surati,
To'nliqi tantsuq yipordin Rum, Xitoy atlas, chuzi
Lola sag'roqin icharda sayrar usruk sanduvoch,
Turna un tortib o'tarda sahrshur baqlan qo'zi
Ko'kda o'ynar qo'l solishur qug'-u qoz qiz qarlig'och,
Yerda yugrub juft olishur os, tiying, kish qunduzi.
Tol yig'ochlar minbarinda to'ti qush majlis tutar,
Qumri, bulbul muqri bo'lib un tuzar tun kunduzi.
Yag'iz yer, ko'k megizlik yashnayur maydon bo'lub,
Og'rushim oytak chechaklar tegrasinda yulduzi.

Huri in ujmoh ichinda yeng solib tahsin qilur,

Yoz uza mundog' g'azallar aymishdi Nosir Rabg'uziy (I. 103-104)

“Qisasi Rabg'uziy”da badiiyat namunalari g'oyat yuksak bo'lgan she'riy parchalarni yana ko'plab uchratish mumkin. Ulardan shoir ba'zan payg'ambarlarni tavsiflashda, asar o'qishlilikini oshirishda, gohida esa qissalardagi voqealarga o'zining shaxsiy hissiy munosabatini ifodalashda foydalangan. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, “Qisasi Rabg'uziy” XIV asrda vujudga kelgan o'zbek nasrining ilk yirik namunasi sifatida mumtoz adabiyotimiz tarixida o'ziga xos mavqega ega adabiy yodgorlik sanaladi. Unda qalamga olingan mavzular mumtoz ijodkorlar asarlaridagi ilohiy timsollarning ramziy-majoziy xususiyatlarini teran anglashga imkon yaratadi. Asardagi she'riy parchalar turli adabiy janrlar, ayniqsa, g'azalchilikning turkiy badiiy so'z san'ati tarixidagi tadrijiy taraqqiyotini ko'rsatishda qimmatli manbadir.

Savol va topshiriqlar

1. Nosuriddin Rabg'uziy va uning “Qisasi Rabg'uziy” asari haqida ma'lumot bering.

2. “Qisasi Rabg'uziy” asarining mavzusi, mundarijasi haqida nimalarni bilasiz?

3. “Qisasi Rabg'uziy”dagi qissalarning mushtarak va o'ziga xos xususiyatlarini izohlang.

4. “Qisasi Rabg'uziy” asaridagi qissa va hikoyatlar, ularning mazmun-mohiyati, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari.

5. “Qisasi Odam safiy alayhis-salom” haqida ma'lumot bering.

6. “Sulaymonning qarinchqa bilan so'zlashgani” qissasi qanday g'oyalar ilgari surilgan?

XORAZMIY VA SAYFI SAROIY HAYOTI VA IJODI

REJA:

1. Xorazmiy va uning “Muhabbatnoma” asari.
2. “Muhabbatnoma” – turkiy adabiyotda “noma” janrining ilk namunasi.
3. Asarning janrlar tarkibi, badiiy xususiyatlari.
4. Sayfi Saroyi – lirik shoir, dostonnavis va tarjimon.
5. “Suhayl va Guldursun” dostoni va “Guliston bit-turkiy” asarining gʻoyaviy-badiiy xususiyatlari.

Tayanch soʻz va iboralar: Xorazmiy, “Muhabbatnoma”, Muhammad Xoʻjabek, noma janri, gʻazal, qitʻa, masnaviy, madhiya.

Xorazmiy va uning “Muhabbatnoma” asari. Xorazmiy oʻzbek mumtoz adabiyotining yirik namoyandalaridan biridir. Bu isteʼdodli ijodkorning hayoti va faoliyati, adabiy merosi haqidagi maʼlumotlar juda kam yetib kelgan. Shoirning hozircha bizga maʼlum yagona asari “Muhabbatnoma”ning muqaddima va xotimasida uning shaxsi qisman boʻlsa-da, oʻquvchiga tanishtiriladi.

Xorazmiyning “Muhabbatnoma” asari juda koʻp sharqshunos olimlarning eʼtiborini oʻziga qaratadi. Jumladan, A.M.Samoylovich, M.F.Koʻp-rulizoda, A.M.Shcherbak kabi horijiy tadqiqotchilar bu borada qiziqarli ilmiy izlanishlar olib borishdi. Shuningdek, oʻzbek adabiyotshunoslaridan S.Qosimov 1950-yilda Xorazmiy ijodi boʻyicha nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. Bulardan tashqari, N.Mallayevning “Oʻzbek adabiyoti tarixi”da va boshqa manbalarda shoir haqida maʼlumot beriladi. Xorazmiy ijodkorning taxallusi boʻlib, uning nomi hamon maʼlum emas. “Muhabbatnoma”da mazkur taxallus bir necha oʻrinlarda keltiriladi. Masalan:

Siza teb keldi, Xorazmiyni asrang,
Kim asrarlar qamuq shahlar gadoyi.
yoki:
Azalda qildi Xorazmiyni muhtoj,
Tagʻi manzurini sulton yarotti.

Shoirning hayoti va ijodi to‘g‘risidagi ba‘zi ma’lumotlarni asarning o‘zidan topish mumkin. Adabiyotshunos olim N. Mallayev “Muhabbatnoma”ning so‘ngida keltirilgan forscha hikoyani Xorazmiyning tarjimayi holi sifatida talqin qilgan edi. Undan ma’lum bo‘lishicha, Xorazmiy bu asarini Oltin O‘rda xoni Jonibekning (1342-1357) qo‘l ostidagi hukmdorlaridan bo‘lgan Muhammad Xo‘jabekning taklifi bilan 754 (milodiy 1353) yili yozgan. Muhammad Xo‘jabekning Xorazmiyga qilgan iltimos quyidagicha edi:

Tabassum qildi, aydi: “Ey faloni,
Keturgil bizga loyiq armug‘oni.
Ko‘ngul bahrinda ko‘p gavharlaring bor,
Ochunda porsi daftarlaring bor.
Muhabbat nardini ko‘plardan uttung,
Shakartek til bila olamni tuttung.
Tilarmenkim bizing til birla paydo,
Kitobi aylasang bu qish qotimdo”.

Muhammad Xo‘jabekning “bizing til”i turkiy tildir. Muhammad Xo‘jabekni Xorazmiy faqat “Muhabbatnoma”ning yozilishiga turtki va maslahat bergan hukmdor sifatidagina emas, balki millatparvar, ma’rifatli inson sifatidagi qirralariga ham e’tibor beradi. Ayni paytda mazkur baytlardan Xorazmiyning o‘z davrida mashhur shoir sifatida e’tirof etilgani ham anglashiladi.

Kim ush yeltekk kechar ayyomi foniyy,
Jahonda qolsa bizdin armug‘oni.
Qabul qildim, yer o‘ptim, aydim
“Ey shoh! Eshiking tuprog‘i – davlatli dargoh.
Kuchum yetmishcha ko‘p xizmat qiloyin,
Jahonga ezgu otingni yoyoyin.
Bukun tongqa tikin may no‘sh qilg‘in,
Badiha bu g‘azalni go‘sh qilg‘in” (11-12 -b.).

Shoir “Muhabbatnoma”ning aksariyat qismini Sirdaryo bo‘yida yozganligini e’tirof etadi. Asarning yozilgan joyi masalasiga kelganda, tadqiqotlarda Sirdaryo bo‘yidagi Sig‘noq shahri tilga olinadi. Ijodkorning taxallusi uning Xorazmda tug‘ilib o‘sganligini dalillaydi.

Chunonchi, asar xotimasidagi quyidagi baytlarda uning yozilgan yili ham o‘z ifodasini topgan:

“Muhabbatnoma” so‘zin munda aytтим,
Qomug‘in Sir yaqosinda bitidim.
Nazar birla agar Jamsen, gar Osaf,
“Muhabbatnoma”ni qilsang musharraf.
O‘qig‘il fotiha dur qibla yoni,
Suvyunsun banda Xorazmiy ravoni.
Bu daftarkim bo‘lubtur Misr qandi,
Yetti yuz elli to‘rt ichra tugandi...⁹

“Muhabbatnoma”ning ikki nusxasi – arab yozuvidagi va eski uyg‘ur-turk yozuvidagi nusxalari bor. Asarning eski uyg‘ur-turk yozuvidagi nusxasi hijriy 835 (mil. 1432) yili Yazd shahrida Mir Jaloliddinning buyrug‘i bilan ko‘chirilgan. Asar 14 varaqqa joylashtirilgan. Asarning asl nusxasi 7914 raqami ostida Britaniya muzeyida saqlanadi. Asarning fotonusxasi esa Sankt-Peterburgdagi Sharqshunoslik institutining kutubxonasida 15 raqami ostida va SanktPeterburgdagi Tilshunoslik institutida N-777 raqami ostida saqlanadi. Eski uyg‘ur-turk yozuvidagi qoiyozmaning qimmat shundaki, asarning bu nusxasi arab yozuvidagi ikkinchi nusxadan oldin - asliyat yozilgandan so‘ng 79 yil o‘tgach ko‘chirilgan.

“Muhabbatnoma”ning arab yozuvidagi ikkinchi nusxasi XVI asr boshlarida (1508-1509-yillarda) ko‘chirilgan. Asar 24 varaqqa joylashtirilgan. Bu nusxa ham Britaniya muzeyida 7914 raqami ostida saqlanadi. Mazkur nusxaning eski uyg‘ur-turk yozuvidagi nusxadan farqi shundaki, bu nusxaga forsha matnlar ham joylashtirilgan. Ayrim o‘rinlarda baytlar va she‘rlarning tartibi o‘zgartirilgan, ba‘zi grammatik shakllar, so‘zlardagi farqlar ham ko‘zga tashlanadi.

“Muhabbatnoma”ning XX asrda chop etilgan turli majmua va darsliklarga kiritilgan parchalari uchun arab yozuvidagi o‘sha nusxasi asos qilib olingan. Mazkur nusxadagi “Muhabbatnoma” unga ilova qilingan she‘riy “hikoyat” bilan birgalikda, 473 baytdan tarkib topgandir.

⁹ Xorazmiy. Muhabbatnoma. Muborak maktublar. – Toshkent, 1987, 39-bet.

“Muhabbatnoma” – turkiy adabiyotda “noma” janrining ilk namunasi. Nomachilik fors adabiyotida qadim ildizlarga ega. XI asrda yashagan Faxriddin Gurgoniyning “Vis va Romin” dostonida noma janrining mukammalroq namunasi ko‘ramiz. Shu o‘rinda “Shohnoma”ning ishqiy-romantik parchalari fors adabiyotiga ta’sir etganini aytib o‘tish maqsadga muvofiq. O‘zbek adabiyotida noma janrini boshlab bergan va rivojlantirgan ijodkorlar ham Oltin O‘rda adabiy muhitida forscha nomalardan yaxshi xabardor bo‘lganlar. Muhammad Xo‘jabekning Xorazmiyga qarata “Ochunda porsiy daftarlaring bor” deyishining o‘zi ham bu fikrlarni tasdiqlaydi. Xorazmiy singari yetuk ijodkorlar ham, qolaversa, keng xalq ommasi ham fors tilidagi nomalardan yaxshi xabardor edi. Xorazmiyning “Muhabbatnoma” asari muayyan an‘analarga ko‘ra, Alloh hamdi bilan boshlanadi. Shundan so‘ng shoir Muhammad Xo‘jabek bilan ko‘rishganini bayon qiladi va ikki turkiy hamda bir forsiy g‘azal keltiradi. Bulardan keyin “Muhabbatnoma”dan o‘rin olgan masnaviy – “Muhammad Xo‘jabek madhi” hamda “Vasful-hol aytur” kabi fasllar berilgan bo‘lib, bular asarning muqaddimasini tashkil etadi. Asosiy qism nomalardan tashkil topgan. Shoir “Muhabbatnoma” muqaddimasida quyidagi masnaviyni keltirib, maqsad-muddaosini o‘quvchilari bilan baham ko‘radi:

Kitobat bosbladim, anjoma yetgay,

“Muhabbatnoma” Misr-u Shomga yetgay.

Bu xon uzra saloyi oma qildim,

“Muhabbatnoma”ni o‘n noma qildim.

Qiloyin ikki bobin porsiy ham

Kim, atlas to‘n yaroshur bo‘lsa mu‘lam.

Burun alqissa, bek madhin ayoyin

Ush andin so‘ngra noma boshlag‘oyin (13-bet).

Faxriya tarzida bitilgan bu ajoyib baytlarda Xorazmiy asardagi nomalar sonining o‘ndan iborat bo‘lishini qayd etadi hamda “Muhabbatnoma”ning 2 bobi (nomasi)ni forsiy tilda ijod qilishini ta’kidlaydi. Biroq asarning xotimaviy – o‘ninchi nomasidan so‘ng keltirilgan quyidagi masnaviyda muallif maqsad-muddaosining o‘zgaiganligi ifodalanadi:

Kel, ey soqiy, keturgul xush sabuhi,

Kim ushbu dam erur jonning futuhi.

Icholing bodani gullar so‘lisar,
Tanimiz oqibat tuproq bo‘lisar.
Bu yerga yetti so‘z ta’xir bo‘ldi,
Burun o‘n dedim, ul o‘n bir bo‘ldi... (35-bet).

Ko‘chirilgan iqtibosga ko‘ra, shoir “Muhabbatnoma”ni o‘n noma tarzida tarkib bermoqchi bo‘lgan. Ammo ijodiy ish jarayoni boshdagi rejaga tahrir kiritgan va shoir o‘n birinchi nomani ham bitishga jazm qilgan. Biroq, negadir, asarning uyg‘ur yozuvidagi nusxasida o‘n birinchi noma mavjud emas. Asarning arab yozuvidagi qo‘lyozmasiga tayangan adabiyotshunos N.Mallayev “Muhabbatnoma”ning o‘n bir nomadan tuzilganligini qayd etadi. Darhaqiqat, “Muhabbatnoma”ning chop bo‘lgan nusxalari o‘n bir nomadan tarkib topgan va ulardan uchta 4-,8-hamda 11-nomalari fors-tojik, qolgan sakkiz noma turkiy tilidadir. Aksariyat nomalar masnaviy-nomadan tashqari, g‘azal, kichik soqiynomalarni ham o‘z ichiga oladi. Shuningdek, asar xotimasida “g‘azal”, “Munojot”, “qit’a”, “Xotimat ul-kitob”, mustaqil mazmunga ega “Hikoyat”, “Iltimosin aytur” kabi sarlavhalar ostidagi parchalar uchraydi. Asar fard bilan yakun topadi. Shunday qilib, “Muhabbatnoma” noma, masnaviy, g‘azal, qit’a, madhiya kabi janr namunalaridan tarkib topadi. “Muhabbatnoma” haqida fikr bildirgan aksariyat mualliflarning ishlarida ayrim munozarali mulohazalar ham nazaiga tashlanadi. Bunday bahsli o‘rinlar asarning forsiy nomalari, ayniqsa, o‘n birinchi nomasiga tegishlidir. Ko‘pchilik mualliflar o‘n birinchi nomaning uslub va vaznida asar tarkibidagi o‘n nomaga nisbatan qandaydir “begonalik” va “saktalik” ko‘rishadi. Aslida esa “Muhabbatnoma”ning turkiy hamda forsiy nomalari o‘rtasida hech qanday mazmuniy va uslubiy tafovut nazaiga tashlanmaydi. Turkiy hamda forsiy misralar qiyosiy o‘rganilganda yuqoridagi fikrga to‘la qanoat hosil qilish mumkin. Xorazmiy ayrim forsiy misralarni turkiyda va aksincha, turkiy satrlarni forsiyda aynan berishga harakat qilgan. Aslida yuqoridagi “shubhalar”ning negizi asar boshidagi “o‘n” bilan xotimadagi “o‘n bir”ga kelib taqaladi. Muallifning bunday tabiiy ishoralarini bu qadar ishonchsizlik bilan qabul qilish esa yaramaydi. Ijodiy jarayonning o‘ziga xos bir maktab ekanligini, unda kutilmagan hodisalar yuz berishi, boshda chizilgan reja nogahoniy tahrirlarga uchrashining mo‘tadil holat sifatida qabul qilish lozimligini

nazarda tutsak, “o‘n”ning “o‘n birga” aylanishiga ham oddiy bir voqea sifatida qarash mumkin. Yana “Muhabbatnoma”ga javob tarzida yozilgan Xo‘jandiyning “Latofatnoma”, Said Ahmadning “Taashshuqnoma” va Amiriyning “Dahnoma” asarlarining o‘n nomadan tarkib topishi adabiyotshunoslikda kuzatilayotgan chalkashliklarga sabab bo‘lib kelayotir. Jumladan, Xo‘jandiy “Latofatnoma”ni yozishda bevosita Xorazmiyning “Muhabbatnoma”sidan ilhomlanadi. “Latofatnoma”dagi quyidagi misralar buning yorqin misolidir.

Mubabbat jomidin ichsang sharobe,
“Muhabbatnoma”ga aysang javobe.
Qabul ettim, qabuliyat yo‘q erkan,
Salo urdim, salohiyat yo‘q erkan.
Riyoziyat bahrig‘a soldim o‘zumni,
Iborat silkig‘a tortim so‘zumni.
Tilimda so‘z, alimda xoma bo‘ldi,
“Latofatnoma” ham o‘n noma bo‘ldi.

Ko‘rinadiki, Xo‘jandiy “Muhabbatnoma”ning o‘n nomadan iborat bo‘lgan nusxasiga javob yozgan. Shu o‘rinda badiiy ijod tajribasida tez-tez ko‘zga tashlanadigan o‘z-o‘zini tahrir hodisasini e‘tibordan soqit qilmaslik lozim. Asar birinchi tahririni nihoyasiga yetkazgan muallif matnni jiddiy nazardan o‘tkazarkan, uning mulammaligiga (ikki til bilan bog‘liq ranginlikka, shir-u shakarga) yanada quvvat berish maqsadida forsiy zabondagi o‘n birinchi nomani qo‘shganligi shak-shubhasizdir.

Asarning janrlar tarkibi, badiiy xususiyatlari. Xorazmiy “Muhabbatnoma”ni Alloh hamdi bilan boshlarkan, Sharq mumtoz adabiyoti an’analariga sadoqat saqlaydi va Parvardigorning yaratuvchanlik bilan aloqador fazilatlarini ko‘rkam badiiy libosda beradi. Shu bilan bir qatorda, buyuk Bunyodkor mo‘jizasi bilan vujudga keltirilib, ilohiy ruhdan jon baxsh etilgan inson go‘zalligini ulug‘lash ham muallif diqqat markazida turadi. Asarning hamd qismida xuddi shunday uslubiy fazilatni kuzatish mumkin:

Ulug‘ tangrining otin yod qildim,
“Muhabbatnoma”ni bunyod qildim.
Iki yoqtu guhar olamga bergan,
Muhabbat ganjini odamga bergan,

Falakning daftarindin tunni bo‘yg‘an,
Jahon bunyodini so‘z uzra qo‘yg‘an.
Yeti qad zarnigor ayvoni volo,
Yaratti olti kunda haq taolo.
Havo uzra berur shunqorg‘a quni
To‘lun oydek qilur bir qatra suvni.
Aningkim, ol enginda meng yaratti,
Bo‘yi birla sochini teng yaratti.

Ulug‘ Tangrini vasfiga atalgan mazkur baytlarning so‘ngida Allohning yaratig‘i insonning ham benihoya go‘zal ekanligi o‘z ifodasini topgan. Shoir haq taolo ma’shuqaning go‘zal yuzida xol yaratib, bo‘yi bilan sochini teng yaratgan, – deya mahbubaning go‘zal timsolini nihoyatda nazokat bilan badiiy ifoda etgan.

Nomalar asarning yetakchi janri bo‘lib, ular oshiqning o‘z ma’shuqasiga yo‘llangan she’riy maktublaridir. Ularning o‘ntasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’shuqaga murojaat bilan boshlanadi. Faqat ikkinchi nomanigina shoir “Salomim gulga ayt, ey tong nasimi”, –deya nasimi subhga ko‘ngil izhorini bayon qilish shartli majoziy uslubiy jilosi bilan boshlaydi. Nomalar asosan ta’rif-tavsif yo‘nalishida yozilgan bo‘lib, ularning har birida shoirning Sharq mumtoz adabiyoti an‘analaridan ijodiy foydalanganligi kuzatiladi. “Muhabbatnoma” tarkibidagi she’riy maktublarning mazmun-mohiyati, nomalarga xos xususiyatlar va badiiyati haqida muayyan tasavvur hosil qilish uchun “Avvalg‘i nomani aytur” faslidan olingan quyidagi parchani nazardan o‘tkazish ayni muddaodir:

Ayo, ko‘rk ichra olam podshohi,
Jahon tutti sening husnung sipohi
Pari ruxsoralarning ko‘rka boyi,
Yuzung – navro‘z-u qoshing bayram oyi.
Ko‘ngul shirin so‘zungga bo‘ldi Farhod,
Ko‘zung Kashmir jodusig‘a ustod.
Qaro meng ol yanoqinga yaroshur,
Boshim doyim adoqingqa yaroshur.
Bo‘yung sarv-u sanobartek, beling qil,
Yafo qilg‘on kishilarga vafo qil.

Aqiqing suhbatindin jon bo‘lur so‘z,
Qamartek chehrangga boqsa, qamar ko‘z.
Urur nargislaring novakni jong‘a,
Kular chehrang chechaktek arg‘uvong‘a.
Muhabbat nori jondin ketmadi hech,
Qo‘lum siym olmangizga yetmadi hech.
Saroydin bordi Chin-Mochinga choving,
Qiyoy boqsang bo‘lur arslonlar oving.
Tabassum qilsangiz shakkar uyolur,
Tishing injusidin gavhar uyolur.
Jamoling yetti olamga sipahlar,
Qatingda yer o‘parlar jumla shahlar.
Falak ishqing yo‘linda besar-u poy,
Isirg‘ang donasi – Zuhra, yuzung – oy.
Latofat mulkida sultonsan, ey jon,
Qamuq boshdin-oyoqqa jonsen, ey jon.
Qotig‘ kulsang magar og‘zing bilurg‘ay,
Pari ko‘rsa seni mendek tilurg‘ay.
Soching ming torina ming hur yetmas,
Yuzungning nurina ming nur yetmas.
Agar bersa suyurg‘ib haq taolo,
Kerakmas sensizin firdavsi a‘lo.
Ko‘ngulning qoni barcha toshqay,
Ko‘zumning yoshidin kavsar bo‘shoshqay.
Kishing sensizin ne joni bo‘lsun,
Aningtek umrning ne soni bo‘lsun.
Shakar erning naboti Xizra o‘xshar,
Ayog‘ing kimki o‘psa, mangu yoshar.
Jamolningtek kishini yo‘q jamoli,
Darig‘o, bo‘lmasa erdi zavoli.
Qiyomat ko‘rklusen, husnungga ne so‘z,
Yiroq bo‘lsun jamolingdin yovuz ko‘z.
Bukun yo‘qtur sen oyttek ko‘kta, asra,
Qulung bechora Xorazmiyni asra.

Masnaviy:

Kel, ey soqiy, keturgil bodai nob,

Kula-o'yna-yu ichsunlar bu as'hob.

Kim, ush yeltekk kechar ayyomi foniy,

Ajaldin hech kishining yo'q amoni.

Sabrdin yaxshi yo'qtur, pasha qilsam,

Bu yo'lda sabr yo'q, andisha qilsam (Muborak maktublar. 16-18-betlar)

Har bir maktubdan keyin keltirilgan soqiynomada shoirning hayotdan olingan yuksak zavq-u shavqi, nozik hayotsevarlik tuyg'ulari go'zal badiiy ifodasini topgan. Mazkur soqiynomalardagi misralarda badiiy ifodalangan mazmun teran ilohiy-irfoniy mohiyat kasb etadi va aksariyat parchalar oxirida aynan takrorlanuvchi "Sabrdin yaxshi" baytidagi axloqiy-ta'limiy aqidalarga quvvat beradi. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, Xorazmiyning mazkur asarini yaratishdan kuzatgan bosh muddaosi insoni komil qiyofasi manzaralarini rangin chizishdan iborat ekanligi yaqqol anglashilib turadi. Baytlarda qayta-qayta murojaat qilinadigan may va ishq timsollari o'sha muddaoni yuzaga chiqarish yo'lida beminnat xizmat qiladi. Xorazmiyning tayanch murodi "bu o'tkinchi dunyoda do'stlar ishq mayidan bebahra qolmasinlar"dan iboratdir. "Muhabbatnoma"dan yuqorida ko'chirilgan birinchi nomaning o'ziyoq, shoir ijodiy salohiyatining nechog'li yuqori ekanligi xususida yetarli tasavvur paydo qilish imkoniyatini beradi. Shunday bo'lsa-da, parchadagi ba'zi baytlarda mujassamlashgan ichki botiniy ma'nolar haqida fikr yuritish Xorazmiyning badiiy mahorati xususida muayyan xulosalarga kelish uchun yo'l ochadi. Avvalo, shuni aytish joizki, nomalardagi dastlabki baytlarda shoir ilohiy va majoziy ishqni yonma-yon tutib tasvirlaydi. Shunday ohang quyidagi baytda ham kuzatiladi:

Pari ruxsorlarning ko'rkaboyi,

Yuzung – navro'z-u qoshing – bayram oyi.

Ma'shuqa – pari ruxsorlarning eng ko'rklisi. Uning yuzi – Navro'z. Navro'zning lug'aviy ma'nosi "yangi kun". "Kun" turkiy tilda quyoshning ma'nodoshi hisoblanadi. Demak, yorning yuzi quyosh, uning qoshi esa – bayram oyi. Bayram oyi deganda, Navro'z bayrami nazarda tutiladi. Ma'lumki, hamalning birinchi kuni yangi yilning boshi sifatida bayram qilinadi va "Navro'z bayrami" deb ataladi. Shu kuni hamal oyi boshlanishi

bilan samoda yangi oy ko‘rinadi. Yangi oy hiloldir. Hilol qoshni eslatadi. Shoir ma’shuqa yuzini Navro‘zga qiyoslamaganda edi, uning qoshini bayram oyiga tashbeh qilolmagan bo‘lardi. Bu jihatdan olib qaraganda, “Muhabbatnoma” muallifi o‘xshatish vositasida so‘z ta’sirchanligini oshirishga erishgan. Shuningdek, quyidagi baytda shoirning jinos san’atidan mahorat bilan foydalangani namoyon bo‘ladi:

Bo‘yung sarv-u sanobartek, beling qil,
Vafo qilg‘on kishilarga vafo qil.

Ko‘rinadiki, Xorazmiy ma’shuqaning tashqi qiyofasini tavsiflash bilan cheklanib qolmay, uning ruhiy-botiniy olamiga ham daxl qilish orqali o‘zining axloqiy-ta’limiy qarashlarini ham badiiylashtirishga muassar bo‘ladi. Bunda shoir “qil” so‘zining ikki ma’noda qo‘llanilishidan san’atkorona foydalangan. Shuningdek, keyingi misrada ish -harakat ma’nosidagi “vafo qil” birikmasi ham Xorazmiyning tub botiniy iddaosini yuzaga chiqarishga ko‘maklashgan. Asarda Faridun, Sulaymon, Masih, Yusuf, Hotami toy, Rustam, Ali, Muhammad Xo‘jabek singari afsonaviy, ilohiy va tarixiy shaxslarning nomlari ham uchraydi. Xorazmiy “Muhabbatnoma”da bu an’anaviy ilohiy irfoniy timsollarga ko‘proq talmeh san’ati imkoniyatlari nuqtayi nazaridan murojaat qilib, she’rning badiiy nazokatini oshirishga harakat qilgan. “Muhabbatnoma”dan o‘rin olgan Muhammad Xo‘jabek madhiga atalgan misralar ham alohida ahamiyatga molik. Tasvirga ko‘ra, Muhammad Xo‘jabeksiz Jonibek mulki jonsiz tanga o‘xshaydi. Xorazmiyga iltifot ko‘rsatib, uni “Muhabbatnoma”day go‘zal asarni bunyod qilishga ruhlantirgan qo‘ng‘irot naslidan bo‘lgan hukmdor (Muhammad Xo‘jabek) o‘z el-yurti uchun Sulaymon qadar ulkan xizmatlar qildi. Qarang, asarning mag‘z-mag‘zidan shaxsiyat emas, ijtimoiyyot, xalqchillik g‘oyalari bosh qon tomiriday o‘tib turadi. Mazkur parchadagi quyidagi bayt ham o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi:

Quyoshtek davlating tobanda bo‘lsun,
Eshingingda yeti ko‘k banda bo‘lsun (14-bet).

Xorazmiy zamon hukmdoriga chin dildan tilak tilarkan, uning davlatini quyoshdek porloq bo‘lishini istaydi. Bunda “davlat” oltin, kumush singari moddiy boyliklar bilan bir qatorda, tabiiyki, mamlakat ma’nosida ham qo‘llaniladi. Baytdagi o‘xshatish va o‘xshatilmish (davlat va moddiyot)

o‘rtasidagi o‘zaro munosiblik ularning porloqligidadir. Shu bilan birga baytda quyoshning qiyomatgacha nur sohib turishiga ham ishora qilinadi va keyingi misradagi “yeti ko‘k” birikmasini qo‘llashda ijodkor uchun ana o‘sha quyosh timsoli imkoniyat yaratib bergan¹⁰.

“Muhabbatnoma”dan anglashilishicha, Xorazmiy tasavvuf yo‘lini tutgan shoir. Zotan, asarning debochasidagi ayrim baytlar shundan dalolat beradi¹¹. Masalan:

Muhammaddin muhabbat bo‘ldi paydo,

Meni mundoq muhabbat qildi shaydo...

Shuningdek, quyidagi baytlarda tasavvuf ilmida keng tarqalgan ramz – may ramzi alohida ahamiyatga ega:

Kel, ey soqiy, keturgil bodayi nob,

Kula o ‘yna-yu ichsunlar bu as’hob...

Kel ey soqiy, keturgil jomi Jamni,

Kishining ko‘nglidin may yur g ‘amni...

Kel ey gulchehra soqiy, may keturgil,

Meni hayrat maqomig‘a yeturgil.

Habibim naqshidin ma’ni bo‘loyin,

Tahayyurda o‘zimdin qurtuloyin...

Birinch va ikkinchi baytlarda may yoki boda timsoli muhim mohiyat kasb etadi. May timsoli tasavvuf adabiyotida keng tarqalgan bo‘lib, “ilohiy ishq – ma’rifat, donish ishtiyoqining avji qiyomi, Yor jamoli mushohadasidan oshiq dilida paydo bo‘lgan kuchli zavq – ilhomning, behad xursandlik, sururning ramziy ifodasi sifatida tilga olingan” (Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent, 2009, 150-b.). Soqiy so‘zi ham bu yerda ramziy ma’noga ega, ya’ni mutlaq fayziyot, ma’rifat bulog‘i demakdir (Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent, 2009, 155-b.). Keltirilgan uchinchi va to‘rtinchi baytlarda mutasavvuf fano maqomi yoki Fano vodiysiga yetib borishi uchun bosib o‘tishi shart bo‘lgan Hayrat maqomi to‘g‘risida so‘z ketadi. Hayrat maqomi – Fano maqomidan oldingi bosqich. Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonida bu bosqichlar tasviri bor. Tahayyur – hayratlanish demakdir,

¹⁰ Vohidov R., Eshonqulov H. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – T.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi, 2006. B. – 131-139.

¹¹ Rahmonov N. O‘zbek adabiyoti tarixi (Eng qadimgi davrlardan XV asrning birinchi yarmigacha). O‘quv qo‘llanma. – T.: Sano-standart, 2017, B. – 328-329.

ya'ni "tahayyurdan qutulish" – Fano bosqichiga o'tish ma'nosiga ishora qiladi. Qolaversa, asar so'ngida keltirilgan "qit'a" ham Xorazmiyning yo'lini va maslagini yaqqol ko'rsatib turadi:

Tama' domina qolur qush emasmen,
Telim ayvon uza uchqon Xumomen.
Qilichtek til bila tuttum jahonni,
Qanoat mulki ichra podshomen.
Xarobot ichra masjidda yerim bor,
Kim ush ham rindmen, ham podshomen.
Necha hashmatli sulton bo'lsa bo'lsun,
Aytmon mol uchun madh-u sano men...

Baytlardagi xumo, qanoat mulki, xarobot (faqr yo'liga kirib, hayvoniy nafslardan poklab, xokisor bo'lish), rind kabi timsollar Xorazmiyning e'tiqodi va maslagini yana bir bor tasdiqlaydi.

"Muhabbatnoma" aruzning hazaji musaddasi mahzuf (mafoiylun, mafoiylun, faulun) vaznida bitilgan. Undagi o'ziga xos ohang, badiiy ifodaning nafis nazokati Xorazmiyning yuksak iste'dod sohibi ekanligini tasdiqlaydi. Shoir ushbu asari bilan turkiy tildagi noma janrining keyingi taraqqiyotiga zamin hozirladi. Shuningdek, "Muhabbatnoma" o'zbek tili tarixini o'rganish uchun ham muhim mumtoz manba sanaladi.

Sayfi Saroyi – lirik shoir, dostonnavis va tarjimon. Sayfi Saroyi XIV asrda yashab ijod etgan va epik janr taraqqiyotida sezilarli iz qoldirgan ijodkordir. U 1321-yili Qamishli qishlog'ida tug'ilib, 1396-yili Misrda vafot etgan deb taxmin qilinadi. Shoirning taxallusidan ma'lum bo'ladiki, u Oltin O'rda davlatining poytaxti Saroy shahrida ijod qilgan. Vatan sevgisi, yurt qayg'usi uning ijodida dardli baytlarni paydo qildi. Shoirning "Yodgornoma" asari muqaddimasida ana shunday baytlar bor. "Yodgornoma" – o'tgan asrning 60-yillar o'rtalarida Qo'qon shahri yaqinidan topilgan. Bu asar "Suxayl va Guldursun" nomi bilan Sayfi Saroyi ijodidan o'rin olgan. U Oltin O'rdadagi urushlar, nizolar oqibatida vatanni tark etishga majbur bo'lganini "Yodgornoma"ning muqaddimasida shunday misralar orqali bayon qilgan edi:

O'sub tufrog'im uzra nayzalar, ban evdin ayrildim,
Vatandin benishon o'ldim-da, o'zga yurtga evrildim.

Nechuk falak jav(i)r ayladi, qanday(in) gunohim bor?!

Ilohim, o‘yla kim javring, ban elga sodiq ul erdim.

Shuningdek, Sayfi Saroyi Movarounnahrda va ma’lum vaqt Turkiyada ham istiqomat qilgan, Sayfi Saroyining quyidagi she’ri uning tarjimai holiga oid ba’zi tomonlarni yoritishga yordam beradi:

Ilohi, bu qari miskin qulingni

Bag‘ishla ko‘rguzub to‘g‘ri yo‘lingni,

Maliklar rasmidir dilshod qilmoq,

Qarisa qullarni ozod qilmoq.

Sayfi Saroyi bu she’rini Misrda – Mamluklar davlatida yashayotgan paytda yozgan bo‘lib, hayotining so‘nggi yillarini o‘sha yerda o‘tkazgan. Yuqorida aytganimizdek, Oltin O‘rda tanazzulga yuz tuta boshlagan paytda Sayfi Saroyi Misrga ketgan. U mazkur she’ri orqali hukmdordan o‘z yurtiga qaytish uchun ijozat so‘ragan. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, Sayfi Saroyi shoh saroyidagi e’tiborli shaxslardan bo‘lgan. Zamondosh shoirlarga she’riy javoblaridan ham Sayfi Saroyining o‘z davridagi baland mavqeyi haqida xulosa chiqarish mumkin. Sayfi Saroyi vafot etgan yillari Misr Mamluklar davlatida Zohir Sayfiddin Barquq ikkinchi marta (birinchi marta 1382 y.) taxtga o‘tirgan edi. Misr turk davlatida o‘zbek adabiyoti tarixidagi yirik hodisa sifatida Sayfi Saroyi va uning zamondoshlari adabiy merosini keltirish mumkin. Taxminimizcha, Sayfi Saroyining adabiy merosidan oz qismi yetib kelgan. Uning bir necha g‘azallari, qasida, qit’a, ruboiylari (uchta forsha ruboiysi ham), “Suhayl va Guldursun” dostoni va Sa’diy Sheroziyning “Guliston” (1258-yili yozib tugallagan) asarining o‘zbek tiliga qilgan erkin taqimasi yetib kelgan.

Quyidagi parcha Sayfi Saroyining tarjimai holiga aniqlik kiritish bilan bir qatorda, she’riyatda o‘z o‘rniga ega shoir bo‘lib tanilganini va e’tirof etilganini dalillaydi:

Qamishli yurt mani tuvg‘on elimdi,

Bilik g‘urbatda kelturg‘on bilimdi.

Kelib o‘ldim Saroyda she’r fldoyi

Saroyning shoiri, elning gadoyi.

Shoir birinchi misrada o‘zi tug‘ilgan yurt Qamishli haqida xabar bermoqda. Nasrullo Davron “Gulistoni bit-turkiy”ni nashrga tayyorlab,

o‘zbek kitobxonlariga taqdim etar ekan, bu joyni Xorazm viloyatidagi Sariqamish qishlog‘i deb taxmin qiladi. N.M.Mallayev ham shu fikrda bo‘lgan edi. Ikkinchi baytda, ayrim adabiyotshunoslar aytganlariday, shoir ijtimoiy ahvoli – g‘urbatda yashagani haqida emas, balki bilim olish, o‘rganish mashaqqatli ekaniga ishora qilmoqda. Uchinchi va to‘rtinchi misrada saroy so‘zlarida so‘z o‘yini (tajnis) bor. Uchinchi misradagi Saroy so‘zi – Oltin O‘rda davlatining poytaxti Saroy shahriga ishora qilsa, to‘rtinchi misradagi saroy – hukmdorlar saroyini bildiradi, ya’ni Saroy shahrida she’rga halollik bilan yondoshgan va saroyda e’tiborli shoir bo‘lgan edi. Elning gadoyi iborasi orqali esa shoir xalqqa yaqinligini, ijod xalq uchun ekaniga ishora qiladi.

Sayfi Saroyi ijodga halol, e’tiqod bilan munosabatda bo‘lish tarafdori edi. Uningcha, she’riyat – bir bog‘. Bog‘ga bulbul ham, zog‘ ham kelib qo‘naveradi. Ijod ahlining she’riyat bog‘idagi o‘rni alohida. Ijodda o‘rnini topgan shoirlar “bulbul”, shunchaki she’riyat atrofida o‘ralashib yurganlar “zog’”lardir. Quyidagi she’r ana shular haqida:

Jahon shoirlari, ey, gulshani bog‘,
Kimi bulbul durur so‘zda, kimi zog‘.
Kimi to‘ti bikin chaynar shakarni,
Kimi lafzi bila o‘rtar durarni.
Kimning so‘zlari mavzunu shirin,
Kimining loyiqli tashrifu tahsin,
Kimi o‘zganing ash‘orin menim der,
Kimi halvo kibi shalg‘om cho‘bin yer,
Kimi ma’ni qo‘yub, lafzin tuzotur,
Kimi vaznni buzub, san‘at kuzotur.
Alarning ush biri Sayfi Saroyi,
Jahon oriflarining xoki poyi.
Ani sen jumla shoir kamtari bil,
Qamar yuzga hamisha mushtari bil.

Qarshilantirish usulida yozilgan bu she’r Sayfi Saroyining katta adabiyotshunos olim, o‘z davrining tanqidchisi ekanini ko‘rsatadigan bir dalil. Uning she’riyatga halol munosabatda bo‘lish kerakligi haqidagi qarashlaridan shu narsa anglashiladiki, u o‘z davri she’riyatidan, adabiy

jarayonidan doimo xabardor bo‘lib turgan, ijodkorlardan she‘riyatga mas‘uliyat bilan munosabatda bo‘lish tarafdori. Shoir ahliga bunchalik talabchan ijodkor hukmdor saroyida katta mavqega ega bo‘lishi tabiiy hol edi. Qolaversa, she‘riyatga halollik bilan munosabatda bo‘lish haqida she‘r yozgan shoirning devoni bo‘lmasligi mumkin emas. Bunday she‘rni shoir ahli orasida e‘tibor qozongan va e‘tirof etilgan shoir yozishi mumkin. Ammo uning devoni hali noma‘lum¹².

“Suhayl va Guldursun” dostoni va “Guliston bit-turkiy” asarining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari. “Suxayl va Guldursun” dostoni “Yodgornoma” nomi bilan tanilgani haqida yuqorida aytilgan edi. Sayfi Saroyi “Suxayl va Guldursun” dostonida dunyoviy ishq, sevgida vafodorlik, mardlikni kuylaydi. Doston afsona emas, balki tarixiy haqiqat asosida yaratilganini Sayfi Saroyi alohida ta‘kidlaydi:

Emas afsona, chin ushbu bitilmish,

Bu chin, afsonadek ishqda yetilmish.

Dostonning mazmuni quyidagicha: Amir Temur bilan Oltin O‘rda xoni To‘xtamish o‘rtasida bo‘lgan jangda To‘xtamishxon tomonidan ko‘p odam asirga olinadi. Bo‘lib o‘tgan jangda qonlar daryo bo‘lib oqdi. Asirlar orasida To‘xtamishning o‘g‘li Suxayl ham bor edi. Suxaylni zindonga tashladilar. Suxayl xuddi Yusuf singari go‘zal yigit, fazilatlari bir talay, so‘zlari shirin yigit edi. Suxaylni zindonga tashlaganlaridan keyin, u uxlab qoladi va tush ko‘radi. Tushida bir parivash qiz bog‘da yurgan emish, Suxayl esa bog‘da qizga atab gullar terib yurgan emish. Qiz Suxaylning ko‘ngliga otash tashlab qochib ketibdi. Qizning ortidan yuguribdi-yu, ammo bir chuqurga yiqilib tushibdi. Suxayl uyg‘onib ketib, bu tush ekanini anglabdi. Shohning qizi Guldursun kanizlari bilan sayr qilib yurib, zindondagi Suxaylni ko‘rib qoladi. Guldursun – o‘zini gul, Suxaylni bulbul deb bildi. Kechasi zindon-bon oldiga keldi va zindonga tushib behol yotgan Suxaylning yuziga yuzini qo‘ygan edi, Suxayl o‘ziga keldi. Guldursun Suxaylga: “Men sizning fidoyingizman” deb, Suxayl Guldursunga: “Men sening gadoying bo‘ldim”, deya ahd-u paymon qildilar va ikkovi chohdan chiqib, qochdilar. Ikkovi do‘zaxday qizib ketgan sahroda yuraverdilar. Ammo Guldursun ochlikdan,

¹² Rahmonov N. O‘zbek adabiyoti tarixi (Eng qadimgi davrlardan XV asrning birinchi yarmigacha). O‘quv qo‘llanma. – T.: Sano-standart, 2017, B. – 271-272.

suvsizlikdan yerga yiqilib, jon berdi. Chorasiz qolgan Suxayl ham “menga yaxshidir yor birla o‘lmak”, deya o‘ziga tig‘ urib, Guldursunning yonida jon beradi. Suhaylning oh-u nolasidan sahroda bo‘ron ko‘tarilib, ikkoviga qum qabr bo‘ldi.

Sayfi Saroyi Layli va Majnun voqeasini ham doston nihoyasida tilga oladi. Bundan shuni anglash mumkinki, “Layli va Majnun” dostonlari, xususan, Nizomiyning mazkur nomdagi dostonidagi Layli va Majnun o‘rtasidagi ishq timsoli “Suxayl va Guldursun” dostoniga asos bo‘lgan. Dostonning yozilgan sanasini Sayfi Saroyi quyidagicha ko‘rsatadi:

Yedi yuz to‘qson olti navro‘z oyi,

Xatm etti buni Sayfi Saroyi.

796 - milodiy 1393/94-yillarga to‘g‘ri keladi. “Suxayl va Guldursun” o‘rta asr yozma adabiyoti singari xalq og‘zaki ijodi ta‘sirida yaratilgan. Doston aruzning hazaji musaddasi maqsur vaznida (mafoiylun, mafoiylun, mafo‘iyl) bitilgan.

Xotin sodiq, ani sevgil, aziz er,

Har og‘ir ishda ham doyim seni der.

Sayfi Saroyi va uning ijodkor zamondoshlari ona Vatandan uzoqda bo‘lsalar ham, XIV asrning ikkinchi yarmidagi o‘zbek adabiyot saviyasini yuqori darajaga ko‘tarib, jamiki turkiy xalqlar o‘lkalaridagi aholining ona tilisida ijod qildilar. XIV asrning ikkinchi yarmi – XV asrda Misr madaniy-adabiy muhitini mamluklar tamomila o‘zgartirib yubordilar. XV asrda yashagan arab muarrixlari ham qipchoq tilida, ham arab tilida ijod qilgan ko‘plab olimlar, yozuvchilar va shoirlarning nomlarini keltiradilar. Ular Misrdagi madrasalarda turli fanlardan dars berdilar. Oltin O‘rdadagi o‘zaro jang-u jadallar oqibatida XIV asrning ikkinchi yarmidan boshlab ko‘plab madaniyat arboblari Misrga ko‘chib borib, yangi turkiy madaniy markazlarni paydo qildilar. Bu davrda qipchoqo‘g‘uz tilida turli mazmundagi va janrdagi adabiyot shakllandi. Arab va fors tillaridan bu tilga tarjima qilingan bir qator asarlar turkiy adabiyotni miqdor va sifat jihatdan boyitdi. Umuman turkiy madaniy muhit, turkiycha an‘ana va ruh o‘zbek adabiyotining bu o‘lkada rivojiga imkoniyat yaratib berdi. “Shohnoma”ning tarjimasi ham ana shu madaniy muhitning mahsulidir. Mashhur venger turkiyshunosi Von Lekok shunday yozgan edi: “Misrning madaniyati va san’atining muttasil

ravishda rivoji va gullabyashnashi hokimiyat arablardan turkiy hukmdorlar qo‘liga o‘tgan davr bilan bog‘liq”. Misrda nafaqat adabiyot turkiy tilda edi, balki turkiy qavmlar o‘zlarining azaliy udum va qadriyatlarini ham saqlab qoldilar¹³.

Sayfi Saroyi ijodida “Gulistoni bit-turkiy” alohida o‘rin tutadi. Zotan, bu asar Sayfi Saroyi ijodida katta hajmdagi asar bo‘lish bilan birga, asarga olib kirgan o‘z ijod namunalari XIV asr o‘zbek nasrini va she‘riyatini yangi taraqqiyot bosqichiga ko‘tardi.

Sayfi Saroyi Shayx Sa‘diyning “Guliston” asarini tarjima qilgandan keyin, bu asariga “Gulistoni bit-turkiy”, ya’ni “Turkiy guliston” deb nom qo‘ydi. Sayfi Saroyining “Gulistoni bit-turkiy” asari ilm ahliga birinchi marta 1915-yili ma’lum bo‘lgan. Sayfi Saroyi “Gulistoni bit-turkiy”ni tarjima qilar ekan, birinchi navbatda, turkiy tilda so‘zlashuvchi keng kitobxonlar ommasini nazarda tutdi. Shu bois asar tarjimasida arabcha va forsha so‘zlar o‘rniga ko‘proq xalqona iboralardan foydalandi, eski o‘zbekcha va qadimgi turkiycha so‘zlardan istifoda etdi, xullas, tarjimani xalqqa yaqin tilda yaratdi. Ikkinchidan, Oltin O‘rdadagi adabiy muhit ancha yuksalgan, Oltin O‘rda davlatida turkiy adabiyotga va turkiy tilga e’tibor kuchaygan edi. Garchi bu davrdagi adabiyot – turkiy adabiyot, til – turkiy til deb yuritilsa ham, turkiy tilli xalqlar orasida alohida mavqe tutgan Oltin O‘rda adabiy muhitida yaratilgan asarlar til jihatdan har bir o‘zbek kitobxoniga juda yaqin. Aynan “Gulistoni bit-turkiy”ning tili buni to‘liq tasdiqlaydi. Qolaversa, Oltin O‘rdada amal qilgan til ham chig‘atoy tiliga juda yaqin, aniqroq qilib aytganda, O‘rta Osiyo chig‘atoy tilidan unumli oziqlangan edi.

Sa‘diyning “Guliston”i keyingi asrlarda ham bir necha marta qator ijodkorlar, jumladan, Ogahiy, mulla Murodxo‘ja (1909) tomonidan tarjima qilingan. “Gulistoni bit-turkiy”ning tuzilishi Shayx Sa‘diyning “Guliston” asaridan farq qilmaydi. Har ikkalasida ham asar sakkiz bobdan iborat. Sa‘diyning “Guliston”idagi boblar nomlari “Gulistoni bit-turkiy”ga

¹³ Rahmonov N. O‘zbek adabiyoti tarixi (Eng qadimgi davrlardan XV asrning birinchi yarmigacha). O‘quv qo‘llanma. – T.: Sano-standart, 2017. B. – 287-288.

solishtirilganda, nisbatan asliyatga yaqinlik kuzatiladi. Sayfi Saroyi boblar nomlarini deyarli o'zgartirishsiz tarjima qilgan.

Sayfi Saroyi o'z asari debochasida Sa'diyning "Guliston"ini nima sababdan tarjima qilganini quyidagicha bayon etadi: "Iliq yoz kunlarida bir kun bo'ston ichinda, gullar orasinda bir necha zarif (nozikfahm) olimlar bilan o'turub, insho ilmindin bahs qilib, abyoti g'arib (ajoyib) va ash'ori ajib (qiziq) o'qudum esa, ul olimlarning ulusi aruz ilmindin bir mushkul baytning taqattu'in savol etti. Filhol (darrov, tezda) javobin eshitib aytti: "Ey adibi g'arib, senga bir muvofiq nasihatim bor, qabul qilsang, xayr bo'lg'ay". Ayttim: "Buyuring". Aytti: "Shayx Sa'diy "Guliston" in turkiy tilga tarjima qilsang, bir sohib davlat er otina, misroi yodgoring jahonda qolsun deb". Ul azizning muborak nafasini qabul etib ayttim: "...ammo quvvatim zaif turur aning qaviy (kuchli, quvvatli) ma'nilarina". Men dag'i Tangrig'a tavakkul qilib (o'zimni topshirib), himmat belin rag'bat eli bilan bog'lab, boshladim, tamom bo'lg'ay deb. Ammo bu kitob oti ul sababdin "Guliston" bo'ldikim, ajoyib hikoyot va g'aroyib nasoih va anvo'i latoif bilan murattab va muzayyan bo'lub turur". Bu voqea milodiy 1390-91-yillarda yuz bergan edi¹⁴.

Parchadan anglashiladiki, Sayfi Saroyi adabiyot ilmida ham ancha mashhur bo'lib, olimlarning peshqadami bo'lgan. U iste'dodli ijodkor bo'lishi bilan bir qatorda yuksak didli tarjimon ham bo'lgani mazkur parchadan anglashilib turibdi. Haqiqatan, "Gulistoni bit-turkiy"ni ham Sayfi Saroyi xuddi Sa'diyning "Guliston"i singari ajoyib hikoyatlar, qit'alar va fardlar bilan bezadi.

Sa'diyning "Guliston"i bilan Sayfi Saroyining "Gulistoni bit-turkiy" asari solishtirilganda, ular o'rtasidagi ayrim farqlar darrov ko'zga tashlanadi. Jumladan, Sa'diy "Guliston"ining "Muqaddima"si Ollohga hamd, Sheroz hukmdori "Muzaffariddin ibn Zangi ibn Sa'd ibn Abu Bakr" madhi, "Guliston" kitobining sababi ta'lifi bayoni" tarkibiga kirgan amiri kabir Abu Bakr bin Abu Nasr vasfi, "xizmati vazirda voqye' bo'lg'on qusurning uzri va ixtiyori uzlatning sababi bayoni"ni qamrab oladi.

¹⁴ Rahmonov N. O'zbek adabiyoti tarixi (Eng qadimgi davrlardan XV asrning birinchi yarmigacha). O'quv qo'llanma. – T.: Sano-standart, 2017. B. – 275.

Sayfi Saroyi kitobxonni, o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy jarayonini, Oltin O‘rda davlatidagi ijtimoiy-madaniy jarayonlarni nazarda tutadi va asari debochasida o‘zgarishlar qiladi. Jumladan, u asar debochasida yuqorida biz keltirgan Sa‘diy “Guliston”ining tarjima qilinishiga oid taklifni qabul qilgani haqida parchadan keyin oltmish misradan iborat masnaviyni keltiradi. Bu masnaviy mazmunan qasidaga o‘xshaydi. Sayfi Saroyi bu she‘rida “Guliston” asarining jamiki fazilatlarini bayon qiladi: bu asarda g‘aroyibotlar mavjudligi, bunday g‘aroyibotlar, hatto, “Xusrav va Shirin”da ham yo‘q ekani (chamasi, u Qutbning “Xusrav va Shirin” asarini nazarda tutgan), asarning “latoif bog‘i”, “ma‘ni gulistoni” sifatlarga boy ekanini ta‘riflaydi. Shundan keyin o‘tmishdagi nomdor hukmdorlarning avlodlar osha abadiy qolganiga sabab ularning himmatliliklaridir, degan o‘gitni beradi. O‘sha amirning – Mamluklar sultonining hojibul-hujjobi (eshik og‘asi) Tayxosbekning tengsiz zakovati, elparvarligi, saxiylikda Hotam Toy, lutf, axloq va karamning koni ekanini ta‘rif-tavsif qiladi. Sayfi Saroyi masnaviy nihoyasida o‘z “Guliston”ini ana shu amirga bag‘ishlaganini aytadi va tarjima Sa‘diy “Guliston”idan ayrim farqli jihatlariga egaligini ta‘kidlaydi:

Ul hadiya bu kitob erur mufid,

Jumla alfozi to‘lu ma‘niy jadid (Bu kitob foydali in‘omdir, kitob yangi ma‘nolarga to‘ladir).

Tarjima nazariyasi va amaliyotiga binoan, tarjimon tarjima tilini ham, asliyat tilini ham mukammal bilishi talab etiladi. Sayfi Saroyi ana shu talablarga tom ma‘noda javob bergan tarjimon bo‘lgan edi. Uning shoirlik iqtidori bilan tarjimonlik mahorati uyg‘unlashib, hikoyatlar tarkibida qit‘a janrining juda go‘zal namunalarini yaratgan.

Asardagi obrazlar bevosita va bilvosita ijodkorning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga – hikoyatlarni o‘zbekzabon (umuman turkiyzabon) kitobxonga Sa‘diy nazarda tutgan mazmun-mohiyatni tushunarli tilda yetkazib berishga qaratilgan. Hikoyatlarda turli toifa obrazlarni – adolatparvar va qonxo‘r sultonlarni ham, oqil va fitnachi vazirlarni ham, ochko‘z va saxiy insonlarni ham, oqil va kaltafahm davlatmandlarni ham, xullas, har turli toifadagi qahramonlarni uchratamiz.

Sultonlar haqidagi hikoyatlar “Guliston” va “Gulistoni bitturkiy”ning boshida o‘rin olgani bejiz emas. Hamma zamonlarda ham insoniyat hukmdorlardan yo namuna olganlar yoki hukmdorlarning adolatsizligidan saboq chiqarganlar yoki ularga o‘z nafratini ifoda etganlar. Jamiyat, mamlakat va davlatning mustahkamligi yoki tanazzuli hukmdorlarning xalq bilan bo‘lgan adolatli yoki adolatsiz munosabatlariga bog‘liq bo‘lgan. Bu bobdagi hikoyatlarga qo‘yilgan talab nafaqat adabiy-estetik tomondan, balki ijtimoiy-siyosiy tomondan ham muhimdir. Ayniqsa, tarixda o‘tgan hukmdorlarga oid hikoyatlar bu jihatdan alohida diqqatga sazovor. Sayfi Saroyi bu singari hikoyatlarda tarixiy haqiqatni buzmaganda hukmdorlarning esda qoladigan obrazlarini yaratadi. Sulton Mahmud G‘aznaviy otasi Sabukteginni tushida ko‘rganiga oid hikoya, Horun ar-Rashidga oid hikoya shular jumlasidandir. Hikoyalarning birinchisida G‘aznaviylar saltanatining asoschisi Sabuktegin va uning o‘g‘li, G‘aznaviylar davlatini o‘ttiz yildan ortiq boshqargan Sulton Mahmud obrazlari orqali jamiki hukmdorlarning qiyofasini yaratish bilan bir qatorda, ularning urushlar, bosqinchiliklar oqibatida to‘plagan mol-mulki oxiri qolib ketadi, narigi dunyoga bo‘sh qo‘l bilan ketadi, degan bir o‘gitni beradi. Shu bois Sulton Mahmudning tushini ta’bir qilib bergan kambag‘al odam tilidan Saroyi aytadiki, bu olam qancha-qancha beklar-u sultonlarni yeb bitirgan, shuning uchun, ey xoja, agar nomim yer yuzida qolsin desang, xayr qilgin, deya hukmdorlarni saxvat-pesha bo‘lishga da’vat qiladi.

Xorun ar-Rashidga bag‘ishlangan hikoyatda esa bu hukmdorning har bir muammoni oqillik bilan hal etishini rivoyat qiladi. Xorun ar-Rashid Abbosiylar sulolasini birin-ketin boshqargan bircha hukmdorlar orasida aqlli va donishmand hukmdor sifatida tarixdan ma’lum. Hikoyatda donishmand Xorun ar-Rashidning tadbir bilan ish tutishi, nizolarning oldini olishi va zulm qilmaslik haqida hikoya qilinadi.

Sayfi Saroyi hikoyatlarida eng ko‘p qo‘llangan janrlardan biri – qit’adir. Shuningdek, Sayfi Saroyi – she’riy hikoyatlar ustasi. Uning she’riy hikoyatlari ham nasriy hikoyatlari singari, didaktik mazmunda bo‘lib, insonlar o‘rtasidagi ahd-u vafo, sadoqatni madh qiladi. U bir necha she’riy hikoyatlar ijodkori. “Gulistoni bit-turkiy” tarkibida ham u o‘z she’riy hikoyatlarining ba’zilaridan, jumladan, “Qari bo‘ldung, yigitlikdan aling

yuv” she’riy hikoyatidan parcha keltirgan va hikoyatning didaktik mazmuniga alohida urg’u qaratgan. Hikoyat “teng tengi bilan” naqliga amal qilish lozimligi, yoshi o’tgan odam yigitning xatti-harakatlarini qilishga bel bog’lasa, sharmanda bo’lishi muqarraligi haqida o’git beradi.

Sayfi Saroyi o’z zamondoshlaridan Mavlono Qozi Muhsin, Mavlono Is’hoq, Mavlono Imod Mavlaviy, Ahmad Xoja as-Saroyi, Abdul Majid, To’g’li Xoja, Hasan o’g’li, Xorazmiy kabi shoirlarning she’rlariga bir vaznda va bir xil qofiyada javob aytgan. Sayfi Saroyining va o’sha shoirlarning g’azallari shundan dalolat beradiki, Misrdagi turkiy xalqlar adabiyotida g’azal janri Xuroson va Movarounnahr shoirlarining g’azalchiligi darajasida yuqori saviyada yozilgan. Bu shoirlarning aksariyati taxallusidan ham ma’lumki, ular Oltin O’rdadan, O’rta Osiyodan borib, o’sha yerda o’rnashib qolganlar va Oltin O’rdadagi adabiy an’anani, xususan, g’azalchilikni davom ettirganlar. Ayniqsa, Sayfi Saroyining g’azallarida so’z o’yinidan foydalanish mahorati bunga bir dalildir. Namuna sifatida Ahmad Xoja as-Saroyining g’azalini va Sayfi Saroyining javob g’azalini keltirish kifoya:

Ahmad Xoja as-Saroyi aytur: rahmat ul-Allohu

Dilbarimning ul sadaf tek og’zida dur bor erur,
La’lining shavqinda tun-kun diydalar dur bor erur.
Zulfi sunbultek, bo’yi sarv yenglari gulzor erur,
Bo’yini ko’rmaga bir dam bulbulu gul zor erur.
Jon olib husnun sotar bu ne ajab bozor erur,
Yo magar oshiqlarig’a noz etib bezor erur.
Ravza yanglig’ xus bog’inda yonog’i nor erur,
Hajm ishq ko’ngullarni yoqarg’a nor erur.
Banda Ahmadni bek tabg’inda xush asror erur
Kim, aning she’ri so’zlari asror erur.

Ul vazn va ul qofiyada Sayfi Saroyi aytur

Dilbarimning zulfi sunbul, chehrasi gulzor erur,
Bo’yina oshuq sanavbar, yuzina gul zor erur.
Og’zi fistuq, ko’rki tangsuq, o’zi mushfiq yor erur,
Husnining chovi Xitovu Chin ichinda bor erur.
Asli alchin, so’zlari chin, ko’zlari totor erur,

Ming yashar har kim, dudog‘i sharbatin totor erur.
Ishqining elchisina ko‘nglim munaqqish dor erur,
Zulfina tushkan ko‘ngullarning maqomi dor erur.
Nechakim ishq i o‘ti bu jon ichinda bor erur,
Qahrabo uzra ko‘zumdin dam-badam dur bor erur.
Shahd so‘zi, orif o‘zi, voqifi asror erur,
Vasl bo‘stonida xush oshiq-larin asror erur.
Vasfina Sayfi Saroyining ishi ash‘or erur,
Andin o‘zga birla oshiqqa yemak osh or erur.

Har ikkala g‘azal o‘zbek adabiyoti tarixida kam uchraydigan qofiyalanish tizimiga ega. Qofiyalanish tizimi bo‘yicha bu she‘r g‘azali zebqofiya deb yuritiladi. G‘azalning hamma baytlari, xuddi g‘azalning matla‘i kabi, ya‘ni a-a, a-a, a-a tarzida qofiyalanadi. Mazkur g‘azallardagi durbor-dur bor, gulzor-gul zor, totor-totor va h. qofiya tajnis asosiga qurilgan. Bunday qofiyalanish tizimi o‘zbek she‘riyatida kam uchraydi. Hozircha faqat ikkala shoir ijodida uchradi, xolos. Sayfi Saroyining katta ijodkor, Oltin O‘rda va Mamluklar davlatida e‘tiborga loyiq shoir bo‘lgani uning javob g‘azaallaridan ham anglashilib turadi.

Sayfi Saroyining bizgacha yetib kelgan lirik she‘rlari miqdor jihatidan oz bo‘lsa-da, mavzu qamrovi keng: goh odamiylik va inson qadr-qimmat, goh samimiy ishq-muhabbat, goh oliyjanob insoniy tuyg‘ular shoir she‘rlarining asosiy mohiyatini tashkil qiladi.

Savol va topshiriqlar:

1. “Muhabbatnoma”da Xorazmiy haqida qanday ma’lumotlar berilgan?
2. “Muhabbatnoma” tarkibida qanday she‘riy janrlar kelgan?
3. Sayfi Saroyi qanday asarlar yaratgan?
4. “Suhayl va Guldursun” dostoni haqida ma’lumot bering.
5. “Gulistoni bit-turkiy” asari haqida ma’lumot bering.

DURBEK HAYOTI VA IJODI

REJA:

1. “Yusuf va Zulayho” turkumidagi dostonlar haqida.
2. Durbek va uning “Yusuf va Zulayho” dostoni.
3. Dostonning obrazlar tizimi, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari.

Tayanch so‘z va iboralar: Durbek, Balx qamali, Yusuf, Ya‘qub, og‘a-inilar, Moliki Tojir, Zulayho, enaga, Misr Azizi.

“Yusuf va Zulayho” turkumidagi dostonlar haqida. “Yusuf va Zulayho” dostoni Sharq xalqlari orasida qadimdan mashhur bo‘lgan qissalardandir. Bu sayyor syujet “Tavrot”, “Injil” hamda islom dinining muqaddas kitobi Qur’oni karimda ham uchraydi. Sharq adabiyotining buyuk darg‘alari Firdavsiy, Saolibiy, Ibn Sino, Kisoiy, Abdurahmon Jomiy kabilar arab va fors tillarida, Qul Ali, Shayyod Hamza, Nosuriddin Rabg‘uziy singari ijodkorlar esa Durbekka qadar turkiy tilda yozgan asarlarida mazkur qissaga murojaat etganlar.

Yusuf voqeasiga bag‘ishlab yozilgan birinchi badiiy asar Abulqosim Firdavsiyning (934-1020) “Yusuf va Zulayho” dostonidir. Keyingisi Abdurahmon Jomiyning (1314-1492) shu nomdagi asaridir. Turkiy adabiyotda ilk bor Yusuf syujeti asosida yaratilgan badiiy asar XIII asrda yashagan Qul Alining “Qissayi Yusuf” dostonidir. Yana XIII asrning ikkinchi yarmida Kichik Osiyo saljuqiylaridan Sayyod Hamza ham “Yusuf va Zulayho” dostonini yaratgan. 1409-yili Durbek tomonidan yartilgan “Yusuf va Zulayho” dostoni ham o‘zbek tilidagi bu an‘naviy dostonning yorqin, mukammal namunalaridandir.

Sharq adabiyotida “Yusuf qissasi” va “Yusuf va Zulayho” dostonlari ko‘p uchragani bilan birga, qator variantlarga ega bo‘lsa-da, voqealar aynan bir-birini takrorlamaydi. Bu syujet turli xalqlarda qayta ishlandi, har bir xalqning yozma va og‘zaki adabiyoti bu syujetga ta’sir etdi, natijada o‘ziga xos, mazmunan bir-biridan farq qiladigan mustaqil asarlar paydo bo‘ldi. Shu bois Na Sharq xalqlarida bu turkumdagi dostonlarning g‘oyaviy

yo‘nalishiga va syujet-kompozitsiya qurilishiga ko‘ra to‘rt guruhga ajratish mumkin.

Birinchi guruhga Firdavsiyning “Yusuf va Zulayho” dostoni mansub. Bu dostonda asosiy mavzuni Yusuf bilan Zulayhoning bir-biriga bo‘lgan qizg‘in muhabbati va ularning kechinmalari emas, balki uzoq yillar davomida suyukli o‘g‘lidan ayriliqda yashagan Yoqubning bosnidan kechirgan fojia tashkil qiladi. Ikkinchi guruhga Ibn Sinoning “Yusuf qissasi”, Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asaridagi “Yusuf alayhissalom qissasi” mansub. Bu qissalar diniy-falsafiy mavzuda - ilohiy ishq mavzusida yozilgan. Uchinchi guruhga Abdurahmon Jomiyning “Yusuf va Zulayho” si singari dostonlar mansub. Bu dostonlarda asosiy mavzuni Zulayhoning Yusufga bo‘lgan otashin muhabbati, shuningdek, bu muhabbat zaminidagi “men” va ilohiy ishq tashkil qiladi. Qul Alining “Qissayi Yusuf” asari ham ana shu guruhga mansub. To‘rtinchi guruhga kurd shoiri Salim Sulaymonning (XVI) “Yusuf va Zulayho” dostoni mansub. Zulayhoning Yusufga boigan inuhab⁴²³ batini va Yoqubning farzand dog‘ida kuyib-yonganini shoir deyarli bir syujet chizig‘ida tasvirlaydi. Shuningdek, o‘zbek adabiyoti tarixida shoir Durbekka nisbat berilayotgan “Yusuf va Zulayho” dostoni ham shu guruhga kiradi. Barcha “Yusuf” qissalari hamda “Yusuf va Zulayho” dostonlari orasida keng tarqalgan dostonlami ana shu tarzda guruhiash mumkin. Sharq adabiyotida “poetik o‘zlashtirish” natijasi bo‘lgan boshqa “Yusuf” qissalari va “Yusuf va Zulayho” dostonlarining hammasini mazkur guruhlashga jalb qilish imkoni yo‘q. Albatta, bunday guruhlanish shartli bo‘lib, “Yusuf va Zulayho” dostonlarida majoziy ishqdan ko‘ra, haqiqiy (ilohiy) ishq ustunlik qiladigan lavhalar ko‘p o‘rin egallagan. XIV-XV asrlar adabiyotida “Yusuf va Zulayho” dostonlari shoiriar ijodining adabiyotdagi o‘mini va mavqeini belgilaydigan omillardan biri bo‘lib qoldi. Alisher Navoiy “Majolis un-nafois” asarida keltirgan ayrim ma’lumotlar shundan dalolat beradi. Navoiy Xoja Mas’ud Qumiy degan shoir haqida ma’lumot berar ekan, uning masnaviysi puxta, g‘azallari ravon ekanligi haqida to‘xtalib, “Tig‘ va Qalam” munozarasi, “Shams va Qamar” dostoni bilan bir qatorda, “Yusuf va Zulayho” dostoni borligi haqida ham aytib o‘tadi (Navoiy. MAT. 13-jild. 47-b.). Navoiy “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida Yusuf qissasini bayon qilar ekan, Firdavsiy, Abdurahmon Jomiy,

Xoja Mas'ud Iroqiy va boshqa bir qator azizlaming "Yusuf va Zulayho" qissalari hamda boshqa bir qator shoirlaming bu nomdagi asarlari haqida eslatadi. Shuningdek, Navoiy "Inshaalloh umr omon bersa, turk tili bila o'q" Yusuf haqida doston yozish niyati borligini bayon qiladi (Navoiy. MAT. 16-jild, 122-b.).

Bu asarlar orasida Durbekning "Yusuf va Zulayho" dostoni alohida ahamiyatga molik. "Yusuf va Zulayho" dostonining muallifi masalasi uzoq yillardan beri munozaraligicha qolmoqda. Ba'zilar bu dostonni Durbek emas, Ulug'bek, Homidiy Balxiy kabi shoirlardan biri ijod qilgani haqida ma'lumot beradilar (O'zbek adabiyoti tarixi, 1-tom, Toshkent, 1977, 278-279-betlar). Adabiyotshunos N.Mallayevning kitobida bu haqda quyidagi mulohazalar bayon etilgan: "Keyingi yillarda ayrim tadqiqot va maqolalarda "Yusuf va Zulayho" hamda uning muallifi haqida munozarali fikr-mulohazalar bayon etildi. Munozara "Yusuf va Zulayho"ning muallifi, uning yozilgan yili kabi masalalarni o'z ichiga oladi. Mavjud ma'lumotlarning ozligi, doston nusxalarining nisbatan keyinroq ko'chirilgan bo'lishi, ularning kamligi hamda o'zaro qiyosiy tadqiq qilinmaganligi ayrim munozarali masalalarni uzil-kesil hal etishga imkon bermaydi. Binobarin, biz an'ana bo'yicha "Durbek" nomi va "1409" sanasini saqlab qoldik (Mallayev N. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, 1976, 274-bet).

Aslida "Yusuf va Zulayho" dostonining yozilgan yili va muallifi masalasida adabiyotshunoslikda XX asrning 70-yillaridayoq ishonarli fikrlar o'rta tashlangan edi. Jumladan, akademik B.Valixojayevning tadqiqotlarida ayni masalada ko'p sonli adabiy ma'lumotlar guvohligida jiddiy xulosalar bayon qilingan. Taniqli olim samarqandlik ma'rifatparvar Abduhamid Po'lotiy shaxsiy kutubxonasida saqlanayotgan "Yusuf va Zulayho" qo'lyozmasiga tayanib, masalaga oydinlik kiritgan. O'sha qo'lyozmada "Ayladi bu qissani Durbek nazm" satri ham bor ekanki, buni inkor qilishning imkoni yo'qdir (Batafsil ma'lumot uchun qaralsin: Valixojayev B. O'zbek epik poeziyasi tarixidan. Toshkent, "Fan", 1974, 50-54-betlar).

"Yusuf va Zulayho" dostoni va asar muallifi xususida sharqshunos E.E.Bertels, V.V.Bartold, D.T.Voronovskiy, N.M.Mallayev, B.Valixojayev, E.Fozilov, F.Sulaymonova kabi olimlar ilmiy izlanishlar olib bordilar va qimmatli fikrlar bayon etdilar. 1971-yilda Javqon Lapasov

“Yusuf va Zulayho” dostoni morfologiyasi” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yozdi. Dostonning ilmiy jamoatchilik nazariga tushgan Toshkentda saqlanayotgan 5, Samarqanddagi 2 hamda 1516-yilda (hijriy 922) ko‘chirilgan Istambuldagi To‘pqopi saroyi kutubxonasida mavjud bo‘lgan Hirot nusxasi va 1563-yilda (hijriy 971) ko‘chirilgan Parij Milliy kutubxonasida saqlanayotgan nusxalari ma’lum. Professor A.Fitrat ilk bor 1929-yilda Samarqandda chop etilgan “O‘zbek adabiyoti namunalari” kitobida “Yusuf va Zulayho” dostonidan parchalar e’lon qildi. Shundan so‘ng turli darslik va majmualardan asar parchalari o‘rin oldi.

“Yusuf va Zulayho” dostonining yaratilish tarixi. Durbekning hayoti bilan bog‘liq ba’zi ma’lumotlar “Yusuf va Zulayho” dostonining muqaddimasidagina keltiriladi, xolos. Muallif asarning yozilgan yilini abjad hisobiga asoslanib quyidagicha ifodalaydi:

“Zod” edi tarix yana “xe”-yu “dol”,

Muddati hijratdln o‘tub mohu sol (Uch bulbul gulshani. 7-bet).

Abjad hisobiga ko‘ra “zod” – 800, “xe” – 8, “dol” esa – 4 ga teng. Ularning yig‘indisidan 812 hijriy yil kelib chiqadi. Uni milodiy yilga aylantirsak, 1409-yilga to‘g‘ri keladi. Shoir doston muqaddimasida shu yili “jumla akobir”lar-u “nabi-yu vali”lar bag‘rida sokin, abadiy uyquga ketgan “ummul bilod” – shaharlar onasi bo‘lgan Balx qamal qilinganini iztirob bilan yozadi. Yozning sarhil mevalari pishgan paytda shahar ahlining butun noz-ne’matlardan bebahra qolgani Durbekni chuqur iztirobga soladi va u o‘sha kayfiyatini satrlarda quyidagicha ifodalab qoldirgan:

Shahr chu do‘zax kibi zindon edi,

Tashqari chun ravzai rizvon edi.

Tashqari erdi bori noz-u naim,

Shahr ichida erdi azobi alim...

Tashqari erdi ban polizu bog‘,

Shahr ichida erdi base dard-u dog‘(7-bet).

Durbek qamal ichra qolgan shahar aholisining ayanchli holatini yuqoridagi parchada kuzatilganligi kabi qarshilantirish san’atidan mahorat bilan foydalanib badiiy ifoda etadi. Doston muallifi tasvirdagi o‘sha voqealarning shaxsan guvohi bo‘lgan. Asarda alohida ta’kid bilan qayd qilinishicha, qamal uch oy davom etgan:

Ushbu qalob xalq uch oyi tamom,
Yer edilar g'ussa-vu g'am subh-u shom.
Banda alar birla giriftor edim,
Borchasidin voqifi asror edim (8-bet).

Adib mana shu qamal davrida taqdirdoshlari bilan birgalikda g'am sharobini ichib, goh Alloh kalomi, goh kitob o'qish bilan mashg'ul bo'ladi. Shoirning yozishicha, turkiy til bilan Yusuf va Zulayho qissasini nazmda bayon etish uning ko'nglida tug'ilgan shirin niyati edi. Balx qamali davrida Durbek forsiy tilda nasrda bitilgan "Qisasi Yusuf" – bilan tanishadi. Biroq shoir bu asar va uning muallifi haqida dostonda hech qanday ma'lumot bermaydi. "Yusuf va Zulayho" haqida yirik hajmli doston yozishga kirishgan shoir, shubhasizki, "Yusuf va Zulayho"ning zukko kitobxonlar orasida keng tarqalgan xalq kitobi nusxalari bilan ham tanish bo'lgan. Shuningdek, shoirning "Goh o'qir edim zi kalomi iloh" misrasi uning Qur'oni karimdagi "Yusuf" surasidan ham ijodiy ta'sirlanganligini dalillaydi.

Dostonning obrazlar tizimi, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. "Yusuf va Zulayho" – ishq-muhabbat mavzusida yozilgan doston bo'lishi bilan bir qatorda, unda shoirning axloqiy-ta'limiy, ijtimoiy-siyosiy qarashlari, adolatli hukmdor haqidagi o'y-xayollari hamda islom dinining shuhrat kasb etishi singari muhim ahamiyatga molik mulohazalari badiiy in'ikosini topgan. Dostonning qisqacha tafsiloti quyidagicha:

Mag'ribda nomi keng tarqalgan, doimo zafar yo'ldoshi bo'lgan shoh Taymusning qizi Zulayho tushida Yusufni ko'rib, unga g'oyibona oshiq bo'ladi. Shoir Taymus haqida fikr yuritarkan, "Kofir edi ul, vale odil o'zi, bo'lmas edi ikki oning bir so'zi", – deya ta'riflaydi. Ushbu misralarning o'zidanoq dostonda muqaddas islom dini targ'ib qilinishi anglashiladi. Zulayho tushida Yusuf bilan "suhbatlashadi". Yusuf o'zini mahbubaga quyidagicha "tanishtiradi":

Dedikim: Yusufdur otim, gul uzor,
Men eruram Misr elida shahriyor (34-bet).

Zulayho uyg'ongach, o'zini yangi bir olamga kirib qolgandek his etadi. U ishqning asirasiga aylanadi. Zulayho butun umri davomida o'sha tush taassuroti bilan yashaydi. Shoir Zulayhoning Yusuf ishqida o'rtanishlarini juda ehtiros bilan badiiylashtiradi:

Erdi aning ogʻzida Yusuf oti,
Oʻrtadi boshdin - oyogʻi ishq oʻti (35-bet).

Magʻrib shohi Taymus olti oylik yoʻl boʻlgan Misr eliga xat yozib, elchi yuboradi. Zulayhoning kelajagi, baxti haqida qaygʻurgan ota-ona uni Misrga kuzatib qoʻyishadi. Zulayho Misrda katta tantana bilan kutib olinadi. Biroq u Misr Aziziga turmushga chiqadi va taqdiriga tan berishga majbur boʻladi. Chunki u bilan kelgan enagasi qizdan ota-ona nomusini muhofaza qilishini qattiq talab qiladi. Iztiroblar alangasida qolgan Zulayhoning Yusufga boʻlgan muhabbati yanada haroratlana boradi. Sabr-toqat, chidam uning hamrohiga aylanadi. Biroq qiz muhabbatining tobora yolqinlanib borayotganiga baʼzan bardosh berolmay qolganligi ham dostonida badiiy ifodasini topgan. Bunday holat uning Yusuf bilan uchrashuvlarida namoyon boʻladi. Taqdir taqozosi bilan Yusuf ham Misrga kelib qoladi. Uning goʻzalligi va donoligiga hasad va gʻayirlik bilan qaragan, otalari Yaʻqub taxtining merosxoʻri Yusuf boʻlishidan xavfsiragan ogʻa-inilari uni yoʻqotish payiga tushadilar. Ular Yusuf uchun choh qazishga tushadilar va qarib qolgan otalari Yaʻqub hamda uning sevikli farzandi boshiga ogʻir musibatlarni soladilar. Yahudo boshliq Yusufning akalari Yaʻqubdan hiyla bilan oʻz ukalarini olib ketib, “boʻri edi” bahonasi bilan uni chohga tashlaydilar. Munofiqlik shu darajaga borib yetadiki, ogʻa-inilardan biri uni pichoqlashga kirishadi. Shoir dostonida bu hodisani quyidagi misralarda tasvirlaydi:

Bir ogʻasi qoʻpti, sugʻurdi pichoq,
Keldi oning koʻksina qoʻydi ayoq.

Chohdayotgan Yusufning joniga Moliki Tojir karvonining kelib qolishi oro kiradi. Yahudo boshliq ogʻa-inilar husnda, aql-farosatda yakto boʻlgan, otasining xizmatini sadoqat bilan oʻtaydigan Yusufni Moliki Tojirga sotadilar va munofiqlik ustiga yana munofiqlik qiladilar.

Dedilar: E, Xojai nek eʼtiqod,
Bandamiz erur, oʻzidur xonazod.
Uch kecha-kunduz qochib erdi tamom,
Qilgʻon ekandur bu choh ichra maqom.
Emdiki, toptuq qiloli oni band,
Turfa gurizanda qul erur lavand.

Bizga kerakmasdur oning hech ishi,
Borcha sotarmiz agar olsa kishi.
Iliki egri, o‘zi qochqoq erur,
Borcha yomonlik ichida toq erur (24-25-bet).

Ko‘rinadiki, mol-mulk, mansab ilinjida og‘a-inilarning bu qadar tubanlik botqog‘iga sho‘ng‘ishi dostonida qattiq qoralanadi. Yusuf qullik azobiga giriflor qilinadi. Ya‘qub esa ko‘rar ko‘zlaridan judo bo‘ladi. Shu tariqa, Moliki Tojir Yusufni Misr Aziziga uning bo‘yidan ham baland keladigan “yoqut ila dur-u guhar” evaziga sotadi. Misrdagi ko‘shk ustida Yusufni ilk bor o‘z ko‘zlari bilan ko‘rgan Zulayho ishq alangasi ichida o‘rtanadi. U bu alanganing yuksak haroratiga bardosh berolmaydi. Biroq enagasining pand-u nasihatlari, sabrga undovchi o‘gitlariga tan berishdan o‘zga chora topa olmaydi.

Enagasi dedi: Hali ayla sabr,
Qilmag‘il o‘zunga, ayo moh, jabr (88-bet).

Dostonida sevishganlarning ehtirolarini jilovlash borasidagi irodalari-ning sinovdan o‘tishi yuksak mahorat bilan tasvirlanadi. Bu borada Zulayhodagi ishq mayidan ko‘proq sarxush bo‘lishga moyillik bilan Yusufdagi sabr-matonatning to‘qnash kelishi asardagi ziddiyatlarning eng yuksak cho‘qqisi bo‘lib xizmat qiladi. Misr Azizi Yusufni sotib olarkan, jufti haloliga uni qul sifatida emas, balki farzandi deb bilishini o‘tinadi. Bu esa Yusufning zimmasiga yanada mas‘uliyat yuklaydi. Misr Azizi Yusufni Zulayho xizmatiga yuboradi. Shunday qilib, sevishganlar bir-birlari bilan yaqindan uchrashadilar. Biroq bu uchrashuvlar Yusufning jiddiy qarshiliklari bilan kutilgan visol onlarini uzoqlashtiradi. Shoir Yusufning atayin Zulayhoning ko‘ngil istaklariga qarshi borishi manzaralarini o‘quvchi ko‘z o‘ngida yaqqol gavdalantirib beradi:

Yusuf ayittiki: Holo xush siyom,
Men edim ozod, bo‘lubmen g‘ulom.
Men edim o‘z mamakatimda amir,
Munda bukun xor erurmen, haqir.
Meni falak qildi otomdin judo,
Shoh edim, emdi bo‘libmen gado.
Ko‘rsa tushinda Zulayho gar mani,

Men dag'i tushumda ko'ribmen ani (144-bet).

Yuqoridagi iqtibos dostonda Yusufning Zulayho enagasiga aytgan so'zlaridir. Bundan Yusufning ham sadoqatli oshiq ekanligi yaqqol sezilib turadi. Enaga uning so'zlarini Zulayhoga yetkazadi va qizni ortiqcha fig'on qilmasdan tangriga shukur qilishga chaqiradi:

Yusuf erur xizmatingga subh-u shom,
Sabr bila etgasen oxir bakom,
Sabr bila tengri berur komi dil,
Sabr qil-u, sabr qil-u, sabr qil (45-bet).

Enaga tilidan aytilgan bu so'zlar dostonda ilgari surilgan yetakchi g'oyalardan biridir. Ayni choqda qamal ichida qolgan Balx shahri aholisini ham shoir turli ishoralar yordamida sabr-u bardoshli bo'lishga chaqiradi. Muhabbat iztiroblari Zulayho bardoshidan ustun keladi. Uni enagasi qanchalik sabr qilishga undamasin, baribir Zulayho faqat visolga intiladi. Yusufni xilvatga chorlab, unga ko'ngil istaklarini bayon etadi. Biroq Yusufning gunohga botgisi, zinoga yo'l qo'ygisi kelmaydi. Zulayho tuhmat va malomat qilib uni zindonga soldiradi. Ammo keyinchalik u bu qilgan ishlaridan juda pushaymon ham bo'ladi. Iloj topib Yusufning ovozini eshitishga, banddan ozod bo'lgan Yusufning uzoqdan bo'lsa ham jamolini ko'rish bilan taskin topishga harakat qiladi. Shoir mamlakat obodonchiligi, el-yurt farovonligini davlat boshliqlarining adolatli siyosat yurgizishlari hamda tadbirkorliklarida deb biladi. Dostonda Misr shohi Rayyon ana shunday kishilardan biri sifatida tasvirlanadi. Rayyon davlat ishlarini boshqarish uchun o'zidan ko'ra tadbirliroq va donishmandroq bo'lgan Yusufni Misr taxtiga ko'taradi. Yusuf zindondagilarni ozod qiladi va uning qat'iy buyruqlari hamda ko'rsatmalari bilan Misr xalqi dehqonchilikda misli ko'rilmagan natijalarni qo'lga kiritadi. Olti yil davomida ocharchilik azobini boshidan kechirgan xalq farovon hayotga tashna edi. Yusuf xalqning ana shunday ezgu istagining amalga oshishida katta xizmatlar ko'rsatadi. Dostonda ikki sevishgan qalb sohiblari Yusuf va Zulayhoning Misrda o'tkazilgan to'ylari tafsilotlari ham bag'oyat mahorat bilan tasvir etilgan. Shoir bu tantanadan xalqning behad xursandchiligini zo'r ehtiros bilan ko'rsatishga erishadi. Shu bilan birga ikki sevishgan qalbning yangidan hayot boshlashi lavhalari tasviri ham ancha jonli chiqqan. Asarda

chinakam muhabbat tarannum etilib, turli yovuzliklar natijasida aziyat chekkan barcha kishilar hayotning zavqli onlaridan bahramand bo'lishdek baxtga qayta musharraf bo'lishlari mahorat bilan badiiy ifodasini topgan. Og'a-inilar qilgan yovuz ishlaridan pushaymon bo'lishadi. Shoir chinakam adolat tantanasini dostonidagi Bashir obrazi sarguzashtlari asosida ifoda etadi. Bashir Molik Tojirning qullaridan biridir. Yusufning onasi vafot etganda, Ya'qub Bashirning onasini sotib oladi va Yusuf shu enagasini emib katta bo'ladi. Ya'qub ona-bolani bir-biridan judo qilish uchun Bashirni qul sifatida sotib yuboradi. Farzandi dog'ida kuygan mushtipar onaning ikki ko'zi olamni ko'rishdek baxtdan mahrum bo'ladi. U doimo Kan'on darvozasi oldida o'g'lining yo'liga termulib o'tiradi. Ya'qubning ham boshiga taqdir shunday musibatlarni soladi. Yusufning zindondan Bashirni ozod qilishi va echki qoniga belangan ko'ylagini unga berib yuborishi, barcha musibatlarga xotima yasaydi. Bashir avval onasini izlab topadi. Visol shodligidan onaning ko'zlari ravshanlashadi. Keyin Bashir Yusufning ko'ylagini Ya'qubga eltib beradi. Ya'qub bu ko'ylakni ko'zlariga surtadi va uning ko'zlari ham munavvar bo'ladi. Dostonda asarning xalq og'zaki ijodi nusxalarida bo'lgani kabi qahramonlik ham ulug'lanadi. Yusufning katta o'g'li Meshomning maydonga kirib bir hamla bilan Yahudo bilan Sham'unni chetga olib otishi va qolgan sakkiz og'a maydonga chiqishga jur'at etolmaganliklarida folklorning ta'siri kuchli ekanligi sezilib turadi.

“Yusuf va Zulayho” dostonining qurilishi, voqealar rivoji murakkab bo'lgan asardir. Unda juda ko'p voqealar va obrazlar mavjud bo'lib, ular asosan Yusuf sarguzashtlari atrofida birlashgan hamda dostonidagi asosiy qahramonlarning qator fazilatlarini ochishga xizmat qilgan. Aruzning sari' bahrida (muftailun, mufiailun, foilun) bitilgan bu asar ravon uslubda yozilganligi hamda badiiy tasviriy vositalaiga boyligi, shuningdek, o'zbek mumtoz adabiyotidagi badiiy jihatdan ancha mukammal ijod etilgan dostonlardan biri ekanligi bilan ahamiyatlidir. Bulardan tashqari, mazkur asar Durbekdan keyin shu mavzuda ijod qilgan o'zbek va boshqa qardosh xalqlar shoirlari uchun ham ilhom manbai bo'lib xizmat qildi.

Savol va topshiriqlar:

1. “Yusuf va Zulayho” dostoni muallifi haqidagi munozaralar xususida nimalarni bilasiz?
2. Dostonda ifodalangan Balx qamali haqida so‘zlang. Doston muallifining bunday tasvirni berishdan muddaosi nima?
3. “Yusuf va Zulayho”da adolatli va tadbirkor podshoh g‘oyasi qanday tasvirlangan?
4. Dostonning badiiy xususiyatlari haqida so‘zlang.

HAYDAR XORAZMIY HAYOTI VA IJODI

REJA:

1. Haydar Xorazmiy hayoti va ijodiy merosi.
2. “Maxzan ul -asror” asari.
3. “Gul va Navro‘z” dostoni.

Tayanch so‘z va iboralar: mav‘iza, doston, hikoyat, Farrux, Navro‘z, Gul, Mushkin, Bahman, Yaldo.

Haydar Xorazmiy hayoti va ijodiy merosi. Haydar Xorazmiy XIV asrning oxiri va XV asrning boshlarida yashab ijod qilgan iste‘dodli so‘z san’atkoridir. Shoir haqidagi ba’zi ma’lumotlar Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro”, Alisher Navoiyning ‘Majolis un-nafois’, “Muhokamat ul-lug‘atayn” kabi asarlarida uchraydi. Ularda shoirning noyob iste‘dod sohibi ekanligi qayd etilib, turkiy va forsiy tillarda yaxshi she‘rlar bitganligi, Amir Temur nabiralaridan Iskandar Sheroziyga bag‘ishlab Nizomiy Ganjaviyning “Maxzan ul-asror” (“Sirlar xazinasi”) dostoniga javoban turkiy tilda go‘zal, ijodiy doston yozganligi e’tirof etiladi. Haydar Xorazmiyning turkigo‘y shoirligi va uning xorazmlik ekanligi Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida e’tirof etilgan. Salohiyatli shoir o‘z masnaviysini turkiy tilda yozishini quyidagicha izohlaydi:

Turk zuhuridur ochunda bu kun,
Boshlar uluq yir bila turkona un!...
Turk surudini tuzuk birla tuz,
Yaxshi ayolg‘u bila ko‘kla qo‘buz...
Men bitigan xat bila yo‘ng‘il qalam,

Men yurug‘on yo‘l bila urgil qadam (Muborak maktublar. – Toshkent, 1987, 221-bet).

Adabiyotshunos N.Mallayev “Maxzan ul-asror” Haydar Xorazmiy adabiy merosidan bizgacha yetib kelgan yagona asar ekanligini ta’kidlaydi. Shuningdek, olim shoirning hayoti haqida quyidagi ma’lumotlarni keltiradi: “Haydar asli Xorazmdandir. Uning Haydar Xorazmiy deb atalishi ham shu

boisdan. U qachonlardir Fors viloyatiga kelgan. Birmuncha vaqt, Navoiy va Davlatshoh ta'kidlaganlaridek, Sulton Iskandar huzurida bo'lgan. Sulton Iskandar birmuncha ma'rifatparvar amirzodalardan bo'lgan, o'z atrofiga ilm, san'at, adabiyot ahllarini to'plagan, o'zi ham she'riyat bilan shug'ullangan. Haydar Xorazmiy farazan 1409-1414-yillar orasida "Maxzan ul-asror" dostonini yaratgan" (Mallayev N. O'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent, 1976, 288-bet). Keyingi yillarda Mavlono Lutfiy asari sifatida qayd etib kelingan "Gul va Navro'z" dostoni ham Haydar Xorazmiyga nisbat berilayotir. "Funun ul-balog'a" hamda Bobur Mirzoning "Aruz risolasi"dagi e'timodli qaydlar shunday xulosani yanada quvvatlantirishga xizmat qiladi. "Maxzan ul-asror"ning London, Parij, Vena, Qozon va boshqa joylarda saqlanayotgan qo'lyozma nusxalari fan olamiga ma'lum. Doston yuzasidan E.E.Bertels, H.Zarifov, A.Abdug'afurov, B. Valixo'jayev, E.Rustamov, J.Sharipov, A.Hayitmetov singari bir qator olimlar ilmiy izlanishlar olib borishdi. N.Abdullayev asarning qiyosiy matnini vujudga keltirdi va 1974-yilda Nizomiy Ganjaviy dostoni bilan chog'ishtirish asosida nomzodlik dissertatsiyasini yozdi. Sharq xalqlari adabiyotida ulug' ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviy "Xamsa"siga yoki uning ayrim dostonlariga javob aytish adabiy an'ana sifatida shakllandi. Bu ish shoirdan katta iste'dod, teran tafakkurni talab etardi. Qutb Xorazmiyning "Xusrav va Shirin" dostoni mana shu an'ananing samarasi o'laroq vujudga kelgan bo'lsa, ajab emas.

"Maxzan ul-asror" asari. Haydar Xorazmiy o'zining "Maxzan ul-asror" dostoni bilan ushbu adabiy an'ana ravnaqiga muhim hissa qo'shdi. Nizomiy Ganjaviyning "Maxzan ul-asror" dostoni falsafiy-ta'limiy asardir. Dostonning asliyatini 59 bobdan tarkib topgan. Masnaviyning dastlabki 18 fasli an'anaviy muqaddimaviy boblar sanaladi. Asarning asosiy qismi 20 maqolat va 20 hikoyatdan iborat bo'lib, mazmundor xotima bilan nihoyasiga yetadi. Shayx Nizomiy dostonining an'anaviy kirish qismlari Tavhid va Munojot, Muhammad alayhis-salomning ta'rifi, payg'ambarning me'roji, birinchi, ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi ta'rif, Dovud o'g'li Malik Faxriddin Bahrom shohning ta'rifi, Bahrom shohga xitob va ta'zim, bu kitobning tartibi, so'z madhi, nazmning nasrdan yuksakligi, ko'ngil, ko'ngil parvarishi haqida birinchi xilvat, birinchi xilvatning samarasi, ikkinchi

xilvat, ikkinchi xilvatning samarasi singari bo‘limlardan tarkib topadi. Dostondagi maqolatlarda shoir o‘zining muayyan ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta’limiy qarashlarini ixcham, o‘ta purma’no baytlarda ifoda etadi. Ularda ilgari surilgan g‘oyalarni esa hikoyatlar asosida oydinlashtirish va mustahkamlashga erishadi. Maqolatlarda shoir adolat, mamlakatni boshqarish va xalqqa munosabat, zolim podshohlardan shikoyat, mehnat va uning foydasi, kishilarga yaxshilik qilish va qivinchiliklardan qo‘rqmaslik, rashk va hasadning zarari, saxovatning foydasi, baxillikning yomon oqibati haqida muhim mulohazalarini bayon etgan. Haydar Xorazmiyning “Maxzan ul-asror” dostoni tuzilishi hamda janr xususiyatlariga ko‘ra, Nizomiy Ganjaviy masnaviysiga juda yaqin turadi. Har ikkala doston ham falsafiy-ta’limiy mohiyat kasb etib, aruzning sari’ bahrida (sari’i musaddasi matvii makshuf muftailun, muflailun faulun) yozilgan. Haydar Xorazmiyning “Maxzan ul-asror” dostoni o‘zbek tilidagi axloqiy-falsafiy dostonchilikning yirik namunasi. Asar taxminan 1409-1414-yillar oralig‘ida yozilgan. Haydar Xorazmiy bu dostoni bilan o‘zbek adabiyotida hikoyat janri taraqqiyotiga katta ulush qo‘shdi. Jumladan, Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy”, Sayfi Saroyining “Gulistoni bit-turkiy” asarlaridagi she’riy va nasriy hikoyat janrini Xorazmiyning hikoyatlari mavzu va g‘oya jihatidan boyitdi. Zotan, Xorazmiy hikoyatlarining hammasi, xuddi Nizomiy hikoyatlari kabi didaktik mazmundadir. U hikoyatlardagi didaktik mazmunni yanada takomillashtirdi. Didaktik janrni o‘z davrining ijtimoiy hayoti bilan bog‘ladi. Nizomiyning “Maxzun ul-asror” dostonida ko‘tarilgan masalalar mazmunan Haydar Xorazmiyning “Maxzan ul-asror” asarida davom etadi. Shunisi diqqatga sazovorki, Xorazmiy har bir hikoyatga mustaqil, takrorlanmas asar sifatida g‘oya yuklaydi. Xorazmiy o‘z asarida Nizomiy Ganjaviyni hurmat bilan tilga oladi, unga so‘z ganjining podshohi sifatida yuksak ta’rif beradi. Haydar Xorazmiyning dostoni Nizomiy Ganjaviy dostoniga nisbatan hajman ancha kichik. Haydar Xorazmiyning dostoni 639 baytdan iborat bo‘lib, 23 bobdan tarkib topgan. Asarning dastlabki 7 fasli an’anaviy muqaddimaviy boblardir. Mazkur boblar Alloh hamdi, payg‘ambar na’ti, xalifalar ta’rifi, Sulton Iskandar madhi, musannifning vasfil-holi kabi masalalarga bag‘ishlangan. Dostonning asosiy qismi 16 bobni o‘z ichiga oladi. Ularda mav’iza (o‘git-nasihat), maqolat va hikoyatlar mavjud. Haydar

Xorazmiy Nizomiy Ganjaviydan farqli o'laroq, dostonida avval hikoyat, undan so'ng shu hikoyatdan kelib chiqadigan xulosa va fikrlarni umumlashtiruvchi bob (maqolat) keltiradi. Maqolatlar va hikoyatlarning mavzu doirasi ancha keng bo'lib, ularning ba'zilar Nizomiy Ganjaviy maqolat va hikoyatlariga ancha yaqin tursa, ba'zilar tamomila yangidir. Haydar Xorazmiy dostonidagi "Musannifning vasfil-holi" bobida o'zining bir kecha g'am bilan hamnafas bo'lganligi hamda ichki iztiroblarini bayon etib, Nizomiy Ganjaviyning "Maxzan ul-asror" dostoniga yuksak baho beradi. Undagi tashbehlar va teran fikrlarning sodda uslubdagi bayoni shoirning nozik did va so'z san'atining o'ziga xos jozibasidan mahorat bilan foydalana oladigan ijodkor ekanligidan dalolat beradi:

Aql tengiz erdi-yu andisha kon,
O'rtasida gavhari ma'ni nihon.
Jon tishi birla qozib ul konni,
Qildim o'zum g'avs bu ummonni.
Ul kishi qo'yg'ay chu Nizomiy bu ganj,
Qozg'ana olg'ay guhari dast ranj.
Yo'q esa har muflisi be dastgoh,
Hech topa bilgaymu bu Maxzanga roh (206-207-betlar).

Aqlni dengizga tashbeh qilgan shoir shu dengizda yashiringan ma'ni gavharlarini ummonda g'ovvos singari suzib, jon tishlari bilan qaziganligini g'oyatda go'zal tasvirlaydi. Bu- "gavhari ma'ni", shubhasiz, Nizomiy Ganjaviy dostonidir. Shu bois shoir Nizomiy kashf etgan bu ganjga musharraf bo'lish uchun katta mehnat talab qilinishini bayon etadi. Iqtibosdagi "hech topa bilg'aymu bu maxzanga roh" misrasida shoir iyyom san'atidan mahorat bilan foydalangan. Haydar Xorazmiy "maxzan" so'zini dastlab xazina ma'nosida qo'llagan bo'lsa, ikkinchidan "Maxzan ul-asror" dostonini nazarda tutgan. Shuningdek, shoir Nizomiy Ganjaviy dostonidan ilhom olgani, undan adabiy ta'sirlanganini quyidagicha e'tirof etadi:

Menki pishurdim bu laziz oshni,
Shayx Nizomiydin olib choshni.
Shayx Nizomiy damidin jon topib,
Ma'nisidin yarliq-u burhon topib (222-bet).

Dostonning “So‘z ta’rifining bayoni” bobida muallif inson tili so‘zni yozishga asos bo‘lgani, ya’ni so‘zning insoniyat singari qadimiy ekaniga, so‘z gavharini bilguvchi zot hammadan ustun ekanini madh qilib, muharraf san’atini qo‘llaydi:

Nuqta bilan nuqta topib intizoj,
Qo‘ydi alif farqina shohona toj.
Tushgach alif qomatining soyasi,
Topti ham ul soyani ham soyasi.
Toj zilli, nuqta alif zillini,
Ismi alif, na’ti alif lomini.

Shoir so‘zning qudratiga baho berib, oqillar va oriflarning so‘zdan foydalanish maqsadiga to‘xtaladi: oqillar so‘zlarni tizib, ma’nili ma’no, ifoda paydo qiladi. Oriflar esa so‘zlaganda o‘sha so‘zlarda o‘zlarini namoyon qiladilar, so‘zda ifodalangan tub mohiyatga e’tibor beradilar. Ma’no va mohiyat birgalikda qudratga ega bo‘ladi. Xorazmiy oqillar va oriflarning so‘zga munosabatini, har ikkala toifaning so‘z qiymatini baholashda qaysi nuqtayi nazardan qarashini alohida ta’kidlaydi. Shoir oqillarga nisbatan “ahli nazar”, oriflarga nisbatan “nuri basar” iboralarini qo‘llar ekan, ular zohiriy va botiniy ilmga erishgan, bu ilmlarni o‘zlarida namoyon etgan zotlar ekanligiga ishora qiladi:

Ahli nazar shevasini so‘z bila,
Nuri basar mevasini ko‘z bila.
So‘z ko‘zidur ulki ko‘rar holni,
O‘z so‘zidur ulki so‘rar qolni.
So‘zda ko‘z-u so‘zlaguchida nazar,
Yo‘q esa so‘z kizlaguchida xabar.
Zohir-u botin xabari so‘zdadur,
O‘zgada yo‘q, har neki bor o‘zdadur.

Bu o‘rinda “hol”, “qol” so‘zlari ostidagi tushunchalar yuqoridagi “ahli nazar” va “nuri basar” iboralarini to‘ldirib keladi. Zotan, “hol” ahli - nuri basarlardir, ularning tasavvurlari ilohiy jamolni mushohada qila boshlaydi, ular tili bilan emas, dili bilan so‘zlay boshlaydi¹⁵. Ayni paytda “qol” ahli - ahli nazarlardir. Ular zohiriy ilmlar, jumladan, shariat ilmi sohiblaridir.

¹⁵ Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent: “Movarounnahr” - “O‘zbekiston”, 2009, 30- bet.

Zohir ham, botin ham soʻzda ifoda topishiga Xorazmiy alohida urgʻu berishni maqsad qilib qoʻygan. Shoir, qimmatli umr oʻtib ketadi, soʻz - durdir, soʻz dunyoda zurriyot kabi qoladi, deb bu bobni tugatar ekan, oʻz asarining mazmun-mohiyatini alohida taʼkidlayotganday boʻladi.

“Musannifning vasfi xoli” bobida shoir oldingi bobdagi mahzun kayfiyatni davom ettiradi. Xorazmiyning mahzun kayfiyatiga sabab - gʻam bilan oshno boʻlganida, ulfati va hamsuhbati gʻam ekanligida. Shu bois uning koʻz yoshidan - boda, bagʻridan - kabob, yurak dardidan - nuql (gazak), figʻonidan - rubob kuyi yaralgan va keyingi baytlarda ham shu ruh davom etgan. Ammo Xorazmiy shu kayfiyat bilan cheklanib qolmaydi. Uning oʻgit va nasihatlar mahzun kayfiyatiga hamohang emas. Bu kayfiyatdan maqsad - “moʻjizatek soʻz” yoki “anglagutek koʻz” orqali ilohiy sirlarni anglashga daʼvat qilishdir. Quyidagi bayt bu maqsadni yanada ochiqroq ifoda etadi:

Soʻzda kerak maʼni-yu maʼnida zavq,

Soʻzlaguvchida soʻz uchun dardu shavq.

Soʻzdagi maʼni - ishqning mohiyati, maʼnidagi zavq - ilohiy muhabbatdan zavq-u surguga toʻlishdir, dard-u shavq - ishqning alangalanishi va oshiqning riyozatidir. Bularning manbayi esa soʻzdir.

Shu bobning oxirida Sulton Iskandar Sheroziy madh qilinadi - uning Iskandar-u Doroday buyuk shoh, sohib karam, uning adolatidan dunyo ham, din-u diyonat ham faxrlanadi, ilmda haqiqat, shariat va tariqat ruknlarini chuqur egallagan, siyrati va suvrati birday goʻzal, xuddi Rustami Dostonday qilich tortadi va h. Bu parcha qasida janriga mansub boʻlib, alohida bob sifatida berilmagan boʻlsa ham, janr nuqtayi nazaridan bobning oldingi qismidan tamomila farq qiladi. “Kitob yozilishining bayoni” bobida Xorazmiy bu dostonini yozishga boshlagani va Iskandar Mirzoning koʻp himmat va saxovat koʻrsatgani, Nizomiydan bahra olib bu asarini yozgani haqida soʻz yuritadi.

Haydar Xorazmiy oʻzbek mumtoz adabiyotida sheʼriy hikoya yaratish anʼanasining ravnaq topishida katta hissa qoʻshdi. “Maxzan ul-asror” dostonidagi hikoyalar axloqiy-taʼlimiy mohiyat kasb etadi. Muallif ularda biror kichik hayotiy voqeani hikoya qilish orqali kitobxonga pand-nasihat qiladi, ularga oʻgit beradi, falsafiy, ijtimoiy-siyosiy va axloqiy-taʼlimiy

masalalarga doir zamonasi uchun peshqadam xulosalarini ilgari suradi. Aytilganlar nuqtayi nazaridan 43 baytdan tarkib topgan “Bo‘z tuquvchi kampir va bazzoz hikoyati” alohida ahamiyatga ega.

Shoir “Mav’iza” (o‘git, nasihat) bobida xalq hikmatlari, maqollaridan, hayotiy detallardan foydalangan holda o‘quvchiga hayotda to‘g‘ri bo‘lish, to‘g‘ri va halol yashash, Tangri berganiga rozi bo‘lish, boylarga hasad qilmaslik, boshqalarga yomonlikni ravo ko‘rmaslik, birning ustiga o‘nni qo‘yib sotmaslik va boshqa bir qator misollarni keltiradi. Bu mav’iza orqali Xorazmiy “Bo‘z to‘quvchi kampir va bazzoz hikoyati”ga zamin yasaydi, hikoyaning asosiy g‘oyasiga, aytmoqchi bo‘lgan voqeaga ishora qiladi. Hikoyatning mazmuni quyidagicha:

Kufa shahrida ilohiy ilmlarni egallagan bir shayx bozorga bordi. U yurib borib, bir bazzozning do‘koni qarshisida o‘tirdi. Bazzozning do‘koni asl mollar bilan to‘la ekanini ko‘rdi. Bazzozning butun umri savdo bilan o‘tgan edi. Shu payt bazzozning oldiga bir qari, arang nafas olayotgan, so‘zlashga ham madori yo‘q, ko‘zlarida hayot uchquni so‘ngan kampir oyog‘ini sudrab kelib qoldi. Kamir qo‘ynidan bir parcha bo‘zni chiqarib bazzozga uzatarkan: “Manovini olgin-u bahosini aytgin”, dedi. Bazzoz bo‘zni qo‘liga olib, kampirga bir talay yolg‘onni so‘zlay ketdi: “Bo‘zingizning momig‘i past, iplari ham dag‘al ekan. To‘n qilishga ham yaramaydi, yuvsa ishdan chiqadi. Bu matongizdan ko‘ylak ham tikib bo‘lmaydi, tuzukroq narxga arzimaydi”. Shundan keyin kampir do‘kondor bazzozga dardini to‘kib soldi: “Ey sohib karam xojam, boshing omon bo‘lsin, bu dunyoda aslo g‘am ko‘rmagin. Men bir bechora tul ayolman, ojiz, bechoraman. Jonimni jabborga berib, ikki hafta shu bo‘zni to‘qidim. Bir nechta farzandim yo‘imga termilib o‘tiribdilar. Mayli, nima desang deyaver, Xudoga soldim. Qancha baholasang, bo‘pti, pulini bergin”. Bazzoz o‘lchagich gazini olib, matoning bo‘yi-enidan ham urib qoldi va kampirga bir-ikki dirham berdi. Kampir oyog‘ini arang sudrab bosganicha, uyiga yo‘l oldi. Shu payt bo‘z sotib olgani bir odam kelib, do‘kondorga dedi: “Ey xojam, menga shunday bo‘z kerakki, bu dunyoda undan yaxshisi bo‘lmasin. Mayin, tekis to‘qilgan bo‘lsin, ipida aslo nuqsoni bo‘lmasin”. Do‘kondor bazzoz qaysi bo‘zni ko‘rsatsa, xaridor aybini topaverdi. Shunda do‘kondor: “Shoshmay turing, hozir sizga shunday bo‘z berayinki, ilgari bunaqasini

ko‘rmagansiz. Momig‘i pillaning tolasidan ham mayin, iplari nihoyatda nozik”. Xaridor bo‘zni ko‘rgandan keyin, lol bo‘lib qoldi va bahosini so‘radi. Bazzoz bo‘zni ancha qimmat bahoga sotdi. Shunda Haq yo‘lini tutgan pir bazzozning oldiga kelib dedi: “Ey birodar, ijozat bersang, do‘koningga kiray. Agar menga o‘xshaganini istasang, yer yuzini qidirib topolmaysan. Mening a‘molim zohiriy va botiniy ilmlardir, o‘zim bir mo‘minman. Bu olamni qancha kezdim, ammo sen singari komil avliyoni ko‘rmagan edim. O‘sha bo‘z matoning momig‘i, seningcha, ravshan emas, ipi nursiz, mato xuddi bo‘yraga o‘xshaydi. Sen bo‘z matoga bir nazar solding-u eng nafis matodan ham a‘lo bo‘z ekanini bilgan eding. Bo‘zning momig‘i bilan ipi bir xilda nafis, mayin, bir tekisda to‘qilgan edi”. Parning bu gaplaridan bazzoz qattiq xijolat bo‘ldi, muammoni bir yoqli qilishga jazm etdi va bu qilig‘ini tark etdi.

Bu hikoyatdan keyingi mav‘iza har qanday odamzodni insofga chorlaydi. Xorazmiy Haq yo‘liga kirgan pirning bazzozga bergan nasihatini davom ettirib, bazzoz singari ortig‘ini istagan odamning puli tezlik bilan qo‘lidan chiqib ketadi, savdoda foydani ziyon bilan baravar tutgin, deya nasihat qiladi. Ayniqsa, quyidagi baytlari mazkur mav‘izaning eng diqqatga sazovor baytlaridir:

Xayr etagina uzun tut qo‘lung,
Mo‘ru malaxdin ayama sarquting.
Jomda sharbat nechakim bo‘lsa kam,
Yerga to‘kar jur‘ani sohib karam.

“Hotam Toy hikoyati”. Hikoyatda aytilishicha, arab mamlakatidan kelayotgan karvon, yo‘lda oziq-ovqatdan qiynalib qolmaylik, deb o‘ylab, Hotam Toy xonadoniga tushdilar. Karvon orasida bir tentak odam ham bor edi. U: “Ey Hotam, noming karaming tufayli olamga mashhur bo‘ldi, biz ham bugun senga mehmonmiz”, dedi. U gapini tugatmagan ham ediki, karvonning semiz tuyalaridan biri xastalanib qoldi. Odamlar haligi tentakka, sen mehmonsan, tilingni tiysang, yaxshi bo‘lardi, deb tanbeh berdilar. Xullas, Hotam tuyani so‘yib, karvonni mehmon qildi. Erta tongda karvon yana yo‘lga otlandi. Shu payt uzoqdan ot choptirib kelayotgan odamlar ko‘rindi, ular bir tuyani ham olib kelayotgan edilar. Bu tuyaga kechagi tuyaning aynan o‘zi edi. Karvon bu ahvolni ko‘rib, otliqlardan so‘radilar.

Otliqlar shunday javob berdilar: “Kechasi Hotam tushimizga kiribdi, ko‘zlari yoshlangan. U bizga aytdiki, bugun mehmonlar kelgan edi, men ulardan bir tuyay qarz olib so‘yib, ularni mehmon qildim, dedi va tuyaning belgilarini so‘zladi. Hotam bizga, tezroq bo‘linglar, karvon tong otishi bilan ketadi, aynan ularning tuyasiga o‘xshaganini olib kelib, karvonga yetkazinglar, deya bizni shoshirdi. Kechagi so‘yib yegan tuyasidan ularga og‘irlik kelmasin, menga esa halol bo‘lsin, dedi”.

Hikoyat qisqa bo‘lsa-da, bitta detal - Hotam Toyning saxovatpe-shaligining bir qirrasini hikoya qilish orqali katta ma‘noni chiqargan. Hikoyatdan keyin keltirgan birinchi ma‘vizada insonni dirham emas, saxovat va karam boy qilishi, odamning dushmani - jig‘ildoni ekani, odamni tomoq tashvishi xor qilishi, ortiqcha yegan odam qusishi va uning qusig‘idan itlar bahramand bo‘lib, to‘yishi va boshqa qator axloqiy-ta’limiy masalalarni ilgari suradi. Hikoyatda aytilmagan, ammo inson tabiatida mavjud ko‘z ochligi bilan Xotamning saxiyligi bir-biriga zid qo‘yilgan.

Ikkinchi ma‘vizada Xorazmiy falsafiy masalalarni ilgari suradi. Mol-u davlat yig‘ishga hamma talabgor, ammo boylikni sarf qilish ular uchun nihoyatda og‘ir; bu dunyoda ko‘p kulib, vaqtini xush o‘tkazgan odam oxirida yuz ming marta yig‘laydi; aqlning huzurida jaholatga o‘rin yo‘q bo‘lganiday, mol-dunyoga ruju’ qo‘ygan inson manzili yo‘q yo‘lda yurganga o‘xshaydi, bu bilan esa inson o‘zini o‘zi aldagan bo‘ladi va h. Shu singari bir-biriga bog‘liq, biri ikkinchisini yetaklab keladigan illatlar Xorazmiyning falsafiy qarashlari shakllanishiga asos bo‘igan. Inson o‘zini nazorat qila olgandagina, yuqoridagiday falsafiy muammolarning sirlarini anglay bilgandagina, o‘zini o‘zi mol-mulkka ruhan tobelikdan ozod qiladi.

“Mahmud G‘aznaviy haqida hikoyat” mazmuni va unda ko‘tarilgan masalalar. “Maxzan ul-asror”da Mahmud G‘aznaviy haqida ham hikoyat bor. Xorazmiy bu hikoyatda shoh Mahmuddan ko‘ra miskin pir ma‘naviy jihatdan ancha boy va yuksak ekanini ko‘rsatgan. Mahmud G‘aznaviy a‘yonlari bilan qish kunida ovga chiqdi. Ular bir xaroba kulba qarshisidan chiqib qoldilar. Mahmud G‘aznaviy xarobaga kirib, sochlari to‘zib ketgan, nihoyatda badbashara bir pirni ko‘rdi. U Mahmudga e’tibor bermadi, “kel,o‘tir” yoki “ket” deb aytmadi. Pir ibodatini tugatgandan keyin, Mahmuddan: “Oting kim? Nima uchun bu yerga kelding? Bu yerga hech

kim kelmas edi”, deb so‘radi. Mahmud o‘zini tanishtirdi. U pirga, bunday sovuq kunda bu yerda yashashingiz umringizga zomin bo‘ladi, sizga shahardan biron go‘sha topib berayin, deb aytdi. Shunda pir:

Bilki, bu yo‘l ustida o‘tguchimiz,

Ayla kelduk, yana ketguchibiz, -

deya javob berib, shohga ta‘nalar qildi: “Yaratgan meni hech narsaga muhtoj qilmadi. Sen esa muhtojlikda yashaysan, men faqr-u fano davlatida boyman, agar sendan biron narsa ta‘ma qilsam, sendan battar bo‘laman, undan ko‘ra, rizq ilinjida darbadar kezganim yaxshi. Qani ayt-chi, mabodo ajal kelib qolsa, davlatingni qaytara olasanmi yoki ajalnimi?” Shoh pirning bu gapidan qattiq xafa bo‘lib, unga, agar sening boshingga ajal kelib qolsa-chi, sen nima qilasan, deb savol berganda

Pir tabassum qilibon urdi jo‘sh,

To‘tisi uchti-yu qafas qoldi bo‘sh.

Bu hikoyatdan keyin keitirilgan ma‘vizada pirning zohiriy olami emas, balki botiniy olami boy ekanini ko‘rsatishni maqsad qilib, “surati vayrona-yu ma‘nisi ganj” deya ta‘riflaydi. Pir singari ishqqa doimiy hamroh bo‘lgan zotlarning hamdami-yu hamnafasi ham, otasi-yu onasi va yori ham ishq ekanini ta‘kidlaydi.

Haydar Xorazmiy “Maxzan ul-asror” asarini yozishda xalq tili boyliklaridan, xalq og‘zaki ijodidan unumli foydalandi. Go‘zal o‘xshatishlar topdi. Masalan, “Musannifning vasfi holi” bobida shoir o‘z yuragini yonib turgan sha‘mga, turli o‘y-xayollarini sham‘ tutuniga, xayolga cho‘mib qimirlamay o‘tirgan holatini shamdon ostiga qo‘yilgan laganga o‘xshatadi. Bu holat esa shoirning xayoloti boy ekaniga bir dalildir. Shu bilan birga, sha‘m va tutun timsollari orqali o‘zining axloqiy va falsafiy qarashlarining samarasiga ishora qiladi. Obrazlar tizimining tazod asosiga qurilgani ham Haydar Xorazmiy hikoyatlarining muhim qirralaridan biridir. Har bir hikoyatda tazod san‘ati bor. Yuqoridagi hikoyatlarda bazzoz bilan kampir, befarosat odam bilan Xotam Toy, Mahmud G‘aznaviy bilan pir kabi obrazlar tazodning bir namunasi.

Haydar Xorazmiy “Maxzan ul-asror” asarini yaratish bilan o‘zbek adabiyotida she‘riy hikoyatning rivojiga munosib hissa qo‘shdi. “Maxzan ul-asror”dagi hikoyatlarda u falsafiy, ijtimoiy-siyosiy va axloqiyta‘limiy

masalalarni ilgari surgan. Uning mazkur hikoyatlari komil insonni tarbiyalashga xizmat qiladi. Umuman, Haydar Xorazmiy bu asari bilan uzoq tarixga ega bo'lgan falsafiy-didaktik dostonchilikning yangi davrini boshlab berdi.

Haydar Xorazmiy "Maxzan ul-asror"da badiiy ifoda etgan fikr-mulohazalar, asarda ilgari surilgan g'oyalari bilan o'z zamonasining katta bilimdoni, o'zbek tili ravnaqi uchun kurashgan shoir, arab, fors-tojik tillarini chuqur o'rgangan, yetuk ma'rifatli kishi sifatida namoyon bo'ladi. Uning mazkur masnaviysi Alisher Navoiyga qadar yaratilgan doston janrining o'zbek mumtoz adabiyotidagi noyob namunalaridan biridir.

"Gul va Navro'z" asari. "Gul va Navro'z" dostoni uzoq yillar Lutfiyga nisbat berib kelingan. Taniqli adabiyotshunos A. Hayitmetov Shayx Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" ilmiy asarining qo'lyozma nusxasiga asoslanib, "Gul va Navro'z" dostonining muallifi xususida quyidagilarni bayon etadi: "Bu asar ("Funun ul- balog'a") yordamida endi "Gul va Navro'z" dostonining muallifi masalasi ham hal etilishi mumkin. Qo'lyozmaning 110- varag'ida "Gul va Navro'z"dan baytlar keltirilib, ularning Mavlono Haydar, ya'ni Haydar Xorazmiyga tegishli ekanligi aytilgan". Bu fikrni "Muxtasar" risolasida Zahiriddin Muhammad Bobur ham ta'kidlab, mazkur asar haqida gap borganda, "Mavlono Abdul Haydar Xorazmiyning "Gul va Navro'z"i deb o'tgan edi" (Hayitmetov A. Temuriylar davri o'zbek adabiyoti, Toshkent, 1996, 25-26-betlar). Shunday qilib, ikki nodir adabiy manba: "Funun ul-balog'a" va Bobur Mirzoning "Muxtasar" risolasida Haydar Xorazmiyning "Gul va Navro'z" nomli doston yozganligi e'tirof etilgan.

"Gul va Navro'z" dostonining hozircha ma'lum bo'lgan qo'lyozma nusxalari o'n bitta bo'lib, ular Budapesht, Parij, Vena, Istambul, London va Qozonda saqlanadi.

"Gul va Navro'z" dostoni romantik dostonlar turkumiga kiradi. Doston hamd, na't, madh, "Sababi nazmi kitob" va 120 bobdan iborat. "Gul va Navro'z" dostonining oxirida ko'rsatilishicha, u 814/ 1411-12 yillarda yozilgan.

Asarning "Sababi nazmi kitob" faslida e'tirof etilishicha, doston Amir Temurning nabiralaridan biri Iskandar Mirzoning topshirig'i bilan ijod

etilgan. “Gul va Navro‘z” – ishq-muhabbat haqidagi dostonidir. Undagi aksariyat obrazlar ramziy mohiyat kasb etadi. Asarning nomlanishidanoq ijodkorning bu masalaga diqqatni qaratganligi anglashilib turadi. Sharq xalqlari o‘rtasida yil boshi sifatida bayram qilib kelingan Navro‘z – 21 martning kirib kelishi shodiyonalari bilan bog‘liq turli janrdagi folklor namunalari keng tarqalgan. Yozma adabiyotda esa ulug‘ fors-tojik shoiri Umar Xayyom “Navro‘znoma” nomli nasriy asarini, Hoji Kirmoniy (1341 yilda vafot etgan) “Navro‘z va Gul” nomli dostonini yaratdilar. “Gul va Navro‘z” esa turkiy adabiyotdagi shu mavzuga bag‘ishlangan ilk yirik dostonidir. Asarda navshodlik shahzoda Navro‘z bilan farxorlik malika Gulning ishqiy sarguzashtlari hikoya qilinsa-da, unda ijodkorning markazlashgan davlat va adolatli shoh haqidagi qarashlari o‘z ifodasini topgan. Dostonning asosiy voqealar tizimi Navshod eli hukmdori Farruxning tavsifi bilan boshlanadi. U hamma narsadan ogoh, saodat yulduzi porlab turgani bois iqboli baland, butun mamlakat uning hukmi ostida bo‘lib, adolati olamga mashhur, hisobsiz askari bo‘lgan, mulki ma‘mur hukmdor edi. Biroq u “jahondin bir o‘g‘ilga orzumand” bo‘lib yashadi. Bahorning kirib kelishi, Navro‘zi olam tashrifi kuni Tangri taolo unga bir o‘g‘il ato etadi:

Chu Navro‘z o‘ldi navro‘z ichra firuz,
Ota o‘g‘lining otini qo‘ydi Navro‘z.
Sut emganda saodat doya bo‘ldi,
Tili chiqqach, hunar hamsoya bo‘ldi.
Topib nash’-u navo davlat ichinda,
Yagona bo‘ldi oz muddat ichinda.
Kichik yoshtin qamug‘ fanlarni bildi,
Ko‘pin o‘z aqli birla fahm qildi (356-bet).

Dostonda tasvirlanishicha, Navro‘z ilm va hunarda yakto, jismonan baquvvat shahzoda sifatida tarbiyalanadi. Shu bois u chog‘irda o‘z aksini ko‘rib, o‘z-o‘zidan g‘ururlanadi. Shahzodaning ko‘zlarini uyqu elitib, tushida Gulni ko‘radi. Malika Navro‘zga o‘zini tanitib, farxorlik ekanligini aytadi:

Otim Guldur vale Farxordinmen,
Ne ul gulkim, degaysen xordinmen (359-bet)

Navro‘z uyqudan uyg‘onib, tushining ta‘birini eldan so‘ramoqchi bo‘ladi. Ko‘pchilik orasidan Bulbulni o‘ziga yaqin olib, unga tushini bayon qiladi. Bulbul ham farxorlik edi. U shahzodaga Shohi Mushkinning qizi Gul haqida hikoya qilib beradi. Keyin Bulbul Navro‘zning holatidan Gulni xabardor qilish uchun Farxorga yo‘l oladi. Bulbul Gulning ko‘shki atrofida Navro‘z haqida nola-fig‘on chekib, xalqning tinchini buzib navo qiladi. Tongda uyg‘ongan Gulning ham bu voqeadan holi parishon bo‘ladi. Malika o‘zidagi o‘zgarishlarni sehr-jodu, makr-hiylani o‘z yurti Kashmirdan o‘rgangan, “tili goh xanjar”, ba‘zan esa “so‘zan” bo‘lgan enagasi Savsanga aytib beradi. Savsan Bulbuldan ham Navro‘z sifatini eshitadi va malikaga malomat qiladi, uni uyatsizlikda ayblaydi. Tabiiyki, qiz undan achchiqlanadi.

Shahzoda Navro‘z ham Gulning ishq bilan yashaydi. Uning bu holidan otasi Farrux ogoh bo‘ladi. Hukmdor beklar bilan kengashib, Bahman ismli bek bilan Navro‘zni Farxorga yuborishga ahd qiladi. Farrux o‘ziga bir dona ham oltin qoldirmay, o‘g‘li uchun xazina tayyorlaydi. Tangridan tilab olgan yolg‘iz farzandidan ajralish ota uchun bir musibat edi. Ammo shahzodaning ko‘ngliga qarshi chiqish ham tahlikali ekanligini Navshod hukmdori yaxshi bilardi. Dostonda bu holat quyidagicha tasvirlanadi:

Otasi yig‘lay- yig‘lay uyga yondi,

O‘g‘ul o‘ynay-o‘ynay yo‘lg‘a uzandi (372-bet).

Navro‘z o‘z muhabbatiga erishishdek ko‘nglining eng buyuk istagi yo‘lida juda xatarli safarga otlanadi. Shahzodaning mol-u mulklari qiziqtirgani uchun uning “sodiq” yo‘ldoshiga aylangan Bahman o‘z razil niyatini amalga oshirishga muvaffaq bo‘ladi. U Navro‘zni g‘aflat uyqusida qoldirib, butun xazinani o‘z hamrohlari bilan olib ketadi. Shahzoda esa Bahman bilan ketib qolmagan kishilarga ham yurtga qaytish uchun ijozat beradi. Biroq ular yo‘llaridan qaytishmaydi. Navro‘z Farxorga yetib boradi. Bulbul va Savsanning sa‘y-harakatlari bilan sevishganlar bir-birlari bilan ko‘rishadi. Ammo Shoh Mushkin Gulni Chin xoqoniga tortiq qilgandi. Chin xoqoni elchilari bilan Gul o‘zga yurtga otlanadi. Navro‘z ham Chin sari yo‘l oladi. Chin xoqoni davlati sarhadlari yaqinida sevishganlar qochishni ixtiyor qiladilar. Navro‘z Gulga quyidagicha murojaat qiladi:

“ – Yaroq tuz dedi, otlansaq bu shabgir,

Qilib boshtin oyoq to‘nlarni tag‘yir.
Qochib Farxor iqlimindin oshsak,
Borib Navshod mulkini tolashsaq”.
Rizo berdi Guli Mushkin bu so‘zga,
Burunqi ahdini qilmadi o‘zga (402-bet).

Shunday qilib, muhabbat – oliy ilohiy ne‘mat ekanligini qalbdan anglagan Gul va Navro‘z shu buyuk tuyg‘u asiri sifatida barcha qiyinchiliklardan cho‘chimay, ulug‘ maqsad sari talpinadi. Chin xoqoni davlati sarhadlarida Yaldo ismli bir qonxo‘r qo‘lida bandilikka tushadilar. Xoqon vafotidan so‘ng yana qochib, devlar manziliga, Shayx Najdiyga duch kelishadi. Daryo to‘fonlari-yu dengiz po‘rtanalariga uchrab, ikki taxta ustida sevishganlar ikki tomonga ayrilib ketishadi. Dengizdan Gulni Javhar qutqazadi. U Adan mulkiga borib qolgan edi. Mamlakat hukmdori Bade‘ uni o‘ziga farzand sifatida ko‘radi. Gul yigit libosida bo‘lgani uchun podshoh uni o‘ziga o‘g‘il deb biladi. Malika Gul bu yerda arslonlar bilan kurashadi. Navro‘zni esa bir kambag‘al baliqchi dengizdan qutqaradi. U Yaman yurtiga borib qolgan edi. Baliqchi Yusuf sifat shahzoda haqida mamlakat vaziriga xabar beradi. Vazir uni podshoh Rafe‘ bilan tanishtiradi. Rafe‘ ham Navro‘zni o‘g‘il sifatida qabul qilib, barcha beklardan uning mavqeini yuqori deb biladi. Bunga Bahrom ismli sardor hasad ko‘zi bilan qaraydi. Gulning jasorati bilan kuchaygan Adan Yaman mamlakatiga qarshi hujumga o‘tadi. Jang qizib, yakkama-yakka olishuv boshlanadi. Malika Gul hasadchi Bahromni shunday kurashda halok etadi. Maydonga Navro‘z va Gul chiqishadi. Navro‘z Gulning ovozi bilan uni taniydi. Shundan so‘ng muhabbat adovatga chek qo‘yadi. Hukmdorlar yarashishadi, ginalar unut bo‘ladi. Adan va Yaman podshohlari Gul va Navro‘z bilan birgalikda hajga borishadi. Sevishganlar Ka‘bani tavof qilayotgan otalari Farrux va Mushkinni tanib qolishadi. Hukmdorlarning kelishuvlari asosida Navshod, Farxor, Adan, Yaman mamlakatlari birlashadi, Navro‘z mamlakatni adolat bilan idora eta boshlaydi.

“Gul va Navro‘z”ning “Podshoh madhi bila kitob xotimasi” nomli so‘nggi bobida doston muallifi Sulton Iskandarni madh etadi. Bu bilan ijodkor Amir Temur vafotidan so‘ng tobora parchalanib, inqirozga yuz tuta boshlagan mamlakat taqdirini o‘ylab, temuriy shahzodalarni birlashishga,

buyuk sohibqironning markazlashgan davlatini saqlab qolishga chaqiradi. Shoir asardagi har bir soʻzning maʼno-mohiyatiga eʼtiborni qaratganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu holat, avvalo, qahramonlar va joy nomlarida yaqqol koʻzga tashlanadi. Chunonchi, Farrux – goʻzal, baxtli, muborak, qutlugʻ yuzli maʼnolarini anglatadi. Uning oʻgʻli Navroʻz esa, haqiqatan ham, Navshod hukmdorining hayotiga yangi kunni baxsh etadi. Navroʻz bahorning fusunkor koʻrkiga koʻrk qoʻshgan Gulni sevadi. Goʻyoki bahorning ilk kuni goʻzallik shaydosi sifatida, olamdan goʻzallik izlayotganga, bu yoʻlda uchraydigan barcha yovuzliklarni yengayotganga oʻxshaydi. Gul – Farxor elidan, Farxor – orasta, chiroyli, shinam degan maʼnolarni anglatadi. Bu bilan shoir Gul va u unib oʻsgan yurt bir-biriga mosligini qayd etgan boʻladi. Dostondagi salbiy obrazlar Bahman, Yaldo, Shayx Najdiylarning nomlanishida ham shunday ramziylik mavjud. Bahman – qishning eng ayozli kunlari maʼnosini anglatsa; Yaldo – qish mavsumidagi eng sovuq, uzun va qorongʻu kecha demakdir. Najdning lugʻaviy maʼnosi esa yerning baland qismi, toʻsiqdir. Dostondagi ijobiy obrazlar Bahor, yovuz kuchlar timsollari esa Qish fasliga uygʻun nomlar bilan atalganki, bu ham yoz bilan qish haqidagi qadimgi ajdodlarimiz qarashlariga yangi maʼno mujassamlashtirganligini anglatadi. Shuningdek, dostonda shoirning istiora, mubolagʻa, tashbeh kabi tasviriyy vositalardan mahorat bilan foydalanganligi koʻzga tashlanadi. Ayniqsa, dostondagi bosh qahramonlardan biri Gul siymosi asarda nozik did bilan goʻzal tasvirlangan:

Bute, ne but, magar huri parizod,
Tani nozik, boʻyi, chun sarvi ozod.
Parishon sochlari gul yaprogʻinda,
Tuman ming shivalar har boqmogʻinda.
Koʻz-u qoshi qilib ming shiva angiz,
Labi purishva-yu zulfi diloviz.
Qoʻmungʻon orazi jonlargʻa loyiq,
Ayoqtin bosh boʻyi xonlargʻa loyiq.
Elinda bir piyola bodai nob,
Xiromon keldi-yu ul bargi serob (358-bet).

Gul – nafosat, go‘zallik ramzidir. Shu bois uning tavsifi dostonda tadrijiy rivojlantirilib boriladi. Bulbul bu haqda Navro‘zga hikoya qilarkan, Gulni shunday ta’riflaydi:

Uzori aksidin oy xiyra bo‘lg‘ay,
Yuzi O‘trusida kun tiyra bo‘lg‘ay (362-bet).

Doston mazmunidan ko‘rinib turibdiki, xalq dostonlaridagi motivlar - farzandsizlik, tush va safar motivlari mazkur dostonning asosiy syujetini tashkil qiladi. XVII asrdan keyin yaratilgan romantik dostonlarning deyarli hammasida “Gul va Navro‘z” dostonidagi motivlar bor. Jumladan, Nishotiyning “Husnu Dil” dostonidagi safar motivi bilan “Sanobar” xalq kitobidagi va ko‘plab xalq dostonlaridagi safar motivi yoki “Gul va Navro‘z”, Sayqaliyning “Bahrom va Gulandom” dostonidagi farzandsizlik motivi bilan “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostonidagi farzandsizlik motivi uyg‘unligini misol qilib keltirish mumkin. Dalil sifatida sharq xalqlari dostonlarining ko‘pida uchraydigan farzandsizlik motiviga e’tibor qarataylik: “Qissai Sayfulmuluk”da shoh Osim farzand ko‘rmay, oxiri Xudodan farzand so‘rab o‘g‘il ko‘radi, o‘g‘lining ismini Sayfulmuluk qo‘yadi; “Bahrom va Gulandom” dostonida Rum mamlakati podshohi farzand ko‘rmay, oxiri Xudoning marhamati bilan farzandli bo‘ladi va o‘g‘lining ismini Bahrom qo‘yadi. Bu voqealar har ikkala dostonning boshida beriladi, har ikkala dostonda safar motiviga zamin tayyorlanadi, shuningdek, mazkur dostonlar “Gul va Navro‘z” dostoniga bu jihatdan hamohang. Sayfulmuluk otasi hadya qilgan to‘nda qizning suratini ko‘rib, oshiq bo‘lib qoladi. Bahrom ham Gulandomning suratini ko‘rib oshiq bo‘ladi. Shubhasiz, bunday uyg‘unliklar romantik dostonlarning xalq dostonlari zaminida shakllanganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, Sharq adabiyotida, jumladan, turkiy xalqlar dostonlarida bu motivlar asosida shakllangan dostonlar bir-biridan oziqlangan va bir tizimni hosil qilgan. O‘zbek adabiyoti tarixida bu tizim aynan “Gul va Navro‘z” dostonidan boshlanganini ham e’tirof etish kerak. “Gul va Navro‘z” dostoni 595 baytdan iborat bo‘lib, Nizomiy Ganjaviyning “Xusrav va Shirin” dostoni vaznida – aruzning hazaji musaddasi mahbun bahrida (mafiylun mafoiylun faulun) yozilgan. O‘zbek tilidagi “Gul va Navro‘z” dostoni yozilgunga qadar fors adabiyotida shu nomda ikkita doston yozilgan: birining muallifi

Xoja Kirmoniy bo‘lib, u Kirmon shahrida Muzaffariylar sulolasining asoschisi hukmdor Muboriziddin Muhammad saroyida (713/1313- 760/1359) yashab ijod qilgan; ikkinchi dostonning muallifi Jaioliddin Ahmaddir (u mohir shoir bo‘lish bilan birga, tabib ham bo‘lgan, shuning uchun Jalol Tabib deb ham aytiladi).

Shunday qilib, aruzning hazaj bahrida (mafoiylun mafoiylun mafoiyl) bitilgan “Gul va Navro‘z” dostoni tilining soddaligi va ravon uslubda yozalganligi, badiiy salohiyati yuksakligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Shoir dostonning tilini xalq jonli tilidagi so‘zlar bilan boyitib, o‘zbek adabiy tili taraqqiyotiga katta hissa qo‘shdi. “Gul va Navro‘z” XV asr o‘zbek adabiy tilining qimmatli yodgorligidir.

Savol va topshiriqlar:

1. Haydar Xorazmiy hayoti va ijodi haqida ma’lumot bering.
2. “Maxzan ul-asror” asarida qanday masalalar ko‘tarilgan?
3. “Gul va Navro‘z” dostonidagi ramziylikni izohlang.

ATOYI VA SAKKOKIY HAYOTI VA IJODI

REJA:

1. Atoyi hayoti va ijodi.
2. Atoyi she'riyati, g'azallariga xos g'oyaviy-badiiy xususiyatlar.
3. Sakkokiy – g'azalnavis va qasidanavis shoir.
4. Shoir g'azal va qasidalarida badiiy mahorat masalasi.

Tayanch soʻz va iboralar: g'azal, qasida, tazkira, devon, taxallus, badiiy san'atlar, tarkibband, tarje'band, muxammas, marsiya, mustazod, qit'a, ruboiy.

Atoyi hayoti va ijodi. Atoyi XV asrning o'rtalarida yashab ijod etgan yirik soʻz san'atkorlaridandir. Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” tazkirasida berilgan ma'lumotlarga ko'ra, Atoyi Balx shahrida yashagan, Ismoil ota farzandlaridan bo'lib, xushtabiat, sodda, darveshvash va xushxulq kishi bo'lgan. Turkigo'y shoir edi. Uning she'rlari turkiy xalqlar orasida ko'p shuhrat tutgan, qabri ham Balxda. Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat” asarida yozishicha, Ismoil ota Ahmad Yassaviyning inisi Ibrohim otaning o'g'lidir. Demak, Atoyi, nasab jihatidan Ahmad Yassaviyga juda yaqin. Shoir devonining muqovasida va qoiyozmaning oxirida “Devoni shayxzoda Atoyi” deb qayd qilinishi ham uni shayxlar oilasidan kelib chiqqan, deyishga asos beradi. U shayxlar – otalar avlodiga mansub bo'lgani uchun ham Atoyi taxallusini olgan, asli ismi noma'lum.

Mirzo Ulug'bek o'z saroyiga bir qator olim va shoirlarni jalb qilganda, Otoyi ham o'sha shoirlar qatorida bo'lgan. Otoyining bir devoni ma'lum bo'lib, bu devonda shoirning 260 g'azali jamlangan. Otoyi g'azallarining vazni haqida filologiya fanlari nomzodi Sayfiddin Sayfulloh (Rafiddinov) batafsil ma'lumot bergan. Uning ko'rsatishicha, Atoyining 260 g'azalidan 109 tasi ramali musammani maqsur (foilotun foilotun foilotun foilotun) vaznida yozilgan. Ma'lumki, bu vazn XV asr Xuroson va Movarounnahr aholisi orasida ko'p tarqalgan va “turki” deb atalgan xalq qo'shiqlari vaznidan olingan hamda aruzga kiritilgan. Bu haqda Alisher Navoiy

“Mezon ul-avzon”da qimmatli ma’lumotlarni bergan. Shuningdek, Sayfiddin Sayfulloh Atoyi devonini to’liq va mukammal holda nashrga tayyorlagan.

Atoyi ijodini o’rganish bo’yicha A.Samoylovich, H.Zarif, E.Rustamov, S.Sayfulloh, I.Haqqul kabi zabardast olimlar ko’p mehnat qilganlar. Chunonchi, A.Samoylovich ilk bor (1926-yili) Atoyi devonini topib, bir necha g’azalining faksimile nusxasini nashr qilgan. E.Rustamov Atoyi g’azallarini tahlil qilib, uning XV asr birinchi yarmi o’zbek adabiyotidagi o’rnini ko’rsatib bergan. S. Sayfulloh Atoyi ijodidagi majoziy va ilohiy ishqni chuqur tahlil etdi, I.Haqqul Atoyi g’azalnavislikda Lutfiyga ergashganini va Atoyining bu shoirdan ilhomlanib, o’xshatmalar bitganini tadqiq qildi. Navoiy “Majolis un-nafois”da Otoyi haqida so’zlab, uning

Ul sanamki su yaqosinda paritek o’lturur,

G’oyati nozikligidin suv bila yutsa bo’lur, –

matla’sini keltiradi va “qofiyasida aybg’inasi bor” deb ko’rsatadi, Otoyi “o’lturur”ga “bo’lur”ni qofiya qilgan edi. Navoiy shoirning “turkona” she’r yozganligi, uning g’azallari turkiy aholi orasida ko’proq shuhrat tutgani, lekin qofiya ehtiyojiga rioya qilmaganini izohlaydi.

Atoyining diniy-tasavvufiy mavzulardagi g’azallari bor. Ilohiy marhamat – Haq oshiqclariga beriladigan in’om, komil insonlar Haq yo’liga kirganlardir – Atoyining aytmoqchi bo’lgan gapi shudir. Quyidagi baytlar buning bir namunasidir:

Haqiqatta libosi zohiriyg’a e’tibor o’lsa,

Nega Muxtori Akramning libosin eski shol aylar?

Muhabbat sharbati gar no’sh birla sozvor ersa,

Husayni Karbalog’a ne uchun qonin zilol aylar?...

Atoyi, sen kimu tavhidi Haq, haddingni bil, hayhot

Kim, oning hamdu shukri aqli kulni gungu lol aylar.

Atoyi she’riyati, g’azallariga xos g’oyaviy-badiiy xususiyatlar.

Atoyi Sharq xalqlari badiiy ijodi bilan yaqindan tanish bo’lgan. Uning g’azallarida Farhod, Shirin, Layli, Majnun, Vomiq, Uzro, Yusuf, Zulayho, Masih, Ya’qub singari adabiy, ilohiy, tarixiy nomlarning badiiy timsol sifatida qo’llanilishi fikrimizning yorqin dalilidir. Shuningdek, shoirning

“Qissasin” radifli g‘azali ham uning Sharq xalqlari she‘riyatining bilimdoni ekanligini tasdiqlaydi. Chunonchi, g‘azalda o‘qiymiz:

Sen buti Chin ishqida holimni g‘ayb etgan kishi,

“Mantiq ut-tayr” ichra ko‘rsun Shayxi San‘on qissasin. (Atoyi. G‘azallar. Hayot vasfi. – Toshkent, 1988, 397-bet).

Shoir adabiy merosi bizgacha to‘liq holda yetib keldi deyolmaymiz. Ehtimol, salohiyatli qalamkash she‘riyatning boshqa janrlarida ham ijod qilgan bo‘lishi mumkin. Ammo ular Shayx Atoyining Sankt-Peteiburgda saqlanayotgan devoniga kiritilmagan. Atoyi ma‘naviy merosida o‘z ijodidan faxrlanish, g‘ururlanish hislari balqib turgan baytlar mavjudki, ular shunday xulosaga kelishimizga asos bo‘ladi:

Bitisam bo‘lg‘ay nasihatnomalar yuz “Ganji panj”,

O‘zga qilmas Xusrav-u Shirin dahonimdan ko‘ngul (377-bet).

Ma‘lumki, Nizomiy Ganjaviyning “Panj ganj”i Sharq xalqlari adabiyoti ravnaqiga muhim ijodiy turtki berdi. Atoyi o‘zining qalami salohiyatiga to‘la ishongan holda, yuzta shunday asar bitishi mumkinligini mubolag‘a-faxriya yo‘sinida e‘tirof etadi. Albatta, mazkur bayt shoirning ehtirosalaridan xoli emas. Ammo aytish mumkinki, bunday qat‘iy fikrlar muallifi bo‘lgan shoirning katta ijodiy tajriba sohibi bo‘lganligi tabiiydir. Zero, Atoyi g‘azallarida bunday fikrlarni yana uchratish mumkin:

Atoyi she‘rining lutfini bilsa,

“Latofatnoma”dan kechgay Xo‘jandiy (Navoiy nigohi tushgan. 282-bet)

Ko‘rinadiki, mazkur baytda ham shoir faxriyadan istifoda etgan. Biroq bu o‘rinda ham yuqorida ko‘rganimizdek, faxriya o‘ta mubolag‘a (ig‘roq) bag‘rida, qorishiq holida kelayotir. Atoyi g‘azaliyotida ishq-muhabbat mavzusi markaziy o‘rinda turadi. Unda oshiq, ma‘shuqa va raqib obrazlari vositasida sevgi masalalari yoritiladi. Shoir bu mavzuni to‘laqonli badiiy ifodalash maqsadida yana o‘nlab badiiy timsollarga murojaat etadi va ulardan ijodiy foydalanadi. Shoir she‘riyatida ilohiy va majoziy sevgi yonma-yon tutib ulug‘lanadi. Atoyi ularni bir-biriga chambarchas bog‘liq holda kuylaydi. Alisher Navoiyning Atoyini “darveshvasht kishi”, – deya ta‘riflagani bejiz emas edi. Shoir tasavvuf ta‘limotiga moyillik g‘oyatda

baland bo‘lgan. Zero, uning g‘azallaridagi “so‘fiy” timsoli shoir qiyofasi va falsafiy-irfoniy qarashlarini xotirga keltirganday bo‘ladi:

To podshoh bo‘lgali sen husn Misrida,
Afsona bo‘ldi Yusufi Kan’on hikoyati.
Sufiy Atoyi holatini o‘tkanur, vale,
Ishq ishidur kishiga azaldin hidoyati (248-bet).

Atoyi ishqday yuksak tuyg‘uni insoniyatga azaldan, yagona Qodiri qudrat tarafidan berilgan inoyat ekanligini ta’kidlaydi. Shundan bo‘lsa kerak, u muhabbat mavzusida jo‘shib kuylaydi. Iste’dodli shoirning g‘azallari ravon uslubda va o‘ynoqi ohangda bitilgani bois o‘quvchiga katta badiiy zavq bag‘ishlaydi. O‘sha o‘ynoqi ohang qanotida shoirning ishq, hayot haqidagi teran mushohadalari ham badiiy ifodasini topgan. Atoyi musaffo nafosat va o‘sha dilkash go‘zallik shaydosi. U dili va didiga har jihatdan manzur keluvchi go‘zallikni ona-zamin tabiati bag‘ridan izlaydi. Shoirning Navro‘zi olam tashrifi haqidagi misralar bilan boshlanuvchi g‘azali bu jihatdan ahamiyatlidir:

Soqiyo, keltur mayi gulgunki, xush damdur bukun,
Olam farxundayi Navro‘zi olamdir bukun.
Nakhati bodi sabodin topti o‘lganlar hayot,
Xabbazo, bodi sabo Isiyi Maryamdur bukun.
Qomati gulbun chamanlar sahnida ta’zim uchun,
Soqiyi gulruh bikin sarv oldida xamdur bukun.
Yer yuzinda gulshan-u bog‘-u bahor-u bog‘cha,
Gunbazi xazro mengizlik sabz-u xurramdur bukun.
Har kishigakim, muyassardur parivash yor ila,
Jur’ayo no‘sh aylamak, xoshoki odamdir bukun.
Kimgakim bo‘lsa safoli birla maydin jur’ae,
Ushbu to‘qqiz shishadin ko‘ngilga ne g‘amdir bukun.
Salsabil-u kavsari moyi mayin keltursalar,
Jomi may majlisda borchadin muqaddamdur bukun.
Kel dame mayxonaning baytul haramin qil tavof,
Kim sanamlar la’lidin may obi zamzamdur bukun.
Ey Atoyi, bo‘lma g‘ofil, bir nafas hamdam tila,
Umrni hamdam kechurmaklik base kamdur bukun (236-bet).

Soqiyga murojaat bilan boshlangan mazkur to‘qqiz baytli g‘azalda gulgun may talab qilinib, bugun qutlug‘ Navro‘zi olam ekanligi e’tirof etiladi. May – ishq-u ma’rifat timsoli. Shu bois bu xush damni ishqsiz tasavvur etish mumkin emas. Shoir Iso Masihning jon baxsh etish a’molini Navro‘zi olam kelgan kundagi tong shamoliga ko‘chirib, tabiatning uyg‘onishini juda go‘zal lavhalarda tasvirlaydi. Bahorning tiniq osmonga o‘xshash yer yuziga ko‘m-ko‘k libos “kiygizishi”, olamning gulshan-u bog‘-u bahor-u bog‘chaga aylanishi tasviri ham shoirning tabiatdan ilhomlanishini yana bir karra dalillaydi. Tabiatning bunday maftunkorligi kishi ruhiyatiga ko‘tarinkilik baxsh etadi. Shoir kimda-kim safol idishda bir qultum may bo‘lsa, u xushbaxt, o‘zini Arshi A’loda his etadi, deya ta’kidlaydi. Uningcha, bunday insonning qalbida g‘am aslo yo‘lamaydi. Haqiqatan ham, go‘zallik va ishq insonni butun g‘am-alamdan xalos etadi. Atoyi olamning to‘qqiz qat osmondan tarkib topganligini she’rda “to‘qqiz shisha” shaklida qo‘llaydi. Bunda shoirga dastlab ko‘m-ko‘k osmonni “gumbazi xazro” deb nomlagani sabab bo‘lgan. Shishaning shaffofligi g‘azalda osmon ma’nosida (rang nuqtasi nazaridan) qo‘llanilishi, bahorning ko‘ngillarga o‘zgacha surur baxsh etganini anglatadi. Ko‘rinadiki, shoir dilkash g‘azalida ranglar va badiiy timsollatdan yuksak san’atkorona did bilan foydalangan. Atoyi boshqa g‘azallarida ham muhabbat mavzusini to‘laonli yoritishda tabiat tasviriga, gul, bulbul singari an’anaviy timsollarga murojaat etadi:

Kel, ey dilbarki, bo‘ston vaqti boidi,
Gul ochildi, guliston vaqti bo‘ldi.
Qilay nola, boqib guldek yuzungga,
Chu bulbullarga afg‘on vaqti bo‘ldi (250-bet).

Atoyining “Qon bo‘ldi ko‘ngil...”, “Ul sanamki...”, “Ko‘ngil olding...”, “Jamoling vasfini...” singari bo‘yoqdor iboralar bilan ibtido topuvchi g‘azallari yuksak badiiy qimmatga ega ekanligi bilan ahamiyatlidir. Ularda shoirning haqiqiy muhabbat kuychisi ekanligi sezilib turadi. Fikrimizni “Jamoling vasfi...” birikmasi bilan boshlanuvchi g‘azali orqali izohlashga harakat qilamiz:

Jamoling vasfini qildim chamanda,
Qizardi gul uyatdin anjumanda (216-bet)

Shoir matlada nihoyatda go‘zal manzara tasvirini badiiy ifodalash bilan o‘quvchi diqqatini g‘azal matniga jalb etadi. Bunda Atoyiga chamandagi gulning qizil rangda ekanligi qo‘l keladi. Ijodkor baytda husni ta‘lil san‘atiga murojaat etish bilan bir-biriga daxli bo‘lmagan hodisalar orasida aloqadorlik paydo qiladi. Go‘yo ma’shuqa jamoli oshiq tomonidan chamanda ta’riflangani bois mazkur anjumanda ishtirok etayotgan gul xijolat chekadi, uyaladi. Chunki u go‘zalligi bilan mag‘rur edi. Shoir ayni choqda gul obrazini jonlantirish vositasida misralarga harorat bag‘ishlashga erishadi:

Tamanno qilgali la’lingni ko‘nglum,
Kishi bilmas onikim, qoldi qanda? (216-bet).

Atoyi la’l timsolini istiora asosida lab ma’nosida qo‘llab, uning naqadar kichik ekanligiga o‘quvchi e’tiborini qaratadi. Shoir ma’shuqa lablarini qayerda qolganligini kishi bilmaydi, deya tajohuli orifona san‘atini ham ishga soladi.

Chu jonimdin aziz jonona sensan,
Kerakmas jon manga sensiz badanda.

Oshiq o‘z ma’shuqasini olamdagi barcha narsalardan ustun qo‘yadi. Shu bois ma’shuqa unga jon singari aziz jononadir. Jononasiz oshiqqa jon lozim emas. U yorsiz, jonsiz tanga o‘xshaydi. Tabiiyki, jon-u jonona tasavvufning mulki. Ana shularga tayanib, Atoyi she’riyati irfoniy-ilohiy ruh bilan yo‘g‘rilgandir deyish mumkin.

Menga bu dunyoda jannat ne hojat,
Eshiging tuprog‘i basdur kafanda.

Ishq yo‘liga kirgan oshiqni faqatgina ma’shuqaning vasli qiziqtiradi. Biroq oshiq – solik ayni chog‘da tangrining ham oshig‘idir. Uning uchun yolg‘iz haqqa yetish asosiy maqsad sanaladi. Bu yo‘lda oshiq barcha qiyinchiliklarga bardosh berishga tayyor. Ishq yo‘lida oshufta oshiq uchun bu olamda jannatning hojati yo‘q. Bordi-yu oshiq vafot etib kafanlanganida, unga yor eshigining tuprog‘idan bir siqimgina yetsa, shuning o‘zi kifoya. Baytda xalqona udumga murojaat ham kuzatiladi. Ya’ni inson jasadi lahatga qo‘yilgach, kafan ochilib, ko‘z va ko‘krak qafasidagi chuqurchalarga qabristonga chiqqan odamlar nafasi tekkan tuproqni sepish odatiga ishora qilinadi.

Solib borma meni, ey Yusufi husn,
Bukun Ya'qubtek baytul xazanda.

Ma'shuqa Yusuf singari ko'rkli. Shoir Yusuf va Zulayho sayyor mavzusiga talmeh san'ati vositasida ishora qilarkan, Ya'qub alayhis-salom timsoli orqali uning o'g'li hajrida juda ko'p izzatlar chekkaniga ishora qiladi. She'r qahramoni ma'shuqadan Ya'qubdek gunohlardan forig' bo'lishga da'vat etadi.

Uzun sochingdin uzmasmen ko'ngilni,
Ayog'ing qanda bo'lsa boshim anda.

Mazkur baytda shoir oshiqning ma'shuqasiga, beg'ubor muhabbatiga bo'lgan yuksak sadoqatini mahorat bilan ifoda etgan. Ma'shuqasi maftuni bo'lgan oshiq uning uzun sochlaridan ko'nglini uzolmaydi. Shu bois u ma'shuqaning oyoqlari qayerda bo'lsa, o'sha yerda boshini qo'yishni o'zi uchun yuksak saodat deb biladi. Baytdagi "qanda bo'lsa" so'zi yangi bir ma'noni ham ifodalaydi. Uni "qayerga borsa" ma'nosida ham tushunish mumkin. Bunday talqinga ko'ra, ma'shuqaning uzun sochlaridan ko'zini uzolmagan oshiq, yori qayerga borsa, u ham xayolan o'sha yerda hozir bo'ladi, tarzida ham tushunish mumkin. Har ikkala ma'no ham g'azalda mohiyatan ilgari surilgan g'oyaga putur yetkazmaydi, aksincha uni to'ldirishga xizmat qiladi. Shoirning bunda iymon san'atidan mahorat bilan foydalanganligi yorqin sezilib turadi.

Tilar el mansabi oliy va lekin
Atoyi sarvi ozoding'a banda.

G'azal ko'tarinki ruhda yozilgan ushbu maqta' bilan nihoyasiga yetadi. Unda el, odamlar g'azal qahramoniga oliy mansablar tilashi mumkin, ammo oshiq uchun o'z ma'shuqasining go'zalligiga banda bo'lishdek baxtdan ulug' mukofot yo'qdir, degan g'oya kelib chiqadi. Ko'rinadiki, Atoyining g'azalnavislikdagi badiiy mahorati ancha yuksak. Atoyi g'azallarining aksariyati yetti baytdan tarkib topgan. Ular orasida 5, 9 baytlilari ham uchraydi. O'sha g'azallarining ko'pi ramal, hazaj va aruzning boshqa bahrlarida yozilgan. Ijodkor o'z she'riyatining yetakchi unsurlari qofiya va radiflariga alohida e'tibor beiganligi ham sezilib turadi. Ayniqsa, g'azalda ravon, musiqiy qofiyalarni qo'llash hamda ularni yanada quvvatlantiruvchi, ravonlik, musiqiylikni ta'min etuvchi va misralarni mazmunan boyitishga

xizmat qiluvchi radiflar tanlash Atoyi ijodiga xos xususiyatdir. Shuningdek, shoir badiiy-tasviriy vositalardan ham mahorat bilan foydalana olgan. Shunga ko'ra, Atoyini g'azalnavislikda o'zbek mumtoz adabiyotining yetuk namoyandalaridan biri deyish mumkin.

Sakkokiy – g'azalnavis va qasidanavis shoir. Temuriylar davri o'zbek adabiyotining taniqli namoyandalaridan biri – shoir Sakkokiydir. Ijodkorning hayoti va faoliyati xususida juda oz ma'lumotlar saqlanib qolgan.

Sakkokiyning o'z devoni, Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois”, “Muhokamat ul-lug'atayn” asarlarida, Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog'a”si uning yashagan davri, adabiy faoliyati va XV asr adabiy hayotida tutgan o'rni haqida birmuncha malumot beradi. Alisher Navoiy “Muhokamat ul-lug'atayn” asarida Sakkokiyni Shohruh zamonida yashagan shoirlar qatorida eslaydi. Shuningdek, Shayx Ahmad Taroziy shoirni “Majma' ul-aql”, “Zahir ul- mutaaxxirin”, deb ulug'lasa, mavlono Yaqiniy o'zining “O'q va yoy” munozarasida Sakkokiyni “turk (o'zbek) shoirlarining mujtahidi (g'ayratlisi)”, deya ta'riflaydi.

Navoiyning ma'lumot berishicha, Sakkokiy asli Mavoraunnahrdan, Samarqandda shuhrat topgan, Samarqand ahlining katta hurmatini qozongan.

“Sakkokiy” shoirning adabiy taxallusi bo'lib, tug'ilgan yeri, yili ham noma'lum. Sakkokiy so'zi “sakkok” (pichoqcha) so'zidan olingan bo'lib, “iy” shaxs oti yasovchi qo'shimchasi bilan “pichoqcha yasovchi” degan ma'noni bildiradi. Bunday ishora shoir hunarmand oiladan yetishib chiqqan, deb faraz qilishga imkon beradi. Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog'a” asari orqali o'zbek adabiyoti yangi shoirlar nomlari, asarlari bilan boyib, ko'pgina ilmiy muammolar o'zining yechimini topdi. Bu asarda Mavlono Sakkokiy “Sayroniy” nisbasi bilan tilga olingan. Adabiyotshunoslar, jumladan, adabiyotshunos olim E.Rustamov Sakkokiyni ma'lum davr Arslon Xoja Tarxonning saroyida yashagan deb ma'lumot beradi. Qasidalaridan birida shoir mamduh(maqtalayotgan shaxs)ga qarata, “boyqushlar uyi bo'lgan xarob Turkiston sizning muborak himmatingizdan bog'i Eramga aylandi”, – deb, yana bir qasidasida “Turkiston eli o'z xojasini topdi”, – deb lutf etadi. Demak, Turkistonning xaroblighi,

boyqushlar uyiga aylanganligi shoirni iztirobga solganligi, uni obod etgan amirni madh etishi bir tasodif emasga o'xshaydi. Chunki, bu baytlarni vatani taqdiridan tashvishga tushgan, voqealarni o'z ko'zlari bilan ko'rgan kishigina yozishi mumkin. "Sayroniy" va "Sabroniy" so'zlari arab imlosida "yoy" va "be" harflarining bitta nuqta hisobiga farqlanishini hisobga olsak, bu so'z qo'lyozmada noto'g'ri yozilgan bo'lishi yoki biror sabab bilan tushib qolgan, kirill alifbosiga esa "Sayroniy" tarzida o'girilgan bo'lishi mumkin. Demak, shoir nafaqat, Sabronda ma'lum vaqt yashagan, balki shu yerda tug'ilgan va shuning uchun ham Sabroniy nisbasi bilan atalgan¹⁶.

Venger turkiyshunos olimi Yanos Ekmanning qayd etishicha, Sakkokiy XIV asrning ikkinchi yarmida tug'ilgan va XV asrning birinchi yarmida vafot etgan. U ilk she'rlarini Amir Temur davrida yoza boshlagan bo'lsa, ijodiy kamoloti Ulug'bek saltanati yillariga to'g'ri keladi.

Adabiyotshunos N.Mallayevning "O'zbek adabiyoti tarixi" kitobida Sakkokiyning XIV asrning ikkinchi yarmida, ehtimol, o'sha yuz yillikning oxirgi choragida tavallud topganligi qayd etiladi. Zabardast olim yuqoridagi fikrining tasdig'i sifatida shoir devonida hijriy 810- (1407-1408) yilda amir Temurning nabirasi Xalil Sultonga (1405-1409) bag'ishlab bir qasida yozganligini ko'rsatadi. Jumladan, o'sha madhiyada quyidagi misralar mavjuddir:

Tarixqa sekkiz yuz dag'i o'n erdi-yu qadr axshomi,
Bir oy tug'ildi dunyoda kim mamlakatda xon bo'ldi.
Bu qadr tuni izzat-u qadr erdi da'vo qilsa ham,
Chun shahzoda maqdami da'vosina burxon erur.
La'l-u javohir sochilur shoh xizmatida, men dog'i,
Kelturdim shu so'z gavharin kim o'z-o'ziga kon erur.

Prof. N. Mallayev shoir bu qasidani ma'lum ijodiy tajriba to'plagan chog'ida, chamasi 30 yoshlarida yozgan bo'lishi kerak, deb taxmin qiladi. Olimning ushbu mulohazalari ehtimoldan yiroq emas, albatta. Sakkokiyning ijodi Ulug'bek hukmronlik qilgan davrda ancha kamol topadi. Bu haqda taniqli adabiyotshunos A.Hayitmetovning "Temuriylar davri o'zbek adabiyoti" (Toshkent, 1996) kitobida quyidagi fikrlar keltiriladi: "Ulug'bek saroyida eng obro'li va nomdor o'zbek shoiri, shubhasiz, Sakkokiy edi.

¹⁶ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Sakkokiy>.

Uning dilrabo lirik she'rlari bilan bir qatorda o'zbek tilida Ulug'bek, Arslon Xo'ja Tarhon, Xo'ja Muhammad Porso haqidagi qasidalar ham bu she'riy janrning yorqin yutug'i bo'ldi. Uning Ulug'bek haqidagi qasidalaridan birida olim-shoh to'g'risidagina emas, o'zi haqida ham so'zlab:

Falak yillar kerak aylansa-yu keltursa ilkiga,

Meningdek shoiri turk-u seningdek shohi dononi! –

deb yozilganida ma'lum bir tarixiy haqiqat bor edi, – deyish mumkin. Lekin biz Sakkokiy adabiy merosiga to'la baho bera olmaymiz. Chunki uning bizgacha yetib kelgan devonidan oxirgi bir qismi saqlanib qolgan, xolos" (7-8-b.). Taniqli olim A.Hayitmetov kitobida keltirilgan yuqoridagi bayt ilm ahli orasida mashhur bo'lib, u Sakkokiy o'z davrining yirik shoiri ekanligini tasdiqlaydi. Sakkokiy XV asr o'rtalarida vafot etgan. Alisher Navoiy Samarqandda bo'lgan yillarida (1465-1469) Sakkokiyning muxlislari bilan uchrashgani va suhbatlashganini bayon qiladi.

Sakkokiy iste'dodli lirik shoir. U o'zbek va fors-tojik tilidagi manbalarni puxta o'rgangan, ulardan o'z asarlarida ijodiy foydalangan. Firdavsiy, Nizomiy Ganjaviy, Shayx Muslihiddin Sa'diy, Xo'ja Hofiz Sheroziy singari mashhur shoirlardan ijodiy oziqlangan. O'zbek mumtoz adabiyoti ravnaqiga munosib hissa qo'shib, ko'pgina g'azallar va qasidalar yaratagan. G'azalda san'atkorlik mahoratini yaxshi egallagan Sakkokiy o'zbek qasidachiligining ham asoschilaridan biri bo'ldi. Navoiy "Badoyi' ul-bidoya" devonining debochasida Sakkokiy va Lutfiyning bir-biridan qolishmaydigan mashhur shoirlar ekanligini e'tirof etib, bunday deydi: "Va uyg'ur iboratining fusahosidin va turk alfozining bulag'osidin Mavlono Sakkokiy va Mavlono Lutfiy rahimahumollohkim, birining shirin abyoti ishtihori Turkistonda bag'oyat va birining latif g'azaliyoti intishori Iroq-u Xurosonda benihoyatdurur, ham devonlari mavjud bo'lg'ay". (Alisher Navoiy. MAT. 1-tom, T.: 1987, 14-b.) Demak, Sakkokiy Lutfiy bilan bir qatarga qo'yishga loyiq shoir bo'lgan.

Sakkokiy devonining ikki nusxasi ma'lum, ammo ikkala nusxa ham nomukammal, g'azallar qismi to'liq emas. Bu nusxalarning biri taxminan XVI asr o'rtalarida ko'chirilgan Britaniya muzeyidagi 2079 raqamli nusxa bo'lib, unda 13 qasida, 57 g'azal jamlangan. Ikkinchisi Toshkentda O'zRFAning Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida

(1937-yil Shoislom kotib tomonidan ko‘chirilgan nusxa) 7685 raqami ostida saqlanadi. Bu nusxada 13 qasida, 52 g‘azal bor.

Devondagi g‘azallardan tashqari, bir qator boshqa manbalarda Sakkokiyga nisbat berilgan g‘azallar, baytlar mavjud. Ularning soni o‘ndan ziyod bo‘lib, jumladan, “Mevlana Sakkaki divani”da Sulaymoniya kutubxonasi, Ayosofiya bo‘limida 4757 raqam ostida saqlanuvchi bir majmuadagi Sakkokiy taxallusi bilan yozilgan 3 ta g‘azal matni keltirilgan. Ular “Ey zulfi zanjirim biror devonalarni yod qil...”, “Ey mening ko‘nglumni zulfitek parishon aylagan...”, “Ey orazi bargi gulu vey qomati sarvi suman...” matla’lari bilan boshlanadi. Demak, shoirning devondagi 57, yuqoridagi majmuadagi 3 g‘azali bilan jami 60 ta to‘liq g‘azali yetib kelgan. Bundan tashqari, Alisher Navoiy “Majolis un-nafois”da Sakkokiyga nisbat qilinadigan devonga kiritilmagan quyidagi matla’ni:

Ne nozu bu ne shevadur, ey jodu ko‘zluk sho‘xshang,
Kabki dariy, tovuşda yo‘q, albatta, bu raftoru rang.

Yaqiniy “O‘q va yoy” munozarasida quyidagi baytni:

Jonim fido bo‘lsun sening g‘amzang o‘qina nechakim,
Har necha qoshing egmasi o‘qtek bo‘yumni “yo(y)” qilur.

Shayx Ahmad Taroziy “Funun ul-balog‘a” asarida quyidagi baytlarni:

Ey soching shaydo ko‘ngullarning savodi a‘zami,
Halqa-halqa ruhning sarmanzalidur har xami...

Soldi kuygan ko‘ngluma ul englari gulnor nor,
Bo‘lmadi hargiz manga ul dilbari ayyor yor...

Bo‘stonda gul yuzungg‘a o‘zni har dam o‘xshatib,
Bo‘lmish araq to g‘arqu hanuz infiole bor...

Sanuvbaroki, sening labingda muncha xavos,

Kim ani so‘rsa balodin topar jahonda xalos...

Yuzung guli muzayyan etar husn bog‘ini,
Xoling savodi nahv qilur ko‘z charog‘ini...

Atlas erur saqollari, barcha bulutlari nasaj,
Garchiki durru donadur og‘zini ochsa to‘dasi...

Sarv ne had birla sarkashlik qilur qadding bila,
Bilgurur maydon ichinda har kishining poyasi...

Va ushbu:

Gulyuzungni ko‘rsa bulbul dar chaman,
Kechib o‘z savdosidin bo‘lg‘ay chu man.

Lablaringg‘a teng tutar o‘zni aqiq,

Bilmasu behuda so‘zlar ul Yaman, – ruboiyni keltiradi.

Shayx Ahmad Taroziyning ushbu ma’lumotlari orqali biz Sakkokiyning nisbasi Sabroniy ekanligi, shuningdek, u nafaqat g‘azal va qasida janrlarida ijod qilganligi, balki ruboiylar ham yozganligidan xabardor bo‘ldik. Faqat bu ruboiy vaznida emas, tuyuqjanri vaznida bitilgan. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, Alisher Navoiyga qadar turkiy she’riyatda ruboiy tuyuqjanri vaznida yozilgan. Bu ikki janrning birgina farqi qofiyaning tajnis yoki tajnis emasligida bo‘lganga o‘xshaydi. Buni Lutfiyning “Sensan sevarim” kitobiga kiritilgan ruboiylarida ham kuzatish mumkin.

Sakkokiy devoni hamd va na’t bilan boshlanadi. Avval qasidalar keyin g‘azallar tartiblanadi. Devonda 13 madh qasida: ikki qasida hamd va na’t, bir qasida Naqshbandiy shayxlaridan Xoja Muhammad Porsoga, bir qasida Xalil Sultonga, besh qasida Mirzo Ulug‘bekka (ikki qasida bir o‘rinda keltirilib, keyingi qasida sarlavhasiz bo‘lganligi uchun bir necha yillar davomida 1ta hisoblanib, shoirning Ulug‘bek mirzoga bag‘ishlangan qasidalari 4ta sanalib kelinar edi) va to‘rt qasida o‘sha vaqtdagi Turkiston shahrining shimolida mavjud bo‘lgan Sabron viloyati hokimi Arslonxoja Tarxonga bag‘ishlanadi.

1958-yilda adabiyotshunos olim Q.Munirov tomonidan nashrga tayyorlangan shoirning “Tanlangan asarlari” ga 56 ta g‘azal, “O‘zbek adabiyoti bo‘stoni” seriyasida nashr etilgan “Hayot vasfi” kitobiga 55 g‘azal, har ikki nashrda ham “Keldi” radifli qasidasi kiritilgan.

Shoir g‘azal va qasidalarida badiiy mahorat masalasi. G‘azal Sakokiy she‘riyatining yetakchi janridir. Shoir ilohiy ishq hamda insonning insonga bo‘lgan samimiy sevgisini yonma-yon qo‘yib kuylaydi va sharaflaydi. Bu sevgi hayotga, uning zavq-shavqi, tabiat ko‘rki va ezgu insoniy xislatlarga bo‘lgan mehr-muhabbat bilan uzviy bog‘lanadi. Sakkokiy g‘azallarida uch obraz: oshiq, ma‘shuqa va raqib obrazlari yetakchi o‘rinni egallaydi. Oshiq – shoir g‘azallarining tayanch qahramoni. U – samimiy va sadoqatli inson. Yorning visoliga oshiqadi, hijron azobi bilan o‘rtanadi. Sevgisining zavq-shavqi va yorning lutf-inoyatini orzu qilgan oshiq turli-tuman moneliklarga, azob-uqubatlarga giriftor bo‘ladi. Binobarin, mashhur rind shoir Hofiz Sheroziy:

Ayo soqiy, sunub joming qil ehson, yashnasin dillar,
Ko‘rindi avval ishq oson-u so‘ngra tushdi mushkullar, –
deganidek, Sakkokiy ham:

Ishq ishin Sakkokiy avval bilmayin oson ko‘rib,
Oxiri o‘z jonining ishini dushvor ayladi (278-bet) deydi.

Biroq oshiq hijron azoblariga duchor bo‘lsa ham, ishqdan chekinmaydi, sabr-matonat bilan har qanday qiyinchiliklarga qarshi kurashga shaylanadi. Farhod Shirinning ishqida “Ko‘hkan” bo‘lsa, Sakkokiyning qahramoni “jonkan” bo‘lishga ahd qiladi:

Agar Shirin uchun Farhod ishq ko‘hkan bo‘lsa,
Ne tong Sakkokiy ham, jono yo‘lungda jonkan bo‘ldi (257-b.).

Shoirning tasvirida yor-go‘zal, latofatli va dilrabo. Uning husn-jamoli oy va quyoshdan, chamanzor gullaridan ham ziyoda. Yorning qomatiga na sarv va na sanobar, uning og‘ziga na pista va na g‘uncha, labiga na la‘l va na yoqut, ko‘ziga na ohu va na nargis, zulfiga na sunbul va na rayhon tenglasha oladi. Shu bilan birga, yor oshiqqa hayot va umid, shodlik va quvnoqlik bag‘ishlaydi. U bemorga shifo, o‘likka jon ato qiladi. Bunday tasvirlar shoir g‘azallarida ilohiy ishq bilan majoziy ishqni bir o‘zanga birlashishiga sabab bo‘ladi. Aslida ham bu ikki ishq bir-birini taqazo qiladi.

Shoirning o‘ylashicha, yor faqat tashqi go‘zalligi bilangina emas, balki ma’naviy olami bilan ham oshiqni maftun qiladi. Biroq yor rahm-shafqat, lutf-karam, vafo va sadoqatda izchil emas. U oshiqqa jabr-sitam ko‘rgazadi, va’dasiga vafo qilmaydi. Kibr-havo va mutakabbirlikka beriladi. Yorning “zulf lashkari” jon mulkini g‘orat (barbod) qiladi, turrasi (kokili) ko‘ngil shahrida g‘avg‘o qo‘zg‘aydi. Aslida, ma’shuqaning bunday “harakat”lari uning fe’l-atvoridagi illat emas. Ular majoziy mohiyat kasb etadi. Oshiq muhabbatining sofligini aniqlashning tayanch vositasidir.

Turrang ko‘ngil shahrinda ko‘p oshubi g‘avg‘o qunqorib,
Jon mulkini g‘orat qilur har lahza zul fing lashkari (276-b.).

Sakkokiy she’rlarining ko‘pchiligi boshqa g‘azalxon shoirlarda bo‘lganidek, yetti baytlidir. Shular qatorida besh, to‘qqiz baytlilari ham kam emas.

Adabiyotshunoslikda turkiy qasidachilik an‘anasi bilan Mavlono Sakkokiyning nomi yonma-yon tilga olinadi. Chunki shoir eng go‘zal va ko‘p qasidalar yaratganligi bilan mashhurdir. Uning hamd qasidasi 22 bayt, na‘t qasidasi 24 bayt, Muhammad Porsoga bag‘ishlangan qasidasi 21 bayt, Ulug‘bek Mirzo madhi deb berilgan “Keldi” radifli qasidasi 34 bayt, “Tilor ko‘nglum o‘zni solsavu bo‘lsa zulfina lolo” misrasi boshlanadigan qasidasi 26 bayt, “Keldi maymunu humoyun iydi olam bo‘ldi shod” misrasi bilan boshlanadigan qasidasi 21 bayt, “Necha qilg‘oy ko‘ngul mulkin asir ul turki g‘oratgar” misrasi bilan boshlanadigan qasidasi 41 bayt, “Sabo keldi safo birla, ketur, ey soqiy sahboni” qasidasi 54 bayt, Xalil Sultonga bag‘ishlangan qasidasi 30 bayt, Xoja Tarxonga bag‘ishlangan “Rabe’ keldi-yu qildi jahonni shodu xurram” misrasi bilan boshlanadigan qasidasi 43 bayt, “Bu kun saharda keturdi anvid bodi sabo” misrasi bilan boshlanadigan qasidasi 43 bayt, “Ey falak, charx urgil, iqbol oldi yuzindin niqob” misrasi bilan boshlanadigan qasidasi 36 bayt, “Nedur ul ko‘zakim aning ichra bor obu hayot” misrasi bilan boshlanadigan qasidasi 12 bayt, jami qasidalar 407 bayt yoki 814 misrani tashkil etadi.

Navoiyga qadar devon tuzishda janrlar tartibi arab devonchiligi singari asosan qasidalar bilan boshlangan. Xususan, Sakkokiy devoni ham qasidalar bilan boshlangan. 22 baytlik sarlavhasiz hamd qasida devon boshida keltirilgan. Shu kunga qadar shoirning hamd va na‘t qasidalari boshqa

qasidaları qatoriga qo‘shilmagan. Ya’ni shoirning 11 ta qasidasi mavjud deb hisoblangan. Taroziyning she’rni „o‘n nav’“ (qasida, g‘azal, qit’a, ruboiy, masnaviy, tarje’, musammat, mustazod, mutavval, fard), deb uning har qaysisida agar Tangri azza va jallaga hamd aytsalar, oni tavhid derlar. Va agar Muhammad Mustafo alayhissalot vas-salomni vasf qilsalar, na’t derlar, agar Tangri hazratinda tazarru’ qilsalar, munojot o‘qurlar... degan fikriga tayansak va Sakkokiyning hamd (22 bayt), na’t (24 bayt) qasidalarida shoirning falsafiy, diniy-tasavvufiy va insonparvarlik qarashlari ham o‘z aksini topganligini hisobga olib, adabiyot nazariyasi qoidalaridan kelib chiqqan holda shoir qasidaları 11ta emas, 13ta deb hisoblashga asos bo‘la oladi.

Munojot – hamd qasidada Ollohning yagonaligi, Uning sifatlari madh qilinadi va shoir o‘z gunohlari uchun tavba-tazarru qiladi:

Osiy qul Sakkokiyning isyonig‘a had yo‘q hisob,
Sen karam birla kechurgil, ey Karimi kirdgor.

Na’t qasida Muhammad s.a.v. ga bag‘ishlangan bir madhdir. Shoir bu qasidada riyosiz sevgi haqida bayon qilib, uning shafolatidan umid qiladi.

“Dar madhi Xoja Muhammad Porso, navvarollohu marqadu” qasidas 1348-1420 yillarda yashagan buxorolik mashhur va e’tiborli mutasavvuf Muhammad Porsoga bag‘ishlab yozilgan. Sakkokiy Xoja Muhammad Porsoga chuqur muhabbat bog‘laganini, uni ma’naviy piri sifatida qabul qilganini yozadi. Qasidaning o‘n to‘qqizinchi bayti shunday:

Mundoq tirig bo‘lub yurguncha e(y) koshki,
Sakkokiy bo‘lsa erdi ul eshikta xoki po.

Sakkokiyning temuriy hukmdorlaridan olim va shoh Ulug‘bek Mirzoga bag‘ishlangan “Keldi” radifli qasidasi “Hayot vasfi” hamda “Navoiyning nigohi tushgan...” nomli to‘plamlarga kiritilgan. Mazkur qasida haqidagi mulohazalar asosida shoirning qasidanavislik sohasidagi badiiy mahorati xususida bir to‘xtamga kelish mumkin. Avvalo, shuni e’tirof etish lozimki, Sakkokiyning Ulug‘bek Mirzoga bag‘ishlab yozgan qasidalarida mubolag‘ali maqtovlarga emas, balki tarixiy haqiqatni badiiy ifodalash markaziy o‘rinda turadi. Ulug‘bek Mirzo ma’rifatparvar hukmdor, buyuk olim sifatida tarixda o‘z nomini muhrlab qoldirishga erishdi. Binobarin,

Sakkokiy maqtovlari zamirida ham ulug' shoh va olimga cheksiz hurmat borligi sezilib turadi:

Jahondin k yetti tashvish-u mabodiyi omon keldi,
Xaloyiq, aysh eting, bu kun sururi jovidon keldi.
Tan erdi bu ulus barcha aningtek joni bor yo yo'q,
Bihamdilloh, o'g'on fazli bila ul tanga jon keldi (283-b.) – deydi.

Shuningdek, shoir Ulug'bek Mirzoni "Sulaymoni zamon", "No'shiravon", "Musotek shubon", "Atodin mehribon", "xurshidi zamon" sifatlar bilan maqtaydi, uni harbiy ishlarda, janglarda tengi yo'q bahodir sifatida ta'riflaydi va qasidaning xotimasini duo bilan tugatadi:

Salotin dunyoda ko'p keldi-yu kechti, seningtek bir,
Falakning gar tili bo'lsa, aytisunkim, qachon keldi? (284-bet).

Darhaqiqat, Mavlono Sakkokiy Ulug'bekdek ma'rifatparvar va oqil insonni shunday madh etishga to'la haqli edi. Shunday qilib, Sakkokiyning Ulug'bek Mirzoga bag'ishlangan qasidalarida tarixiy haqiqat ham, mo'tadil mubolag'ali tasvirlar ham mavjud. Shoirning o'shanday o'ta mubolag'aviy tasvirlarida ham uning Ulug'bek Mirzoga bo'lgan cheksiz muhabbati yorqin ufurib turadi. Bunday tasvirlarda Ulug'bek Mirzoning raiyatparvarligi o'z ifodasini topadi:

Ra'iyat qo'y erur, sulton anga cho'pon, yog'iy bo'ri,
Bo'ri o'lgo-yu qo'y tingoy, chu Musotek shubon keldi, –
der ekan, podshohlarni xalq ahvolidan hamisha ogoh bo'lishga da'vat qiladi. Shuning uchun Sakkokiyning Ulug'bek Mirzoga bag'ishlangan qasidalarining qimmatini benihoya balanddir.

Xullas, Sakkokiy qasidalarida 12 baytdan 54 baytgacha yetadi. Nasib (kirish qismi)dan keyin gurizgoh (o'tish yoki asosiy qismga tayyorlovchi bo'lim) keladi. Gurizgohlar ba'zan 4-5 va undan ortiq baytlardan tashkil topgan. Sakkokiy qasidalarining nasib qismlari biroz cho'zilgan bo'lishiga qaramasdan, yuksak did bilan yozilgan.

Shoir qasidalarida ba'zan nasibsiz, to'g'ridan-to'g'ri madh bilan ham boshlanadi. Bunday qasidalar, odatda, "qasidayi mujarrada", ya'ni "yalan-g'och qasida" deyiladi¹⁷.

¹⁷ Rahmonov N. O'zbek adabiyoti tarixi (Eng qadimgi davrlardan XV asrning birinchi yarmigacha). O'quv qo'llanma. – T.: Sano-standart, 2017, B. – 483.

Mavlono Sakkokiy Alisher Navoiyga qadar ijod etgan shoirlarning eng mashhuri bo‘lib, bizgacha yetib kelgan kam miqdordagi, ammo badiiy jihatdan yuksak she’riy merosining o‘zi ham uning naqadar ulug‘ shoir bo‘lganligini tasdiqlaydi. Sakkokiyning adabiy faoliyati zamondoshlari Lutfiy, Gadoiy, Atoiy kabi Navoiy ijodiga ham katta ta’sir ko‘rsatgan. Shoir nafaqat g‘azalchilikda o‘z ovozigaga ega bo‘lgan, balki turkiy qasidachilikning ilk go‘zal va mukammal namunalarini yaratgan shoir sifatida ham mumtoz adabiyotimiz tarixida nom qoldirgan ijodkorlardandir¹⁸.

Savol va topshiriqlar:

1. Atoiy hayoti va ijodi haqida ma’lumot bering.
2. Atoiy g‘azallariga xos g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarni bayon qiling.
3. Sakkokiyning badiiy mahorati haqida ma’lumot bering.
4. Shoir qasidalarida Mirzo Ulug‘bekni qanday ta’riflaydi?

¹⁸ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Sakkokiy>.

LUTFIY VA HUSAYNIY IJODI

REJA:

1. Lutfiy hayoti va ijodini o'rganish manbalari.
2. Lutfiyning ijodiy faoliyati. Lutfiy va Navoiy.
3. Husayniy va uning ijodi haqida.
4. Husayniy – turkigo'y shoir.

Tayanch so'z va iboralar: qasida, g'azal, devon, tazkira, debocha, bayt, radif, "malik ul-kalom".

Lutfiy hayoti va ijodini o'rganish manbalari. Zamonasining malik ul-kalomi – so'z mulkining sultoni faxriy unvoniga munosib ko'rilgan, Firdavsiy, Nizomiy, Anvari, Sa'diy, Xoja Hofiz singari buyuk fors-tojik adabiyoti darg'alari qatoridan faxrli o'rin egallagan Mavlono Lutfiy o'zbek mumtoz adabiyotining taniqli namoyandalaridan biridir. Shoirning hayoti va faoliyati haqida Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois", "Muhokamat ul-lug'atayn", "Holoti Pahlavon Muhammad", "Badoyi' ul-bidoya" devoni debochasi va boshqa asarlarida, Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro", Xondamirning "Habib us-siyar", "Makorim ul-axloq", Abdulla Kobuliyning "Tazkirat ut-tavorix", Shamsuddin Somiyning "Qomus ul-a'lom", Vosihning "Majmuai manzum va Mansur", Shayx Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" singari qator manbalarda ma'lumotlar uchraydi. Shunday bo'lishiga qaramay, Lutfiyning tarjimai holi va adabiy merosi haqida to'liq tasavvur hosil qilish imkoniyatiga ega emasmiz. Jumladan, Lutfiy shoirning taxallusi bo'lib, uning nomi, otanasi, tug'ilgan yil va joyi, safarlari hamda shunga o'xshash qator masalalar haligacha lutfiyshunoslikda o'z yechimini qat'iy topganicha yo'q. Mavlono Lutfiyning zamondoshlaridan bo'lgan ulug' o'zbek shoiri Alisher Navoiy "Majolis un-nafois" tazkirasida shoirning to'qson to'qqiz yil umr ko'rgani, hayotining so'ngida forsiyda "Oftob" radifli g'azal yozgani va zamon shoirlari unga tatabbu' qilganliklari, yigitligida zohiriy ulum tahsilidan so'ng Mavlono Shahobiddin Xiyoboniy qoshida so'fiya tariqatidan tahsil olgani hamda Hirot chekkasidagi Dehikanor degan joyda dafn etilganligi

haqida qimmatli ma'lumotlarni keltiradi. (Qarang: Alisher Navoiy. MAT. 13-jild. 60-61-betlar). Akademik B.Valixo'jayev "Malik ul-kalom Mavlono Lutfiy" (Samarqand, 1999) nomli risolasida shoirning tug'ilgan va vafot etgan yillari hozirgi kunda Abdulla Kobuliyning "Tazkirat ut-tavorix" kitobiga tayangan holda prof. Ismoil Hikmat Ertaylon tomonidan 1395-1492, adabiyotshunos S.Erkinov, E.Ahmadxo'jayevlar esa bu sanalarni 1366-1465 yillar tarzida belgilaganliklarini qayd etadi. Shuningdek, olim bu masalaning nozik nuqtalariga e'tiborni qaratib, shoirning tavallud va vafot etgan sanalarini taxminan 1385-1386 – 1482-1483 yillar tarzida belgilash mumkinligini e'tirof etadi (O'sha kitob, 7-14-betlar). Akademik B.Valixo'jayevning bu boradagi mulohazalari diqqatga sazovordir. Olim Shayx Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" asarida "Ma'dan ul-latoyif Lutfiyi Shoshiy" hamda "Lutfiyi Shoshiy aytur" tarzida tilga olingan bo'lsa-da, shoirning tavallud manzilini qat'iy Shosh – Toshkent deb belgilash mushkil ekanligini asosli dalillar vositasida izohlaydi hamda Lutfiyning tug'ilgan vatani haqida hozircha ikki mulohaza mavjud, bularning biri – Hirot, ikkinchisi – Shosh – Toshkent ekanligini qayd etadi (O'sha kitob, 14-17-betlar). Mavlono Lutfiy madrasada tahsil olgan. U o'sha davr madrasayi oliyalarida o'qitiladigan rasmiy-zohiriy fanlarni o'rganish jarayonida, shubhasiz, arab va fors tillarini ham o'zlashtirgan va zullisonayn shoir sifatida turkiy hamda forsiy tillarda ijod qilgan. Lutfiy, ayniqsa, turkiy tilda badiiy jihatdan barkamol asarlar yozgan. Albatta, shoir bu darajaga yetishish uchun Sharq mumtoz adabiyoti an'analari va badiiy ijod sirlarini puxta o'rgangan. Lutfiyning yuksak iste'dod sohibi ekanligidan Movarounnahr hukmdori Ulug'bek Mirzo, Xuroson hukmdori Shohruh Mirzo va Boysunqur Mirzolar ham xabardor bo'lishgan. Mavlono Lutfiy she'rlarida Turkiston, Chig'atoy, Samarqand, Amu, Hirot, Qorabog', Aras, Qrim, Kobul, Iroq kabi jug'rofik nomlar uchraydi. Biroq biz eslatgan manbalarda shoirning zikri o'tgan shaharlarga safar qilganligi haqida ma'lumotlar keltirilmagan.

Lutfiyning ijodiy faoliyati. Lutfiy va Navoiy. Lutfiy turkiy tildagi she'rlarini jamlab, devon tartib bergan. Alisher Navoiy shoirning "turkcha devoni ham mashhurdir", – deya ta'kidlaydi. Shoir devonlarining bir necha qo'lyozma nusxalari bizgacha yetib kelgan. Mavlono Lutfiy devonining

hozirgacha ma'lum nusxalarida 372 g'azal, 3 qasida, 115 to'rtlik, 60 fard va ruboiy, tuyuq, qit'a kabi janr namunalari uchraydi.

Lutfiy XIV asrning oxiri – XV asrning o'rtalarida yashab ijod qildi. Mavlono Lutfiy o'z zamondoshlari orasida “malik ul-kalom” (Alisher Navoiy), “so'z lutfida yagonayi davron” (Xondamir) shoir sifatida shuhrat qozongan. Uning bizgacha yetib kelgan asarlari tarixiy va ilmiy manbalarda Lutfiy taxallusi bilan berilgan. Lutfiy fors va turkiy tillarda ijod qilgan. Lutfiydan boshqa shu taxallus bilan ijod qilgan shoirlar tarixda o'tgan. Mavlono Lutfiydan boshqalari ozarbayjon, usmonli turk, fors-tojik tillarida ijod qilganlar. Ammo uning alohida forsiy devoni borligi to'g'risida ma'lumot yo'q. “Lutfiy” taxallusli shoirlarning birontasi ham Mavlono Lutfiy darajasida she'r bitolmagan. Shu taxallusli shoirlarning biri to'g'risida Navoiy “Majolis un-nafois”da ma'lumot beradi. Alisher Navoiy, Xondamir, Abdulla Kobuliylar Lutfiy merosining asosiy qismini uning turkiy devoni tashkil etishini aytganlar.

Lutfiy zamonasining mutasavvif olimlaridan Shahobiddin Xiyoboniydan ta'lim olgan.

Navoiy Mavlono Lutfiyni faqat o'z davrining malik ul-kalomi sifatidagina emas, balki tasavvufning tariqat sulukiga mansub ulug' zot sifatida ham yuksak baholaydi. Jumladan, “Nasoyim ul-muhabbat”da Lutfiy haqida quyidagi ma'lumotlar bor: “Mavlono Lutfiy r.t. - tahsil ayyomida Mavlono Shahobuddin Xiyoboniy xizmatig'a yetar erkandur va odobi tariqat sulukini andin kasb qilur erkandur. Agarchi shoirliq tariqida ma'ruf va mashhur bo'ldi, ammo darveshlik tariqatini taqi ilkidin bermadi. Bu faqir borasig'a ko'p iltifoti bor erdi va fotihalar o'qur erdi va doim volida mulozamatig'a (xizmat qilishga) va rizoe xotirig'a targ'ib qilur erdi. To'qson yoshidin tajovuz qilg'onda, Hazrat Maxdumi n.m.n. otig'a radifi “suxan” saj' qasidae aytib erdiki, zamon xushgo'ylari barcha xo'bluqqa musallam (ma'qul) tuttilar va ul hazrat dog'i insof berdilar va oning matlai budurkim, bayt:

[Xusho, labingdin chiqqan so'zlar - ruh ozig'i, so'zning jonidir,
Yuzing guli - so'z bo'stoni chamanlarini bezovchidir],

Hazrat shukrguzorlik yuzidin ma'zarat (uzr) izhori qilib dedilarkim, bu she'rning silasi (in'omi) uhdasidin biz chiqamolmasbizki, magar muqobalada

ham qasidae sizning otingizg'a aytqaybiz. Mavlono dedilarki, ani sizga oson qilurbiz. Sizning kiygan oson to'nungizni gadoylik qilurbizki, hulla (ipakdan tikilgan kiyim) bo'lg'ay. Ul hazrat uzrxohliqlar bilan kisvat (kiyim)ni Mavlonog'a kiydurdilar. Mavlono bag'oyat so'xta kishi erdi... Bu matla'idin bu toifa mashrabi (tabiati, odati)ning choshnisi (tabiati) zohirdur:

Ulki husn etti bahona elni shaydo qilg'ali,

Ko'zgudek qildi seni o'zini paydo qilg'ali.

(Alisher Navoiy.MAT. 17-tom, T.:2001 476-477-b.).

Navoiy keltirgan bu ma'lumotdan Lutfiyning, birinchi navbatda, darveshlik axloqida ham mashhur bo'lganini, tariqat odobi sulukiga mansubligini bilib olamiz. Darveshlar yo'li, Navoiy "Mahbub ul- qulub"da aytganiday, botini zohiri bilan barobar, odamlarning malomatlarini xushnudlik bilan qabul qiladigan, adab va tavoze'ni o'zlariga odat qilib olgan, do'stu dushmanga baravar yaxshilik istaydigan toifaning yo'lidir. Gadoylar ham darveshlarning bir toifasi edi. Tariqat odobi bo'yicha esa, tariqat ahli orasida faqirona kiyimlar kiyib yurish odati ham bo'lgan.

Boysung'ur Mirzo kabi sultonlar Lutfiyning shoirlik mahoratini g'oyat e'tirof etganlar, uni o'z huzurlariga taklif qilib turganlar. Lutfiy Boysung'urning hayot davri va uning o'g'li Alouddavlaning yoshlik, navqiron yigitlik paytiga bag'ishlangan qasidasining so'ngidagi ikki baytida o'zi bilan shahzodalar o'rtasidagi munosabatlar manzarasini chizib beradi:

Yetti boshim ko'kka, shohokim, tiladingiz g'azal,

Ul sharaftin topti devonim qabuli shayxu shob.

Lutfiy qulning she'ri birla xuddi ehtiyoj,

Iltofotingdin, begim, men shuhrat ettim iqtisob.

[Mening g'azallarimni istaganingizda boshim ko'kka yetdi, shundan devonim sharaf topib, keksa-yu yosh tomonidan qabul qilindi. Qul Lutfiyning she'rini o'qishga siz ehtiyoj sezdingiz, ey bek, sizning iltifotingizdan men shuhrat topdim.]

Ko'rinadiki, Alouddavla ham Lutfiy g'azallarini yoqtirgan. Chamasi, Alouddavla Lutfiy g'azallarini so'rab olib o'qib turgan. Baytlar mazmunidan yana shu narsa anglashiladiki, yuqoridagi qasida yozilgan davrda – taxminan 1430-yillarda Lutfiy devon tuzgan, degan xulosaga kelish mumkin. Lutfiy devonni bir marta emas, balki bir necha marta tuzgan.

Bunday fikrga kelishga devon qo‘lyozmasining Parij va Gota nusxalari undaydi. Zotan, bu nusxalarda devon yangi she‘rlar bilan to‘ldirib borilgan. Devonda she‘rlarning o‘rni almashtirilgan, she‘rlar tarkibidagi ayrim baytlar tushirilib, yangilari bilan almaytirilgan, baytlar mazmunan qayta tahrir qilingan. Demak, Lutfiy o‘z ijodiga har doim jiddiy yondashgan.

Bugungi kunda mavjud ma‘lumotlarga tayangan holda, Lutfiyning ijodiy merosi janrlar bo‘yicha quyidagi miqdorni tashkil etadi: g‘azallar – 372 ta bo‘lib, 4712 misra; qasidalar – 3 ta bo‘lib, 214 misra; to‘rtlik (tuyuqlar) – 115 ta bo‘lib, 460 misra; fardlar 60 ta bo‘lib, 120 misra; ayrim baytlar 22 ta bo‘lib, 44 misra.

Lutfiy Sharafiddin Ali Yazdiyning fors tilidagi “Zafarnoma” (1437) asarini ham Shohruh Mirzoning taklifi bilan ona tiliga she‘riy tarjima qilgan. Ma‘lumotlarga qaraganda, “Zafarnoma”ning tarjimasi o‘n ming baytdan ortiqdir.

Mavlono Lutfiydan boy adabiy meros qolgan. Manbalarda shoirning 20 dan ortiq asar yozgani aytiladi. Lekin bu asarlarning ayrimlari hali topilmagan.

Shoirning ijodi juda erta boshlanib, umrining so‘nggi davrlarigacha ham ijod bilan mashg‘ul bo‘lgan. Manbalarda xabar berilishicha, shoir “aftad” radifli g‘azalini 99 yoshida – vafot etgan yili yoza boshlagan. Navoiyning aytishicha, Lutfiy bu g‘azalini davom ettirib, tugatishni Abdurahmon Jomiyga vasiyat qilgan.

Lutfiy o‘z davrida ham, keyin ham zamonaning mashhur ijodkorlari tomonidan Navoiydan keyingi o‘rinda turadigan shoir sifatida e‘tirof etilgan. Navoiy “Badoyi’ ul-bidoya” devoni debochasida ham Lutfiyning Iroq va Xurosonda shuhrat tutganini alohida ta’kidlaydi. Navoiy Lutfiy g‘azaliga bog‘lab yaratgan uchta muxammasini mazkur devoniga kiritgan.

Umuman, Lutfiy haqida Alisher Navoiy asarlarida keng ma‘lumot berilgan. Keyinchalik yaratilgan adabiy-tarixiy manbalarda Navoiy asarlarida berilgan ma‘lumotlar takrorlansa-da, bu ma‘lumotlar aynan takror bo‘lmay, Lutfiy hayoti va ijodining biron qirrasini ochishga xizmat qiladi. Kamoliddin Binoiy, Davlatshoh Samarqandiy, Zahiriddin Bobur, Poshshoxoja kabi qator shoir-u muarrixlar Lutfiy ijodi, xususan, she‘riyatiga yuksak baho berganlar. Lutfiy asarlari XIX asrning oxirlarigacha ham ijod

ahliga kuchli ta'sir ko'rsatganini qori Rahmatulloh Vozeh (1817-1894) ning "Majmuai mansur va manzumi Vozeh" tazkirasidan bilamiz.

Ma'shuqaning tashqi go'zalligi yu ichki olami, vafosi yu jafosi butun boshli bir g 'azalning boshidan-oxirigacha davom etadi. Bu tarifu tavsif lar orqali shoir ma'shuqani go'zallikning mukammal timsoli qilib yara ladi. Shuning uchun ma'shuqaning visoli - rohat, hajri balo, ammo yor hajr azobida oshiqqa keltirgan baloning evazi bor. Bu evaz - sevikli yor ning dudog'i, hajrdan to'kilgan qonlar evaziga oshiq yommg dudog'idan xun bahosini olsa, bas. Shu istak bilan qilgan duolari oxiri ijobat bo'ldi yor tashrif buyurdi:

Bihamdillohki keldi dilraboyim,
Azizon, ko'zi cho'lpon, to'lun ovim,
Sevar jonim, pari paykar, habibim,
Visoli — rohatim, hajri - baloyim.
Yuzi gul, sochi sunbul, bag'ri toshim,
Muhiblami unutqan bevafoym.
Murodim davlati, baxtim latifi,
So'zi shirin nigori jonfizoyim.
Yana tan sori borgon ruh yondi,
Buyon kelgach safardin mahliqoyim.
Qonimni hajr ila to'kti yozuqsiz,
Dudog'ingdin tilarman xun bahoyim.
Farah qil, Lutfiykim, dildor keldi,
Ijobat bo'ldi hazratta duoyim.

Bu qadar maftunkor, jozibali, ayni paytda jafokor yor tasviri dunyoviy muhabbatga bo'lgan tashnalikdan paydo bo'lgan. Yorning g 'azalda keltirilgan hamma sifatlari, tashqi go'zalligi tansiq us sifot san'atini hosil qilgan.

Ayrim hollarda yorning jafosidan, noz-karashmalaridan azob chekkan qahramon umidsiz kayfiyatga tushganday bo'lib tuyuladi. Aslida bayt-larning ma'nosi umidsizlikni emas, balki hijronning avj cho'qqisini ifoda etadi. Quyidagi baytlarga e'tibor beraylik:

Janozamning kovurgokina bog'lang nomai shavqim
Kim, ul nomehribon topqay xabar bu joni zorimdin.

Ayur Lutfiy aning uzrin ne deb, mahsharda bo'lg'aymen,
Jafo birla agar qonim to'kub o'tsa mazorimdin.

Oshiqning ma'shuqaga yetkazmoqchi bo'lgan oxirgi orzusi bor: oshiq janozasi kuni ma'shuqaga aytolmagan dardlarini nog'ora sadolari orqali yetkazishni vasiyat qilmoqda, toki rahmsiz yor marhum oshiqning ohu zorlaridan xabar topsin. Bu baytda oshiqning o'kinchi yoki zolim yoridan yuz o'girish kayfiyati yo'q, aksincha, qabrda yotganda ham yorning jafolarini qabul qiladi, chunki oshiqning muhabbati abadiy. Chinakam muhabbatning samimiy ifodasi, oshqlik qismatini bo'yniga olish ana shudir.

Lutfiy g'azallarida oshqlikning qismati faqat his-tuyg'ularning oshkora ifodasiga bog'liq bo'lib qolmay, balki hijron azoblaridan zavqlanish, mahzunlik orqali ichki dardni yuzaga chiqarishda ham namoyon bo'ladi. Oshqlik qismatining haqiqiy suratini Lutfiy quyidagicha chizib beradi:

Firoqingg'a meni soldi qaroqing,
Na hojat qiynasa emdi firoqing...
Na deb hajr ilkidin sendin tilay dod,
Ki hijron birla birdur ittifoqing.
G'amu hasrat bila boshim oqardi,
Chu bir dam ko'rmadim siymtek saqoqing.
Ham ul dam kuydi Lutfiy sham' yangliq,
Ki ko'rdi nogihon nortek yangoqing.

Oshiqni qiynayotgan dardning bir o'zi emas, balki dard dard bilan birga firoq, hijron, g'am-hasrat kabi kayfiyatlar ham oshiqni iztirobga soladi, uning iztiroblari kuchayib boradi. Oxirgi ikki baytda yorning oppoq bag'bag'alarini ko'ra olmaganidan hasrat chekib sochi oqargan bo'lsa, qizil yanoqlarini ko'rganda shamga o'xshab kuydi. Ikki detal, bir-biriga zid ikki holat. Ammo bu zidlikning natijasi ma'shuqaning yagona maqsadini amalga oshiradi - oshiqning dardini zo'raytiradi, xolos. Dardning teran ildizini, dardning qiyofasini bu qadar mahorat bilan chizish faqat Lutfiyga xos.

Lutfiyning fors tilida yozgan she'rlaridan ayrim-ayrim baytlar, shuningdek, uning Abdurahmon Jomiy davom ettirib tugatgan "aftad" radifli g'azali to'liq holda yetib kelgan.

Lutfiy fors tilida ajoyib qasidalar bitgani ma'lum. Bu haqda Navoiy "Majolis un-nafois" asarida ma'lumot beradi. Lutfiyning o'zbek tilidagi g'azal, ruboiy, tuyuq va boshqa janrdagi asarlari jahonshumul shuhrat qozondi.

Husayniy va uning ijodi haqida. Husayn Boyqaro Amir Temur Ko'ragon naslidan bo'lib, Mirzo Mansur binni Mirzo Boyqaroning o'g'lidir. Husayn Boyqaro 1438-yili Hirot shahrida tug'ilgan. 1469-yili Hirot taxtini egallab, 1406-yilgacha Xurosonning hukmdori bo'ladi.

XV asr o'zbek mumtoz adabiyotining namoyandalaridan. Temuriylardan Umarshayx mirzoning evarasi. Onasi Feruzabegim temuriylardan Mironshohning nabirasi. Husayn Boyqaro, Bobur ta'riflaganidek, ikki tomonlama ulug' ("karim ut-tarafayn") bo'lgan. Tarixiy va ba'zi adabiy manbalarning bergan ma'lumotlariga ko'ra, Alisher Navoiyning otasi (G'iyosiddin Muhammad) Kichkina baxshi Bahodur Mirzo Boyqaroning o'g'li G'iyosiddin Mansur bilan emikdosh (ko'kaldosh) bo'lgan.

Husayn Boyqaro 14 yoshda Abulqosim Bobur saroyiga xizmatga kirgan. 1454-yil Abulqosim Boburning Samarqandga – Abu Said Mirzoga qarshi yurishida qatnashgan. Abulqosim Bobur yengilgach, sulh tuzib, Hirotga qaytgan. Husayn Boyqaro esa onasining tavsiyasi bilan Abu Said Mirzo saroyida qolgan. Ko'p o'tmay, qamoqqa olingan. Feruzabegim uni qutqarib, Hirotga olib kelgan. Shoh vafot etgach, Husayn Boyqaro Marv hukmdori Sulton Sanjar xizmatiga kirgan va uning qizi Beka Sultonbegimga uylangan. Sulton Sanjar Husayn Boyqaroni o'z o'rniga qo'yib, Mashhadga yurish qilgan. Bu orada Marvda Husayn Boyqaroga qarshi fitna uyushtirilib, u ovga chiqqanda, shahar darvozalari berkitib olingan. Husayn Boyqaro 1457-yil qishni Marv bilan Xiva oralig'idagi biyobonda o'tkazgan. 1458-yilda 300 kishilik qo'shin bilan Sulton Sanjarning yaqinlaridan Bobo Hasan qo'shinini yengib, Niso viloyati, so'ng Astrobodni egallagan. 1459-yilda Husayn Boyqaro huzuriga Abdurazzoq Samarqandiy elchi bo'lib kelgan. 1460-yilda vaziyat taqozosi bilan Husayn Boyqaro Astrobodni tashlab chiqishga majbur bo'lgan. Ammo 1461-yil shaharni qaytarib olgan. Shu yil yoz oxirlarida Hirotga yurish qilgan. Biroq Abu Said Mirzoga bas kelolmay, orqaga chekingan, buning ustiga, Astroboddan ham mahrum bo'lgan. Amudaryo orqali Xorazmga o'tib, Vazir shahriga – Mustafoxon huzuriga

elchi yuborib, Abu Saidga qarshi birgalikda kurashishga da'vat etgan. Lekin elchi kelguncha, uning og'asi Pir Budog' bilan kelishib, Mustafoxonga qarshi yurish qilishgan, lekin Vazir shahrini ololmay, bitim tuzganlar. Husayn Boyqaro Adoqqa borib, 1461-yil oxirlarigacha o'sha yerda qolgan. Adoqda turib, Astrobod, Gurgon va Eronning boshqa tumanlariga hujumlar uyushtirgan, mag'lubiyatga uchraganida, shu yerdan panoh topgan. Mustafozulmiga qarshi ko'tarilgan isyondan foydalanib, avval Vazirni, 1462-yilda Urganch va Xivani qo'lga kiritgan. Oradan 1 yil o'tmay, Abu Said uni Xorazmdan surib chiqargan. 1463-64 yillarda Urganch, Xiva, Hazorasp, Tirsakni qo'lga kiritgan. Shu yerda kuch to'plab, yana Xurosonga hujum qilgan. Ammo Abu Said qo'shinlari Xivani egallaydi. Husayn Boyqaro uni qaytarib oladi. 1467-yilda yana Urganchni egallaydi. Shu yili u o'zbeklar xoni Abulxayrxondan yordam so'rab, Dashti Qipchoqqa boradi. Xon yordam va'da qiladi, lekin betob bo'lib qolganligi tufayli, bu va'da amalga oshmaydi. 1469-yil martigacha Xorazm va Buxoro o'rtasida sarson-sargardon yurgan Husayn Boyqaro, Abu Said vafot etgach, Hiroti egallab, Samarqanddan do'sti Alisher Navoiyni maxsus yorliq bilan chaqirib oladi va muhrdorlik vazifasiga tayinlaydi. Navoiy do'stini taxtga chiqishi bilan qutlab, unga "Hiloliya" qasidasini taqdim etgan.

1469-70 yillar Shohrux mirzoning avlodlaridan Yodgor Muhammad Mirzo va Abu Said Mirzoning o'g'li Sulton Mahmud Mirzo taxt da'vogarlari sifatida maydonga chiqadilar. Yodgor Mirzoning tarafdorlari, xususan, onasi Poyanda Sultonbegim Hirot ichkarisida zimdan ish olib borgan. 1470-yilning iyulida Husayn Boyqaro qo'shin bilan dushmanga qarshi jangga ketganda, poytaxtda sotqin bek va amaldorlar Yodgor Mirzo nomiga xutba o'qitganlar. Husayn Boyqaro bir oydan so'ng Navoiyning tadbirkorligi bilan Yodgor Mirzoni qo'lga olib, taxtni qayta egallagan va umrining oxirigacha hukmdorlik qilgan. Saltanatiga Xorazm, Seyiston, Qandahor, Balx, G'aznadan Domg'ongacha bo'lgan yerlar kirgan. Yurak xastaligidan vafot etgan Husayn Boyqaro o'zi qurdirgan madrasa ichidagi maqbaraga dafn etilgan. Hozir maqbara vayron bo'lgan, qabr va uning ustiga o'rnatilgan "Sangi haft qalam" saqlanib qolgan.

Husayn Boyqaro temuriylar orasida ancha shijoatli va ma'rifatli, shariatga qat'iy amal qilgan hukmdor bo'lgan. Husayn Boyqaro Xurosonda

hokimiyatni egallagach, asosiy e'tiborni mamlakatda tinchlik, osoyish-talikni qaror toptirish, ichki hududiy nizolar, ziddiyatlarni bartaraf etish va markaziy hokimiyatni mustahkamlashga qaratgan. U o'lkada madaniy-ma'rifiy va obodonchilik ishlarini rivojlantirishga alohida rag'bat ko'rsatgan: iqtisodiy hayot yuksalib, savdo-sotiq rivojlangan, yuzlab karvon-saroylar, rabot, ko'prik, maktab, madrasa, masjid, xonaqoh, hammom, tabobatxona, yetimxona, suv havzalari qurilgan, kanallar qazilgan, bog'lar barpo etilgan.

Husayn Boyqaro davrida Hirot Sharqning fan, madaniyat, hunarmandchilik rivojlangan yirik markaziga aylangan: turli mamlakatlardan iste'dod sohiblari Hirotga panoh axtarib kelganlar. Til, adabiyot, tarix, tasviriy san'at, xattotlik, kitobat san'ati, tabobat, handasa, musiqa, qog'oz tayyorlash, tomosha san'ati va b. sohalar rivojlangan. Hirot, Mashhad, Marv, Nishopur singari shaharlarda ko'plab noyob obidalar barpo etilgan. Mahalliy hunarmandlar ishlab chiqargan mahsulotlar Xurosondan tashqarida ham mashhur bo'lgan. Husayn Boyqaro, Navoiy va Jomiy ko'plab iste'dodlarni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlaganlar; o'z davrining zabardast shoir, olim, muarrix, musiqachi, xattot, naqqoshlari xuddi shu zamonda yetishib chiqqanlar va faol ijod qilganlar. Zahiriddin Muhammad Bobur ta'biri bilan aytganda, "Sulton Husayn Mirzoning zamoni ajab zamone edi, ahli fazl va benazir eldin Xuroson, bataxis Hiri shahri mamlu edi. Har kishining kim, bir ishga mashg'ullug'i bor edi, himmati va g'arazi ul erdikim, ul ishni kamolg'a tegurgay..."

Husayn Boyqaro turkiy tilda yozishni rag'batlantirgan va shunga da'vat qilgan. O'zi ham badiiy ijod bilan shug'ullanib, "Husayniy" taxallusi bilan she'rlar yozgan, she'riyat majlislari tashkil etib, shoirlarga rahnamolik qilgan. Undan bizgacha she'rlar devoni va Navoiyga bag'ishlangan "Risola" asari yetib kelgan. "Risola" asari 1945-yilda turk olimi Ismoil Hikmat tomonidan topilib, ilmiy muomalaga kiritilgan. Shoh shoirning hozirgacha 202 g'azal, Navoiy gazaliga bog'langan 3 muxammas, 6 ruboiy, shuningdek, fors-tojikcha 2 g'azal, 1 ruboiy va bir necha baytlari ma'lum.

Husayn Boyqarodan 14 o'g'il, 11 qiz qolgan. Badiuzzamon Mirzo, Shohg'arib Mirzo, Muhammad Husayn, Ibrohim Husayn kabi o'g'illari badiiy ijod bilan ham shug'ullanishgan. Keyinchalik o'zaro ichki urushlar,

Husayn Boyqaro va saroy amaldorlarining maishatga berilib ketishi oqibatida Xuroson davlati zaiflashgan. Sulton Husayn Boyqaro 1506-yilda shayboniylarga qarshi harbiy yurishga chiqqan paytida vafot etadi. Uning vafotidan so‘ng Hirot shayboniylar tomonidan zabt etilgan¹⁹.

Husayn Boyqaro, Navoiyning ta’biri bilan aytganda, forsiy va turkiy tilda she’r yaratish iqtidoriga ega bo‘lgan bo‘lsa-da, asosan turkigo‘y shoirlarni o‘z ona tillarida ijod qilishga chorlab, maxsus farmonlar bergan. Bu haqda Navoiy quyidagilarni yozadi: “Va iltifot va ehtimom yuzidin ba’zi ma’nilar topib, nazm qilurg’a hukmlar ham joriy bo‘ldi va so‘z uslubig’a ta’yinlar va adosig’a ta’limlar ham izhori bo‘ldi”.²⁰ Bu voqea turkiy adabiyot tarixida katta siyosiy, madaniy va ijtimoiy ahamiyatga molik bo‘ldi.

Navoiy Husayn Boyqaroni yetuk shoir sifatida ko‘rsatishdan avval, uning shaxsiyati haqida, iste’dodini vujudga keltirgan omillar haqida “Majolis un-nafois”da so‘z yuritadi. Jumladan, Husayn Boyqaroning shajarasi haqida “Nasabnoma” bitilgan, ammo Navoiy bu “Nasabnoma”ni kim bitganligi haqida tazkirada aytmagan. Uning ta’riflashiga ko‘ra, Husayn Boyqaro “Nasabnoma”sining har sahifasi shunchalik go‘zal qilib bezalganki, Moniyning suratlari o‘sha bezaklar qarshisida xijolatda qoladi. Boyqaroning obro‘-e’tibori, dong‘i sharhida “Nasabnoma”dagi voqealar bitilgan har bir sahifa Chin suratxonalarini uyaltiradi. Shuningdek, Husayn Boyqaroning shon-u shavkati, tafakkur olami haqida Navoiy so‘z yuritib, Jamshid va Iskandarning bilganlari ham, qilganlari ham uning oldida hechdir va h.

Husayn Boyqaro Navoiyga bag‘ishlab “Risola” ham yozgan. “Risola” “Munojot” ruhida yozilgan. “Risola”da ham shoh, ham shoir bu olam saodati va cheksiz ne’matlariga yetkazgani, Jomiy va Navoiy kabi allomalar bilan zamondosh, hamnafas qilgani uchun Xudoyi Taologa shukrona aytadi.

Ayni paytga qadar Husayn Boyqaro ijodiy merosi adabiyotshunos olimlarning ham e’tiboriga tushmay qolmadi. Jumladan, O‘zbekiston Qahramoni Suyima G‘aniyeva 1991-yili Husayn Boyqaro g‘azallarini

¹⁹ <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-sheriyati/o-zbek-mumtoz-adabiyoti/husayniy-1438-1506>

²⁰ Ўзбек адабиёти тарихи. 2 том. Тошкент, Фан. 1977, 426-бет.

to‘plab “Jamolingdin ko‘zum ravshan” degan nom ostida nashr etdi. Mazkur nashr debochasida yozilganidek, Husayniy she‘riyatida dunyoviy ruhdagi lirika an‘analariga, Alisher Navoiy lirikasiga tayangani ko‘zga tashlanadi. Ayni chog‘da, unda ijodkorning shoirona shuuri, badiiy o‘tkir nigohi ro‘yirost namoyon bo‘ladi.

1995-yili adabiyotshunos olim, filologiya fanlari doktori Aftondil Erkinov va tarix fanlari doktori Shodmon Vohidovlar “Shoh va shoir Husayn Boyqaro” kitobini chop etishdi. Undan Husayn Boyqaroning falsafiy mavzudagi “Risola”si hamda devoni o‘rin olgan. Tadqiqotchilar bu kitobga Husayn Boyqaro devonining 1968-yilda Qobulda Muhammad Ya‘qub Juzjoniy tomonidan nashr qilingan nusxasini asos qilib olishgan.

“Devoni Husayniy”ning yana bir nusxasi ayni paytda Rossiya Fanlar akademiyasining Sankt-Peterburg shahridagi Sharq qo‘lyozmalari institutida saqlanmoqda. 284-raqam ostidagi ushbu qo‘lyozma nasta‘liq xatida, sifatli qog‘ozda ko‘chirilgan va shohona bezaklar berilgan. Sahifalariga oltin zarralari sepilgan. Devonda o‘ta mahorat bilan ishlangan to‘rtta miniatyura, nafis naqshlardan hosil qilingan ikkita zarvaraq, Husayn Boyqaroning turli davrlarda bitilgan 154 ta g‘azali (shundan ikkita g‘azali to‘liq emas) o‘rin olgan. Ushbu to‘plam garchi “Devoni Husayniy” deb nomlangan bo‘lsa-da, u devon talablariga to‘la-to‘kis javob bermaydi. Zero, devon uning umumiy mazmuni, muallifi, yaralish sabablari haqida qisqacha ma‘lumot beruvchi debocha, arab alifbosi asosida tartibga solingan turli janrga oid she‘riy asarlardan iborat bo‘lishi lozim edi. Ma‘lumotlarga ko‘ra, kitob Husayn Boyqaro va Alisher Navoiyning hayotlik chog‘larida, 1490-yillarda bitilgan. Ayrim g‘azallar to‘la yozilmaganiga qaraganda, ushbu to‘plam tuzilgan chog‘da bu g‘azalar hali tugallanmagan bo‘lgan. Qolaversa, 1968-yili Qobulda nashr qilingan devondagi ellikka yaqin g‘azal bu to‘plamdan o‘rin olmagan. Bundan xulosa qilish mumkinki, to‘plam hali Husayn Boyqaro devon tartib qilib ulgurmagan bir paytda, nedir munosabat bilan shoshilinch tarzda tuzilgan. G‘azallar matnidagi ayrim imloviy xatolar, ba‘zi so‘zlar va baytlar (ehtimol ular keyinchalik qo‘shilgandir)ning tushirib qoldirilgani ham shundan dalolat beradi. Kitob o‘z davrining mashhur kotibi, asosan Hazrat Navoyining qo‘lyozmalarini ko‘rish orqali shuhrat topgan “qiblat ul-kuttob” Sulton Ali Mashhadiy tomonidan

ko‘chirilgani taxmin qilinadi. Kitob o‘zining shohona badiiy bezaklari, shakl-shamoyili, naqsh va miniatyuralarining bejirimligi bilan sharq kitobat san’atining bebaho durdonasi bo‘la oladi. Shuningdek, bu kitob Temuriy davri madaniyati, xususan, xattotlik, tasviriy san’at va va kitobat san’ati xususida muayyan tasavvur uyg‘otadi²¹.

Husayniy – turkigo‘y shoir. Husayniy Hirot adabiy muhiti rahnamosi, sohibdevon ijodkor sifatida g‘azalning eng ommaviy – besh, olti, yetti, sakkiz baytli turlarida ijod qilgan. Husayniy faqat bir vaznda, ramali musammani maqsurda ijod qilganligi adabiyotshunoslar tomonidan ta’kidlab kelingan, lekin keyingi tadqiqotlarda Husayniy devonida boshqa vaznda yozilgan g‘azallar ham mavjudligi, shoir g‘azalliyotining asosini voqeaband – syujetli g‘azallar tashkil etishi aniqlangan²².

Navoiy Husayniy devoni haqida quyidagicha ma’lumot beradi: “Ul hazratning (ya’ni Husayn Boyqaroning) xub ash’ori va marg‘ub abyoti bag‘oyat ko‘pdur va devon ham murattab bo‘lubdur. Devon ibtidosidan bunyod qilildi va har g‘azaldin bir matla’ yozildi”. Shundan so‘ng Husayn Boyqaro devonidagi har bir g‘azalning matla’ini keltiradi. Navoiy “Majolis un-nafois”da Husayn Boyqaro huzurida o‘tkaziladigan anjumanlarni “oliy majlis” deb yuritilgani va bunday majlisda eng yetuk asarlar o‘qilgani va muhokama boisi bo‘lgan to‘g‘risida ma’lumot beradi. Navoiy “Majolis un-nafois”ning VIII bobini Husayn Boyqaroga bag‘ishlagan va uning devonidan 164 g‘azalning matla’ini keltirgan. Shoir Husayniy qo‘llagan poetik obrazlar, vositalar, shoirning she’riyatdagi ixtirolari yuzasidan fikr yuritgan.

Masalan:

“Nargis ko‘zluk va g‘uncha og‘izlik guluzori ko‘zu og‘zin nargis bilan g‘unchaga tarjeh qilgoni ajib nav’ voqe’ bo‘lubtur:

Nargis olmas yerdin ul fatton ko‘zung olida ko‘z,

Og‘zing olida tutulmish g‘unchaning og‘zida so‘z”.

“Bu qofiya va radif hazrat Sultoni Sohibqiron (Husayn Boyqaro)ning ixtirolaridurkim, hech nazm aytilmaydur va hech devonda bitilmaydur:

Ohkim, hijron o‘tidin kuydi jonim o‘zga nav’,

²¹ <https://xabar.uz/uz/madaniyat/devoni-husayniy-sharq-kitobat-sanatining>

²² Djurayeva X. Husayniy adabiy merosi manbalari va matniy tadqiqi. – Toshkent, 2018, 16-bet.

O‘rtadi ofoqni o‘tluq fig‘onim o‘zga nav’” ,

Alisher Navoiy Sulton Husayn Boyqaroning shoirlik qobiliyati haqida so‘zlab, uning she’rshunoslik iqtidori borasida “Majolis un-nafois” oxirida ikki naql keltiradiki, ularning birida Xusrav Dehlaviyning noyob ma’noli bir matla’si yuzasidan Husayn Boyqaroning bildirgan zo‘r mantiqli e’tirozi, ikkinchisida esa, uning Navoiyning she’riyatdagi dahosi, uning uslubi, badiiy mahoratini g‘oyat yaxshi bilganligi ifoda qilingan.

Bahor kunlarining birida Navoiy mashhur shoir, zamonasining malik ush-shuarosi Mavlono Lutfiy bilan uchrashib qoladilar. G‘oyat qattiq yomg‘ir yog‘ayotgan edi. Lutfiy yomg‘irning torlari haqida so‘zlab, Amir Xusrav Dehlaviyning bir she’rida shu haqda bildirgan go‘zal ma’no va o‘xshatishni maqtab keltiradi: Mahbuba bir kuni bahor yog‘inlari paytida qayoqqa esa ketayotgan ekan, loyda tiyg‘anib yiqila yozadi. U shu qadar nozik bo‘ladiki, yog‘ayotgan yomg‘ir torini ushlab, uning madadi bilan o‘zini o‘nglab oladi.

Bu ma’no Navoiyga juda ma’qul tushadi. U anchagina shoir va adabiyot muxlislariga, joyi kelganda, bu haqda gapirib beradi. Ular ham Xusrav she’riga tahsin o‘qiydilar. Bir kuni, oliy majlisda Husayn Boyqaroga Navoiy shu she’r to‘g‘risida hikoya qiladi va undan ham ta’rifu tahsin kutadi. Lekin Husayn Boyqaro bu she’rdagi o‘xshatish yuzasidan e’tirozi borligini va bu e’tiroz quyidagilardan iborat ekanligini bildiradi: uning fikricha, yuqoridan pastga qarab tushayotgan yog‘in rishtasi yiqilayotgan kishi uchun madad bo‘la olmaydi. Buni eshitgan Navoiy Husaynning e’tirozi mantiqan asosli ekanligidan g‘oyat zo‘r qoniqish paydo qiladi va uning she’rfahmlikdagi zakovatiga qoyil qolganligini naqlning so‘ngida aytib o‘tadi²³.

“Majolis un-nafois”da Husayn Boyqaroning devonidan “alif” harfiga keltirilgan matla’ni olib ko‘raylik. Navoiy baytni keltirishdan oldin bayt mazmunini sharh qilib, mahbubning haddan ortiq iltifotidan behol bo‘lgach, hushsizlarcha o‘sha iltifotni izhor qilish ma’nosida quyidagi matla’ ajoyib ifodalanganini aytadi:

Evrulub gul boshig‘a bulbul visol o‘lgay anga,
Gul aning boshig‘a evrulsa, ne hol o‘lg‘ay anga.

²³ <https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/husayn-boyqaro-risola.html>

(Bulbul gulning boshida aylanib, unga erishmoqchi bo‘ladi;

Agar gul bulbulning boshida aylansa, uning holi qanday bo‘larkin.)

Mana shu baytning o‘ziyoq Husayn Boyqaroning turkiy she‘riyat homiysigina emas, balki amalda nihoyatda nozik didli shoir ekanini ko‘rsatib turadi.

Husayn Boyqaroning mahorati, iqtidori shu qadar baland bo‘lganki, boshqa turkigo‘y shoirlar amalda istifoda eta olmagan g‘azalga mahorat bilan yondashadi. Masalan, uning devonidagi “se” harfiga bitilgan baytni keltirishdan oldin Navoiy quyidagi sharhni beradi: “Bu harfda turk shuarosining malik ul-kalomlari she‘r aytmaydurlar, balki ayta olmaydurlar, to anga ne etgayki, bu muqobalada kishi oni keturgay yo nisbat bergay. Bu matla’ tarifida muncha basdur:

Yor ko‘yidin o‘tarda ko‘rguzur bu zor maks,

So‘z desa dog‘i javobida qilur bisyor maks

(Bechora oshiq mahbubasining ko‘chasidan o‘tganda, bu bechora to‘xtab qoladi; Mahbuba bir so‘z aytsa, javob berolmay, yana ko‘proq to‘xtab qoladi)”.

Oshiqning ma’shuqa oldida ojiz-u notavon holatini shoir ana shunday tavsif etadi.

Shuni ham alohida qayd qilmoq lozimki, yuqorida qisman aytilganidek, Navoiy va Husayn Boyqaro oralaridagi badiiy san’atkorlik yuzasidan bo‘lgan munosabat hech qachon va hech bir masalada bir taraflama bo‘lgan emas. Aksincha, Husayn Boyqaro ham Navoiyni ko‘klarga ko‘tarib, behad madh etadiki, bunda u tamomila haqli edi. Masalan, Husayn Boyqaro o‘zining mashhur “Risola”sida Navoiy haqidagi misralarni shoirning o‘z ona tilida ijod qilganligini madh etishdan boshlaydi. So‘ngra uning “Xamsa” yaratishdagi yuksak mahoratiga to‘xtalib o‘tadi. Navoiy bilan o‘zi o‘rtasidagi do‘stlikni katta mamnuniyat bilan e’tirof etadiki, buni Navoiy ham “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida alohida qoniqish bilan tilga oladi. Husayn Boyqaro o‘z risolasida Navoiyga va uning devoniga g‘oyat yuksak baho beradi:

“Bu ko‘k nazm arkonining rub’i maskunida qahramon ul turur va bu mamolik fathiga sohibqiron ani desalar bo‘lur”. She’r:

Erur so‘z mulkning kishvarsitoni,

Qayu kishvarsiton, xisrav nishoni.

Dema xisrav nishonkim, qahramoni,

Erur gar chin desang, sohibqironi.

Tarixiy manbalarning xabar berishicha, jumladan, “Makorim ul-axloq”da qayd qilinishicha, Husayn Boyqaro Navoiy vafotini nihoyatda zo‘r qayg‘u bilan kutib oladi. U og‘ir safardan qaytayotganiga qaramay (Astrobod yurishidan qaytayotgan edi), to‘g‘ri Navoiy uyiga keladi. Do‘stini dafn etish marosimiga o‘zi boshchilik qiladi. Uch kun Navoiy uyida ta’ziyaga kelganlarni qabul qiladi, uning qarindoshlari va yaqinlariga g‘oyat mehribonlik ko‘rsatadi. Shoir vafotining yigirmanchi kunida Hirotning Sari Xiyobon maydonida katta ma’raka o‘tkazadi. Shuningdek, 1501-yil 18-fevralda yana ham dabdabali yig‘in uyushtirib, do‘sti xotirasini eslaydi.

Alisher Navoiy Husayniy she’riyatini nihoyat darajada ardoqlagan, o‘z g‘azaliyotida Husayniy siymosiga muayyan chizgilar yaratishga alohida e’tibor qaratgan. “Ul quyoshkim, charx aro oshufta parchamdur bukun”, “Bir quyosh hajrida chektim o‘tluq afg‘on bu kecha”, “Orazing mehrin ochib, jismim aro jon o‘rtama”, “O‘tg‘a yoqg‘il sarvni ul qaddi ra’no bo‘lmasa” deb boshlanuvchi Husayniy g‘azallariga Navoiyning naziralar bog‘lagani va Alisher Navoiyning 21 ta g‘azaliga Husayniyning tazmin bog‘lagani adabiyotshunos H.Djurayeva tomonidan aniqlagan²⁴.

Savol va topshiriqlar:

1. Lutfiy hayoti va ijodini o‘rganish manbalari haqida ma’lumot bering.
2. Mavlono Lutfiy devonida qaysi janrlarga oid she’rlar jamlangan?
3. Navoiyning qaysi asarlarida Lutfiy haqida ma’lumotlar keltirilgan?
4. Husayniy va uning ijodi haqida haqida ma’lumot bering.
5. Husayniy haqida qaysi asarlarda ma’lumotlar keltirilgan?

²⁴ Djurayeva X. Husayniy adabiy merosi manbalari va matniy tadqiqi. – Toshkent, 2018. – B.15.

NAVOIY LIRIKASI

REJA:

1. Navoiy devonlari tavsifi. “Xazoyin ul-maoniy” kulliyoti.
2. Navoiy gʻazallari va ularning mazmun-mohiyati, gʻoyaviy-badiiy xususiyatlari.
3. Shoir qitʼalari tahlili.
4. Shoir ruboiy va tuyuqlari tahlili.

Tayanch soʻz va iboralar: debocha, devon, kulliyot, toʻrt devon, lirik janr, gʻazal, qitʼa, ruboiy, tuyuq, qasida.

Alisher Navoiy dunyo tafakkuri tarixida oʻzining abadiyatga daxldor asarlari va benazir dahosi bilan turkiy xalqlarning maʼnaviy siymosini yarata olgan hamda asarlarida tarannum etgan ezgu gʻoyalari bugungi kungacha oʻz ahamiyatini yoʻqotmay kelayotgan soʻz sanʼatkoridir²⁵. Alisher Navoiy asarlari insoniyatni ruhiy poklashga, maʼnan yuksaltirishga qodir bezavol maʼnaviy qudratdir.

Alisher Navoiy ijodining jahon adabiyotidagi oʻrnini belgilovchi, qolaversa, asarlarining abadiyatga daxldorligini taʼminlovchi qator omillar borki, ularning **dastlabkisi** alloma oʻz ijodi orqali turkiy millat va elatlarni yakqalam qila olgani, birlashtirgani bilan belgilanadi²⁶. Bu haqiqat shoirning quyidagi baytlarida yorqin aks etgan:

Agar bir qavm, gar yuz, yoʻqsa mingdur,
Muayyan turk ulusi xud meningdur.
Olibmen tahti farmoningʻa oson,
Cherik chekmay Xitodin to Xuroson.
Xuroson demakim, Sherozu Tabrez
Ki, qilmishdur nayi kilkim shakarrez.
Koʻngul bermish soʻzumga turk jon ham,
Ne yolgʻuz turk, balkim turkmon ham.

²⁵ Юсупова Д. Ўзбек мумтоз ва миллий уйғониш адабиёти (Алишер Навоий даври). – Тошкент: Tamaddun, 2016. – Б.3.

²⁶ Avaznazarov O. Navoiyshunoslik. – Тошкент: Fan va taʼlim, 2023. – Б.16.

(Alisher Navoiy. Farhod va Shirin,730-731)

Nafaqat o‘zbek tili, balki o‘nlab turkiy tillarning badiiy jihatdan mukammallik kasb etishida Alisher Navoiyning qilgan sa’y-harakatlari beqiyos.

Ikkinchi omil, turkiy xalqlarda Navoiygacha ham, undan keyin ham bunday buyuk iste’dod dunyo yuzini ko‘rmadi. Shoir badiiy adabiyotning barcha yutuqlarini o‘z ijodiga singdira olgan. U faxriya tarzida bitgan qit’alarining birida Sharq adabiyotining ustunlari – Dehlaviy, Hofiz hamda Jomiy g‘azaliyotini uch go‘zalga, o‘z g‘azaliyotini esa o‘sha uch go‘zal ham jilva qilgan ko‘zguga tashbeh etadi. Anglashiladiki, Hazrat she’riyati o‘zigacha o‘tgan barcha so‘z sehrarlari ijodining butun jozibasi, falsafasi, badiiyatini o‘zida jamlagan komil she’riyatdir. Navoiy Jomiyning “Tuhfatu-l-ahror”ini Nizomiyning “Maxzanu-l asror” va Dehlaviyning “Matla’ ul-anvor” asarlari bilan qiyoslab, shunday deydi:

Ul ikini topsa bo‘lur munda-o‘q,
Munda tuhaf ko‘pki, ul ikkida yo‘q.

(Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror,45)

Ya’ni, Nizomiy va Dehlaviy asarlaridagi ajoyib tuhfalarni Jomiy asaridan topish mumkin, biroq Jomiyning asarida tuhfa ko‘pki ulardan topish imkonsiz. Navoiyning ayni e’tirofini o‘ziga nisbatan ishlatish mumkin. Ya’ni, Navoiygacha o‘tgan barcha ijodkorlar asarlaridagi tuhfa, go‘zalliklarni Navoiy ijodidan topish mumkin, biroq uning ijodidagi barcha go‘zallik va ulug‘vorlikni biror bir ijodkor asarlaridan topish imkonsiz.

Qolaversa, o‘z davri va kelajak avlod shoirlarining aksariyati “Navoiydan navo topib”, go‘yo qofiya singari unga ohangdosh, radif singari unga ergashib ijod qilishgan. Buni ham shoirning o‘zi shunday e’tirof qiladi:

Ey Navoiy, qilsalar ta’b ahli jinsi she’r nizm,
Nazming o‘ldi barchasig‘a qofiya balkim radif.

(Alisher Navoiy. G‘aroyib us-sig‘ar,328)

Masalan, ruminiyalik olim Professor Benedek Peri usmonli turklar sultoni Salim I ning (1512-1520) fors tilidagi g‘azallari haqida tadqiqot olib borib, Navoiydan keyin yashagan sulton Salim fors tilida devon tuzgan va

Navoiyning “Devoni Foni”dagi yigirmata gʻazali taʼsirida sheʼrlar yaratganini aniqlaydi²⁷.

Uchinchi omil, oʻn sakkiz ming olam ichra nimaiki mavjud boʻlsa, ularga eʼtibor qilish maʼno ahllaridan boʻlgan Navoiyning ham hayot tamoyillaridan biri edi. Alloma bu haqida shunday deydi:

Oʻn sakkiz ming olam ichra har ne bor,
Kim qilurlar ahli maʼni eʼtibor.

(Alisher Navoiy. Lison ut-tayr, 238)

Ushbu misralar “Lison ut-tayr” dostonidan olingan boʻlib, asar 1499-yilda, yaʼni muallif vafotidan bir yilgina oldin yozib tugatilgan. Bu esa buyuk mutafakkir baytda ilgari surilgan aʼmolga oʻzining butun umri davomida itoat etganiga dalildir. Demak, allomaning tafakkur olamidan tashqarida, eʼtiboridan chetda qolgan biror hodisot yoʻq. Shu maʼnoda Navoiy ijodidan “Kim neni izlasa, topgay begumon”.

Toʻrtinchi omil, Navoiy ibtidodan intihogacha yoʻq boʻlmaydigan, abadiy mavzularni mahorat bilan qalamga oldi. Mana shunday umum-bashariy mavzulardan biri ishq, muhabbat mavzusidir. Shoir bir baytida shunday deydi:

Ey Navoiy, shavqidin oʻlsam imorat qilgʻasen,
Tufrogʻim birla muhabbat koʻyining devorini.

(Alisher Navoiy. Gʻaroyib us-sigʻar, 621)

Yaʼni, ey Navoiy, mabodo yorga boʻlgan ishq olovi, shavq oʻtidan halok boʻlsam, muhabbat koʻchasining devorlarini mening tuprogʻimdan qurgaysan.

Yoki insonparvarlik, gumanizm, xalqparvarlik masalasini olaylik. Shoir “Hayrat ul-abror”da shunday deydi:

Odamiy ersang demagil odami,
Oniki yoʻq xalq gʻamidin gʻami.

(Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror, 210)

Yaʼni, Agar sen odam boʻlsang, xalq gʻami bilan yashamaganni zinhor odam dema. Shu birgina baytning oʻzi hazrat Navoiy hayotning, jamiyatning naqadar bilimdoni, sheʼr ilmining sanʼatkori, qolaversa, yuksak madaniyatli, xalqparvar inson ekanidan dalolat beradi.

²⁷Avaznazarov O. Navoiyshunoslik. – Toshkent: Fan va taʼlim, 2023. – B.18.

Beshinchi omil, shoirning jahonning eng zo‘r ijodkorlari bilan barcha davrlarda teng qo‘yish mumkin bo‘lgan yuksak iste’dodi. Navoiyning shunday bir bayti bor:

Agar xossa ma’no gar iyhom erur,
Aning kunda yuz bayti halvom erur.

(Alisher Navoiy. G‘aroyib us-sig‘ar, 698)

Aytish kerakki, mumtoz adabiyotimizda bir yuz ellikka yaqin badiiy san’atlar mavjud bo‘lib, ular asarni ziynatlashga xizmat qilgan. Ana shunday san’atlarning eng murakkablaridan biri – iyhomdir. Iyhom yaratish har qanday shoir uchun ham qiyinchilik tug‘dirgan. Shu bilan birga uni tushunish ham har qanday she’rxon uchun oson emas. Shu sababli yuqoridagi baytda iyhomga “xossa ma’no” deb ta’rif beriladi. Demak, bu san’at xoslarga yarata oladigan, xoslarga tushuna oladigan, qolaversa, badiiy san’atlar ichida xos san’at. Bu qadar murakkab san’atga qurilgan baytlardan bir kunda yuz bayt yozish esa buyuk Navoiy uchun o‘zi lutf etganidek halvo yeyish kabi oson ish. Nega endi halvo yeyishdek? Bu ham bejizga emas. Chunki halvo barcha uchun birdek sevimli shirinlik. Uni qancha ko‘p iste’mol qilsa ham, me’daga tegmaydi. Demak, har kuni yuzta iyhomli bayt yozish shoir uchun ham xamirdan qil sug‘urgandek oson, ham malol kelmaydigan, me’daga urmaydigan yumush. Mazkur bayt buyuk amir, hokim, bosh vazir sifatida bor kuch g‘ayratini xalq uchun safarbar qilgan Navoiyning shoir sifatida ham quyma iste’dod sohibi, yuksak ijodiy texnika egasi ekanining yaqqol dalilidir.

Oltinchi omil, hazrat Navoiyning Islom, tasavvuf manbalarini chuqur bilgani va o‘z asarlarida ularni mahorat bilan talqin eta olgani.

Yettinchi omil, Abdurahmon Jomiy va Zahiriddin Muhammad Bobur kabi ulug‘lar e’tirof etganidek, ko‘p yozgani, shu bilan birga xub yozganidir. Zero bu – adabiyotning eng sodda, biroq eng buyuk mezonlaridan biridir. Shu o‘rinda buyuk shoir ijodining abadiyatga daxldorligini belgilovchi omillar uning mafkurasi, ijod konsepsiyasi va ijodiy missiyasiga bog‘liq ekanini ham ta’kidlash lozim. Navoiy ijodi mohiyatini anglash uchun buyuk alloma o‘z oldiga qanday ijodiy missiyani bajarishni maqsad qilib qo‘yganini tushunib yetmoq lozim. Shunda Navoiy ijodi ahamiyati hamda shoirning badiiy mahorati ko‘z o‘ngimizda yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu

ulkan adabiy missiyani, shubhasiz, alloma yashagan davrning ma'naviy, mafkuraviy muhiti belgilab bergan. Ayni sabab tufayli ana shu davr ma'naviy, mafkuraviy muhiti xususida to'xtalish joiz. Navoiy ijodiy konsepsiyasi Xuroson o'lkasida yangi saltanatga asos solinishi bilan aloqador. Xususan, hukmdorlik taxtini egallagan sulton Husayn, avvalo, mamlakatdagi siyosiy inqirozga to'la barham berishi lozim edi. Navoiy hukmdor do'stini to'la qo'llab-quvvatladi. Chunki "Shoir buyuk markazlashgan hokimiyat egasi bo'lgan adolatli va xalqparvar podshoh bo'lsa, u elga ko'p naf yetkazadi, deb ishonadi" (Qayumov A. Alisher Navoiy,107). Sulton Husayn jamiyat va davlat taraqqiyoti uchun siyosiy kurashlar olib borgan bo'lsa, Alisher Navoiy ma'naviy inqirozni bartaraf etish mas'uliyatini o'z zimmasiga oldi. Bu uning adabiy-tarixiy missiyasiga aylandi. Navoiy bor shijoati bilan mana shu ulkan ijodiy missiyani bajarishga kirishdi. Ma'naviy inqirozni yengish uchun botiniy yuksalish g'oyasi – komil inson konsepsiyasini ilgari surdi. "Navoiy nazarida insonni sharafllovchi jamiki fazilatlarni komil inson axloqiga kiritish mumkin" (Komilov N. Xizr chashmasi,12). Xususan, bular orasida imon, qanoat, saxovat, ilm-ma'rifat, vafo, himmat, xoksorlik, adolat, adab kabi sifatlar ajralib turadi. "Hayrat ul-abror"ning yana bir qancha o'rinlarida karam, qanoat, mehr-u vafo, ishq, rostgo'ylik, ilm kabi yuksak tushunchalar targ'ib etiladi. Ko'rinadiki, Navoiy o'z davri jamiyatida yuqorida sanalgan o'nlab axloqiy qadriyatlarga ega komil insonlar ko'payishini astoydil xohlagan. Albatta, shoirning bunday yuksak orzulari bejiz emas. Sababi, XV asrda Movarounnahr va Xurosonda din va axloq masalalaridagi o'ta salbiy holatlar temuriylar saltanatini tanazzulga yetaklagan asosiy omillardan edi. Navoiy "Hayrat ul-abror"da o'z davri sultonlarining aysh-u farog'atga berilganini ta'kidlab, bunday bazmlar o'tkaziladigan qasr haqida shunday deydi: Sen xursandchilik bazmiga yo'l olar ekansan, aysh-u farog'at yo'lida bazm qilarkansan, bazming uchun tayyorlangan qasr jannatmonand qilib jihozlangan. Lekin uning pardalarining iplari xalqning jonidan, qizil toshlari va qizil bo'yoqlari odamlarning qonidan, shifti xalq molini talash evaziga oltinlangan, xalqning dur va la'llari bilan naqshlangan. G'ishtlari masjidlarni buzib keltirilgan, toshlari odamlarning qabrlaridan tashilgan (Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror,108). Ushbu o'rinda shoir o'z davrining

achchiq haqiqatlarini ayovsiz fosh etadi. Davr hukmdorlarining komil inson sifatlaridan mahrum, ma'nan qashshoq ekani, aysh-u farog'at bazmlariga mukkasidan ketgani, mamlakatda din-u diyonat masalalari juda ayanchli ahvolda ekanini ochib beradi. Yoki "Mahbub ul-qulub"da qonunbuzar faqih-muftilar, hiylachi sadr va shayxulislomlarning g'ayri shar'iy ishlarini fosh etadi. Islom binosiga ustun bo'la turib, o'zi shariatga amal qilmaydigan, din-u imonini sotgan qozilarga ayovsiz hukm chiqaradi: "Omiy qoziki may ichkay – o'lturgulukdur va do'zax o'tiga yetmasdin burun kuydurgulukdur" (Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub, 462). Va aksincha, o'z ishini adolat va imon bilan halol ado etgan hukmdor va qonun ahlini yuksak darajada ulug'laydi, ta'rif va tavsif etadi. Temuriylar davrida aysh-u ishrat, may bazmlariga berilish, ya'ni axloqiy tanazzul aksariyat shahzodalar, hukmdorlar, qolaversa, amaldor-u mansabdorlarning davlat ishlarida ogohlik va sergaklikni yo'qotishiga sabab bo'ldi. Navoiy bu hodisalarga o'z munosabatlarini badiiy ifoda eta bordi. Xususan, shoirning "Farhod va Shirin"dagi:

Erursen shoh – agar ogohsen sen,

Agar ogohsen sen – shohsen sen, –

(Alisher Navoiy. Farhod va Shirin, 719)

satrlari davr hukmdorlariga ogohlik qo'ng'irog'i singari yangraydi. Ushbu baytda shohlikning mezonini ogohlik ekani aytilmoqda. Demak, sergaklik va ogohlikni boy berish saltanatni, shohlikni boy berishga yetaklar ekan.

Navoiy o'zining qator g'azallarida dinni niqob qilgan riyokor – ikkiyuzlamachi taqvodorlarga qarshi turadi. Quyidagi baytda shoir soqiya murojaat qilib, o'zi uchun yolg'on taqvo-yu ibodat va munofiqlik, ikkiyuzlamachilik ofatidan ko'ra sharob va qadah ofati afzal ekanini ta'kidlaydi:

Soqiyo, bodaki, taqvo-yu riyo ofatidin

Yaxshiroq, bo'lsa manga sog'ar-u sahbo ofat.

Navoiy dunyoqarashicha, do'zaxdan qo'rqib yoki jannat umidida Tangriga e'tiqod qilish riyokorlikdir. Haqiqiy mo'minning fikr-u xayoli jannat va do'zaxdan ozod bo'lishi lozim. Uning uchun Haq yodi yetarli. Husayn Boyqaro davridagi siyosiy inqiroz turkiy tilning mavqeyi bilan ham bog'liq. Hatto Sohibqiron davrida fors tili yetakchi til sifatida saqlanib

qolgandi. Uzoq vaqt mobaynida turkiy til fors tili soyasida qoldi va milliy til sifatida turkiy xalqlarni jipslashtira olmadi. Shu sababli shoir turkiy til mavqeini yuksaltirish uchun kurash olib bordi. Xususan, buni “Muhokamat ul-lug‘atayn”da kuzatish mumkin. Asarda turk va fors tili qiyoslanib, turkiyning ko‘pgina afzalliklari asoslab berildi. Alloma birgina “Muhokamat ul-lug‘atayn”ni yaratish bilan turk ulusini forsiygo‘ylarning til borasidagi ta’na-yu malomatlaridan xalos qildi. O‘zi aytganidek: “... turk ulusi fasihlarig‘a ulug‘ haq sobit qildimki, o‘z so‘z va iboralari haqiqati va o‘z til va lug‘atlari kayfiyatidin voqif bo‘ldilar va forsiygo‘ylarning ibora va so‘z bobida ta’na-yu malomatlaridan qutulldilar” (Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug‘atayn,530). Adabiyot tarixida XV asr o‘rtalariga qadar turkiy adabiyotning milliy adabiyot sifatida mavqeyi yuqori bo‘lmagani ma’lum. Shoirning o‘z ta’biri bilan aytganda, turkiy adabiyotda “forsiy shoirlar bilan bellasha oladigan kishi paydo bo‘lmadi” (Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug‘atayn,528). Adabiyot inson dunyoqarashini yuksaltirishi, fuqarolar ongida davlat tayanchi hisoblangan axloqiy konsepsiyalarni shakllantirishi lozim bo‘lgani holda, ushbu davrda turkiy adabiyot ayni vazifalarni yetarlicha ado eta olmayotgandi. Bu milliy madaniyat uchun katta yo‘qotish edi. Mana shu omillar shoirning turkiy adabiyot mavqeyini yuksaltirish uchun kurash olib borishiga turtki bo‘ldi. Navoiy butun umri davomida fors va arab adabiyotida badiiy til, vazn, janr, tur jihatidan qanday ijobiy tajriba bo‘lsa, ularni turkiy adabiyotga tatbiq etish va bu bilan turkiy til hamda adabiyotning badiiy tasvir imkoniyatlari juda keng ekanini isbotlash istagida bo‘lgan va ijodda buni uddalay olgan²⁸.

Musulmon Sharqi she’riyati tarixini Alisher Navoiy lirikasisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Uning lirik merosi o‘zigacha yaratilgan fors-tojik va turkiy she’riyatning davomi bo‘lish bilan birga barcha zamonlardagi o‘zbek she’riyatining eng yuksak cho‘qqisi hamdir. Har ikkala tilda yuksak badiiy asarlar yarata olish qobiliyatiga ega bo‘lgan hassos shoir 45 ming misraga yaqin turkiy tildagi she’rlari va 12 ming misradan ortiq fors-tojik tilidagi nazmiy merosi bilan o‘sha davr she’riyati rivojiga katta hissa qo‘shdi.

Alisher Navoiy bolalik yillaridanoq badiiy ijod bilan shug‘ullana boshlagan. 15 yoshlarida “malik ul-kalom” Lutfiyning tahsiniga sazovor

²⁸ Avaznazarov O. Navoiyshunoslik. – Тошкент: Fan va ta’lim, 2023. – Б.23.

bo‘ladi. Adabiyot ixlosmandlari undan devon tuzishni iltimos qilganlarida, u g‘oyat kamtarlik yuzasidan devon tuzish uchun hali vaqt erta deb hisoblaydi. Shunda shoirning muxlislari 1465-1466 yillarda uning she‘rlarini to‘plab devon tuzadilar va bu devon o‘z davrida “xattotlar sultoni” nomi bilan mashhur bo‘lgan Sultonali Mashhadiy tomonidan nasta‘liq xatida ko‘chiriladi. Navoiyning o‘zi “Badoye’ ul-bidoya”ga yozgan debochasida: “...ammo xaloyiq arosida ming bayt-ikki ming bayt ortug‘roq, o‘ksukrakkim o‘zlari jam’ qilib erdilar, bag‘oyat mashhur bo‘lub erdi”, – deb yozadi. Devon uni nashrga tayyorlagan adabiyotshunos olim Hamid Sulaymonov tomonidan shartli ravishda “Ilk devon” deb nomlangan bo‘lib, 391 g‘azal, 41 ruboiy, 1 mustazod, 1 muxammas – jami 434 she‘rdan tashkil topgan.

Devonga shoirning 1466-yildan avval yozilgan asarlari kirgani uchun, undagi she‘rlarning yozilish sanasini nisbatan aniq deb hisoblash mumkin, shu sababli bu devon shoirning o‘spirinlik va yigitlik davridagi ijodi hamda tarjimai holi haqida muayyan tasavvur beruvchi manba sifatida yuksak qiymatga ega. Devondagi she‘rlarning asosiy qismini g‘azallar tashkil etadi. G‘azallar 28 arab harflari bilan tugallanuvchi qofiya hamda radiflar asosida tuzilgan. Devon musulmon Sharqida mavjud an‘anaga muvofiq hamd g‘azal bilan boshlanadi.

Iloho, podshoho, kirdigoro,

Sanga ochug‘ nihon-u oshkoro, –

matla’si bilan boshlanuvchi ushbu g‘azal shoirning dastlabki rasmiy devonlaridan o‘rin olmagan bo‘lsa-da, “Xazoyin ul-maoniy” ning birinchi devoni “G‘aroyib us-sig‘ar”ga kiritilgan. Devondan o‘rin olgan quyidagi mashhur g‘azallar aynan shoir ijodining ilk davrida yaratilgan:

Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulro‘ kelmadi.

Ko‘zlaring‘a kecha tong otquncha uyqu kelmadi...

Ko‘rgali husnungi zoru mubtalo bo‘ldum sango.

Ne balolig‘ kun edikim. oshno bo‘ldum sango...

“Ilk devon”dagi barcha she‘rlarning keyinchalik “Xazoyin ul-maoniy”ga kiritilganligi ularning Alisher Navoiy uchun ham qadrli bo‘lganini ko‘rsatadi.

Navoiyshunos olim, filologiya fanlari doktori Aftondil Erkinov jahon qo‘lyozma fondlarida saqlanayotgan nusxalarni o‘rganish asnosida Alisher Navoiyning ixlosmandlari tomonidan tuzilgan yana bir devoni qo‘lyozmasini aniqlab, 2012-yilda fanga ma‘lum qildi. Mazkur devon shoirning oqquyunlilar sulolasi (Ozarbayjon va G‘arbiy Eron hududida 1378-1508-yillarda hukmronlik qilgan o‘g‘uz turklari) hukmronligi hududidagi muxlisleri tomonidan tuzilgan bo‘lib, hozircha fanda shartli ravishda “Oqquyunli muxlislar devoni” nomi bilan yuritilmoqda.

Devon 1471-yil 25-dekabrda Anisiy taxallusi bilan she‘rlar yozgan shoir va xattot Abdurahim ibn Abdurahmon Xorazmiy tomonidan Oqquyunlilar saltanatining markazlaridan biri bo‘lgan Sheroz shahrida ko‘chirilgan. Devonda jami 229 ta she‘r bor: 224 g‘azal, 1 mustazod, 3 muxammas va 1 tarji‘band. Bu majmuadagi 224 g‘azaldan 217 tasi “Badoye’ ul-bidoya”ga va faqat bittasigina “Navodir un-nihoya”ga o‘tgan. Devondagi 90% g‘azal “Ilk devon”da uchramaydi. Bu holat mazkur g‘azallarning katta qismi 1466-yildan keyingi 5 yil orasida (1471- yilgacha) yaratilganligini ko‘rsatadi. Avvallari Alisher Navoiyning turkiy tildagi she‘riyati 4 bosqichda: “Ilk devon”, “Badoye’ ul-bidoya”, “Navodir un-nihoya”, “Xazoyin ul-maoniy” tarzida o‘rganib kelinardi. Endilikda, mazkur devon topilgandan so‘ng, Alisher Navoiy she‘riyatini besh bosqichda o‘rganishga zarurat seziladi. Bular quyidagilar:

Bosqichlar	Navoiy devonlari	Tuzilish muddati
I	Ilk devon	1465-1466
II	Oqquyunli muxlislar devoni	1471
III	Badoye’ ul-bidoya	1470-1480
IV	Navodir un-nihoya	1480-1487
V	Xazoyin ul-maoniy	1492-1498

Oqquyunlilar saltanatining asosiy aholisi o‘g‘uz turklari bo‘lgani uchun, mazkur qo‘lyozmada Alisher Navoiy she‘rlari o‘g‘uz lahjasiga moslashtirib ko‘chirilgan. “Oqquyunli muxlislar devoni”ning hozirga qadar faqat bitta qo‘lyozmasi ma‘lum bo‘lib, u Qohira shahridagi Misr milliy kutubxonasida saqlanmoqda.

Alisher Navoiy Husayn Boyqaro taxtga chiqqanidan keyin, uning topshirig'i bilan o'zining birinchi rasmiy devoni – "Badoye' ul-bidoya" ("Badiiylilikning boshlanishi")ni tartib beradi. Devonning Alisher Navoiy hayotlik davrida (1480, 1482 va 1486-yillarda) ko'chirilgan nusxalari Parij Milliy kutubxonasida (1480-yil), Britaniya muzeyida (1482-yil) va Toshkent shahrida (1486-yil) saqlanadi. Devon mazkur nusxalar asosida filologiya fanlari nomzodlari Sh.Sharipov va M.Rahmatullayevalar tomonidan nashrga tayyorlangan (MAT. 1-jild).

Shoir bu devoni uchun maxsus debocha ham yozib, unda devon tartib berish masalalariga to'xtaladi va quyidagi xususiyatlarni alohida ko'rsatib o'tadi. Alisher Navoiy bu o'rinda devonni g'azallar bilan boshlash, g'azallarni 28 harf emas, balki 32 harf (چ – chim, ج – je, گ – gof va ل – lom-alifni ham qo'shgan holda) bilan tugallash zarurligi, devonga dastavval Allohga hamd yoki payg'ambarga na't mavzusidagi g'azallarni joylash-tirish, g'azallarga ma'rifat va mav'iza mavzulariga doir baytlar kiritish, g'azal matla'sida keltirilgan fikrni maqta'gacha rivojlantirib borishni nazarda tutadi.

Alisher Navoiyning mazkur devoni aynan yuqoridagi qonun-qoidalarga amal qilingan holda tartib berilgan bo'lib, unda 11 janrga oid jami 1046 ta she'r mavjud. Devonga she'rlar quyidagi tartibda joylashtirilgan: g'azal – 777 ta, mustazod – 3 ta, muxammas – 5 ta, musaddas – 2 ta, tarji'band – 3 ta, qit'a – 46 ta, ruboiy – 85 ta, lug'z – 10 ta, muammo – 52 ta, tuyuq – 10 ta, fard – 53 ta.

Alisher Navoiy tartib bergan ikkinchi rasmiy devon "Navodir un-nihoya" ("Behad nodirliklar") deb atalib, 1480-1487-yillar oralig'ida tuzilgan. Devonning 1487-yilda Hirotda mashhur xattot Abdujamil kotib tomonidan ko'chirilgan nodir qo'lyozma nusxasi hozirda O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanmoqsa. Shuningdek, devonning yana bir nisbatan to'liq nusxasi Sulton Ali Mash-hadiy tomonidan Hirotda ko'chirilgan bo'lib, bu nusxa ham hozirda O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanadi. "Navodir un-nihoya" devoni matni mazkur nusxalar asosida filologiya fanlari nomzodi M.Rahmatullayeva tomonidan nashrga tayyorlangan bo'lib, unda 862 she'r bor (MAT, 2-jild). Mazkur nashrdan o'rin olgan she'rlarning

barchasi gʻazal janriga oid. Ushbu devondagi 64 gʻazal “Gʻaroyib us-sigʻar”ga, 331 gʻazal “Navodir ush-shabob”ga, 213 gʻazal “Badoye’ ul-vasat”ga va 196 gʻazal “Favoyid ul-kibar”ga kiritilgan. Hazrat Navoiy “Navodir un-nihoya”dagi gʻazallarni keyinchalik “Xazoyin ul-maoniy”ga kiritganda koʻpincha ularni tahrir qilgan, baʼzi gʻazallarning faqat matlaʼsini saqlab qolib, qolgan baytlarini butunlay oʻzgartirgan²⁹.

Devon Navoiyning hamd mazmunidagi mashhur gʻazali bilan boshlanadi:

Zihi zuhuri jamoling quyosh kibi paydo.

Yuzung quyoshigʻa zarroti kavn oʻlub shaydo.

Alisher Navoiy 1492-1498-yillarda Husayn Boyqaroning taklifi bilan oʻzining barcha sheʼrlari, jumladan, avvallgi rasmiy devonlariga kirgan sheʼrlarini ham toʻplab “Xazoyin ul-maoniy” (“Maʼnolar xazinasini”) nomli yirik kulliyot yaratadi. Kulliyot toʻrt devonni oʻz ichiga olganligi uchun “Chor devon” deb ham yuritiladi. Kulliyotning Sankt-Peterburg (1498-1499), Istanbul (1495-1497, xattot Darvesh Muhammad Toqiy koʻchirgan), Parij (1525-1527, kotib al-Hijroniy koʻchirgan) nusxalari mavjud boʻlib, ular asosida professor H.Sulaymonov kulliyotning ilmiy-tanqidiy matnini yaratdi (1959 -1960). Mazkur matn MATning 3-6-jildlarini tashkil etuvchi devonlar uchun asos boʻlgan.

Amir Xusrav Dehlaviy sermahsul hayoti davomida yaratgan ulkan sheʼriy merosini umr fasllariga moslab 5 devon tartib berish bilan Sharq adabiyotida ayni yoʻnalishda devon tuzish anʼanasini boshlab bergan edi. Navoiy maslahatiga koʻra, Abdurahmon Jomiy bu anʼanani davom ettirib, sheʼrlaridan 3 devon tuzadi. Oʻz navbatida, ustozining: “Sening dogʻi nazming turkcha alfozda chun mutaaddid boʻlubtur, sen dogʻi har birisini bir ism birla mumtoz qil va har qaysini bir laqab bila jilvasoz etkil”³⁰, – degan tavsiyasiga binoan Alisher Navoiy ham umr fasllariga moslab 4 devon tuzadi. Buning uchun barcha sheʼrlarini toʻplab, tahrir qiladi, har bir

²⁹ Юсупова Д. Ўзбек мумтоз ва миллий уйғониш адабиёти (Алишер Навоий даври). – Тошкент: Tamaddun, 2016. – Б.37. (80-yillar oxirida adabiyotshunos olimi Suyima Gʻaniyeva ushbu devonning Navoiy muhri bosilgan notugal surat - nusxasini Eron Islom Respublikasidan olib keldi. Bu nusxa “Navoiy dastxati” nomi bilan 1991-yilda eʼlon qilindi.)

³⁰ Алишер Навоий. Хамсат ул-мутахаййирин \\\ Тўла асарлар тўплами. 5-жилд. – Тошкент, 2011. – Б. 785. (Очилов Э. Бир ҳовуч дур. – Тошкент: Oʻzbekiston, 2011.)

harfga yangidan hamd-u na't yozib qo'shadi, yetishmagan harflar uchun yangi g'azallar ijod qiladi va Husayn Boyqaro nazaridan o'tkazib, ularni 4 devonga teng taqsimlaydi³¹.

Alisher Navoiy to'rt devonning har biriga inson umrining fasllariga moslab nom beradi. Shu ma'noda 7-8 yoshdan 20 yoshgacha bo'lgan davrni inson umrining bahori deb ataydi va kulliyotning birinchi devonini "G'aroyib us-sig'ar" ("Bolalik g'aroyibotlari") deb nomlaydi. 20 yoshdan 35 yoshgacha bo'lgan davrni inson umrining yozi deb belgilaydi va "Navodir ush-shabob" ("Yigitlik nodirliklari") deb ataydi. 35-45 yoshni umrining kuziga qiyos etdi va "Badoye' ul-vasat" ("O'rta yosh go'zalliklari") deb nomlaydi. 45-60 yoshini umrining qishiga o'xshatib, "Favoyid ul-kibar" ("Keksalik foydalari") deb ataydi. Har bir devonga 650 tadan g'azal kiritadi, shunga muvofiq boshqa she'riy janrlarga ham joy ajratadi.

Shoir kulliyot uchun maxsus debocha ham yozgan. Debochada "Xazoyin ul-maoniy" devonlari, ularning yaratilishi bilan bog'liq ma'lumotlar, shoirning ijod jarayoniga oid ayrim mulohazalari o'z ifodasini topgan.

Olim H.Sulaymonovning izlanishlari shuni ko'rsatadiki, Navoiy "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotini tuzish ustida bir necha yil tinimsiz mehnat qilgan va 1498-yildagina uni hozirgi holatda tugal tarzda yakunlagan. Navoiy kulliyot devonlarini o'zaro ichki mustahkam bog'liq holda va qat'iy mutanosiblikda tuzadiki, ularga keyinchalik birorta g'azal kiritish yoki devonlar tarkibidan tushirib qoldirish, hatto ichki o'rnini almashtirish ham mumkin bo'lmagan. "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotining ichki tuzilishi jihatidan nihoyatda mustahkam tarzda tartib berilganligini shundan tasavvur qilish mumkinki, Alisher Navoiy undagi to'rt devonning har biriga teng miqdorda 650 tadan g'azal joylashtirgangina emas, balki shu g'azallarning qofiyalanishiga ko'ra ham har bir devonda o'zaro teng va qat'iy mutanosib bo'lishiga jiddiy ahamiyat bergan. Ya'ni "alif" harfi bilan tugallanuvchi qofiya va radifli g'azallar to'rtala devonda ham 39 tadan, "be" harfi bilan tugallanuvchi qofiya va radifli g'azallar 27 tadan va h.k. teng tarzda uchraydi.

Shuningdek, "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotida hammasi bo'lib "Ango" radifli 12 g'azal mavjud. Bu g'azallar to'rtala devonga uchtdan teng tarzda

³¹ Очилов Э. Бир ҳовуч дур. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – Б.24.

taqsimlangan. Ular har bir devonda bir o‘rinda, ya’ni 8-, 9-, 10-o‘rinlarda joylashtirilgan. Bularning barchasi kulliyotning nihoyatda mustahkam tartibda o‘zaro mutanosib holatda tuzilganligini ko‘rsatadi.

Alisher Navoiy “Xazoyin ul-maoniy” kulliyoti takmilini 1498-yilda tugatgandan so‘ng bu sanadan keyingi yillarda ham yuksak ijodiy sur‘at bilan ishlashda davom etgan. Shoirning o‘zi kulliyot debochasida guvohlik berishicha, bir kunda bir-ikki, ba‘zan uch-to‘rt g‘azal yozgan paytlari ham bo‘lgan:

Kun bor ediki bir g‘azal-u ikki g‘azal,

Bal uch g‘azal-u to‘rt g‘azal ba‘zi mahal...

Navoiyshunos A.Abdug‘afurovning yozishicha, Navoiy hayotining so‘nggi yillarida ham ana shunday katta ilhom va jiddiy sur‘at bilan barakali qalam tebratgan hamda keyingi ikki yildan ortiq vaqt davomida ko‘plab g‘azal, qit‘a, ruboiy, muxammas va boshqa lirik janrlarda asarlar yaratgan³². Olim bu lirik she‘rlar o‘rin olgan bir necha manbalarni keltiradi:

1. “Muhokamat ul-lug‘atayn”da shoir o‘zbek adabiyoti hamda jonli so‘zlashuv tilining boyligini ko‘rsatish maqsadida ko‘plab so‘z va iboralarning yozma adabiyotda ishlatilishiga misol tariqasida o‘z she‘riyatidan baytlar keltiradi. Keltirilgan baytlarning aksariyati taxallus bilan yakunlanuvchi maqta’ ekanligi hazrat Navoiyning mazkur g‘azali tugal holda mavjud bulganligini ko‘rsatadi.

2. Ba‘zi tazkiralalar, xususan, Hasanxoja Nisoriyning “Muzakkiri ahbob” tazkirasida keltirilgan maqta’ bayt Navoiy devonlarining hech birida uchramaydi.

3. Zahiriddin Muhammad Boburning “Risolai aruz” asarida Navoiy ijodidan ramal bahri uchun misol tariqasida keltirilgan qirq olti g‘azal matla’larining bittasi kulliyot tarkibiga kirmaganligining guvohi bulamiz.

4. Alisher Navoiy asarlariga XV-XVIII asrlarda tuzilgan lug‘atlar, xususan, “Badoye’ ul-lug‘at”, “Abushqa”, “Sangloh” lug‘atlarida ko‘plab

³² Юсупова Д. Ўзбек мумтоз ва миллий уйғониш адабиёти (Алишер Навоий даври). – Тошкент: Tamaddun, 2016. – Б.40. (Adabiyotshunos F.Sulaymonova Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotiga kirmagan she‘rlarini to‘plab “Ayyomi visol o‘ldi yana” nomi bilan nashr ettirdi. Mazkur to‘plamga Alisher Navoiyning 61 g‘azali, 2 ruboiysi, 7 qit‘asi va 4 fardi kiritilgan. MA Tning 20-jildiga ilova tarzida kiritilgan qismda Alisher Navoiyning ushbu she‘rlaridan tashqari Husayniy g‘azaliga taxmisi va turli manbalarda uchraydigan she‘riy parcha hamda baytlari keltirilgan.)

soʻzlarning izohi uchun keltirilgan ayrim misol baytlar ham “Xazoyin ul-maoniy”da uchramaydi.

5. Alisher Navoiy gʻazallariga bitilgan koʻplab taxmislar tarkibidagi shoir qalamiga mansub baytlar ajratib olinganda ularning baʼzilari “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotida mavjud emasligi maʼlum boʻladi.

Bularning barchasi Alisher Navoiy umrining soʻnggi yillarida ham ijod qilishdan bir lahza toʻxtamaganligini koʻrsatadi. Alisher Navoiy forsiy tilda bitgan sheʼrlarini ham yigʻib “Devoni Foni” nomli toʻplam tuzdi. Bizgacha devonning bir necha qoʻlyozma nusxalari yetib kelgan. Bulardan 2 tasi Parij (1345), 2 tasi Turkiya (1952) va bir nusxa Tehron kutubxonalarida saqlanadi. Bu nusxalar orasida Parijdagi 285-raqamli qoʻlyozma nisbatan mukammal hisoblanadi. Akademik B.Valixojayev “Devoni Foni” nusxalarini oʻrganib chiqib, ulardagi sheʼriy janrlar miqdorini quyidagicha deb koʻrsatadi: 10 qasida, 554 gʻazal, 1 musaddas, 1 marsiya, 72 qitʼa, 73 ruboiy, 16 taʼrix, 373 muammo, 9 lugʻz. Olim ularning miqdorini 1109 ta deb belgilab, umumiy hajmi 6179 bayt ekanligini taʼkidlaydi.

Koʻringanidek, Alisher Navoiyning barcha sheʼriy merosi 9 devonda jam boʻlgan, ularning ikkitasi ixlosmandlari tomonidan tuzilganligi Navoiy sheʼrlariga hamma davrlarda, xususan, oʻz davrida ham yuqori darajada ehtiyoj boʻlganligidan darak beradi.

Navoiy gʻazallari va qitʼalari tahlili. “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotidagi lirik janrlar.

“Xazoyin ul-maoniy” kulliyoti turkiy sheʼriyatning gultoʻji boʻlib, jami 16 lirik janrni oʻz ichiga oladi. Bular quyidagilar: gʻazal, mustazod, muxammas, musaddas, musamman, tarjiʼband, tarkibband, masnaviy, qasida, soqiynoma, qitʼa, ruboiy, muammo, lugʻz, tuyuq, fard. Mazkur sheʼriy janrlar har bir devonga muayyan tartib bilan joylashtirilgan va bu janrlarga oid sheʼrlarning umumiy soni 3132 ga teng. “Xazoyin ul-maoniy” kulliyoti tarkibiga kiruvchi devonlarning janr xususiyatlarini kuzatadigan boʻlsak, ular orasida oʻzaro mutanosiblik borligini koʻramiz. Xususan, “Gʻaroyib us-sigʻar” va “Navodir ush-shabob” devonlariga 8 tadan, “Badoyeʼ ul-vasat” va “Favoyid ul-kibar” devonlariga 9 tadan janr kiritilgan va devonlarning hajmi ham bir-biridan unchalik farq qilmaydi: “Gʻaroyib us-sigʻar”da 840 ta sheʼr (5718,5 bayt), “Navodir ush-shabob” devonida 759

ta she'r (5423,5 bayt), "Badoye' ul-vasat"da 740 ta she'r (5420 bayt) va "Favoyid ul-kibar"da 793 ta she'r (5888,5 bayt) mavjud. Bu janrlardan g'azal, mustazod, musaddas, tarji'band barcha devonlarga o'zaro teng nisbatda joylashtirilgan³³.

"Xazoyin ul-maoniy" kulliyotida eng ko'p qo'llangan janr, shubhasiz, g'azaldir. Ma'lumki, g'azal arabcha "oshiqona so'z", "ishq izhor qilish" ma'nolarini bildirib, a-a, b-a, d-a, e-a... tarzida qofiyalanuvchi, 3 baytdan 19 baytgacha hajmda bo'lgan baytli she'r shaklidir. O'zbek adabiyotida 5-10 baytli g'azallar ko'p uchraydi. Navoiy g'azallari esa, asosan, 7 baytdan 13 baytgacha hajmda bo'lib, bu haqda shoirning o'zi "Badoye' ul-vasat" devoniga kiritilgan qit'asida shunday ma'lumot beradi:

Navoiy she'ri to'qquz bayt-u o'n bir bayt, o'n uch bayt

Ki, lavh uzra qalam ziynat berur ul durri maknundin.

Bukim, albatta, yetti baytdin o'ksuk emas, ya'ni

Tanazzul aylay olmas rutba ichra yetti gardundin.

G'azalning birinchi bayti matla' yoki mabda', oxirgi bayti esa maqta' deb ataladi va maqta'da shoir taxallusi qo'llaniladi. Agar ikkinchi bayt ham matla' singari qofiyalansa, ya'ni g'azal qo'sh matla'ga ega bo'lsa, "husni matla'" yoki "zebi matla'"li g'azal deb ataladi. G'azalning dastlabki namunalari VIII-IX asrlarda arab adabiyotida paydo bo'lgan, fors-tojik adabiyotida ilk g'azal yozgan shoir sifatida Rudakiy tilga olinadi. O'zbek adabiyotida esa dastlabki g'azal Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" asarida (XIV asr) uchraydi. G'azalning dostonlar tarkibida uchrashi ilk bor Xorazmiyning "Muhabbatnoma"sidan (1353-1354) boshlanadi. Alisher Navoiy o'zining qit'alaridan birida g'azaldagi ustozlari sifatida fors-tojik shoirlari Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy va Xofiz Sheroziyni keltirib o'tadi.

Navoiy g'azallarini mavzusiga ko'ra shartli ravishda quyidagicha tasnif qilish mumkin:

1. Hamd g'azallar:

Zihi zuhuri jamoling quyosh kibi paydo,

Yuzung quyoshig'a zarroti kavn o'lub shaydo.

³³ Юсупова Д. Ўзбек мумтоз ва миллий уйғониш адабиёти (Алишер Навоий даври). – Тошкент: Tamaddun, 2016. – Б.43.

(“Navodir ush-shabob” 1-gʻazal)

2. Naʼt gazallar:

Ey, nubuvvat xayligʻa xotam bani Odam aro,
Gar alar xotam, sen ul otkim, erur xotam aro.

(“Garoyib us-sigar”, 6-gʻazal)

3. Oshiqona yoki ishqiy mavzudagi gʻazallar:

Tun oqshom boʻldi-yu kelmas mening shamʻi shabistonim,
Bu anduh oʻtidin har dam kuyar parvonadek jonim.

(“Garoyib us-sigar”, 403-gʻazal)

4. Orifona yoki tasavvufiy-falsafiy mavzudagi gʻazallar:

Dema, ne sud erur oʻlmoq fano harimigʻa xos,
Yana ne sud kerak oʻzlugungdin etsa xalos.

(“Garoyib us-sigar”, 271-gʻazal)

5. Axloqiy-taʼlimiy mavzudagi gʻazallar:

Sen oʻz hulqungni tuzgil, boʻlma el axloqidin xursand,
Kishiga chun kishi farzandi hargiz boʻlmadi farzand.

(“Garoyib us-sigar”, 115-gʻazal)

6. Ijtimoiy mavzudagi gʻazallar:

Topmadim ahli zamon ichra bir andoq hamdame,
Kim, zamon osibidin bir-birga aytishsoq gʻame.

(“Navodir ush-shabob”, 576-gʻazal)

7. Rindona gʻazallar:

Soqiyo, tut bodakim, bir lahza oʻzumdin boray,
Shart bukim, har necha tutsang labolab sipqoray.

(“Garoyib us-sigar”, 588-gʻazal)

8. Tabiat tasviri aks etgan gʻazallar:

Bulut hayvon zuloli birla tirguzdi havo jonin,
Sevunmak ashkidin shodob qildi sabza mujgonin.

(“Garoyib us-sigar”, 440-gʻazal)

9. Hajviy mavzudagi gʻazallar:

Ul shayxki, minbar uza afsungʻa berur tul,
Shaytondur oʻzi, majlisining ahli suruk gʻul.

(“Favoyid ul-kibar”, 377-gʻazal)

Aslida, bu tasnif nisbiy bo‘lib, ba‘zan Alisher Navoiyning ishqiy mavzudagi g‘azallari tarkibida (ko‘pincha begona baytda) ijtimoiy masalalar bilan bog‘liq baytlar tabiat tasviri aks etgan g‘azallarida yor tasviri va h.k. mazmunidagi baytlarni kuzatish mumkin. Hazrat Navoiy g‘azaliyotida ishq mavzusi asosiy o‘rinni egallaydi. Bu mavzu, umuman, musulmon Sharqi she‘riyatida ham yetakchi o‘rinda bo‘lib, Alisher Navoiy unga ijodining deyarli barcha bosqichlarida murojaat qilgan:

Ey Navoiy, ishq atvorini hifz aylay degan

Barcha ishni tark etib, qilsun bizing devonni hifz.

Alisher Navoiy “Mahbub ul-ulub”da ishqni 3 darajaga ajratadi:

1) avom ishq;

2) xoslar ishq (majoziy ishq);

3) siddiqlar ishq (haqiqiy ishq).

Alisher Navoiy ijodida majoziy ishq haqiqiy ishqqa qarama-qarshi qo‘yilmaydi, balki majoziy ishq haqiqiy ishq uchun ko‘prik degan g‘oya ilgari suriladi:

Majozdin manga maqsud erur haqiqiy ishq.

Nedinki ahli haqiqatqa bu tariqat erur.

Majozdin chu haqiqatqa yo‘l topar oshiq,

Qilur majozni nafyi ulki, behaqiqat erur.

(“Favoyid ul-kibar”, 5-qit‘a).

Alisher Navoiyning ishqiy mavzudagi g‘azallaridan birini ko‘rib chiqsak:

Tun oqshom bo‘ldi-yu, kelmas mening sham‘i shabistonim,

Bu anduh o‘tidin har dam kuyar parvonadek jonim.

Ne g‘am ko‘rguzsa ko‘ksun porasin choki giribonim,

Ko‘runmas bo‘lsa ko‘ksun yorasidin dog‘i pinhonim.

G‘amidin durri maknundek, sirishkim oqti Jayhunde,

Muzayyan qildi gardundek jahonni ashki g‘altonim.

Falak ham to‘ldi kavkabdin, quyosh ham tushti ashhabdin,

Kelib tushmas bu markabdin mening xurshidi raxshonim.

Jahonni zulmat etti chah, bu zulmat ichra o‘lgum, vah,

Manga bo‘lsang ne Xizri rah, yetib, ey obi hayvonim.

Dema ko‘ktin quyosh ketmish, falakka tiyralik yetmish,

Ul oy hajrida tor etmish falakni dudi afg'onim.

Navoiy kibi hijrondin, bu oqshom o'ldum afg'ondin,

G'amim yo'q bo'yla yuz jondin, yetib gar kelsa jononim.

G'azal 7 baytdan iborat bo'lib, "G'aroyib us-sig'ar" devonidan o'rin olgan. Qofiyalanish tizimiga ko'ra qo'sh matla'li, ya'ni g'azali husni matla'. Shuningdek, g'azalning ritmik ta'sirchanligini oshiradigan yana bir hodisa uning musajja' (ichki qofiya) san'ati asosida yaratilganligidir. Bu san'atga ko'ra, matla'dan keyingi baytlar to'rt bo'lakka ajratilib, dastlabki uch bo'lak o'zaro mustaqil tarzda qofiyalanadi, to'rtinchi bo'lak esa asosiy qofiyaga ohangdosh bo'ladi. G'azalda oshiqning hijron-u ayriliq damlarida chekkan sog'inch iztiroblari, dardli kechinmalari tasvirlangan bo'lib, bu tasvirning falak, ya'ni osmon hodisalari bilan uyg'un tarzda bayon qilinganligini ko'ramiz. G'azal tun – oqshom boshlansa ham, yor, ya'ni ushbu tunni yorituvchi sham kelmaganligi, bu qayg'u otashidan oshiqning joni parvonaday kuyishi tasviri bilan boshlanadi. Baytda qo'llanilgan tanosub (tun, oqshom, shabiston, sham, parvona), tashbeh. tavze' (oqshom, sham, shabiston) kabi san'atlar matla'dayoq g'azalning ta'sirchan chiqishiga zamin hozirlagan.

Keyingi baytlarda ushbu tasvir yanada kuchaytiriladi.

Ikkinchi bayt: Agar ko'ksimning yarasidan yashirin g'amim kurinmasa. ne g'am?! Chunki ko'ksimning pora bo'lganligini libosim yoqasidagi chok ko'rsatib turibdi. Husni ta'lil (chiroyli dalillash) va tashbeh san'atlarining uyg'unligi baytning ta'sirchanligini oshirgan.

Uchinchi bayt: Yorimning g'amidan yashirin durdek ko'z yoshim Jayxun daryosidek oqdi, bu ko'z yoshimning dona-dona tomchilari jahonni xuddi yulduzli osmondek bezadi.

Ayni shu baytdan boshlab musajja' san'ati (maknundek, Jayhundek, gardundek) ohangdorlikni kuchaytiradi va bu ohangdorlik g'azal oxirigacha davom etadi.

To'rtinchi bayt: Osmon yulduzlar bilan to'ldi, quyosh ham o'z otidan tushdi. ya'ni botdi, lekin mening quyoshim, ya'ni yorim Raxsh otidan tushib, huzurimga kelmaydimi?

Baytda Alisher Navoiy badiiy mahorati va so'z boyligining yana bir namoyishiga guvoh bo'lamiz: oftob tushunchasi 3 xil so'z vositasida:

quyosh, xurshid, raxshon va ot tushunchasi ashhab va markab soʻzlari vositasida ifodalab berilyapti.

Beshinchi bayt: Zulmat jahonni quduqqa aylantirdi, endi bu zulmat ichida oʻl- mogʻim tayindir. Qaniydi mening obi hayvon (tiriklik suvi)dek yorim yetib kelib, Xizr kabi yoʻlboshchi boʻlib, meni qutqarsa.

Maʼlumki, mumtoz adabiyotda Xizr obi hayotni ichgan timsol sifatida kelib, baytda bu nomning qoʻllanilishi talmeh sanʼatini vujudga keltiryapti.

Oltinchi bayt: Osmondan quyosh ketdi, atrof qorongʻilikka choʻmdi deb oʻylama. Aslida, bu mening oydek yorim hajridan chekkan figʻonlarim tutunidir. Baytda istiora va mubolagʻa sanʼatlarining betakror namunalariga guvoh boʻlamiz.

Yettinchi bayt: Yorim gʻamida mening bu pinhon yonishimdan quyosh qochib, yuzini yashirdi; shafaq otashga tushib kuydi, osmonning yuziga esa dogʻlar tushdi.

Baytda husni taʼlil sanʼati va tanosub sanʼatlari qoʻllanilgan. Gʻazal yor visoliga ilinj va umidvorlik tuygʻulari bilan yakunlanadi:

Ayriliq iztiroblari ichida Navoiy kabi bu oqshom figʻon chekib oʻlmoqdaman. lekin menga jon qaygʻusi begona. Faqat jononim yetib kelsa boʻlgani.

Baytda “jon” va “jonon” soʻzlari vositasida vujudga keltirilgan ishtiyoq sanʼati baytning lisoniy jozibasini oshirgan. Gʻazal aruz tizimining sokin va hazin ohangga ega vaznlaridan biri boʻlgan hazaji musammani solim (ruknlari va taqtiʼi: mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun V – – – / V – – – / V – – – / V – – –) vaznida yaratilgan. Bu bejiz emas, chunki musajjaʼ gʻazal shartlari (baytlarning oʻzaro teng toʻrt boʻlakka boʻlinishi) shuni taqozo etadi³⁴.

“Xazoyin ul-maoniy” kulliyotida **qitʼa** janri ham yetakchi oʻrinni egallaydi. Qitʼa (ar. “parcha”, “boʻlak”, “qism”) 2 baytdan bir necha baytgacha hajmda boʻlgan. faqat juft misralari qofiyalanadigan (ba, va, ga...) baytli sheʼr shakli hisoblanadi. Turkiy adabiyotda qitʼaning ilk namunalari Nosiruddin Rabgʻuziyning “Qisasi Rabgʻuziy” asarida uchraydi. Qitʼa, asosan, falsafiy, ijtimoiy va axloq-odob bilan bogʻliq mavzularda

³⁴ Юсупова Д. Ўзбек мумтоз ва миллий уйғониш адабиёти (Алишер Навоий даври). – Тошкент: Tamaddun, 2016. – Б.50.

yaratilgan. Shuningdek, qit'a nasriy asarlarda ma'lum bir masala haqidagi fikr-mulohazalarga yakun sifatida "qissadan hissa" tarzida keltirilgan. Alisher Navoiy qit'alarini mavzusiga ko'ra shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin:

1) ijtimoiy hayot masalalari aks etgan falsafiy-axloqiy mazmundagi qit'alar:

Quloqda asra garonmoya so'zni-yu, fikr et
Ki, dursiz o'lsa, ne bo'lg'usidur sadaf holi.
So'zungni dag'i ko'ngul ichra asrag'ilkim, hayf
Kim, uyla durjni guhardin etkasen xoliy.
Bu durju ikki sadafni to'la dur etkanga,
Zihe uluvvi guhar, balki gavhari oliy.

2) muayyan davr voqea-hodisalari hamda u yoki bu guruh vakillari faoliyati haqidagi qit'alar:

Falon kotib ar xatni mundoq yozar,
Bu mansabdin ani qo'parmoq kerak.
Yuzin nomasidek qora aylabon,
Qalamdek boshin dag'i yormoq kerak.

Kulliyotdagi qit'alarda ularning g'oyasini ifodalovchi sarlavhalar qo'yilgan. Masalan, yuqoridagi qit'a matnni xato ko'chiruvchi kotiblar haqida bo'lib, uning sarlavhasi quyidagicha: "G'alat bitir kotib bobida qalam surmagu qorasining g'alatin yuziga kelturmak".

Mumtoz she'rshunoslik mezonlariga ko'ra, qit'ada taxallus qo'llanilishi shart bo'lmagan. Lekin Navoiyning ayrim qit'alarida, xususan, hajmi 7 bayt va undan ortiq bo'lgan qit'alarda shoir taxallusi keltirilgan. Masalan, "Garoyib us-sigar"dan 7 raqami ostida o'rin olgan va "Qanoat naqshining ifshosi-yu naqshbandiya tariqining adosi" deb sarlavha qo'yilgan qit'a 11 baytdan iborat bo'lib, uning so'nggi baytida quyidagicha taxallus keltirilgan:

Bu ohang ila bo'lg'asen naqshband,
Navoiy, agar yetsa navbat sanga.

Navoiy qit'alarida taxallus birinchi baytda keltirilganligini ham kuzatish mumkin:

Ey Navoiy, olam ahlida tama'siz yo'q kishi,

Har kishida bu sifat yo‘qtur, anga bo‘lg‘ay sharaf.
Sen agar tarki tama’ qilsang, ulug‘ ishdur bukim,
Olam ahli barcha bo‘lgay bir taraf, sen bir taraf.

(“Badoye’ ul-vasat”, 43-qit’a)

Qit’a ba’zan aa, bb, vv tarzida ham qofiyalanishi mumkin. “Xazoyin ul-maoniy”ga kiritilgan 210 qit’adan 6 tasi aynan shu tarzda qofiyalangan (“G‘aroyib us-sig‘ar”dagi 41-qit’a; “Badoye’ ul-vasat”dagi 3-, 18-, 52-qit’alar, “Favoyid ul-kibar”dagi 42-, 44-qit’alar). Mumtoz adabiyotimiz tarixida qit’alarning bunday qofiyalanish hodisasi deyarli uchramaydi. “Badoye’ ul-vasat”dagi quyida berilgan 18-qit’a aa,bb tarzida qofiyalangan:

Biyik himmatlik elga arzi hol et
Zamiri nurposh eldin savol et
Ki, bor abri bahori gavharafshon
Choqin ham olam ahlig‘a zarafshon.

“Xazoyin ul-maoniy”da **ruboiy** janrining ham o‘ziga xos o‘rni bor. Ruboiy (ar. “to‘rtlik”) ikki baytdan iborat mustaqil she’r bo‘lib, dastlab fors-tojik she’riyatida, Abu Abdulloh Rudakiy ijodida paydo bo‘lgan. Ruboiyning 2 xil turi bor:

1) xosiy ruboiy yoki ruboiyi xosa (qofiyalanishi: a-a, b-a):

Sen borg‘ali ortmish ko‘ngul zorlig‘i,
Oh o‘qlaridin har nafas afgorlig‘i.
Bilman unutulg‘anmu ekandur manga hajr,
Yo ko‘prak erur bu qatla dushvorlig‘i.

2) taronayi ruboiy yoki ruboiya (qofiyalanishi: a-a, a-a):

Ollimda tabibi chorasozim ham yo‘q,
Yonimda rafiqi dilnavozim ham yo‘q.
Tegramda anisi jongudozim ham yo‘q,
Boshimda shahi bandanavozim ham yo‘q.

“Xazoyin ul-maoniy”dagi 133 ta ruboiydan 116 tasi taronayi ruboiy hisoblanadi. Ruboiy muayyan kompozitsiyaga ega. Mumtoz ruboiy talablariga ko‘ra, unda to‘rt unsur mavjud bo‘ladi. Mazkur unsurlar to‘rt misrada aytilmoqchi bo‘lgan falsafiy, axloqiy yoki didaktik fikrning

ma'lum bir yaxlitlikka erishishini ta'minlaydi. Shu ma'noda to'rt misrani quyidagi unsurlarga taqsimlash mumkin:

- 1) tezis – unda ruboiyda aytilmoqchi bo'lgan fikr, boshqacha aytganda, ruboiy mavzusi bayon qilingan bo'ladi;
- 2) antitezis – bunda birinchi misraga qarama-qarshi fikr aytiladi;
- 3) moddai ruboiy – to'rtinchi misrada aytilmoqchi bo'lgan fikr uchun ko'priq vazifasini o'taydi;
- 4) sintez – xulosa.

Lekin bu unsurlarning doimiy mavjud bo'lish talabi nisbiy bo'lib, ko'pincha tezis va antitezisning o'rniga faqat moddai ruboiy va sintezning qo'llanilganligini kuzatish mumkin. Yuqorida keltirilgan ruboiyda ham oshiq kechinmalari, asosan, moddai ruboiy tarzida berilgan.

Ruboiy o'ziga xos maxsus vaznda yoziladi. Bu hazaj bahrining axrab va axram shajarasidir. Bu haqda Navoiy “Mezon ul-avzon” asarida shunday yozadi: “Ruboiy vaznikim, oni “dubaytiy” va “tarona” ham derlar, hazaj bahrining “axram” va “axrab”idin istixroj qilibdurlar va ul vaznedur asru xushoyanda va vaznedur bag'oyat raboyanda”. Hazaj bahrining axrab shajarasi 12 vaznni, axram shajarasi yana 12 vaznni o'z ichiga oladi va ushbu jami 24 vazn ruboiy vaznlari hisoblanadi. Ruboiyning she'riy o'lchovi bilan bog'liq muhim xususiyat shundaki, boshqa she'riy janrlardan farqli o'laroq, ruboiyning to'rt misrasi mazkur shajaratlarga mansub 4 vaznda yozilishi mumkin. Masalan, Alisher Navoiyning “G'aroyib us-sig'ar” devonidagi 45-ruboiyni taqti'i bilan birga ko'rsak:

Olam bor emish, Navoiyyo sho'rangiz,

— V / V — V — / V — — — / ~

Olamdagi el boshtin ayog' rangomiz.

— V / V — — V / V — — — / ~

Ishq istar emish seni adam Misri sari,

— V / V — V — / V — — V / V —

Borg'ilki, erur el tilagan yerda aziz.

— V / V — — V / V — — V / V ~

Yuqoridagi chizmadan ma'lum bo'lyaptiki, mazkur ruboiyning har bir misrasi alohida vaznda yozilgan ekan. Turkiy adabiyotda ruboiy janrining dastlabki namunalari Hofiz Xorazmiy devonida uchraydi. Uning jami 12 ta

ruboiysi mavjud bo‘lib, ular, asosan, ruboiyi xosa shaklida yaratilgan. Demak, turkiy adabiyotda taronayi ruboiyning ilk bor qo‘llanilishi Alisher Navoiy nomi bilan bogliq deb aytish mumkin.

Tuyuq (turk. “his qilmoq”, “tuymoq”) – to‘rt misradan iborat mustaqil she‘r shakli bo‘lib, faqat turkiy xalqlar she‘riyatida qo‘llanilgan. Tuyuq, asosan, ruboiy singari qofiyalanadi, lekin ba‘zan *ba*, *va* tarzida ham qofiyalanishi mumkin. Ruboiydan farqli o‘laroq, tuyuqda qofiyaning o‘rnida, asosan, tajnis (shakldosh so‘zlar) qo‘llaniladi. Alisher Navoiy “Mezon ul-avzon”da mazkur janrning xususiyatlari haqida shunday yozadi: “...Birisi “tuyug’”durkim, ikki baytqa muqarrardur va sa’y qilurlarkim, tajnis aytilg’ay va ul vazn ramali musaddasi maqsurdur, mundoqkim (tuyug’).

Yo rab, ul shahdu shakar yo labmudur?

Yo magar shahd-u shakar yolabmudur?

Foilotun foilotun foilon

Jonima payvasta novak otqoli,

G’amza o‘qin qoshig’a yolabmudur?

Foilotun foilotun foilon.

Bu o‘rinda Alisher Navoiy tuyuqning uch jihatiga: ikki baytli bo‘lishi, tajnisga asoslanishi va maxsus vaznda – ramali musaddasi maqsur (mahzuf)da yozilishiga diqqat qaratyapti. Bobur “Muxtasar”da tuyuqning nav’lari haqida gapirib, tajnissiz tuyuq ham mavjud bo‘lishini aytadi. Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotidajami 13 tuyuq mavjud bo‘lib, 11 tasi *aa ba*, 2 tasi *ba va* tarzida qofiyalangan. Barcha tuyuqlar “Badoye’ ul-vasat” devoniga kiritilgan.

Turkiy adabiyotdagi dastlabki tuyuq Lutfiy devonida uchraydi, lekin N.Mallayevning yozishicha, turkiy adabiyotda tuyuqning ilk namunalari Burhoniddin Sivosiy tomonidan yaratilgan.

Savol va topshiriqlar:

1. Shoir sifatida ancha tanilib qolgan bo‘lsa-da, Alisher Navoiy yigitlik davrida nima uchun devon tartib berishga rag‘bat ko‘rsatmagan deb o‘ylaysiz?

2. Alisher Navoiygacha va Alisher Navoiydan keyin muxlislari tomonidan devoni tuzilgan yana qaysi shoirni bilasiz?
3. Alisher Navoiyning muxlislari tuzgan devonlari haqida ma'lumot bering.
4. Alisher Navoiyning mukammal she'riy devon uchun qo'ygan talablarini sharhlab bering.
5. "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotining yaratilish tarixi haqida nimalarni bilasiz?
6. "Xazoyin ul-maoniy"dagi she'rlarning aniq matematik tartibda joylashtirilganligidan qanday xulosaga kelish mumkin?
7. Mazkur kulliyotning o'zbek she'riyati taraqqiyotiga ko'rsatgan ijobiy ta'siri haqida qanday tasavvurga egasiz?

NAVOIY – XAMSANAVIS

REJA:

1. Xamsachilik tarixi.
2. Hirot adabiy muhiti xamsanavisligi.
3. Abdurahmon Jomiy “Xamsa”sining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari.
4. Alisher Navoiy “Xamsa”siga umumiy tavsif.

Tayanch so‘z va iboralar: *“Xamsa”, xamsachilik, doston, “Panj ganj”.*

Xamsachilik tarixi. Musulmon Sharqi epik poeziyasi tarixi xamsachilik an‘anasi bilan chambarchas bog‘liq. Dastavval XII asrda vujudga kelgan xamsa janri sakkiz asrga yaqin vaqt davomida yuzlab javob dostonlarga ega bo‘ldi. Sharq adabiyotida birinchi bo‘lib “Xamsa” yozgan shaxs buyuk ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviydir. U 1170-1204-yillar oralig‘ida birin-ketin 5 ta doston yaratdi, bu dostonlar shoir vafotidan so‘ng yaxlit bir to‘plamga birlashtirilib, “Panj ganj” (“Besh xazina”) deb atala boshlandi va keyinchalik xamsa nomi bilan mashhur bo‘ldi.

Nizomiy beshligidagi birinchi doston “Maxzan ul-asror” (“Sirlar xazinasi”) deb atalib, 1170-yilda yaratilgan. Nizomiy bu dostonini g‘aznaviylar hukmdori Bahromshoh (XII asr)ga bag‘ishlaydi. “Maxzan ul-asror”ning vujudga kelishida XII asr klassigi Hakim Sanoiy “Xadiqat ul-haqoyiq” (“Haqiqatlar bog‘i”) dostonining ta’siri bor. Umuman, musulmon Sharqida falsafiy-didaktik yo‘nalishdagi dostonlarning ibtidosi ham bevosita shu doston bilan bog‘lanadi.

Nizomiy beshligidagi ikkinchi doston “Xusrav va Shirin” deb atalib, taxminan 1181-yilda yozib tugallangan. Shoir bu dostonini saljuqiy hukmdor To‘g‘rul II (1174-1194) topshirig‘iga ko‘ra yaratadi. “Layli va Majnun” dostoni esa 1188-1189- yillarda Shirvonshoh Axsitan II topshirig‘iga ko‘ra yaratiladi. Nizomiy beshligidagi to‘rtinchi doston “Haft paykar” (“Yetti go‘zal”) 1196-yilda yozib tugallanadi. Doston 4600 baytdan iborat bo‘lib, hukmdor Alouddin Ko‘rpa Arslon (1174-1207) topshirig‘i

bilan yaratilgan. “Haft paykar” asosiy voqea va unga ilova qilingan 7 ta qoliplovchi hikoyatlardan iborat.

Nizomiy beshligidagi so‘nggi – beshinchi doston “Iskandarnoma” deb atalib, ikki qism: “Sharafnoma” va “Iqbolnoma”dan iborat. Doston hajmi 10000 baytdan ortiqroq. Dostonning aniq qaysi yilda yaratilganligi ma’lum emas, adabiyotlarda uning 1197-yildan keyin yozilganligi haqida ba’zi qaydlar uchraydi.

Musulmon mintqa xalqlari adabiyotida bu adabiy janrning vujudga kelishi sabablarini taniqli adabiyotshunos olim, akademik B.Valixo‘jayev quyidagicha izohlaydi: “Xamsa” deb ataluvchi asarlarning maydonga kelishigacha, ya’ni XII asrgacha bo‘lgan davrda turkum qissa va dostonlardan iborat “Kalila va Dimna”, “Sindbodnoma” (Ro‘dakiy), “Shohnoma” (Firdavsiy), “Qutadg‘u bilig” (Yusuf Xos Hojib) kabi forsiy va turkiy tillarda bitilgan turkum asarlar mavjud edi. Eslatilgan asarlarning ayrimlari bir syujetli (“Qutadg‘u bilig”) bo‘lsa, boshqalari ko‘p syujetli (“Kalila va Dimna”, “Shohnoma”) asarlardir. Xuddi ana shu davrda xamsa o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan badiiy janr sifatida shakllandi. Shuning natijasida u ham bir syujetli, ham ko‘p syujetli hamda syujetsiz – maqolatlardan iborat asarlardan tashkil topdi, ya’ni qurilishi jihatidan ko‘p qirrali janr bo‘ldi. Uning asosiy mavzusi ham insonning ko‘p qirralari faoliyatini badiiy obrazlar misolida aks ettirishdan iboratdir” (Valixo‘jayev B. Mumtoz siymolar.131-bet). Ko‘rinadiki, xamsa inson kamolotining serqirra jihatlarini o‘zida to‘la in’ikos etish imkonini hosil qilgan adabiy janr sifatida vujudga kelib, bir va bir necha syujetli asarlarga xos bo‘lgan xususiyatlarni o‘zida mujassam etdi va ijodkorning yana o‘sha komil inson xususidagi falsafiy, ilohiy-irfoniy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta’limiy qarashlarini mufassal bayon etishi uchun tarkibida mavjud bo‘lgan syujetsiz maqolalar bilan mukammallashdi. Ayni choqda xamsa tuzilishiga aloqador bo‘lgan bunday unsurlar bir-birini taqozo qilishi bilan ahamiyatlidir. Jumladan, Shayx Nizomiyning “Panj ganj”i “Maxzan ul-asror” (“Sirlar xazinasi”) sarlavhali dasturiy doston bilan boshlanadi. Mazkur asar tarkibidagi maqolat-u hikoyatlar uning “Panj ganj”ining barcha dostonlari uchun rejanoma vazifasini o‘tashini ta’min etgan. Ana shu shoh asarda xalq maqollari kabi sayqallangan va lo‘nda xulosalar tarzida teran badiiy

ifodalangan dolzarb umuminsoniy mavzu – muammolar turkumning “Xusrav va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Haft paykar” (“Yetti go‘zal”), “Iskandarnoma” kabi masnaviylarida mantiqiy badiiy tajassumini topadi. Shuning uchun ham zohiran alohida-alohida va mustaqil dostonlar maqomida ko‘zga tashlanuvchi bu asarlar uchun ana o‘sha “mustaqillik” o‘ta nisbiy tushunchadir. Ular, bizningcha, barcha a‘zolari bir-biri bilan uzviy aloqador, yaxlit, yagona jismni eslatadi. Aslida ana shu bosh tamoyil xamsaning Sharq xalqlari adabiyoti tarixida mustaqil janr maqomida ko‘rinishining tayanch omilidir. Shayx Nizomiydan keyin undan o‘rganish, uni ustoz deb bilish, ilg‘or adabiy an‘analarini davom ettirish adabiyot olamida asrlar osha turli shakllarda yashab keldi³⁵.

Nizomiy beshligi yaratilgandan keyin oradan bir asr vaqt o‘tib Xusrav Dehlaviy (1253-1325) unga javob yozdi va shu bilan xamsanavislik an‘anasini boshlab berdi. U 1299-1301-yillarda “Matla’ ul-anvor” (“Nurlarning boshlanmasi”), “Shirin va Xusrav”, “Majnun va Layli”, “Hasht behisht” (“Sakkiz jannat”), “Oyinayi Iskandariy” (“Iskandar oynasi”) dostonlarini yaratib, Nizomiy ishini davom ettirdi, natijada adabiyotda xamsachilik an‘anasi paydo bo‘ldi.

Dehlaviydan keyin bu an‘ana butun Sharq dunyosiga tarqaldi va juda ko‘p xalqlarda Nizomiy dostonlari mavzusi hamda syujeti asosida asarlar paydo bo‘ldi. Ozarbayjon olimi G‘.Aliyev jahon kutubxonalarida saqlanayotgan qo‘lyozma va manbalarni o‘rganib chiqish asosida Nizomiy beshligiga muayyan tarzda javob yozgan 300 ga yaqin ijodkorni aniqladi va ular haqidagi ma‘lumotlarni umumlashtirib monografiyasini yaratdi.

Xamsanavislik tarixida XV asr Hirot adabiy muhiti alohida o‘rin egallaydi. Izlanishlardan ma‘lum bo‘ldiki, aynan shu davr va shu muhitning o‘zida yigirmaga yaqin ijodkor xamsanavislikda o‘z kuchini sinab ko‘rgan. Garchi bu ijodkorlarning barchasi to‘liq “Xamsa” yaratmagan bo‘lsalar-da, lekin beshlikning u yoki bu dostoniga javob yozish bilan mazkur an‘anaga o‘z munosabatlarini bildirganlar. Bu davrdagi Nizomiy mavzulariga murojaat qilgan ijodkorlar haqida Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” (1498), Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro” (1486), Humomiddin Xondamirning “Makorim ul-axloq” asarlarida ma‘lumotlar

³⁵ Vohidov R., Eshonqulov H. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Toshkent, 2006. – B.306.

uchraydi. Buyuk Nizomiyga izdoshlik qilish an'anasiga doir ma'lumotlarni umumlashtirgan holda uch katta yo'nalishga ajratish mumkin:

1. To'liq "Xamsa" mualliflari.
2. "Xamsa"ning ba'zi dostonlariga javob yozgan ijodkorlar.
3. Bitta dostonga javob yozgan ijodkorlar.

To'liq "Xamsa" mualliflari. Amir Xusrav Dehlaviy 1299-1301-yillarda, Jamoliy 1402-1417-yillarda, Ashraf Marog'iy 1428-1444-yillar oralig'ida, Abdurahmon Jomiy 1481-1485-yillarda, Alisher Navoiy 1483-1485-yillarda to'liq "Xamsa" yaratganlar.

"Xamsa"ning ba'zi dostonlariga javob yozgan ijodkorlar: Kotibi Turshiziy (1434-1436-yillarda Astrobodda vafot etgan), Abdulloh Hotifiy (1445/50-1521-yillarda yashagan), Badriddin Hiloliy (XV asrning 70-yillarida tug'ilgan – 1529-yilda qatl etilgan), Shahobiddin Jomiy (XV asrning ikkinchi yarmi yashagan, tug'ilgan va vafot etgan yillari haqida aniq ma'lumot yo'q.) hisoblanadilar.

Bitta dostonga javob yozgan ijodkorlar. Bu guruhni g'oyaviy yo'nalishiga qarab ikkiga ajratish mumkin:

1. "Maxzan ul-asror" tipida doston yozgan mualliflar: Osafiy Hiraviy, Nargisiy, G'iyosiddin Sabzavoriy, Fosih Rumi, Sayyid Qosimiy.

2. "Layli va Majnun" tipida doston yozgan mualliflar: Shayxim Suhayliy, Ali Ohiy, Xoja Imod Loriy, Xoja Hasan Xizirshoh, Zave Qozisi.

Xamsachilik tarixida fors-tojik adabiyotining yirik namoyandalardan biri Abdurahmon Jomiy (1414-1492) beshligi alohida o'rin tutadi. Adabiyotshunoslikda Jomiyning "Xamsa" yozgan-yozmaganligi bilan bog'liq bahsli fikrlar mavjud. Ayrim adabiyotshunoslar Jomiy dostonlariga "Xamsa" tarzida emas, balki yettilik – "Haft avrang" shaklida ("Salomon va Absol" hamda "Silsilat uz-zahab" dostonlarini ham qo'shgan holda) qarash zarurligini ta'kidlaydilar. Lekin Jomiyning o'zi "Xiradnomai Iskandariy" xotimasida o'z asarini "Panj ganj" deb atagani uchun, Jomiyning "Xamsa" yaratgan ijodkorlar qatoriga kiritish to'g'riroq bo'ladi.

Abdurahmon Jomiy "Xamsa"sining birinchi dostoni "Tuhfat ul-ahror" 1481-yilda yaratilgan. Falsafiy-axloqiy masalalarga bag'ishlangan bu doston Nizomiy "Maxzan ul-asror"ga javob tarzida vujudga keldi. Dostonlar nomlanishidagi ohangdoshlik, kompozision qurilishdagi o'xshashlik va

qo'llanilgan she'riy o'lchov bu fikrni tasdiqlaydi. 1482-1483-yillarda "Xamsa"ning ikkinchi dostoni "Subhat ul-abror" ("Yaxshi kishilarning tasbehi") maydonga keldi. An'anaga muvofiq, "Xamsa"ning ikkinchi dostoni ishqiy mavzuga bag'ishlanishi kerak edi. Jomiy bu o'rinda an'anadan butunlay chekinib, falsafiy yo'nalishdagi yana bir doston yaratadi. Lekin u birinchi doston kabi 20 ta maqolatdan emas, balki 40 ta bo'lim – "iqd" (tasbeh donasi)dan iborat bo'lib, har bir nazariy qismdan keyin alohida hikoyat va munojot ilova qilib boriladi. Abdurahmon Jomiy beshligidagi uchinchi doston "Yusuf va Zulayho" deb atalib, 1483-yilda yaratilgan. Nizomiy beshligida bunday mavzu va syujetdagi doston uchramaydi. Jomiy "Xusrav va Shirin" mavzusidagi an'anaviy doston yaratishdan voz kechib, Qur'onda "ahsan ul-qisas" – "qissalarning sarasi" deb ta'riflangan Yusuf qissasi bayoniga bag'ishlangan "Yusuf va Zulayho" dostonini yaratadi. Abdurahmon Jomiy "Xamsa"sidagi to'rtinchi doston "Layli va Majnun" mavzusiga bag'ishlangan bo'lib, 1483-yilda yaratilgan. "Xamsa"dagi so'nggi – beshinchi doston "Xiradnomai Iskandariy" ham Jomiyning an'anaga rioya etishi bilan xarakterlanadi. Ko'rinadiki, Abdurahmon Jomiy yaratgan masnaviy-dostonlar orasida falsafiy yo'nalishdagi dostonlar yetakchi o'rinda turishi bilan xarakterlanar ekan.

Fors adabiyotida Nizomiy beshligiga birinchi javob bitgan ijodkor Xusrav Dehlaviy bo'lsa, Navoiy bu vazifani turkiy tilda ado etdi. Navoiy beshligida xamsanavislikning barcha shartlariga qat'iy amal qilinganini ko'ramiz. Chunki xamsanavislik an'anasidan bir oz bo'lsa-da chekinish turkiy tilda "Xamsa"dek buyuk asarni yozib bo'lmaydi degan fikrga olib kelishi mumkin edi. Navoiy o'z "Xamsa"si misolida an'anaviy shakl doirasida ham yangi fikr ayta olish imkoniyatini, belgilangan shakllarni jilvalantirish usullari mavjudligini ko'rsatib berdi va uning bu asari umumjahon adabiyotining yuksak cho'qqisi bo'lib qoldi.

Navoiy "Xamsa"si ajdodlarimiz ma'naviy holatining ko'zgusi bo'lib, unda o'tmish davr ijtimoiy turmushi, xalq hayoti, urf-odatlar, din-diyonat, axloq-odob haqidagi qarashlar o'z aksini topgan. Navoiy "Xamsa"si bir-biri bilan ich-ichidan mustahkam bog'langan beshta dostonni o'z ichiga oluvchi yaxlit asardir. Buyuk shoir unda zamonasining barcha dolzarb masalalarini qalamga oladi. Mundarijaviy doston bo'lmish "Hayrat ul-abror"da shoir

umr, uning mazmuni, tabiat, jamiyat va inson munosabatlariga doir savollarni qo‘ysa, keyingi dostonlarda muayyan taqdirlar, voqealar misolida ularga javob berishga harakat qiladi. “Xamsa” dostonlaridagi muqaddimalar dostonlar voqeligiga shunchaki an’anaviy kirish qismi bo‘lmay, balki dostonlar mundarijasi uchun ochqich vazifasini ham o‘taydi. Shu ma’noda muqaddimalarda keltirilgan fikrlarga alohida e’tibor berish dostonlar tagzaminida yashiringan ramziy ma’nolarni ochishga yordam beradi. Aynan muqaddimada buyuk mutafakkirning olam va odam, tabiat, kishilik jamiyati, umr va uning mazmuni haqidagi falsafiy-axloqiy qarashlari, ijodkor sifatidagi buyuk salohiyati u qo‘llagan badiiy timsollar, tashbeh-u tamsillar vositasida butun bo‘y-basti bilan namoyon bo‘ladi. O‘zbek mumtoz adabiyotining cho‘qqisi bo‘lgan Alisher Navoiy “Xamsa”si jahon adabiyotining noyob va o‘lmas durdonasidir.

Savol va topshiriqlar:

1. Xamsa ijod etish uchun “Panj ganj”ning qanday xususiyatlari bu adabiy janrga xos bo‘lgan me’yor sifatida belgilandi?
2. Sharq xalqlari adabiyoti tarixida Shayx Nizomiya izdoshlik qilish an’anasi qanday yo‘nalishlarda davom etdi? “Xamsa” yaratgan ijodkorlarni shartli ravishda qay shaklda guruhlash mumkin?
3. Nima uchun Xusrav Dehlaviy hamda Navoiy xamsachilikning barcha shartlariga amal qilishgan?
4. Abdurahmon Jomiyning “Xamsa” yaratgan yoki yaratmagani to‘g‘risida nima uchun yakdil fikr yo‘q?
5. Sizningcha, nima uchun Abdurahmon Jomiy “Xusrav va Shirin” mavzusida doston yozishdan voz kechgan?
6. Alisher Navoiy “Xamsa”si va uning yaratilishi tarixiga doir nimalarni bilasiz?
7. Alisher Navoiy “Xamsa”sining adabiyotimizda tutgan o‘rni haqida qanday mustaqil xulosalaringiz bor?

NAVOIYNING “XAMSA” ASARI TAHLILI

REJA:

1. “Hayrat ul-abror” dostoni.
2. “Farhod va Shirin” dostoni.
3. “Layli va Majnun” dostoni.
4. “Sab’ai sayyor” dostoni.
5. “Saddi Iskandariy” dostoni.

“Hayrat ul-abror” dostoni. Alisher Navoiy “Xamsa”sidagi birinchi doston – “Hayrat ul- abror” (“Yaxshi kishilarning hayratlanishi”) 1483-yilda yaratilgan edi. Doston 3988 baytdan iborat bo‘lib, 63 bob, 20 maqolat va 20 hikoyatdan tashkil topgan. Shundan Kirish (muqaddima) 21 bobni o‘z ichiga oladi.

Dostonning birinchi bobi Qur’oni Karimdagi bosh ilohiy jumla “Bismillohir rahmonir rahim” (“Mehribon va rahmli Alloh nomi bilan boshlayman”)ning poetik sharhiga bag‘ishlangan. Bu bob nafaqat “Hayrat ul-abror” uchun, balki, umuman, “Xamsa” uchun ham kirish vazifasini o‘taydi, chunki keyingi dostonlarda biz bu ilohiy jumlaning uchratmaymiz. Hazrat Navoiy bu jumlaning ikki nuqtayi nazardan tahlil qiladi: qabul qiluvchilar va rad etuvchilar. Bunda ushbu jumladagi har bir harfga alohida ma’no yuklatiladi. Dastlab rad etuvchilarga to‘xtalinar ekan, jumladagi har bir harfning bu toifa kishilarini jazolantirishga xizmat qildirilganini ko‘ramiz. Xususan, “س” – “sin” harfi haqida gapirilganda uning shakli nahang balig‘ining umurtqa suyagidagi arradek bo‘lib, rad etuvchilar uchun ofatdek; “م” – “mim” harfi ilon nafasidek o‘t sohib, yo‘l boshida og‘zini ochgan holda yotadi degan tashbehlardan foydalaniladi. Shu tariqa Navoiy jumladagi qolgan harflarni ham bu maqsadga xizmat qildiradi va kitobat (harf) san’atining betakror namunasini yaratadi.

Ikkinchi toifa, ya’ni qabul qiluvchilarga to‘xtalinganda endi bu harflarning ijobiy ma’no kasb etishini kuzatamiz. Xususan, “س” – “sin” harfi endi salomatlik yo‘lining zinasiga o‘xshatilsa, “م” – “mim” harfining maqsad manzilidagi buloq boshiga nisbat berilganligini ko‘ramiz. Bularning barchasida Navoiyning yuksak badiiy salohiyati namoyon bo‘ladi.

Dostonning ikkinchi bobi Xoliq, ya'ni Alloh hamdiga bag'ishlanadi. Mazkur bobda shoir hamma narsani yaratgan Xoliqning osmon va quyoshdan tortib har bir zarrani, butun o'simliklar va hayvonot olamini, kishilik jamiyatini bir-biriga bog'lab harakatlantirib turishini cheksiz hayrat bilan tasvirlaydi. Alisher Navoiy "Uning zoti lutf va safodan iborat, lekin vafo isi unga begona" degan fikrlarni ilgari surar ekan, bu o'rinda tasavvuf ta'limoti asosida fikr yuritilayotgani ma'lum bo'ladi.

Dostonning 3-6-boblari (to'rt bob) munojotlarni o'z ichiga oladi. Munojotlarda dunyodagi barcha mavjudotlar o'z yaratganiga doim sajda qilishi zarur, Xudoning qahri kelsa, "ko'k bir etak kul" kabi sovurilib ketishi hech gap emasligi ta'kidlanadi. Shuning uchun insonlar o'ylab ish tutishi, gunoh qilishga yo'l qo'ymasligi, qiyomat kunini unutmasligi, har bir gunoh uchun qiyomat kuni jazo olajagini esda saqlashi, islom dini qoidalariga to'la rioya qilishi zarurligi uqtiriladi. Navoiy oxirgi munojotda Xudoga murojaat etib gunohlarini kechirishini so'raydi:

Garchi gunahning had-u poyoni yo'q.

Aylamasang rahm ham imkoni yo'q.

Adabiy an'anaga ko'ra munojotdan so'ng payg'ambar madhiga, ya'ni na'tga o'tiladi. Dostonda 5 ta na't keltirilgan. Ushbu na'tlarning dastlabki to'rttasi vasf yo'nalishida bo'lsa, beshinchi na't me'roj haqida. Dostonda Navoiy Payg'ambar (s.a.v.)ni komil inson deb talqin etar ekan, ul Zotning insoniyat taqdiridagi o'rnini – bu dunyoning yaratilishidan maqsad Rasulullohdek komil inson ekanligini ta'kidlaydi, u zotni alohida mehr-muhabbat bilan madh etadi.

Birinchi na'tda tasavvuf ta'limotidagi "Nuri Muhammadiya" nazariyasiga to'xtalinar ekan, ushbu nazariyadagi "Odam Ato unga ham o'g'il, ham ota" degan tushuncha ta'rifi beriladi. "Nuri Muhammadiya"ga ko'ra, Alloh barcha olamlarni yaratishdan oldin Muhammad nurini yaratgan bo'lib, shu nur tufayli olamni va odamni yaratgan. Demak, Odam Ato ham Muhammad nuridan bino qilingan. Shuning uchun hazrati Muhammad (s.a.v.) Odam Atoga ham ota, ham o'g'ildir:

Bo'ldi sanga Odami sabqatnamo,

Avval o'g'ul, so'ngra gar o'lsa ato.

Keyingi na'tlarda payg'ambarning bolaligi, payg'ambarlik davridagi faoliyati, noyob insoniy xususiyatlari, me'roj tuni ta'riflari keltiriladi.

Dostonning 12-bobi ulug' salaflar – Nizomiy Ganjaviy va Amir Xusrav Dehlaviy madhiga bag'ishlangan. Dastlab Nizomiyga ta'rif berilar ekan, uning ismidagi harflar abjad hisobiga ko'ra 1001 soniga teng kelishi jihatidan Xudoning 1001 ismiga hamohang ekanligi aytiladi. Ishtiyoq (o'zakdosh so'zlarni keltirish) va iyhom (baytni ikki xil ma'noni qo'llash) san'atlari vositasida u yaratgan xazina ("Xamsa")ga ta'rif beriladi:

Ganja vatan, ko'ngli aning ganjxez,
Xotiri ganjuru tili ganjrez.

Xusrav Dehlaviy madhi keltirilganda esa uning ismidagi "xusrav" so'zining podsho ma'nosini bildirishi Dehlaviyning so'z podshosi sifatida Hind mulkini obod qilganligi, uning har bir dostoni Hindistonning bir o'lkasiga teng ekanligi bilan izohlanadi:

Nazmi savodi aro har doston,
O'ylaki, bir kishvari Hinduston.

13-bob Nuriddin Abdurahmon Jomiy madhini o'z ichiga oladi. Navoiy Nizomiy va Dehlaviyni bir bobda ta'riflagani holda, ustoz va do'sti Abdurahmon Jomiyga alohida bob bag'ishlaydi. Uni o'sha davrning "qutbi tariqati" deb atar ekan, o'zining unga nisbatan ojiz va muhtojligini g'oyat kamtarlik bilan bayon qilsa, Jomiyning yangi yozgan biror asarini o'zidan oldin hech kim ko'rmasligini faxr bilan keltirib o'tadi:

Nomag'akim roqim etib xomasin,
Ko'rmasi men ko'rmasin el nomasin.

"Hayrat ul-abror" dostonining yozilishiga aynan Jomiyning "Tuhfat ul-ahror" dostoni turtki bo'lganligi aytiladi:

Boshtin-ayoq gavhari shahvor edi,
Qaysi guhar, "Tuhfat ul-ahror" edi...
Chun o'qimoq zamzamasi bo'ldi bas,
Ko'nglum aro dag'dag'a soldi havas.
Kim bu yo'l ichraki alar soldi gom,
Bir necha gom o'lsa manga ham xirom.

Dostonning 14-15-boblari so'z ta'rifiga bag'ishlangan. Shoir ushbu boblarda so'zni tavsif etar ekan, nazmning qimmatini, so'zdagi ma'no, uning

shaklga muvofiqligi, shakl va mazmun masalasi, umuman, ijod haqidagi masalalarga e'tibor qaratadi. Navoiy so'zning buyukligini "kun" (yaral) so'zining olam va odamni yaratishda vosita bo'lganligi bilan dalillaydi:

Dahr muqayyad bila ozodasi,
Borcha erur "kof" ila "nun" zodasi.
Zodasidin zoda bo'lub beadam,
Zodaga ham valid o'lub, ham valad.

Alisher Navoiy bu o'rinda so'zning mahsuli bo'lgan adabiy turlar haqida ham to'xtalar ekan, nazm va nasrga alohida ta'rif beradi, nazmni nasrdan ustun qo'yib, gulshanda gullarning saf tortib turishini nazmga, sochilib, to'kilib yerda yotishini nasrga o'xshatadi. Shoirning e'tiroficha, nazm bu qadar e'zozlanmasa, Tangri so'zida she'r bo'lmas edi:

Bo'lmasa e'joz maqomida nazm,
Bo'lmas edi Tengri kalomida nazm

Shuningdek, Navoiy ushbu bobda turkiy tilda she'r aytishga kuchli ishtiyoq sezishini va bu yo'lda ancha yuqori darajaga erishganini faxr bilan bayon qiladi.

Dostonning 16-bobi zamona sultoni Husayn Boyqaro madhini o'z ichiga oladi. Alisher Navoiy bu bobda talmeh san'ati vositasida Husayn Boyqaroni kuch-qudratda Firdavsiy qahramoni Rustamga, adolat va fazl-u kamolda Eronning afsonaviy podshosi Jamshidga o'xshatadi.

17-bob "Ko'ngul ta'rifida" deb nomlanadi. Bu bobda Navoiy qudratli dehqon (Xudo) ilk tongda insonni yaratgandan keyin unga ko'ngul ato etganini bayon qilar ekan, ko'ngulni yurak bilan adashtirmaslikka chaqiradi. Shoirning fikricha, yurak savdogarda ham bor, lekin uning butun fikri-yodi savdoda. Yaratganning yodi bilan yashaydigan insondagina haqiqiy ko'ngul bo'ladi va ugina "ahli dil" sanalishi mumkin. Shuningdek, Navoiy ko'ngulni olami kubro, Ka'badan-da ulug' joy deb ataydi.

Muqaddimaning qolgan uch bobi (18-20-boblar) hayrat ta'rifiga bag'ishlangan. Bu boblarda Xoja, ya'ni ko'ngulning avval mulk (narsalar) olamiga, keyin malakut (farishtalar) olamiga va nihoyat so'ngida "ajoyib bir shahar" (inson tanasi)ga sayohati bayoni keltiriladi hamda bu sayohat ko'ngulning o'zligini tanib, inson tanasiga kirgani tasviri bilan yakunlanadi.

Alisher Navoiy bu o‘rinda “o‘zligini bilgan Xudoni ham biladi” g‘oyasini ilgari suradi:

Nafsg‘a chun orif o‘lub mo‘bamo‘
Foyiz o‘lub “qad arafa rabbahu”.

Ko‘ngil hayratlari yaratilgan olamlarning mukammalligi, uning inson tomonidan idrok etilishi va inson qadri kabi masalalarga tutashadiki, bular keyingi 21-bobda Xoja Bahouddin Naqshband hamda Xoja Ubaydulloh Ahror madhlarida davom etadi.

Alisher Navoiyning muqaddimadagi so‘nggi bobni aynan shu shayxlarga bag‘ishlashi shoirning naqshbandiya suluki vakili ekanligiga ishora edi. Bob o‘z ichida ikki qismga ajratiladi, birinchi qism 15 baytdan iborat bo‘lib, uning deyarli har bir baytida naqsh so‘zining turli holat va shakllarda ishtiqoq (o‘zakdosh so‘zlarni keltirish) va tanosub (ma‘no va mohiyat jihatidan bir-biriga yaqin so‘zlarni keltirish) san‘atlari vositasida qo‘llanilganligini ko‘ramiz. Navoiy Bahouddin Naqshbandni yuksak martabali naqqoshga, uning ta‘limotini muhtasham va dilkash naqshga o‘xshatadi:

Xojaki naqqoshi sipehri baland,
Bo‘lg‘ali har safhasig‘a naqshband.
Ayladi avroq munaqqash base,
Naqsh raqam ayladi dilkash base.

Bobning ikkinchi qismi naqshbandiya tariqatining o‘sha davrdagi mashhur pirlaridan biri Xoja Ubaydulloh Ahror madhiga bag‘ishlangan. Navoiy uni murshidi ofoq (yo‘lboshlovchi pir) deb ulug‘lar ekan, shohlar unga qulluq qilishga o‘zlari keladilar, hatto haqiqat sirlaridan ogohlar ham uning huzurida hushlaridan judo bo‘ladilar deb yozadi:

Yuz qo‘yubon qullug‘ig‘a shohlar.
Bazmida bexud o‘lub ogohlar.

Alisher Navoiy bobni ulug‘ shayx faoliyatiga yuksaklik tilash va uning himmatidan bahramandlik umidi bilan yakunlaydi va bu umid bevosita muqaddimaga ham yakun yasaydi:

Qo‘ymasun ayvoni jahonni tihi,
Dabdabai ko‘si Ubaydullahi.
Himmatidin bizni ham etsun Xudoy,

Faqr yo'lida g'ani, imong'a boy.

Dostonning 22-bobidan asosiy qism boshlanadi. Asosiy qism maqolat va hikoyatlardan tashkil topgan 40 bobni o'z ichiga oladi. Maqolatlar muayyan bir axloqiy-falsafiy mavzuga bag'ishlangan bo'lib, shoir dastlab ushbu mavzuga munosabat bildiradi, mavzu yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini bayon qiladi, so'ngra shu mavzuga mos ibratli hikoya keltiradi. Shu tariqa asosiy qism 20 maqolat va unga ilova tarzida keltirilgan hikoyatlar bayoni tarzida davom etadi.

Eng avvalgi maqolat iymon sharhiga bag'ishlanadi. Bu bejiz emas, zero, dostonning bosh g'oyasi komil inson timsolini vasf etishdir, komillikning bosh belgisi esa iymondir:

Kimki jahon ahlida inson erur.

Bilki, nishoni anga iymon erur.

Alisher Navoiy: "Kimdaki iymonning uch belgisi bo'lsa, u haqiqiy insondir", – deydi va bu belgilar sifatida sabr, shukr va hayoni ko'rsatib o'tadi:

Bas ani inson atagil beriyo,

Kim ishidur sabr ila shukr-u hayo.

Komil inson ta'rifidan keyin iymon sharhiga to'xtab o'tiladi. Hazrat Navoiy iymonning 6 sharti sifatida quyidagilarni keltiradi:

- 1) Haqning borligiga iymon keltirish;
- 2) farishtalarga iymon;
- 3) Allohning so'zlari bo'lgan muqaddas kitoblarga iymon;
- 4) payg'ambarlarga iymon;
- 5) qiyomat kuniga iymon;
- 6) taqdiri azalga iymon.

Ushbu fikrlardan so'ng Shayx Boyazid Bistomiy va uning muridi haqidagi hikoyat keltiriladi. Hikoyatda bir kuni Shayx Boyazid Bistomiydan g'amginlik sababini so'ragan muridiga shayx bu dunyoda haqiqiy insonlar kamayib ketganligidan xafaman, deb javob beradi. Shunda muridi shayxni haqiqiy insonlar safida deb hisoblashini aytganida, shayx o'zini ham yuz ming sarson-sargardonlar qatorida sanashini, agar bu dunyodan iymon bilan ketmas ekan, inson sanalmasligini aytadi. Hikoyatda diniy mazmundan tashqari tasavvufiy qarashlar ham mavjud bo'lib, bunda tariqatdagi xavf

maqomi haqida soʻz boradi, deb aytish mumkin. N.Komilovning “Tasavvuf” kitobida yozilishicha, xavf tariqatning 6-maqomi boʻlib, bunda solikning nafs makridan qoʻrqishi, shayton nayrangining koʻngilga xavf solishi nazarda tutiladi. Nafs shunday kuchli dushmanki, solik tariqatdagi tavba, varaʼ, zuhd, faqr, sabr kabi maqomlarni egallagan boʻlishiga qaramay, nafsning iymonga daxl qilishi mumkinligidan doim xavfda boʻladi.

Alisher Navoiy keyingi maqolatlarda ham birinchi maqolatda keltirilgan bosh mavzu – komil insonga xos sifatlar bayonini davom ettiradi. Xususan, 5-maqolat karam va saxovat, 6-maqolat adab, 7-maqolat qanoat, 8-maqolat vafo, 10-maqolat rostgoʻylik taʼrifidadir. Bu maqolatlar orasida 7-maqolat badiiy timsollarga boyligi bilan alohida ajralib turadi. Navoiyning fikricha, kimki qanoatni oʻziga kasb qilgan boʻlsa, u eng boy insondir. Oltin, kumush va zeb-u ziynatlarni boylik deb bilmaslik kerak, balki haqiqiy boylik qanoat xazinasidir:

Kimgaki ish boʻldi qanoat fani,
Bilki, ani qildi qanoat gʻani.
Ganji tajammulni gʻino bilmagil,
Balki gʻino ganji qanoatni bil.

Mazkur maqolatda qanoat tushunchasi chiroyli tashbehlar va tamsillar vositasida ifodalab berilganligini koʻramiz. Masalan, osmon qanchalik katta boʻlmasin, u bitta kulcha, yaʼni quyosh bilan kun kechiradi, Koʻz doim shuning uchun ravshanki, u mehrob ostida turib ikkita bodom bilan oziqlanadi. Shunday ekan, insonlar qanoat bobida osmon va koʻz singari boʻlishlari kerak. Maqolatda kitobat (harf) sanʼatining ham yetakchilik qilishini kuzatish mumkin:

Qushlar aro shohki, anqo durur,
Nuktaye bu amrda paydo durur.
Bordur agar fikr ila topsang vuquf,
Qoniʼyu anqogʻa muvofiq huruf.

Qushlarning ichida anqo shoh hisoblanadi. Bunda maʼlum bir maʼno bor. Agar fikr bilan voqif bulishni istasang, “qoni” va “anqo” soʻzlarining yozilishida harflar bir-biriga muvofiqdir. Yoki:

Shoh boshining sharafi toj emas,
Angla ani shohki, muhtoj emas.

Shoh agar ul bo‘lsaki, muhtojdur.

Harf ila muhtojda ham tojdur.

Shoh boshining sharofati tojdan emas, kimki muhtoj bo‘lmasa, o‘shani shoh deb tushun. Muhtojni ham shoh deb atash mumkin bo‘lsa, harf nuqtayi nazaridan “muhtoj” so‘zida ham “toj” bor-ku!

Maqolatga “Qanoatli va qanoatsiz ikki do‘st” haqidagi hikoyat ilova tarzida keltirilgan. Hikoyatda keltirilishicha, ikki do‘st Fors mulkidan Chin mamlakati tomon yo‘lga tushadilar. Biri taqdir berganiga qanoatli inson bo‘lib, ikkinchisi ochko‘z, tamagir edi. Yo‘lda ketayotib bir toshga ko‘zlari tushadi. Uning yarmi yer ostida bo‘lib, yarmi yer yuzasiga chiqib turardi. Tosh ustida: “Kimki mehnat qilib toshni aylantirib qo‘ysa, ostidagi afsonada vayrona tagida berkitib qo‘yilgan xazina haqida yozib qo‘yilgan. Kimki bu mashaqqat, azob-uqubatlarni xohlamasa, uning uchun sabr-u qanoat hammasidan yaxshiroqdir”, degan yozuv bitilgan edi. Ochko‘z yigit yozuvni o‘qigach, xazina ilinjida tosh ostini qazishga tushib ketadi. Qanoatli odam esa beparvo tarzda shahar tomon yo‘l oladi. Shaharga kiradigan bir necha darvoza bo‘lib, u birinchi bo‘lib kiradi. Shahar aholisining odatiga ko‘ra, mamlakat podshosi qazo qilsa, darvozadan birinchi kirgan odamni podshoh qilib ko‘tarar ekanlar. Shu tariqa bu do‘st o‘z qanoati tufayli mamlakatga podshoh bo‘ladi. Uning tosh ostini qaziyotgan do‘sti esa og‘ir mehnatni bajarib bo‘lgach toshni ag‘darib qarasa, “Xom tama’ bu dunyoda alam chekadi” deb yozib qo‘yilgan ekan. Xulosa shuki, qanoatli inson o‘z sabr-u qanoati tufayli shoh martabasiga erishadi, qanoatsiz inson esa tama’ ilinjida xor-u zor bo‘ladi.

“Hayrat ul-abror” dostonida xotima ham o‘ziga xos o‘ringa ega. Dostonning 62-63-boblari hazrat Navoiyning xulosa va yakuniy fikrlarini o‘z ichiga oladi. 62-bobda Navoiy dostonni yaratish orzusidan boshlab uni tugatgunicha bo‘lgan jarayon haqida yozar ekan, dostonni yozish xayoli unga tinchlik bermagani, el-u yurt xizmati, xalq arz-dodini tinglash uni asosiy maqsaddan chalg‘itsa-da, Xudoning o‘zi unga marhamat ko‘rsatib, nihoyat, bu ulug‘ muddaoni poyoniga yetkazganini betakror tashbehlar vositasida bayon qilib beradi. Bob so‘ngida Navoiy g‘oyat nazokat va kamtarlik bilan agar yozganlari elga manzur bo‘lmasa, uni afv etishlarini surab Allohga iltijo qiladi:

Jilva ber el ko‘ziga ham xo‘b ani.
Qilg‘il ulus ko‘ngliga marg‘ub ani.
Har nechakim, jurmum erur pech-pech,
Lekin erur rahmating olinda hech.

63-bobda oyog‘i toyib ketib, kosadagi oshni shohning boshiga to‘kib yuborgan va olijanob shohning xijolatdan o‘lar holatga yetgan qulni afv etgani haqidagi hikoyat beriladi. Hikoyat bevosita 62-bobga hamohang tarzda, unga ilovadek keltiriladi. Navoiy Allohni olijanob shohga, o‘zini oyog‘i toyib ketgan qulga o‘xshatar ekan, shunday yozadi:

Har necha ko‘p bo‘lsa gunohim mening,
Shukrki, bor sendek ilohim mening.
Xijlat ila qolmadi xud jom manga,
Yeri durur aylasang ehson manga.

“Hayrat ul-abror” dostonida kun tartibiga qo‘yilgan masalalar bevosita “Xamsa”ning keyingi dostonlarida ham davom etadi, xususan, komil insonga xos adab, qanoat, karam va saxovat, futuvvat, rostlik, vafo kabi xislatlar bilan bog‘liq masalalar “Farhod va Shirin” dostoni, “Sab‘ai sayyor” tarkibidagi hikoyatlar, “Saddi Iskandariy” dostonlarida yangicha talqin topganligini ko‘ramiz. Doston aruz tizimining sari’ bahri – sari’i musaddasi matviyi makshuf (ruknleri va taqti’i: muftailun muftailun foilun – VV – / – VV – / – V –) vaznida yozilgan. Bu vazn pand-u nasihat mazmunidagi fikrlarni bayon etishga nihoyatda qulay bo‘lgani sababli doston uchun asosiy she’riy o‘lchov vazifasini o‘tagan.

“Farhod va Shirin” dostoni. Alisher Navoiy “Xamsa”sidagi ikkinchi doston “Farhod va Shirin” deb atalib, 1484-yilda yozib tugallangan. Navoiygacha bu mavzu “Xusrav va Shirin” shaklida mashhur edi. Afsonaning bosh qahramoni Xusrav Parvez aslida tarixiy shaxs bo‘lib, milodiy 590-yilda taxtga chiqib, 628-yilda o‘z o‘g‘li Sheruanning buyrug‘i bilan o‘ldirilgan Eron shohidir. Uning oromiy yoki arman qizi Shiringa bo‘lgan muhabbati ko‘pgina tarixiy asarlarda qayd etilgan. Xususan, Alisher Navoiyning o‘zi ham “Tarixi muluki Ajam” asarining sosoniylar tarixiga bag‘ishlangan qismida Xusrav Parvez haqida ma’lumot beradi. Badiiy adabiyotda Xusrav va Shirin muhabbati haqida birinchi bo‘lib Firdavsiy o‘zining “Shohnoma” dostonida yozib qoldiradi, Nizomiy esa uni alohida

ishqiy-sarguzasht doston holiga keltiradi. Nizomiyning “Xusrav va Shirin” dostoni 1340-yilda Qutb Xorazmiy tomonidan turkiy tilga tarjima qilingan. Alisher Navoiy bu mavzudagi dostoni uchun avvalgi dostonlarda ikkinchi darajali timsol tarzida talqin qilingan Farhodni bosh qahramon qilib oladi. Aslida Farhodning bosh qahramon qilib olinishi adabiyotda ilk bor XIV asrda Ozarbayjonda yashab faoliyat yuritgan Orif Ardabiliyning “Farhod-noma” (1369) nomli fors-tojik tilida yozilgan dostoni bilan boshlanadi. Lekin unda tasvirlangan voqealar Navoiy dostonidan butunlay farq qiladi. Navoiy “Farhod va Shirin” dostonida bu mavzuda qalam tebratgan ijodkorlar sifatida Nizomiy, Dehlaviy, Ashraf Marogʻiylarni eslab oʻtar ekan, yana bir nomaʼlum ijodkorga ham ishora qiladi:

Yana boʻlgon ekan bu noma marqum,
Vale roqim emastur yaxshi maʼlum.

Adabiyotshunoslikda ushbu nomaʼlum ijodkor aynan Orif Ardabiliy boʻlishi mumkin degan fikr mavjud. Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni 54 bob, 5782 baytdan iborat. Shundan muqaddima 11 bobni oʻz ichiga oladi. Doston anʼanaviy hamd – Allohning maqtovi bilan boshlanadi. Dostonda ikkita hamd mavjud. Birinchi hamdda Alisher Navoiy yaratuvchining qudratini taʼriflab, uning irodasi bilan qalamga olmoqchi boʻlgan gʻoyaviy niyati haqida soʻz yuritir ekan, birinchi misrani arabcha kalima bilan boshlaydi:

Bihamdik fath abvob ul maoniy,
Nasib et koʻngluma fath oʻlmak oni.

(Mazmuni: maʼnolar eshiklarining ochilishi sening mahtoving bilan va koʻnglumga ularni zabt etishni nasib qil).

Keyingi baytlarda Navoiy maʼnolar xazinasini qulfiga qoʻlining kalit boʻlishini, shu vosita bilan barcha umidlariga yetishishni tilaydi, ana shu maʼnolar xazinasidan olam ahlini bahramand etishni umid qiladi.

Ikkinchi hamdda shoir yozishga kirishayotgani “Farhod va Shirin” dostonining umumiy talqini, undagi qahramonlarning muxtasar tavsifini beradi, “dard bogʻi” deb taʼriflangan ishq bilan aloqador barcha hayajon va iztiroblar haqida yozadi. Shoir Xoliq maqtoviga kirishar ekan, eng avvalo, u inson koʻnglini ishq gulshani, bu gulshanda esa ishqni xazinaga aylantirganligini madh etadi:

Ki inson ko‘nglin etti gulshani ishq,
Bu gulshanning harimin maxzani ishq.

“Farhod va Shirin” dostoni majoz va haqiqatni, ramziylik va hayotiylikni san’atkorlik bilan qo‘shib olib boradigan doston ekanligi shu ilk boblardan namoyon bo‘la boshlaydi. A.Rustamovning “Navoiyning badiiy mahorati” kitobida yozilishicha, Navoiy qazoni Farhodga, osmonni Farhodga aloqador Besutun tog‘iga, aqlni Chin xoqonining vaziri Mulkoroga va donishmand Suqrotga, tunni Xusrav Parvezning oti Shabdezga, qadarni Farhodning do‘sti Shopurga, ajalni otasini o‘ldirgan Parvezning o‘g‘li Sheruyaga, zamonni Parvezning sozandasi Nigisoga o‘xshatgan holda “shirin”, “tilism” so‘zlarini, Besutun, Xusrav va uning ashulachisi Borbad nomlarini tilga olib, muqaddimani dostonning mundarijasiga uyg‘unlashtirgan. Shu bilan birga, bu o‘xshatishlar zamirida shoir doston Mundarijasida qahramon va timsollar faoliyati qaysi ko‘lamda kechishi, ular dos-tonda qanday rol o‘ynashi bilan ham kitobxonni tanishtiradi.

Munojot (3-bob)da Alisher Navoiy insonning yo‘qlikdagi holati, dunyoga kelishi, go‘dakligi, hayoti to‘g‘risida bayon qiladi. “Lavhi mahfuz” (kishilarning yaxshi va yomon amallari, taqdiri azaldan bitib qo‘yilgan taxta) haqida fikr yuritar ekan, inson azaliy qismat ijrochisi ekan, bunga uni gunohkor qilishni qanday izohlash mumkin degan fikrlarni aytadi:

Va gar ul lavh uza bo‘lsa muharrar,
Azal taqsimidin bo‘ldi muqarrar.
Ne dersen bas bu jam‘i benavog‘a.
Gunohe qilmayin qolg‘on balog‘a?

Keyingi baytlardayoq Navoiy bu fikrlarni behuda da‘vo deb hisoblab ruju’ san’ati vositasida bu da‘voni inkor qiladi va Allohdan unga marhamat qilishini suraydi:

Junundin so‘zga bir dam bo‘lmay ogoh,
Gar ortuq so‘z dedim, astag‘firulloh.
Ilohiy, boqmag‘il majnunlug‘umg‘a,
Karamdin chora qil mahzunlug‘umg‘a.

Dostonning to‘rtinchi bobi Muhammad payg‘ambar (s.a.v.) madhiga bag‘ishlangan. Bob payg‘ambarning muborak chehrasi tavsifi bilan boshlanib, uning o‘qish va yozish bilan shug‘ullanmaganligi ajoyib badiiy

san'atlar vositasida bayon qilib beriladi. Xususan, qalam payg'ambar unga mayl ko'rsatmaganidan, ya'ni uni qo'lida tutmaganligidan keyin yoqasini chok qilib, ko'z yoshlarini to'kib, afg'on qilganligi, uning qo'lini o'payin deb qancha og'zini ochmasin, uning orzusi amalga oshmaganligi husni ta'lil san'ati asosida keltirilganligini ko'ramiz:

Necha choki giribon qildi xoma,
To'kub ashkini afg'on kildi xoma.
Ochib og'zin qilay deb dastbo'si,
Muyassar bo'lmayin bu orzusi.

Bobda "insonlar payg'ambar belgilab bergan shariat qoidolari asosida yashasalargina haqiqiy saodatga erishadilar" degan g'oya ilgari suriladi.

5-bob me'roj tuni ta'rifiga bag'ishlangan bo'lib, payg'ambarning Buroq oti yordamida Alloh huzuriga yo'l olishi tasviri beriladi. Bunda payg'ambarning 12 burj va 7 sayyoralarni oshib o'tib, Lomakonga ko'tarilganligi, "qoba qavsayn" (ikki yoy oralig'i) darajasida Allohga yaqinlashgani va foniy bo'lganligi haqidagi fikrlar bayon qilinadi:

Anga bu surma bo'lg'och qurratul ayn,
Nasib o'ldi maqomi "qoba qavsayn".
O'zin gum aylabon, lekin topib haq,
Ko'rinmay kimsa haqdin ayr-u mutlaq.

Dostonning 6-bobi qalam ta'rifi hamda ulug' salaflar – Nizomiy va Dehlaviy madhini o'z ichiga oladi. Navoiy dastlab qalamga ta'rif berar ekan, uni Xusrav Parvezning tez uchar qora oti – Shabdezga, qalamni tutuvchi barmoqlarni shu ot ustidagi chavandozga, barmoq bo'g'inlarini chavandozning belbog'iga, tirnoqlarni esa uning yuziga o'xshatadi:

Qalamkim, rahnavardi teztakdur.
Azaldin manzili favqul falakdur.
Magar vahm adhamidur tez raftor,
Ne adham, jardai Shabdez raftor.
Chiqib ustiga barmoq shahsuvori,
Bo'g'un belbog'i-yu tirnoq uzori.

Hazrat Navoiy Nizomiyni xazinadorga, uning ma'nolarga to'la asarlarini xazinalarga o'xshatib ta'riflaydi. Xusrav Dehlaviyni u yashagan Hindiston bilan bog'liq holda hindu, to'ti, bulbul, qaqnus, mushk hidli

bulutga o‘xshatadi. “Xamsa” yozish an’anasini kurash maydoniga o‘xshatib, o‘zining bugungi kunda nihoyatda mashhur baytlarini yozadi:

Emas oson bu maydon ichra turmoq,
Nizomiy panjasiga panja urmoq.
Tutaykim qildi o‘z changini ranja,
Nekim urdi aning changiga panja.
Kerak sher ollida ham sheri jangi,
Agar sher o‘lmasa, bori palangi.

Aynan shu bobdan boshlab 2-3 baytli soqiynomalar berib boriladi. Ko‘pincha bu soqiynomalarda shoir keyingi bobda qalamga olinadigan voqea yoki masalalarga ishora qiladi:

Kel, ey soqiyki, tushmish jonima jo‘sh,
Ketur bu ikki yodi birla bir qo‘sh.
Alar ishqida no‘sh aylab iki jom,
Tutay Jomiy mayi madhin saranjom.

7-bob “hazrati shayx ul-islomiy mavlono Nuriddin Abdurahmon Jomiy” madhidadir. Alisher Navoiy Nizomiy va Dehlaviyni ikkita filga o‘xshatgani holda, Jomiyning yuz filga o‘xshatadi. So‘z o‘yini vositasida uni XI-XII asrlarda yashagan mashhur so‘fiy Zindapili Jomiyga qiyoslaydi, “fano timsoli”, “jahoni begaron” (cheksiz jahon), “olami kubro” (ulug‘ olam) deb ataydi. Bob Jomiy qo‘lidan bir jom ichish umidi bilan yakunlanadi:

Keturgil, soqiy, ul jomi kiromiy
Ki, tutsun rindlar sarxayli Jomiy.
Chu piri dayr may qildi havola,
Icharmen gar erur gardun piyola.

Navbatdagi bob dostonning yozilish sababi haqida. Bu bobda shoir dostonni yaratish orzusi paydo bo‘lgach, bepoyon durru gavharlar dengiziga cho‘mganini, ya’ni ko‘p mutolaa qilganini, tinmay o‘ylaganini aytadi. Dostonni yozishga undagan sabablardan biri o‘zining muhabbati, bu ishqning alam va iztiroblari ekanini aytib, u tufayli o‘ziga yetishgan azob-u uqubatlarni bayon qiladi. Shunda unga g‘oyibdan nido kelib, hotif (g‘oyibdan oq fotiha beruvchi) uni yangi bir asarni yozishga ilhomlan-

tirganini, keyin Jomiyning oldiga borganida u ham shoirni duo qilib, bu ishda unga oq yo‘l tilaganini yozadi.

9-bob asar rejasini tuzib olgani, turli afsonalar, tarixiy manbalarni ko‘rib chiqqani, shu mavzuda yozilgan dostonlarda yo‘l qo‘yilgan xatolarni tuzatib, o‘z g‘oyalarini qay tarzda ifoda etmoqni niyat qilgani bayonidadir. Bunda Navoiy yozilajak asari yangi bo‘lishi lozimligini, avval shu mavzuda yaratilgan dostonlarni takrorlamaslik kerakligini ta’kidlaydi:

Ani nazm etki, tarhing toza bo‘lgay,
Ulusqa mayli beandoza bo‘lg‘ay.
Yo‘q ersa nazm qilg‘onni xaloyiq,
Mukarrar aylamak sendin ne loyiq.
Xush ermas el so‘ngincha raxsh surmak,
Yo‘likim, el yugurmishtur yugurmak.

Dostonning 10-bobi sulton Husayn Boyqaro ta’rifiga bag‘ishlangan. Navoiy uni sultonlar ichida Shoh G‘oziy, g‘azot maydonida Ali ibn Abu Tolib, shariat rivojida payg‘ambar singaridir deb ulug‘laydi va uni adolatli, saxovatli hukmdor sifatida madh qiladi.

11-bob shahzoda Badiuzzamon Bahodir madhiga bag‘ishlangan. Navoiy uni “Badi ud-dahr-u Doroi zamon” deb atab, uning ismini kitobot (harf (hurufi dalolat)) san’ati asosida sharhlab o‘tadi. Shahzodaning ismi 10 harfdan iborat bo‘lib, Navoiy uning har bir harfiga alohida ma’no yuklaydi:

“be” – ehsonda birlik, yagonalikning dalilidir, “dol” – davlatdan nishona bo‘lib, din-u diyonat undan iqbol topadi. “yo” – harfi yumn (baxt, omad)dan darak berib, uning qadami bilan zamona tinchiydi. To‘rtinchi harf “ayn” bo‘lib, adolatdan olingandir. “alif” harfi o‘z shakli bilan uning to‘g‘riligi, rostgo‘yligini bildiradi. “lom” harfi lutfdan voqif etib, latofat gulshanidan bahramand etadi. “ze” harfi abjad hisobiga ko‘ra 7 raqamini anglatadi, bu Alloh unga 7 iqlimni nasib aylashiga ishoradir. “mim” harfi millat kiromi, musulmonlik nizomi undan ekanini anglatadi. “alif” harfi Alloh uning yori ekaniga dalolat bo‘lsa, so‘nggi harf “nun” nasr (madad) Alloh dandir degan ma’noni bildiradi.

Navoiy yuqorida dostonni yaratishdan maqsad “ishq, ya’ni ilohiy ishq dardini kuylash” ekanini aytib o‘tgan edi:

Bu rangin sahfa bilkim, dard bog‘i,

Ayon har lolasida ishq dog‘i.

Bundan anglashiladiki, dostonidan bosh maqsad ilohiy ishq dardiga muhtalo bo‘lgan solik (tariqat yo‘liga kirgan oshiq)ning sarguzashtlarini tasvirlashdir. Dostonning asosiy qismi 12-bobdan boshlanadi. Voqealar Chin xoqonining farzandsizligi va uning iztiroblari tasviri bilan ibtido topadi. Nihoyat, uning iltijolari qabul bo‘lib, Tangri unga bir o‘g‘il in‘om etadi. Navoiy go‘dakning tug‘ilishidan tortib ulg‘ayishigacha bo‘lgan har bir jarayonni alohida tasvirlaydi, hatto go‘dakka qo‘yilgan ismga ham alohida ma‘no yuklaydi:

Anga farzona Farhod ism qo‘ydi,
Hurufi ma‘xazin besh qism qo‘ydi.
Firoqu rashku hajru oh ila dard.
Biror harf ibtidodin aylabon fard.

Farhod bolaligidan favqulodda xislatlari bilan atrofdagilarni hayratga soladi. O‘n yasharligida:

Jahonda qolmadi ul yetmagan ilm.
Bilib tahqiqini kasb etmagan ilm.

Asarda Farhod ham cheksiz jismoniy qudrat, benazir iste‘dod egasi, ham yuksak fazilatlar sohibi sifatida tasvirlanadi. Farhod yoshi ulg‘aygani sari hazin va xastadil bo‘lib boradi. Xoqon Farhodning ko‘nglini ochish, hazin kayfiyatini ko‘tarish uchun yilning to‘rt fasliga moslab to‘rt qasr qurdiradi. Shu asnoda Farhod Qorandan tosh yo‘nish, Boniydan me‘morlik, Moniydan naqqoshlik sirlarini o‘rganadi. Lekin u egallagan bilimlar, o‘rgangan hunarlar zohiriy (dunyoviy) bilimlar bo‘lib, ilohiy siru asrorni ochishga kifoya qilmaydi. Endi u piri komil ta‘limini olishi kerak edi. Farhoddagi hazinlikning tarqamaganini ko‘rgan xoqon unga taxtni taklif qiladi va shu bilan go‘yoki o‘g‘lining dardiga davo topmoqchi bo‘ladi. Aslida, Farhoddagi bu holat zaminiy, dunyoviy bo‘lmay, ilohiy ishqning nishonasi edi. Shu o‘rinda Navoiy ilohiy ishq dardida yongan inson bilan bunday saodatdan mahrum foni dunyo kishilari orasidagi farqni ko‘rsatib beradi. Farhod otasining taxtni egallash haqidagi taklifini saltanat ishlarini o‘rganish, tajriba orttirishga ijozat so‘rash bahonasida ortga suradi va xoqon xazinasidagi behisob boyliklar bilan tanisha boshlaydi. Natijada yashirin parda ortidagi xonada saqlanayotgan sirli sandiq va undagi tilsimli ko‘zguni

ko‘rib qoladi. Farhod ushbu ko‘zguning sehrini ocholmay, Yunoniston safariga, Suqrot huzuriga o‘tlanadi. Suqrotning huzuriga borish yo‘lini unga Suhaylo ismli hakim (donishmand) o‘rgatadi. N.Komilovning “Tasavvuf” nomli kitobida yozilishicha, Suhaylo Farhodning tariqat yo‘lidagi birinchi piri. U Farhod yengib o‘tishi kerak bo‘lgan to‘siqlar: ajdarho va devdan xabar beradi. Tasavvufda ajdarho – nafs timsoli, dev – saltanat timsoli hisoblanadi. Suhaylo Farhodga ajdarhoni yengish uchun samandarning yog‘ini beradi. Samandar – olov ichida yashaydigan jonivor. U ishq ramzi. Farhod badaniga samandar yog‘ini surganda, ajdarhoning o‘ti unga kor qilmaydi, ya’ni ishq otashi nafs o‘tini so‘ndiradi. Shuningdek, Farhodga keyingi manzillarda uchraydigan sher va temir paykarning ham ramziy ma’nosi bor. Sher – g‘azab timsoli, ilohiy ishq yo‘liga kirayotgan solikda esa g‘azab bo‘lmasligi kerak. Temir paykar – ro‘yo, yolg‘on dunyo ramzi. Solik dunyo mo‘jizalariga chalg‘imasligi, ularga ko‘ngil qo‘ymasligi kerak. Farhod temir paykarni ham yengib, nihoyat, Suqrot dargohiga kirib boradi. Aslida, Suqrot timsolining asar tarkibiga kiritilishi tasodifiy bo‘lmay, bosh maqsadni ochib berish yo‘lidagi muhim vositadir. N.Komilovning yozishicha, Suqrot piri komil timsoli bo‘lib, usiz Farhodning o‘z maqsadiga erishishi mumkin emas edi. Navoiy Suqrotni quyosh kabi porloq siymo, jismi pok ruh kabi, shaxsi aqlning haykali deb ta’riflaydi. U kamolot cho‘qqisini egallagan komil inson, o‘zi bir joyda o‘tirsam ham, ruhi butun dunyoni kezib chiqadi. Jamshid jomi, Iskandar ko‘zgusi ham uning ko‘ngil ko‘zgusi oldida xira. U Farhod bilan yakkama-yakka suhbatlashib, uni o‘z farzandidek e’zozlaydi. Chunki bu yigit siymosida u o‘z suluk (yo‘l)ining davomini ko‘rgan edi. U Farhodga shunday deydi:

Muni bilkim, jahon foniydur asru,

Haqiqat ahli zindoniydur asru.

Agar topsa Sikandar mulki zoting,

Gar o‘lsa Nuh umricha hayoting.

Bu baytda Navoiy Suqrot tilidan tasavvufning muhim g‘oyasini bayon etadi. Ya’ni bu dunyo o‘tkinchi, foniydur, shu sababli unga ko‘ngil bog‘lash to‘g‘ri emas.

Haqqa yetishish yo‘li ikki qadam masofadek gap, lekin bu ikki qadamni bosib o‘tish uchun ming yillik mashaqqat sarflanishi kerak. Bu ikki

qadamning biri o‘zlikdan voz kechish, ikkinchisi o‘zlikni topish, ya’ni o‘zlikdan voz kechmay turib chin ilohiy o‘zlikni topish mumkin emas.

Inson o‘zlikdan qutulmas, Ilohga yetolmas ekan, demak, uni tezlalashtiruvchi chora – vosita kerak. Dostonda majoziy ishq tong yorug‘iga, haqiqiy ishq quyoshga o‘xshatiladi:

Bu o‘zlikdin qutulmoq chorasoz,
Nima yo‘q, o‘ylakim ishq majoziy...
Majoziy ishq bo‘ldi subhi anvar.
Haqiqiy ishq anga xurshidi xovar.

Alisher Navoiyning bu o‘rinda majoziy ishq va haqiqiy ishq haqidagi fikrlari Navoiy ijodida ishqni to‘g‘ri talqin qilishga ko‘mak beradi. Shoir majoziy ishqni tong nuriga, haqiqiy ishqni quyoshga o‘xshatish bilan “majoz — haqiqat yo‘lidagi ko‘prik ekanligigiga”, Yaratganga muhabbat u zot yaratgan hilqatlarga muhabbat orqali oydinlashishiga ishora qiladi. Zero, tongning nuri quyosh tarafga nazar tashlashga undaydi. Demak, Farhodning oldida turgan ishq dastlab majoziy ishq sifatida namoyon bo‘ladi. Biroq majoziy ishq uchun “mazhar” kerak. Mazhar — Haq jamoli zuhur etgan insondir. Farhod uchun mazhar — Shirin edi.

Farhod shu tariqa Suqrot huzuriga borar yo‘lda tariqat maqomlarini bosib o‘tadi, piri komil suhbatidan bahramand bo‘lib, ilohiy ishqning mohiyatini anglay boshlaydi. Chin mamlakatiga qaytib borib, ko‘zguda endi nafaqat Shirinni, balki o‘zini va o‘zi kelgusida boshdan kechirishi kerak bo‘lgan voqealarni ko‘ra boshlaydi. Chunki ko‘zgu bu o‘rinda komil inson – Suqrotning qalbidir.

Farhodning keyingi faoliyati bevosita Armaniston bilan bogliq, Ko‘uzguda Shirinni ko‘rgan Farhodning hayoti yana balolarda, sinovlarda o‘taveradi. Avval kemandi halokatga uchrashi, uning yolgiz bir taxta ustida qolib, dengizda oqim bo‘ylab suzishi, eronlik savdogarlar tomonidan qutqarilishi, qaroqchilarga qarshi jang, Arman o‘lkasiga yetib olishi, suv qaziyotgan odamlarning joniga oro bo‘lib kirishi — tog kesib, suv chiqarish mashaqqatlari — bularning barchasi ramziy ma’noda majoziy ishq yo‘lida chekkan ruhoniylar iztiroblari, azob-mashaqqatlar. Bu voqealarni jonli, rangin bo‘yoklarda tasvirlagan shoir Farhodning dard-u iztiroblari, ishq hasratlarini kuchli drammatizm bilan taqdim etadi. Dostonning hakim Suqrot bilan

bogʻlik oʻrinlarida tasavvufiy mazmun-mohiyatning kuchayib ketganligini koʻrish mumkin. Umuman olganda, bu uslub asarning boshidan-oxirigacha kuzatiladi. Shu bois asarni zohiriy va botiniy maʼnolarda tushunish, idrok etish mumkin. Zohiriy mazmunning oʻziga asoslanib idrok etilganda ham dostonning maʼrifiy qimmatini yuqori ekanligini kuzatish mumkin. Masalan, Farhodning koʻhkanligi Nizomiy dostonida asosan Besutun togʻidan Xusrav askarlariga yoʻl ochish orqali koʻrsatilsa, Navoiy dostonida suvdan qiynalgan xalqqa ariq qazishi voqeasi garchi oʻta mubolagʻaviy tarzda berilgan boʻlsa-da, muayyan jihatlari hayotiy asosga ega. Navoiy yashagan davrda Hirotning oʻzida ham suv tanqisligi muammosi mavjud edi. “Vaqfiya” asaridagi ariqlar, hovuzlar qazilganligi haqidagi maʼlumotlar bunga misol. Farhoddek shahzodaning xalqqa bergan koʻmagini badiiy tasvirlagan shoirning ijtimoiy (shahzodalarga pand maʼnosida) maqsadlari bor edi. Xos va avom kitobxonga birdek qiziq boʻlgan bu dostonidan har xil darajadagi kitobxon oʻz imkoniyat va iqtidori darajasida taʼsirlanishi mumkin. Asarning yana bir nomi “Mehnatnoma” ni koʻpchilik Farhodning Armaniyadagi mehnati bilan bogʻlab tushuntirishga intiladi. Bu bir qarashda toʻgʻridek Biroq Navoiyning oʻzi doston boshida “Mexnatnoma” ni qoʻllaganida, Farhod boshidan kechirgan qiyinchiliklar va mashaqqatlarni nazarda tutgan edi.

Dostondagi har bir timsol yuksak mahorat bilan ishlangan boʻlib, Navoiy har bir obrazga, har bir detalga muayyan badiiy ijtimoiy “vazifa” yuklaganligini koʻrish mumkin. Dostonda ilohiy ishqdan bebahra foniy dunyo kishilaridan biri Xusravdir. Muallif bu ikki qahramonning munozarasini tasvirlar ekan, ikki xil ishq – avom ishq va ilohiy ishq oʻrtasidagi tafovutni koʻrsatib beradi. Jami 25 baytdan iborat bu munozarada deyarli har bir baytda muayyan badiiy sanʼatning yetakchilik qilishini kuzatish mumkin. Xususan:

Dedikim: ishq oʻtidin de fasona!

Dedi: kuymay kishi topmas nishona.

Mazkur baytda “oʻt” va “kuymoq” soʻzlari asosida tanosub sanʼati yasalganini koʻrsak, keyingi baytda “a” unlisining takrorlanishi asosida vujudga kelgan assonans badiiy vositasini qoʻllanganining guvohi bulamiz.

Dedikim: kuymagingni ayla maʼlum,

Dedi: andin erur joh ahli mahrum...

Xusrav savol-javobda ham, jismoniy harakatlarda ham Farhodni yenga olmaydi, chunki dunyoviy kuch ilohiy qudratni yengishi mumkin emas edi. Shunda u makkorlik yo‘liga o‘tadi: yosuman kampir vositasida Farhodning o‘limiga erishadi. Navoiy tilidan Farhodning o‘limi munosabati bilan aytilgan:

Vujudin o‘rtab ul so‘zu gudozi,

Haqiqatqa badal bo‘ldi majozi,

degan iqrorini Alloh jamoliga yetishgan ishq ahli haqidagi ma’naviy xulosa deyish mumkin. Quyidagi misralarda shoir fikrini yanada kuchaytirganini, Farhod timsolida ilgari surilgan qarashlarini oydinlashtirganini ko‘rish mumkin:

Baqo shahrida sultonliqqa yetti,

Haqiqat mulkida xonliqqa yetti.

Doston poetikasidagi muhim jihatlaridan biri, undagi dramatism, yuqori darajadagi pafosdir. Alisher Navoiy Farhod obraziga alohida yondashgani uning hissiyotlarini yoritishda yanada ko‘proq seziladi. Shoir Farhodning o‘limi oldidan chekkan iztiroblarini (49-bob) bayon qilish orqali asarning asl mohiyatini ma’lum qilgan, bu nuqtadagi dramatism, fojiaaviylik o‘ziga xos lirizmga uyg‘unlashib ketgan. Aynan shu o‘rinda Farhodning o‘limi yuz beradi. Bobning avvalida Farhod o‘z holini bayon qiladi, ishq yo‘lida chekkan iztiroblarini aytib falak — taqdir bilan suhxbatga kirishadi, so‘ng unga bir qancha vaqtdan buyon hamroh va munis bo‘lib qolgan parranda, hayvonlarga vidosini aytadi, boshidan o‘tgan voqealarni qisqacha so‘zlab beradi, tong shamoliga murojaat qilib, ota-onasiga o‘zi haqida xabar berishini iltimos qiladi. Mazkur monologda Farhod Xusravdan ozor chekkani haqida ham to‘xtaladi. Xusrav o‘z qilmishlari uchun jazosini olishini so‘raydi. O‘z holatini shu tariqa bayon qilgach, ishq uning butun jonu jismini kuydiradi hamda Farhod dunyodan ko‘z yumadi: “Qilib jononi otin tilga ta’lim, Tutub jonon otin, jon etti taslim”. Mazkur o‘rinda Farhodning “jonon otini tutub” jon berishi asar g‘oyasini aniqroq tushunishga yordam beradigan nuqta bo‘lib, bu tasavvufdagi solikning o‘limi Haq zikri ila kechishini bildiradi.

Dostonning 52-bobida qalamga olingan voqealar asar mazmunini yanada kengroq ochib beradigan lavha hisoblanadi. Unda shoir Shirin o'lgan kuni qirq nafar ahli tariqat bir xil tush ko'rganini ma'lum qilgan, Tushlarida jannat namoyon bo'lgan va jannatda osmon qadar ulkan qasrda Farhod va Shirin taxt uzra o'tirgan ekanlar. Ularning atrofida esa ota-onalari va barcha yaqinlari ham bo'lib, bu oshiq va ma'shuqning sharofati tufayli amalga oshgan edi. Jannat farishtasi Farhodning ishq yo'lida dunyo taxti va sultonligidan voz kechgani uchun unga shunday ulkan martaba nasib qilgani haqida xabar qiladi.

Mazkur tushni qirq nafar valiy zot ko'rgach, bo'lib o'tgan voqea butun olamga ma'lum qilinadi. Farhodning boshqa yaqinlari – Shopur va Bahrom Arman o'lkasiga keladilar. Farhod va Shirin o'limida aybdor bo'lganlarni jazolaydilar. Bu ishlarni tugatgach, Farhod va Shirin qabri ustida mujovir bo'lib qoladilar.

Doston xotimasi ikki bob (53-54)dan iborat bo'lib, 53-bob sulton Husayn Boyqaroning o'g'li shahzoda Abulfavoris Shohg'arib mirzo madhi va unga bag'ishlangan bir necha nasihatni o'z ichiga oladi. Navoiy Shohg'arib mirzoga kamolotga erishish yo'llari haqida gapirar ekan, shahzodaga Iskandar Zulqarnayn, Mirzo Ulug'bek kabi hukmdorlarni ibrat qilib ko'rsatadi. Eng muhim ilmlar sifatida fiqh, hadis va tafsirni egallash zarurligini uqtiradi, shuningdek, tibbiyot va hikmat ilmini ham o'rganishni tavsiya etadi:

Shah uldurkim shiori ilmi dindur,
Nedinkim ilmi din ilm ul-yaqindur..
Bu din ilmiki xomam qildi tahrir,
Erur fiqhu hadisu so'ngra tafsir..
Valekin tibbu hikmat ham erur xo'b
Ki, sihhatdur kishi jismida matlub.

Yakuniy bobda Navoiy Farhod timsolini o'z zamonasidagi barcha shahzodalarga ibrat hamda o'rnak qilib ko'rsatadi.

“Farhod va Shirin” ishqiy sarguzasht dostonlar uchun mo'ljallangan hazaji musaddasi mahzuf vazni (ruknlari va taqti'i: mafoiylun mafoiylun fauvlun V – – – / V – – – / V – –)da yozilgan.

“Layli va Majnun” dostoni. Yaqin va O‘rta Sharq xalqlari adabiyotida “Layli va Majnun” mavzusi kabi keng tarqalgan boshqa bir ishq qissasini topish qiyin. Mana o‘n uch asrdirki ushbu mavzuda adabiyot olamida she‘r va dostonlar bitib kelinadi. Ushbu qissaning kelib chiqish manbai qadim arablar hayoti bilan bog‘liq voqealarga borib taqaladi. Ayrim arab manbalarining ma‘lumot berishicha, Majnun Shimoliy Arabistondagi bani omir qabilasiga mansub tarixiy shaxs bo‘lgan. Uning ismi manbalarda Qays ibn Mulavvah, Mahdiy ibn Muod, Al-Aqra va ba‘zan Al-Buhturiy ibn al-Ja‘d tarzida keltiriladi. Majnun o‘z qabilasidan Layli ismli qizni sevib, unga bag‘ishlab ajoyib she‘rlar to‘qigan. Uning she‘rlari qabiladoshlari va boshqa qabila kishilari orasida keng tarqalganligi haqida Ibn Qutaybaning “Kitob ush-she‘r va-sh-shuaro” asarida ma‘lumotlar keltiriladi. Lekin shu bilan birga, ayrim tarixchilar Majnun tarixiy shaxs emas, uning nomi majoziy, mavjud she‘rlar o‘z amakisining qizini sevib qolgan umaviy bir yigitga tegishli, u Majnun taxallusini qo‘llagan deb aytadilar. Nima bo‘lganda ham VII asrning ikkinchi yarmidan boshlab arab she‘riyatida Majnun taxallusi bilan ishq mavzusida yozilgan g‘amgin she‘rlar paydo bo‘lgan.

Badiiy adabiyotda bu qissa doston shaklida ilk bor Nizomiy Ganjaviy tomonidan vujudga keltirildi.

Nizomiy xalq orasida tarqalgan rivoyatlardan ijodiy foydalangan xolda “Layli va Majnun” qissasini g‘oyaviy jihatdan mukammal va badiiy jihatdan yuksak asar darajasiga ko‘tardi. Bani Omir qabilasi boshlig‘ining o‘g‘li Qaysning maktabdoshi Layliga muhabbatini tasvirlash orqali har ikkala kahramonning ruhiy va ma‘naviy dunyosini ochib berishga alohida e‘tibor qaratdi, xalq rivoyatlarida faqat tashqi go‘zalligi bilangina mashhur bo‘lgan Layli timsolini ijtimoiy omillar va badiiy-estetik yuk orqali mukammallashtirdi. Nizomiy dostoni Sharq xalqlari adabiyotida keng shuhrat qozondi va oradan bir asrdan ziyodroq vaqt o‘tgach, Amir Xusrav Dehlaviy unga javob yozdi. Dehlaviy dostoni 1299-yilda yaratilgan bo‘lib, “Majnun va Layli” deb ataladi. Muallif doston kahramonlari nomini almashtirish bilan yangilikka, o‘z salafidan o‘zgachalikka intilganligini ta’kidlaydi hamda ushbu qissaning arab xalqlari orasida dastavval “Majnun va Layli” shaklida ommalashganligiga e‘tibor qaratadi. U Nizomiy dostonining kompozision qurilishini asosan saqlab qolgan holda uning

syujetiga ba'zi o'zgartirishlar kiritadi (munajjimning Majnun taqdiri haqidagi bashorati, Navfalning o'z qizini Majnunga nikohlab berishi va b.) Xusrav Dexhlaviy ushbu dostoni bilan Sharq xalqlari adabiyotida "Layli va Majnun" mavzusidagi dostonga javob yozish an'anasini boshlab berdi. Dehlaviydan keyin forsiy adabiyotda, xususan, Hirot adabiy muhitida Ashraf Marog'iy, Abdurahmon Jomiy, Amir Shayxim Suhayliy, turkiy tilda Gulshahriy, Oshiq Poshsho, Shahidiy, Fuzuliy kabi shoirlar bu dostonga javob yozdilar.

Alisher Navoiyning "Layli va Majnun dostoni turkiy tilda ushbu mavzuda yaratilgan ilk doston bo'lib, Navoiy uni yaratishdan avval arab rivoyatlari bilan bir qatorda Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Ashraf Marog'iy va Shayxim Suhayliy dostonlarini chuqur o'rganadi, U xam-sanavislikda o'zigacha mavjud an'analardan ijodiy foydalangan holda o'z dostoniga yangicha ruh bag'ishlaydi, o'z davrining talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib, "afsonaga yangi libos kiygazadi".

Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostoni 38 bob, 3623 baytdan iborat. Shundan muqaddima 9 bobni o'z ichiga oladi. Doston an'anaviy hamd – Allohning madhi bilan boshlanadi. Unda shoir olamning yaratilishi, tun, kun, oy, quyosh, yulduzlarning, yil fasllari va ulardagi tabiatning o'ziga xos jilolari, insonning tabiat ichida yaratilishi, yo'qdan bor, bordan yo'q bo'lishi – bularning hammasi Allohning beqiyos qudrati va ulug'ligi ifodasi ekanini ta'kidlab, unga hamdu sanolar o'qiydi. Navoiy bobda g'oyat ustalik bilan Allohning yerdagi tajallisi tasvirini ushbu yozilayotgan dostoni g'oyasi bilan bog'liq holda bayon qiladi. Yaratuvchining har yerdagi tajallisi jahonda Layli bo'lib ko'rinadi, jilva qiladi, uning bu xususiyati esa yaratilganlarni Majnun qilishdan iboratdir:

Ey, har sorikim qilib tajalli,
Ul mazhar o'lub jahonda Layli.
Ey, oniki Layli aylab otin,
Majnun qilmoq qilib sifotin.

Ikkinchi bob munojotni o'z ichiga oladi. Mazkur bobda Navoiy Allohga murojaat qilib, uni borliqni yaratgan yagona va oliy zot deb deb ataydi hamda o'z gunohlarini, xatolarini kechirishni iltijo qiladi. Shoir dostonni yozishga kirishar ekan, Xudodan o'ziga madad va ko'mak so'raydi:

Yo Rab, eshigingda ul gadomen
Kim, boshtin ayoqqacha xatomen.
Mushkum bu xatoda bo‘ldi kofur,
Kofur ila mushkum o‘ldi benur...
Boq dardu malolating‘a, yo Rab,
Rahm ayla bu holatimg‘a, yo Rab...
Shukrungg‘a tilimni qoyil ayla,
Sajdangga boshimni moyil ayla...
Bo‘l rohnemun mango ul ishga
Kim, bo‘lsa sanga rizo ul ishga...

Dostonning 3-bobi Muhammad payg‘ambar (s.a.v.) madhiga bag‘ishlangan. Bu bobda Navoiy Muhammad payg‘ambar (s.a.v.)ni risolat sipehri (payg‘ambarlik osmoni)ning quyoshi deb atab, Odam Atoni uning daraxtidagi mevaga o‘xshatadi. Kitobat san‘ati vositasida payg‘ambarlik muhri – xotamning “alif” va “te”sida uning oti yashiringanini aytadi:

Ul muhri xututi vasfi zoting.

Xotam “alif”iyu “te”si oting.

Navoiy na‘tni payg‘ambar va uning oilasiga yuz ming salavot-u vasflar aytish bilan yakunlaydi.

4-bob Me‘roj tuni ta‘rifiga bag‘ishlangan. Navoiy me‘roj tunini ta‘riflar ekan, bu tunning rangini toza mushk rangiga o‘xshatib, uning har bir yulduziga quyosh rashk etadi deb yozadi:

Kim rangi edi chu mushki nobi,

Har yulduzi rashki oftobi.

Navoiy Muhammad payg‘ambar (s.a.v.)ning Buroq otiga minib ko‘kka ko‘tarilishini tashxis san‘ati vositasida bayon qilar ekan, sayyoralar, yulduzlar, o‘n ikki burjlarning nomlarinigina emas, ularning xususiyatlarini ham ko‘zda tutib me‘roj tunining mo‘jizaviy holatini tasvirlaydi. Shoirning yozishicha, payg‘ambar Allohning huzuriga oy bo‘lib borib, quyosh bo‘lib qaytdi, gavhar bo‘lib borib, Ummon dengiziga aylanib keldi:

Oy bordi-yu, keldi mehri raxshon.

Dur bordi-yu, keldi bahri Ummon.

Dostonning 5-bobi soʻz taʼrifi, Nizomiy Ganjaviy va Amir Xusrav Dehlaviy madhini oʻz ichiga oladi. Navoiy dastlab soʻzga taʼrif berar ekan, uni eng ajoyib gavhar, mavj urgan dengizga oʻxshatadi:

Ey soʻz, ne balo ajab guharsen,
Gavhar neki, bahri mavjvarsen. ..

Aytib sovumas tarona sen sen,
Olib qurumas xizona sen sen.

Nizomiy Ganjaviy madhida talmeh sanʼatining yetakchilik qilishini kuzatish mumkin. U fazilatda Turdagi Muso, qanoatda Qofdagi Anqoga oʻxshatiladi:

Ham Turi fazilat uzra Muso,
Ham Qofi qanoat uzra Anqo.

U Ganjada ganj (xazina)dek yashirinib, besh ganj (“Xamsa”)ni nishon qilib ketdi:

Ul Ganjada ganjdek nihoni,
Besh ganj qoʻyub vale nishoni.

Bobda Dehlaviy sohiri hind (hind sehgari) taʼrifi ostida keltirilib, u yaratgan asarlar fitnagarlikda Kashmir oʻlkasidek boʻldi deyiladi:

Koʻrgach bu tilsim sohiri Hind,
Joduligʻ ishida mohiri Hind. ..
Har safhai nazmi gohi tahrir.
Fitna aro bir savodi Kashmir.

Salaflarining “Layli va Majnun“ mavzuidagi dostonlari “qalʼa” va “qasr”ga

6-bob mavlono Nuriddin Abdurahmon Jomiy madhidadir. Navoiy Jomiy ismidagi “nur” soʻziga alohida urgʻu berib, uning oti ham, zoti ham “nur un alo-nur”dir deydi:

Sochib laqabi jahon aro nur,
Zoti bila nurun alo-nur.

Navoiy bu oʻrinda Jomiy hali “Xamsa”ni toʻliq yaratmagan boʻlsa-da (Jomiy beshligi 1481-1485-yillarda yaratilgan, bu vaqtga kelib Jomiy beshligidagi faqat 3 doston yozib tugallangan edi), lekin oʻzining besh xazinasi, yaʼni “Silsilat uz-zahab”, “Tuhfat ul-ahror”, “Subhat ul-abror”,

“Ahsan ul-qisas” (“Yusuf va Zulayho”) dostonlari va “Devon”i bilan besh xazinaga munosib javob aytganini ta’kidlaydi.

Dostonning 7-bobi zamona hukmdori sulton Husayn Boyqaroga bag‘ishlangan. Navoiy Husayn Boyqaroni shariatning himoyachisi, adolat-parvar, saxovatpesha, bunyodkor shoh, fiqh ilmida Abu Hanifa singari yuksak darajaga ega shaxs sifatida madh qiladi. Shoirning yozishicha, u qilichi bilan sherni mahv etishdek qudratga ega bo‘lsa-da, chumoliga shikast yetsa ko‘z yoshini tiyolmaydigan, shohlar orasidagi o‘rni falak yuksakligida bo‘lgani holda, darveshlar oldida tuproqdek xokisor podshohdir:

Sher uzra qilichi barq choqib,
Mo‘r o‘lsa shikasta yoshi oqib.
Darvesh desam ulus uza shoh,
Shohi darvesh borakalloh.

8-bob shahzoda Badiuzzamon ta’rifidadir. Navoiy shahzodaning ismi “zamonasining go‘zali, nodiri” ekaniga ishora qilib shunday yozadi:

Gar oti o‘lub zamon badii,
Zoti kelib insu jon badii.
Alloh, Alloh, ne ot erur bu,
Ne poku xujasta zot erur bu.

Bobda Badiuzzamonning adolati, saxovati bilan birga qahriga ham alohida ta’rif beriladi:

Adli yorutub jahonni jovid,
Ul adl boshida ayni xurshed.
Chun qahri sharori ko‘kka roji’,
Ul “shin” uza nuqta Nasri Voqi’.

Dostonning 9-bobi tun ta’rifiga bag‘ishlangan. Bob muayyan ma’noda muqaddima bilan asosiy qismni bog‘lovchi ko‘prik vositasini o‘taydi. Bobda shoirning qorong‘i tunda xayol otiga minib sayrga chiqish tasviri berilgan. Ishq vodiysiga yetganda ot oqsoqlanib, yo‘lda davom etolmay qoladi. Yomg‘ir, bo‘ron aralash momaqaldiraq guldurab, chaqin chaqadi. Chaqin yorug‘ida shoir saksovulday taxlanib yotgan inson suyaklari, vahshiy hayvonlarni ko‘radi. N.Komilovning “Tasavvuf” kitobida yozilishicha, bu tasvirlarning hammasida muayyan ramz bor. Bu tun hajr tuni, bu vodiyy esa ishq vodiysi, vahshiy hayvonlar oshiqqa xuruj etgan balo-

ofatlar, suyaklar ishq qurbonlaridan nishona. O‘z, asli, Ilohdan ajralgan musofir, g‘arib ruh Majnun shu vodiya yakka o‘zi boshini egib o‘tiribdi. Shu o‘rinda ikkita tashbeh qo‘llanilganini ko‘ramiz. Qorong‘i tunda birin-ketin chaqmoq chaqib, uning yorug‘ida qabilalar ko‘zga tashlanadi, shunda shoir tunni Laylining sochiga, chaqmoqni esa Layli yuzining ochilishiga o‘xshatadi:

Andoqki qilib karashma mayli,
Zulf ichra jamolin ochsa Layli.

Layli yuzi bu o‘rinda ilohiy nur manbai, uzun sochlari – moddiy dunyo, firoq tuzoqlari (“Layli” so‘zining o‘zi ham tun ma’nosini bildiradi), ana shu nur manbaining chaqmoqlari Majnun qalbi va vujudidan joy olgan. Ikkinchi tashbeh: Navoiy ishq vodiysida “nori ayman” (shoxlari shu’lalanib turgan daraxt)ni ko‘radi. Qissa boshlanib, Layli va Majnunning birinchi uchrashuvi tasvirlanganda shoir shu tashbehni takrorlab, Majnunni xuddi shu shu’lali daraxt qiyofasida chizadi, ya’ni Layli yuzining shu’lasidan Majnun qalbi alangalanib ketadi. “Nori ayman”, aslida, Qur’ondagi Muso hikoyasiga ishoradir. Muso alayhissalom Allohga yuzingni ko‘rsat deb iltijo qilganlarida, Alloh bir uchqunni Tur tog‘i tomon yo‘naltiradi. Tur tog‘i parchalanib, qum holiga keladi, Ayman vodiysi esa yorishib ketib, undagi da- raxtlar mash’aladay porlaydi. Alloh ishq mana shunday qudratga ega.

Bu bobning yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, unda shoir hotif (g‘oyibdan ovoz beruvchi) tilidan o‘z yozilajak asarining salaflar dostonlaridan qanday farq qilishi lozimligini bayon etadi.

10-bobdan dostonning asosiy qismi boshlanadi. Bani Omir qabilasida uzoq kutilgan farzand Qays dunyoga keladi. Qaysning tug‘ilishi, o‘sishi tasvirida ham ilohiy taqdir sezilib turadi. Tug‘ilgandan ishq olovi bilan yo‘g‘rilgan Qays o‘tga talpinadi:

O‘t ko‘rsaki mayl etib nihoniy,
Ishq o‘ti tasavvur aylab oni.

Uni 4-5 yoshlarida Layli qabilasiga o‘qishga beradilar. Qays maktabda tez saboq chiqaradi, qisqa fursat ichida barcha ilmlarni o‘zlashtiradi va saboqdoshlarini hayratga soladi (Bu o‘rinda Navoiy Alloh o‘zining xos bandalariga alohida iste’dod berishiga ishora qilyapti). Qays saboq olib yurgan bu paytda Layli betoblighi uchun maktabga qatnamayotgan bo‘ladi.

Tuzalغانidan so‘ng ustozlari benihoya shodlanganidan barcha shogirdlarini o‘qishdan ozod qiladi. Layli saboqdoshlarini gulshan sayriga taklif qiladi, ular bilan birga Qays ham bog‘ sayriga chiqadi. Layli bilan bog‘da uchrashib qolgan Qays uni ko‘rib hushini yo‘qotadi. Navoiy bu o‘rinda Laylining husni gulzorni charog‘on qilib yubordi va gulzordagi bir nihol (Qays)ni xazon etdi deb yozadi:

Shod o‘ldi jamolidin dabiston,
Andoqki bahordin guliston.
Lekin bu bahori zindagoniy,
Bir naxlni ayladi xazoniy.

Tasavvuf ta’limotiga ko‘ra, guliston darveshning ruhiyati, uni Haq ishqigallab oladi va u betoqatlanib, hushini yo‘qotadi. Shu tarzda majzubi solik (Haqdan jazba yetgan, ustozlari ham, piri ham Ishq bo‘lgan, maqomlarni egallamasdan turib, hol martabasiga erishgan oshiq)ning sarguzashtlari boshlanadi. Qays shu tariqa Laylini har ko‘rganida hushidan ketadi. Xalq orasida “Majnun” laqabi bilan ovoza bo‘ladi:

“Layli, Layli!” – debon chekib un,
El deb: “Majnundur, ushbu Majnun!”

Navoiyning ishq haqidagi tushunchasi insonning ilohiy fayzdan bahramandligi bilan bog‘liq e’tiqodga asoslangan, ya’ni haqiqiy muhabbat faqat pokiza insonlar qalbidan joy olishi mumkin. Majnunning ishq bu borada eng oliy namuna, chunki u butun qalbi va jon-u dili bilan Ollohni sevadi, shu bilan birgalikda mehr-muruvvati yuksak axloqi va beqiyos iste’dodi bilan eng go‘zal insondir. Shuningdek, Navoiyning fikricha, pok insoniy muhabbat va ilohiy ishqni bir-biriga zid qo‘yish to‘g‘ri emas, chunki ular bir-biri bilan chambarchas bog‘liq, biri ikkinchisidan o‘tib chiqadigan hodisa. Majnunning ota-onasi uni Layliga uylantirish bilan dardiga chora topmoqchi bo‘ladilar va Xay qabilasiga sovchi yuboradilar. Navoiy shu o‘rinda haqiqiy ishqdan bexabar kishilar “ishq uylanish, oila qurish bilan yakuniga yetadi” degan tushuncha asosida yashashlariga ishora qiladi, ya’ni Majnunning ota-onasi va jamiyat ahli ishq deganda Navoiy “Mahbub ul-qulub”da keltirgan ishqning quyi darajasi, ya’ni avom ishqinigina anglaydilar. Majnunning ota-onasi uni Layliga uylantirish uchun sovchi yuboradilar. Lekin Laylining otasi qizini aql-hushdan begona bir

“devona”ga berishdan or qiladi va Majnunning Layli qabilasiga kelishini taqiqlab qo’yadi. Majnunning otasi qabiladoshlari bilan maslahatlashib Qaysni zanjirband qiladi. Lekin ishq otashi ta’siridan zanjir uzilib, Majnun uyidan chiqib ketadi. U bedard qabiladoshlarini ham, yaqinlarini ham, umuman, jamiyatni unutish darajasiga boradi, zero, bu holat haqiqiy oshiq uchun xos xususiyatdir:

O‘z oti-yu qavmu xayli oti

Yo‘q yodida, g‘ayri Layli oti.

Tasavvufda bu holat “tafrid” (yolg‘izlanish) deb ataladi. Oshiq shunday bir hol martabasini egallaydiki, yaqinlaridan, umuman, insonlardan bezor bo‘ladi; yakkalikni, yolg‘izlikni qo‘msaydi. Yolg‘izlanish dilning Haqqa yuzlanishi uchun imkon yaratadi.

Qaysning otasi o‘g‘lining dardiga shifo bo‘ladi degan umidda haj munosabati bilan Ka’ba ziyoratiga olib boradi. Qarindoshlar Qays Ka’bani tavof etsa, ahvoli yaxshilanadi deb umid qiladilar. Lekin Majnun Allohga munojot qilib Layli ishqini ko‘ngliga mustahkamroq jo etishini so‘raydi. Mazkur lavha dostonning eng ta’sirchan o‘rinlaridan biri bo‘lib, qirq uch baytdan iborat. Bu o‘ziga xos “munojotnoma”da yigirma to‘rt o‘rinda “ishq” so‘zidan foydalanilgan. Bu tasodifiy emas, albatta. Navoiy ushbu so‘zni turli poetik unsurlar va ritmik vositalar bilan uyg‘unlikda qo‘llab, ritmik ohangning turli-tuman jilvalanishlariga erishadi.

Dastlab ishq o‘ti bilan jahonni yondirgan “hakimi dono”ga sokin murojaat bilan boshlangan mazkur munojot asta-sekin tantanavor ohang kasb eta boradi va bunda “ishq” so‘zining ritmik zarb (mantiqiy urg‘u asosiga qurilgan, ijodkor aytmoqchi bo‘lgan fikr yoki ifodalamoqchi bo‘lgan kuchli his-tuyg‘uni o‘zida aks ettiruvchi ritmik birlik) darajasiga ko‘tarilgani muhim omil bo‘lib xizmat qiladi:

Chek aynima ishq to‘tiyosin,

Ur qalbima ishq kimiyosin!

Mazkur baytda “ishq” so‘zi hojib vazifasida kelgan bo‘lib, bayt misralaridagi har bir so‘zning o‘zaro teng ustunlar asosida joylashishi va buning natijasida muayyan ritmik pauzaning qo‘llanilgani ohangning jozibadorligini ta’minlagan. Keyingi baytda “ishq” so‘zi “et” ko‘makchi

fe'li bilan birikib, radif vazifasida kelgan va endi ritmik zarb radif bilan birlik kasb etgan:

Ko'nglumga fazo harimi ishq et,

Jonimg'a g'izo nasimi ishq et!

Majnun o'z munojotida ishqni shu tariqa ulug'lar ekan, undan ishq va Laylini unutishni so'ragan kishilarga nisbatan achinish hislarini namoyon qiladi va hatto tangridan ularni afv etishini so'raydi:

Alloh-Alloh, bu ne so'z o'lg'ay,

Ul qavmg'a tengri uzr qo'lg'ay.

“Tasavvuf” kitobida keltirilishicha, Ka'ba ziyorati lavhasi tasavvuf ahlining har qanday suratlar, timsollarga sig'inishni inkor etishlariga ishoradir. Ya'ni Ilohning o'ziga oshiq bo'lgan, faqat Uni deb yongan kishiga bu ishlar ortiqchadir.

Majnunning otasi o'g'lini uyga qaytarib olib keladi va u yana sahroga chiqib ketadi. Sahroda u ovga chiqqan lashkarboshi Navfalni ko'rib qoladi. Navfal ham bir vaqtlar ishq dardiga uchragani uchun Majnunning qalbini tushunadi, unga rahmi ke- ladi:

Navfal dag'i ishq ko'rgan erdi.

G'am dashti aro yugurgan erdi.

Navfal ishq dardidan xabardor bo'lsa-da, lekin Majnun darajasiga ko'tarila olmagan, uning sulukdagi maqomi ma'lum bir bosqichga yetgandan keyin to'xtab qolgan edi. Shu sababli u Majnunni Layliga uylantirish bilan uning dardiga malham topish mumkin deb o'ylaydi va Layliga sovchi yuboradi. Lekin Laylining otasi rozi bo'lmagach, urush ochadi. Laylining otasi urushda yengilishini sezib qizini o'ldirishga qasd qiladi. Bu holat Majnunga tush orqali ayon bo'lgach, Navfaldan urushni to'xtashini so'raydi. Navfal Majnun uchun yana bir chora vositasi sifatida o'z qizini Majnunga berishga qaror qiladi. Laylini esa Bani Asad qabilasining boshlig'i Ibn Salomga unashtiradilar. Navfalning qizi boshqa insonni sevishini aytib Majnunga aka-singil bo'lishni taklif qiladi. Ibn Salomning esa quyanchiq (tutqanoq) kasali qo'zg'ab, behush yiqiladi.

Layli va Majnun ishq dashtida uchrashadilar. Navoiy bu uchrashuvni chuqur hayajon bilan tasvirlaydi. Ular bir-birining vasliga yetishgan damlarda butun borliq Ularga madad ko'rsatadi, osmon jismlari ham,

yerdagi barcha tirik mavjudot sukutga cho'madi, oshiq-ma'shuqlarga xayrixohlik qiladi, Layli va Majnun ruhan birlashadilar, ikkilik o'rnini birlik – tavhid egallaydi, Navoiy ularning vasli poklikdan ayri bo'lmaganligini aytadi. Shoirning fikricha, ishq ahli ulardek pok bo'lar ekan, ularga abadiy vasl muyassar bo'lsa, ne ajab, zero nafs maqsadida oshiq bo'lganlar uchun oshqlik haromdir.

Dostondagi eng ta'sirchan boblardan yana biri bu Majnun ota-onasining o'limi haqidagi bobdir (33-bob). Majnun dardiga chora topa olmagan ota-ona farzandining g'am-u alamida kuyib, birin-ketin dunyodan ko'z yumadilar. Majnun bu holdan tush orqali xabar topadi: tushida bolalarini inlariga qaytarmoqchi bo'lgan ikki kaptar burgutga yem bo'ladilar. Bobda ota-onasidan ajralgan Majnun iztiroblari, g'am-alamlari chuqur hissiyot bilan tasvirlangan. Ayniqsa, uning onasi qabri ustida tortgan afg'onlari yuksak pafos bilan yo'g'rilganligini ko'rish mumkin:

Sen Ka'ba mangavu men tilab dayr,
Tavfing sori hech qilmayin sayr.
Solib sanga iztirob har dam,
Ka'bamni qilib xarob hardam.
Ka'bam bo'lmish mening xarobim,
Tengriga ne bo'lg'usi javobim?!

Majnun ota-onasi vafot etganini eshitgan Layli yorining ham firoq alamidani, ham ota-ona motamidani iztirobga tushayotganini o'ylab, chuqur g'amga botadi. Majnun ota-onasining g'amidan azobda bo'lsa, menga ham bu g'am, ham uning g'ami ikki hissa azobliroqdir, deydi.

Laylining ruhiy ahvoli o'zgara boshlaydi, uning tanasida kuchli harorat paydo bo'ladi. Tabiblar bu hol oldida ojiz qoladilar. Layli bu dunyodan ketish fursati yaqinlashganini sezib onasiga, Majnun kelsa, uni huzuriga kiritishlarini vasiyat qiladi. Majnun Laylining bu dunyodan ketayotganini ilohiy bir kuch bilan sezib, uning qabilasi tomon keladi. Shu tariqa umr bo'yi bir-birining ishqida kuygan, visoliga intilganlar Ruhi mutlaq tomon ravona bo'ladilar.

Doston xotimasi uch bob (36-38)ni o'z ichiga oladi. 36-bob "Ishq ta'rifi"ga bag'ishlangan bo'lib, bunda Navoiy ishqni kimyoga va olamni ko'rsatuvchi ko'zguga o'xshatadi:

Ey ishq, gʻarib kimiyosen,
Bal oʻyinayi jahonnamosen.

Rivoyatlarga koʻra, qadimda kimyogarlar mis va boshqa maʼdanlarni yuqori harorat taʼsirida oltinga aylantirish mumkin deb hisoblaganlar. Navoiy bu oʻrinda shu afsonaga ishora qilib, odam, aslida, tuproqdan yaralgan, ammo ishq olovining “kimyo”ligi uni oltinga aylantiradi, yaʼni ishq inson vujudini turli xil chiqindilar: jismoniy talablar va nafsoniy istaklardan poklaydigan otashdir, degan fikrni keltiradi:

Chun xolisu poku begʻash oʻldi,
Oltin neki kimiyovash oʻldi.

Poklanish, yaʼni “kimyo”lanish ishqiy majoziy boʻlib, undan “oltin”ga aylanib chiqqan oshiq endi oʻzligidan qutuladi va qayoqqa qarasa, haqiqiy Yor (Haq)ni koʻradi:

Chun boqqali ixtiyor topti,
Har soriki boqti yor topti.
Ham naqshi vujudin etti foniyy,
Ham topti baqoyi jovidoniy.

Bu esa qalbning koʻzguga, yaʼni “oyinai jahonnamo”ga aylanishi, boshqacha aytganda, ishqiy haqiqiyga molik boʻlishdir.

Dostonning 37-bobi sulton Husayn Boyqaro akasining oʻgʻli shahzoda Sulton Uvays bahodir madhiga bagʻishlangan. Navoiy shahzodani taʼrif-u tavsif qilish asnosida gʻoyat ustalik bilan unga shariat, adl-u himmat bobida nasihatlar ham qiladi va zamona sultoni Husayn Boyqaroni unga ibrat qilib koʻrsatadi. Dostonning soʻnggi bobi “dard navhasi” (yigʻisi)ning yakuni haqida boʻlib, shoir bunda dostonni tugallagani uchun Allohga shukrona keltiradi.

Navoiyning doston mohiyati haqida aytgan eng muhim fikrlari aynan shu bobda tajassum topgan:

Soʻgin nechakim uzottim oxir,
Yigʻlay-yigʻlay tugattim oxir...
Yozmoqta bu ishqiy jovidona,
Maqsudum emas edi fasona.
Mazmunigʻa boʻldi ruh mayli,
Afsona edi aning tufayli. ..

Men turkcha boshlabon rivoyat,
Qildim bu fasonani hikoyat.
Kim, shuhrati chun jahong‘a to‘lg‘ay,
Turk eliga dog‘i bahra bo‘lg‘ay...

“Layli va Majnun” dostonidan kelib chiqadigan xulosa shuki, bu dunyoda yashovchi har bir inson oshiqlik yo‘lini tutib, o‘zini o‘limga emas, balki vasl mayini ichishga tayyorlashi kerak, zero, bu dunyoning birdan-bir mazmuni ham shu. Ruhi mutlaqni tasavvur qilishda inson aqli va ongi ojizlik qiladi, shu sababli Navoiy uni mazhar – Layli timsolida yaratadi.

Dostonda har bir timsol yuksak mahorat bilan ishlangan bo‘lib, Navoiy har bir obrazga, har bir detalga muayyan badiiy ijtimoiy “vazifa” yuklaganligini ko‘rish mumkin. Dostonning 14-bobida tasvirlangan it obrazi bu jihatdan alohida ahamiyatga ega. Ma’lumki, it sadoqat, vafodorlik ramzi sanaladi. Dostonda Majnun o‘z sadoqati, vafosidan ko‘ra itning sadoqatini ustun qo‘yadi, chunki it Majnunga qaraganda Layliga ancha yaqin turadi. U ham Majnun kabi oshiq, yorining oyog‘i ostida yotib o‘z vafodorligini, sadoqatini namoyon qiladi. Buning fahmiga yetgan Majnun o‘z dardini to‘kib soladi:

Sen mendin o‘lub vafoda afzun,
Ham sidqda, ham safoda afzun.

Bu o‘rinda Navoiy Majnunning o‘zini oshiq sanab, it darajasiga ham ko‘tarila olmaganidan qattiq iztirobda ekanligini bayon qiladi. It Laylini ko‘rganda Majnun singari hushini yo‘qotmaydi, uning oyoqlariga suyaklib, erkalanadi – itning bardoshi kuchli, bu esa Majnunning yeta olmas armoni.

Doston kompozitsiyasida bosh qahramonlar Layli va Majnunning bir-birlariga yozgan maktublari ham muhim o‘rin tutadi. Maktub ko‘ngillarni bog‘laydigan vosita bo‘lib, u vasldan xabar beradi, oshiq-ma’shuqlarni umidlantiradi. Shoir Laylining maktubida nido san’atidan foydalanib, yorning o‘z oshig‘iga murojaati orqali ma’shuqaning qalb izhorlarini his-tuyg‘ularini ifodalasa, Majnunning Layliga yozgan maktubida vafo va sadoqatdan so‘zlovchi oshiq kechinmalari qalamga olinadi. Ushbu maktublar dostonning umumiy poetik qonun-qoidolari (vazn, qofiyalanish tizimi)ga moslashtirilgan noma janrining betakror namunalari.

Dostonning badiiy jihatdan yuksak chiqishini ta'minlagan vositalardan yana biri unda tabiat tasvirining alohida o'rin egallashidir. Navoiy tabiat fasllaridan umumiy ramziy fon sifatida foydalanib, ulardagi o'zgarishlarni qahramonlar kayfiyati va ruhiyatiga hamohang tarzda tasvirlaydi. Qahramonlar shodlangan paytda, ularni o'rab turgan tabiat ham yashnab turadi, ular qayg'uga tushganda go'yo borliq ham xo'rsinib nafas olayotgandek bo'ladi. Masalan, Majnun gulshanda hushsiz yotgan paytda butun tabiat uning boshiga tushgan og'ir savdoga "hamdarlik bildiradi": gul o'z yoqasini chok etadi, lola ko'ksiga qora dog' soladi, sunbul o'z qiyofasini qora rangga bo'yaydi va boshqalar. Doston vokealarining bahor faslida boshlanib, kuz faslida yakunlanishida ham muayyan ramziy ifoda bor.

Doston hazaj bahrining hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf (ruknlari va taqti'i: maf'ulu mafoilun fauvlun) vaznida yozilgan. Lekin dostonda mazkur vazn bilan birga qo'shimcha tarzda hazaji musaddasi axrami ashtari mahzuf (ruknlari va taqti'i: maf'ulun foilun fauvlun) vaznining ham qo'llanilganini kuzatish mumkin. Bu holat tasodifiy bo'lmay, doston mazmuni va g'oyasi bilan chambarchas bog'liq. Dostondagi 3623 baytdan 240 misra aynan mana shu ritmik variatsiya (bir vaznning ichki imkoniyatlar asosida yangi variantlarga ega bo'lishi)da yaratilgan bo'lib, dostondagi ziddiyatli voqealar, asar qahramonlarining chuqur ruhiy iztiroblari tasviri, qahramonlar ruhiyatining tabiat tasviri bilan bog'liq bayoni, qahramonlar hayrati aks etgan misralar, lirik chekinish paytida mazkur variatsiyaga murojaat qilinganini ko'rish mumkin.

"Sab'ai sayyor" dostoni.

Alisher Navoiy "Xamsa"sining to'rtinchi dostoni "Sab'ai sayyor" deb atalib, 1484-yilda yozib tugallangan. Asarning bosh qahramoni Bahrom bo'lib, tarixiy shaxs sifatida Eronning sasoniy hukmdori Varaxran V (420 - 438 yillarda podsholik qilgan) bilan bog'liq. Bu hukmdor qulon (yovvoyi kiyik)ni ovlashga nihoyatda o'ch bo'lgani uchun, xalq orasida Bahrom Go'r (qulon) laqabi bilan shuhrat topgan. Sharq mamlakatlarida Mars (Mirrix) yulduzi Bahrom deb atalib, jang-u jadallar homiysi sifatida tasvirlanadi.

Bahrom timsoli dastlab forsiy adabiyotda Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma"sida tasvirlangan. "Shohnoma"da Bahrom Go'r haqidagi voqea dostonning faqat bir faslini tashkil etib, unda Bahromning tug'ilishi, taxtga

chiqishi, mamlakatni idora qilish tadbirlari, ov vaqtida o‘z kanizagi Ozoda bilan to‘qnashuviga doir voqealar tasvirlangan. “Shohnoma”dagi Bahrom Go‘r va uning kanizagi orasidagi bu to‘qnashuv lavhasi Nizomiy tomonidan qayta ishlanib, mashhur “Haft paykar” dostoni vujudga keladi. Nizomiy Bahromning kanizak bilan bog‘liq hikoyasini qoliplovchi hikoya qilib olib, unga 7 hikoyat kiritadi. 200 yil o‘tgach Xusrav Dehlaviy unga javob tarzida “Hasht behisht” dostonini yaratib, 7 hikoyatni hind eposidan oladi.

Turkiy tilda birinchi bo‘lib bu mavzuni Alisher Navoiy qalamga oladi va o‘z dostonini “Sab’ai sayyor” deb ataydi. “Sab’ai sayyor” dostoni 38 bob, 5009 baytdan iborat, shundan 11 bobni muqaddima tashkil qiladi. Doston muqaddimasi an’anaviy hamd bilan boshlanadi. Navoiy Allohni olamning yaratuvchisi sifatida madh etar ekan, dostonning mazmuni taqozosi bilan birinchi bobdayoq yetti raqamiga alohida e’tiborni qaratib, iltizom (bir so‘zni biror parchaning barcha misra yoki baytlarida qo‘llab, shu so‘zning muhimligini ta’kidlash) badiiy san’ati vositasida falakning yetti qavat ekanligi, yetti gumbazdan tashkil topgani, yer yuzi yetti iqlimga bo‘lingani, yetti ko‘k, yetti yulduz kabilar haqida fikr yuritadi. Shuningdek, Bahrom va Dilorom so‘zlarini asl va majoziy ma’nolarda qo‘llab, sayyoralar olami, dunyoning yaratilishi haqida o‘z falsafiy qarashlarini bayon qiladi, olamning yaratilishini tasavvufdagi vahdat ul-vujud falsafasi asosida bayon etadi:

Ishq sensen dog‘i-yu oshiqsen,

Dostonning 2-bobi munojot bo‘lib, bunda buyuk shoirning yaratuvchiga murojaati, najot umidi, tavba va iltijolari o‘z ifodasini topgan:

Qodiro, ul zaif-u osiymen,

Ki, boshimdin-ayoq maosiymen.

Navoiy tashbeh san’ati vositasida o‘zini toat vaqtida xasta chumoliga, isyon vaqtida vahshiy sherga, nafsini bahaybat filga, ko‘nglini nimjon pashshaga o‘xshatadi.

Shuningdek, munojotda yaratilayotgan asarning shuhratini olamga yoyishni so‘rab qilingan iltijo ham mavjudligini ko‘ramiz:

Shuhratin olam ichra paydo qil,

Olam ahlin alarga shaydo qil.

Navbatdagi bob Muhammad (s.a.v.) madhiga bag‘ishlanadi. Payg‘ambarning asli qurayshiy, yeri abtahi, mazhabii hoshimiy, manzili Yasrib ekanligi aytilgach, uning nuri “Lot” bilan “Uzzo”ni shikastlagani, ismining harflari yechilganda ikkita “mim” harfining etaklari osilib, kufr eli motamining zulmatiga, din elining esa ulug‘vorligiga aylanishi aytiladi.

4- bob Me’roj tuni ta’rifiga bag‘ishlanadi. Bunda payg‘ambarimiz huzuriga elchi (Jabroil) kelib, Haqning salomini yetkazgani va oshiq o‘z mahbubining visoliga erishmoq niyatida ekanini xabar qilgani, payg‘ambarimiz yaratuvchining huzuriga borganlarida ummatlarining gunohini kechirishni iltimos qilganlari va barcha istaklari birma-bir qabul qilingani haqida so‘z boradi.

5- bob so‘z ta’rifida. 6-bob ulug‘ salaflar – Nizomiy va Dehlaviy madhiga bag‘ishlangan. Shoir dastlab badiiy adabiyotdagi ikki adabiy tur, ya’ni nazm va nasr ta’rifiga to‘xtalib, ularni bir-biriga qiyoslaydi va nazmning nasrdan ustunligini isbotlar ekan, she’riy asarlarda chiroyli, ta’sirli ibora hamda badiiy san’atlarni ko‘plab qo‘llash, injuni ipga tergandek misralar tizish mumkin, nasr esa sohib yuborilgan javohirdek go‘zallikdan mahrum deb yozadi. Shuningdek, nazm shakllari orasida masnaviyga alohida to‘xtalib, uni “vasi’ maydon” (keng maydon) deb ataydi. Nizomiy haqida so‘z yuritir ekan, u bu maydondan to‘pni olib chiqib ketdi, ya’ni go‘y va chavgon o‘yinida yutdi: masnaviy yaratishda birinchi bo‘ldi deydi.

Xusrav Dehlaviyni Nizomiy beshligiga javob yozgan ijodkor sifatida ta’riflar ekan, uni “hind sehgari, qaro balo, ofati Xudo” kabi tashbehlar bilan madh qiladi. Shuningdek, Navoiy bu ikki xamsanavisni shatranj o‘yinidagi oq ot-u (Nizomiy) qora filga (Dehlaviy), o‘zini oddiy piyodaga nisbat beradi.

Dostonning 7-bobi “hazrat shayxulislom mavlono Nuriddin Abdurahmon Jomiy” madhiga bag‘ishlangan. Navoiy uni fazl koni-yu ilm daryosi deb atar ekan, ustozini arab tilidagi bilimdonligi jihatidan “Qofiya” asarining muallifi Ibn Hojibga, tafsir ilmida yuzta Ibn Hojarga, fiqh ilmida Imomi A’zamga o‘xshatadi. Jomiyning bu sohalarida yaratgan asarlari, devonlari va dostonlarining nomlarini keltiradi.

8-bob salaflarning nuqsonlari haqida bo‘lib, shoir bob sarlavhasida ustozlar asarlariga mulohaza bildirayotgani uchun uzr so‘raydi. Navoiy bu bobda doston yaratishdan oldin tush ko‘rganini, tushida 7 gumbaz, 7 gumbaz ichida 7 xil rangdagi mutasaddiyni ko‘rganini, shu yerda 7 kun yurib 7 afsona tinglaganini, bir mo‘y- safid unga avvalgi dostonlardagi qusurlarni tuzatishni so‘raganini, uyqudan uyg‘ongach muabbir (tush ta’bircisi) aytgan dalillardan so‘ng doston yozishga kirishganini aytali. Shundan keyin o‘zigacha yozilgan Bahrom haqidagi dostonlarni sinchiklab o‘qib chiqqanini ta’kidlab, ustozlarning hurmatini o‘z o‘rniga qo‘ygan holda ularga uchta e’tiroz bildiradi:

Biri bukim, yo‘q anda moyayi dard,
Qildilar ishq so‘zidin ani fard.

Shoir fikricha, oldingi xamsanavislarning birinchi aybi dard-u g‘amga yetarlicha ahamiyat bermasdan, uni ishqdan xoli tasvirlaganliklaridadir.

Bahromning ayshi uchun yettita qasr qurilishi, yetti malikaning o‘zi mastlikdan g‘aflat holatiga yetgan shohni uxlatish uchun afsonalar aytishlari asossiz, deydi Navoiy. Buning ustiga, agar afsona aytish zarur bo‘lsa, ulardan boshqa qissaxon yo‘qmidi degan savolni ham qo‘yadi.

Salaflarning uchinchi kamchiliklari dardsiz va nodon kishining sarguzashtlarini ko‘rsatishni maqsad qilib olganlarida edi.

Bob so‘ngida Navoiy g‘oyat kamtarlik bilan o‘zini salaflarning faqir shogirdi atab, men go‘yo pashshadek bo‘lib, fil ishini qilmoqchiman, osmon tomiga narvon, quyoshga shamdon yasamoqchiman, o‘rgimchak ipidan kamand qilib ajdahoni tutmoqchiman deydi va Alllohdan doston yozishda madad so‘raydi.

9- bob sulton Husayn Boyqaro madhi haqidadir. Bu bobda Navoiy falakdagi barcha sayyoralarga birma-bir murojaat qilib, ularni o‘z hunarlaridan bir oz tinmoqqa chaqiradi, shoh madhida qalam surmoqchiligini aytadi. Shohning ikki tomonlama xon avlodi bo‘lib, ulug‘ otasi Chingizxon, onasi Alanquvo ekanini aytadi. Navoiy Husayn Boyqaroni cheksiz saxovat, chumoliga ham marhamatli adolat egasi deya ta’riflab, adolat bobida, hatto, Anushervon ham uning oldida hijolat chekadi deb yozadi.

10- bob – Bilqisi Soniy – Xadichabegim madhiga bag‘ishlangan bo‘lib, Navoiy talmeh san’ati vositasida Xadichabegimni payg‘ambarlar ayollari – Sorai Uzmo (Ibrohim payg‘ambarning rafiqalari) va Xadichai Kubro (Muhammad (s.a.v.)ning ayollari)ga o‘xshatadi. Navoiyning yozishicha, uning go‘zalligidan sunbul va nargis gullari tashvish-u uyatda. Shuningdek, Navoiy Xadichabegimning ikki farzandi – Muzaffar mirzo va Shoh G‘arib mirzo (shoir G‘aribiy) haqida ham to‘xtalib o‘tib, ularni ikki saodatli yulduz, ularning onasini oy-u quyoshga o‘xshatadi.

11- bob Bahrom tarixi haqidadir. Navoiy Bahromni sosoniylar hukmdori Yazdijurdning o‘g‘li bo‘lsa-da, otasidan farqli ravishda, ezgu ishlar bilan shug‘ullandi, otasi nimani buzgan bo‘lsa, u barchasin qaytadan tuzdi deydi.

Navoiy salaflar bo‘yicha shoh Bahrom tarixini qisqacha bayon etib, endi men aytadigan qissa avvalgilaridan farq qiladi deydi va Allohga shukrona keltirib, Bahrom qissasini boshlaydi.

Asosiy voqealar o‘n ikkinchi bobdan ibtido topadi. Yetti iqlim shohi bo‘lgan Bahrom ov qilib yurib rassom Moniyni uchratib qoladi. Moniy Chinda tengi yo‘q bir go‘zal Dilorom haqida xabar berib, uning o‘zi chizgan suratini shohga taqdim etadi. Shoh suratni ko‘rishi bilan Diloromga oshiq bo‘lib qoladi va Chin mamlakatining bir yillik xirojini to‘lab, qizni saroyga keltiradi. Shundan keyin Bahrom qizga butunlay mahliyo bo‘lib, davlat, mamlakat ishlarini unutadi. Firdavsiy “Shohnoma”sida tasvirlanganidek, ovda kiyik hodisasi yuz beradi. Dilorom Bahromning merganlik mahoratini “mashqning natijasi” deb baholaydi. Shoh mastlikda qizning oyoq-qo‘lini o‘z sochlari bilan bog‘lab biyobonga tashlab kelishni buyuradi. Ertasi g‘azab va mastlik tarqab, afsuslanganidan keyin uni o‘zi borib izlaydi, lekin topa olmaydi. Hijron azobidan o‘zini butunlay yo‘qotadi.

Shohning ahvoli og‘irlasha boradi. Navoiy bu o‘rinda shoh Bahromda endi chin ma’noda oshiqlik sifatleri paydo bo‘layotganiga e’tibor qaratadi, zero, ruhiy iztiroblar va hijron dardi ishqning ortishiga sabab bo‘ladi. Iztirobdan o‘zini butunlay yo‘qotgan Bahromning avval falakka, so‘ng xalqi va qo‘shiniga murojaat qilib, notavon jonini bu azoblardan qutqarishini so‘rab chekkan faryodlari dostonning 16-va 17-boblarida nihoyatda ta’sirli tarzda ifodalanganini ko‘ramiz.

Saroy ahli tashvishga tushadilar. 400 hakim va tabib to‘planib, ikki yil davomida shohni davolaydilar. Shoh bir oz o‘ziga kelganday bo‘ladi. Maslahat bilan yetti iqlim shohi yetti qasr quradilar. Bu yetti qasr yetti shohning mamlakatiga olib boradigan yo‘l ustida barpo etiladi. Rassom Moniy uning har birini alohida bir rang bilan bezaydi. Bahrom ularni tomosha qilar ekan, kasali tuzala boshlaydi. Yetti rangdagi yetti qasr bitgach, yetti iqlim shohining yetti qizi Bahrom bilan nikohlanadi. Yetti qasrning har biri yetti sayyoradan birining rangiga mos bo‘lib, haftaning shu sayyora homiy hisoblangan kuniga xos edi. Yetti qasr tasvirini o‘qir ekanmiz, Navoiy har bir qasrdagi shoh, malika va musofir hamda jihozlar tasvirini berishda ranglarning turfa xil nomlanishlaridan ustalik bilan foydalanganiga guvoh bo‘lamiz.

Shanba kuni uchun shu kunning homiysi Zuhul (Saturn) sayyorasining rangiga mos qora qasrda shoh Bahrom hindistonlik sayyohning Farrux va Axiy haqidagi hikoyatini tinglaydi.

Yakshanba kuni uning homiysi Quyosh sayyorasining rangiga mos sariq qasrda shoh Bahrom rumlik sayyohning Zayd Zahhob haqidagi hikoyatini tinglaydi.

Dushanba kuni shu kun homiysi Oy sayyorasining rangiga mos yashil qasrda shoh Bahrom shahrisabzlik sayyohdan Sa’d haqidagi hikoyatni tinglaydi.

Homiysi Mirrix (Mars) bo‘lgan seshanba kunida Mirrix rangiga mos qizil qasrda shoh Bahrom navbatdagi sayyohdan shoh Juna va uning do‘sti Mas’ud haqidagi qissani tinglaydi.

Chorshanba kuni uchun uning homiysi Utorud (Merkuriy) rangiga mos moviy qasrda Bahrom navbatdagi jahongashtadan Mehr va Suhayl haqidagi hikoyani tinglaydi.

Payshanba kuni shu kun homiysi Mushtariy (Yupiter) rangiga mos sandal qasrda shoh Bahrom Muqbil va Mudbir haqidagi qissani tinglaydi.

Juma uchun uning homiysi Zuhra (Venera) rangiga mos oq qasr barpo qilingan edi. Nihoyat, muborak juma (odina) kuni Bahrom oppoq – kofuriy kiyimda oq qasr ichida fil suyagidan yasalgan taxt ustida o‘tirib oq kiyimli go‘zal bilan billur jomda oq may ichadi va Chin go‘zali qoshida xorazmlik musofirning hikoyasini tinglaydi. Musofir o‘zining Xorazmdan ekanini, soz

chalishini, iqlimdagi barcha ustozlar uning shogirdlari ekanini, kutilmaganda bir chinlik savdogarning go‘zal kanizagi Xorazmga kelgach, uning ishi kasodga uchraganini, kanizak huzuriga borib arz qilganini, uning so‘zini tinglab, tarixi bilan qiziqqanini va kanizak unga boshidan o‘tganlarni so‘zlab berganini aytadi. Shoh Bahrom aytilganlardan bu kanizak Dilorom ekanini bilib, uni olib kelish uchun Xorazmga sipohlarini jo‘natadi. Ko‘ringanidek, Bahrom birinchi hikoyani o‘z ruhiy holati kabi qora qasrda, qora libosda tinglagan edi, chunki u o‘z Diloromidan ayrilgan, hijron zulmatiga giriftor bo‘lgan edi. Yetginchi hikoyani esa oq qasrda oq libosda tinglaydi va bu hikoyat unga visol umididan darak beradi, uning qalbiga yorug‘lik olib kiradi. Lekin Bahrom Diloromni topgach, yana ovga, aysh-ishratga beriladi. Bir kuni u saroy ahli, sonsiz qo‘shin va Dilorom bilan katta ovga chiqqanida, yomg‘ir yog‘adi va eski botqoqning og‘zi ochilib, Bahromni Dilorom va butun arkoni davlati bilan birga yer yutadi. Bahrom bo‘lib o‘tgan voqealardan va tinglagan hikoyatlaridan xulosa chiqarmaydi: oshiqlik va shohlikni bir qiyofada olib bormoqchi bo‘ladi, aslida, chin oshiqlik toj-u taxt va boylik bilan muvofiq kelmaydi.

Shu bilan birga, shoh Bahromning halokatini tasavvuf ta’limotiga ko‘ra yana shunday izohlash mumkin. Butun jonzotlar, tabiat, hayvonot va nabotot olami Allohning zuhuridir. Ularning barchasini Alloh yaratgan ekan, ularga zarar yetkazish Yaratgan irodasiga qarshi borish bilan tengdir. Shu ma’noda shoh Bahromning tabiatga yetkazgan jabr-zulmi uning halokatiga olib keldi. Shoir Bahrom timsoli munosabati bilan o‘z davridagi ba’zi dolzarb masalalarga ham ishora qilib o‘tgan. Xususan, haqiqiy hukmdor har qanday illatlardan xoli bo‘lishi zarurligi, xalq ahvolidan g‘ofilik hamda aysh-ishratga berilish oxir-oqibat shohni va mamlakatni tanazzulga olib borishi mumkinligi shoir aytmoqchi bo‘lgan muhim g‘oyalardan biridir. Shu ma’noda Navoiy dostonning o‘ttizinchi bobida tush ko‘rganligini aytadi. Tushida shoirni shoh Bahrom yo‘qlab, uni nazm mulkida sohibqiron deb atab, yozgan dostoniga yuqori baho beradi va farzandi qatorida sanalmish sulton Husayn Boyqaroni ogohlantirishini iltimos qiladi. Unga quyidagi so‘zlarni yetkazishni aytadi:

Ki jahon kimsaga vafo qilmas,
Shohlig‘ tarkiga kiro qilmas.

Shahki, ming yil oning hayotidur,
G‘araz – o‘lganda yaxshi otidur.

Doston xafif bahrining xafifi musaddasi solimi maxbuni mahzuf (ruknlari va taqti‘i: foilotun mafoilun failun) vaznida yozilgan. Aslida, mazkur vazn 8 ta ritmik variatsiyaga ega bo‘lib, bu ritmik variatsiyalar doston misralarida o‘zaro almashinib qo‘llanaveradi va doston matni bilan munosabatga kirishadi. Ritmik variatsiyalar tarkibidagi o‘zgarishlar, asosan, birinchi va uchinchi rukndagi bo‘g‘inlar sifatini o‘zgartirish hisobiga ro‘y berib, ikkinchi rukn o‘zgarishsiz qolaveradi. Bunda birinchi rukn foilotun yoki failotun, uchinchi rukn esa failun, failon, fa‘lun, fa‘lon tarzida o‘zaro almashinib ham qo‘llanaverishi mumkin. Mazkur ritmik variatsiyalarning doston tarkibida o‘zaro almashinib qo‘llanilishi tasodifiy bo‘lmay, dostondagi voqealar, qahramonlarning ruhiy holati, bir hikoyatdan boshqasiga o‘tish paytlari, syujet chiziqlarining o‘zgarishiga ko‘p jihatdan bog‘liq.

“Saddi Iskandariy” dostoni. Bu asar dunyodagi buyuk siymolardan biri, uch sohibqironning eng mashhuri – jahongir Iskandarga bag‘ishlangan bo‘lib, “Xamsa”ning yakunlovchi dostonidir. Sharqda u Iskandar Zulqarnayn (ikki shoxli yoki kun chiqish va kun botish hukmdori) nomi bilan mashhur. Dastlab Iskandar mavzusi Firdavsiyning “Shohnoma” dostonida qalamga olingan. Keyinroq Nizomiy Ganjaviy u haqda maxsus “Iskandarnoma” degan doston yozadi. Xusrav Dehlaviy bu dostonga javob tarzida “Oyinayi Iskandariy” asarini yozgan bo‘lsa, Abdurahmon Jomiy o‘z dostonini “Xiradnomayi Iskandariy” deb ataydi. Alisher Navoiy esa bu mavzuni turkiy tilda qayta ishlab, o‘z asariga “Saddi Iskandariy” (“Iskandar devori”) deb nom beradi.

“Saddi Iskandariy” “Xamsa”dagi eng yirik doston bo‘lib, 89 bob va 7215 baytdan tashkil topgan. Dostonning muqaddimasi 14 bobni o‘z ichiga oladi.

1-bob an‘naviy hamd – Allohning sifatlari ta‘rifiga bag‘ishlangan. Navoiy ushbu bobda tasavvuf ta‘limoti asosida olamning yaratilish tarixiga to‘xtalib o‘tadi: 9 qavat osmon, sayyoralar, yulduzlar turkumining har biriga alohida ta‘rif beradi. Yaratganning buyukligiga hamd-u sano aytadi.

Bularning barchasidan maqsad eng oliy zot – Odamni yaratish ekanini ta’kidlaydi.

2-bob munojotni o‘z ichiga oladi. Navoiy bobda Allohning karami kengligi haqida gapira turib banda zoti mavjud ekan, uning gunoh qilishi tabiiy degan aqidani ilgari suradi. Munojot so‘ngida Navoiy quyosh yerni o‘z nurlari bilan munavvar qilgan chog‘da zarralar orasidagi farqni fahmlab bo‘lmaganidek, zarralarga karam qilgan chog‘ingda Navoiyga ham bir zarra kabi karam aylagil. uning gunohlarini kechirgil deb iltijo qiladi.

Dostonning 3-bobi “sayyid ul mursalin” (payg‘ambarlar ulug‘i) rasuli akram vasfi (na’t)dan iborat. Navoiy dastlabki baytlarda payg‘ambarlik nuri haqida gapirar ekan, Odam Ato unga o‘g‘il, qolganlar nabira qatoridadir, deydi va barcha muqaddas kitoblarda uning xususiyatlari bayon qilinganini ta’kidlaydi. Rasuli akramning tug‘ilishi go‘yo ko‘kda yana bir quyoshning porlashiga o‘xshatiladi. An’anaga muvofiq, na’tdan so‘ng me’roj tuni ta’rifi keladi. Navoiy bu bobda payg‘ambarimizning birin-ketin 9-osmonga ko‘tarilgani, sayyoralarning bu holatni ko‘rib hayratga tushgani, nihoyat, Lomakon olamiga sayr qilgani, 70 ming qavat parda ko‘tarilib, Janobi Haq bilan diydorlashgani jarayonini kuchli pafos bilan tasvirleydi. Uning yerga qaytishi ham falak ahli va maloyiklar tomonidan chuqur hayrat bilan kuzatilgani betakror badiiy san’atlar vositasida bayon qilinadi.

Dostonning 5-bobi “Xamsa” takmili (mukammal bitkazish) xususida bo‘lib, Navoiy bu bobda unda “Xamsa” yozish havasi ancha ilgari, Nizomiy va Dehlaviy “Xamsa”larini o‘qib yurgan chog‘laridayoq uyg‘onganini bayon qilib, ulug‘ ustozlari ruhidan madad so‘raydi.

6-bob so‘z ta’rifi, Nizomiy Ganjaviy va Xusrav Dehlaviy madhiga bag‘ishlangan.

7-bob Nizomiy va Dehlaviyning nazmdagi izdoshlari Nuriddin Abdurahmon Jomiy madhiga bag‘ishlangan. Navoiy kitobat (harf) san’ati vositasida Jomiyning taxallusiga ishora qilib, uning nazmini “jom” va “may” deb ta’riflaydi hamda bu nazmdan yer-u ko‘k eli mast-u notavon bo‘lganini aytadi.

Dostonning 8-bobi – “Inoyat quyoshi vasfi va hidoyat buluti ta’rifida” deb atalib, bu bobda Navoiy kimgaki baxt-u iqbol yor bo‘lsa, uning hamma ishida zafar bo‘ladi, tikan ushlasa g‘uncha, tuproq olsa oltin bo‘ladi,

bularning barchasi Xudodan, shunday ekan, unga shukrona bildirish kerak degan fikrlarni keltirarkan, Alloh unga nazm yozish fazilatini taqdim qilgani uchun, unga shukrona aytadi va nazmning turli sinf (janr)larida shuhrat qozonganini faxr bilan bayon qiladi:

Gʻazal tarziga avval aylab sitez,
Jahon ichra soldim ulugʻ rustaxez.
Oʻqur vaqti ahli salomat muni.
Koʻrub olam ichra qiyomat kuni. ..
Har asnofi zikri emas shaʼnima,
Bilur har kishi boqsa devonima.

Shuningdek, Navoiy nazmdagi bu muvaffaqiyatlariga qanoat qilmay, ulugʻ muddao – “Xamsa” yozish niyatida ekanini, bu yoʻlda Nizomiy va Dehlaviylarning nuroniy ruhiga, Jomiyning ilohiy quvvatiga Qurʼon tilovat qilib, fотиha oʻqiyman deb yozadi.

9-bob Shoh Gʻoziy Husayn Boyqaro taʼrifiga bagʻishlangan. Navoiy bu bobda mubolagʻa sanʼati vositasida Muhammad (s.a.v.) paygʻambarlar orasida alohida mavqeda boʻlsa, sulton Husayn Boyqaro ham barcha shohlar ichida shunday maqomdadir deb yozadi. Shuningdek, uning janggohdagi mahoratini tasvirlar ekan, doston mazmuni bilan bogʻliq ravishda dushmanlariga nisbatan saddi Iskandariydek gʻov chekadi, agar jahonda Iskandardek ulugʻ sifat zotni topish kerak boʻlsa, sulton Husayndan boshqasi mos kelmaydi, deydi.

Dostonning 10-bobi shahzoda Badiuzzamon Bahodir madhidadir. Navoiy unga donishmandlik bogʻining sarvi, zamona ahlining shahzodasi, deb taʼrif berar ekan, zoti ham, sifati ham malak (farishta)ka oʻxshashini aytib, tavzeʼ (bir tovushni bir necha marta takrorlash) va takrir (bir soʻzni baytda ikki va undan ortiq holda takrorlash) sanʼatlari vositasida uning boshdan-oyoq yaxshilik va yaxshi xislatlardan iborat ekanini bayon qiladi:

Yigʻib yaxshiliq birla yaxshi qiliq,
Qiliqdek boshingdin ayoq yaxshiliq.

11-14-boblarda qadimgi fors shohlarining toʻrt tabaqasi: peshdodiylar, kayoniylar, ashkoniylar va sosoniylar tarixi haqida maʼlumotlar keltiriladi.

Dostonning asosiy qismi 15-bobdan boshlanadi. Asosiy qism o‘ziga xos kompozitsiyaga ega. Uni shartli ravishda quyidagi 4 qismga bo‘lish mumkin:

1) Iskandar voqeasi – Iskandar hayoti bilan bog‘liq biror voqea yoki hodisa bayoni;

2) nazariy masala – muayyan axloqiy muammoning ta’rifi;

3) hikoyat – shu axloqiy masalaga doir hikoyat;

4) hikmat – Arastu va Iskandarning suhbatlari.

Birinchi qism lirik xotimaga ham ega. Bu soqiy, mug‘anniy va Navoiyga murojaat tarzidagi baytlar bo‘lib, Nizomiyda “Iskandarnoma”ning birinchi qismi bo‘lmish “Sharafnoma”da soqiyga, ikkinchi qism “Iqbolnoma”da mutribga murojaatni ko‘rsak, Dehlaviy dostonida ham soqiy, ham mutribga murojaat mavjudligini kuzatamiz. Navoiy esa soqiy va mutribdan so‘ng o‘z-o‘ziga ham murojaat qiladi.

Asosiy qism voqealari Iskandarning tug‘ilishidan boshlanadi. Rum mamlakatining shohi Faylaqus tangridan farzand so‘raydi. Bir kuni ovdan qaytar ekan, shaharga kiraverishdagi vayronada yangi tug‘ilgan chaqaloq va o‘lik onani uchratadi. Shoh o‘likni dafn ettirib, chaqaloqni o‘ziga farzand qilib oladi va unga Iskandar deb nom beradi. Shoh Iskandarning ta’lim-tarbiyasiga katta e’tibor qiladi va Arastuning otasi Naqumojisni unga ustod qilib tayinlaydi. Iskandar toj-taxt va boylikka emas, balki ilm-fan va olijanob fazilatlarga muhabbat ruhida ulg‘ayadi. Doston bilan tanishish jarayonida Navoiy shunchaki Iskandar tarixini yozishni emas, balki u bilan bog‘liq voqealarning ma’nosini ochishni maqsad qilganini ko‘ramiz. Buni yuqorida keltirganimiz muayyan axloqiy masalaning ta’rifi, hikoyatlar, savol-javob va lirik xotimalarning o‘zaro almashinib kelishidan ham sezish mumkin. Faylaqus vafot etgach, valiahd sifatida taxtni Iskandar egallashi kerak edi, lekin u taxtga chiqishga oshiqmaydi. Xalq uning shoh bo‘lishini qattiq talab qilib turib olgandan keyingina, Arastu unga toj kiygizadi. Iskandar xalq oldiga shart qo‘yib, kimning arz-dodi bo‘lsa, shohni o‘zi bilan teng ko‘rib ahvolini aytishini so‘raydi.

Iskandar taxtga o‘tirgach, adolat bilan mamlakatni boshqara boshlaydi. Xalqni ikki yillik xirojdan ozod etadi. Dostonda shu o‘rinda adolatning ta’rifi beriladi. Bu ta’rif hadislar vositasida tushuntiriladi. Masalan, bir

soatlik adolat farishtalarning, dunyodagi barcha insonlarning toatidan afzal degan hadis keltiriladi. So'ng shoh Mas'udning bir kuni tushida otasi Mahmudni nurga g'arq bo'lgan holda jannat bog'larida yurganini ko'rgani va otasidan bu holga qanday sazovor bo'lganini so'raganida, otasi Hindistonni egallash vaqtida elga qilgan birgina adolati tufayli Alloh unga shunday martabani loyiq ko'rgani haqida so'zlab bergani to'g'risida hikoyat ilova qilinadi. "Hikmat" bobida esa Iskandarning Arastu bilan adolat haqida- gi savol-javobi keltiriladi. Arastuning fikricha, shoh har bir ishda adolat mezoni asosida ish tutsa, uning mulk-u mamlakati obod, xalqi badavlat bo'ladi. Xalq badavlat bo'lsa, askarlarning maoshi ham ortadi va qo'shin hamisha g'olib bo'ladi. Shu tariqa Iskandar adolat mezoni asosida ko'plab mamlakatlarni egallaydi, suv tubiga tushadi.

23-bobdan dostonga Doro obrazi kirib keladi. Navoiy Doroga tavsif berar ekan, uning kayoniylar sulolasi vakili, jahon podshosi sifatida Kayxisrav-u Kayqubodlarning avlodi ekanini, uning davlatni boshqarishida Luxrosbning tartiblari, qo'shinida Gushtosbning qonunlari ustuvorligini bayon qiladi. Doro va Iskandar orasidagi xiroj mojarosi ixtilofning paydo bulishiga olib kelganini afsus bilan ta'kidlaydi.

Urush boshlanadi. Ammo tez orada Doroning noiblari xiyonat qiladilar va u yarador holda Iskandarga asir tushadi. Ulimi oldidan xiyonatkorlarni jazolash, uning qarindosh-urug'lariga ozor bermaslik va qizi Ravshanakka uylanishni Iskandarga vasiyat qiladi. Iskandar Doroning barcha vasiyatlarini ortig'i bilan ado etadi, Doroni izzat-ikrom bilan dafn qiladi. Shu o'rinda Iskandarning jahongir shoh bo'lish bilan birga mard inson ekani ham g'oyat mohirlik bilan tasvirlanadi.

Iskandar Eronni egallagach, jahonni fath etishga kirishadi. Ko'plab o'lka podsholariga xat yozib, mamlakatda adolat va osoyishtalik o'rnatmoqchiligini va shunga mos holda o'z ixtiyorlari bilan unga taslim bo'lishlarini so'raydi. Aksariyat podsholar bo'yin egib keladilar. Faqat Kashmir, Hind va Chin xoqonlarigina unga bo'ysunishni istamaydilar. Iskandar Kashmirda yurish qilishga majbur bo'ladi va mamlakat shohi Malluni bo'ysundiradi. Uning vasiyatiga binoan qizi Mehrnozga uylanadi, o'g'li Feruzni Kashmirda podsho qiladi. Hirot va Samarqand shaharlarini

barpo qiladi. Tez orada Hind va Chin xoqonlari ham Iskandarning sha'n-u shavkatiga tan berib, unga jangsiz taslim bo'ladilar.

Iskandar yer yuzini egallagach, dengiz sirlarini ham bilish uchun uzoq safarga chiqadi. Shishadan sandiq yasab, ummon tubiga tushadi va ko'plab ajoyibotlarni ko'radi. Ammo safardan qaytishda xastalanadi hamda tutingan onasi Bonuga o'g'illikni o'rniga qo'ya olmaganini uchun uzr so'rab maktub yozadi. Mazkur maktub butun dunyoni zabt etsa-da, oxir-oqibat u dunyoga hech bir narsasiz, ochiq qo'l bilan ketayotgan, olamga shoh bo'lgandan ko'ra onadek buyuk zotga qullik qilish sharafi yuksakroq ekanini anglagan ulug' jahongirning iqornomasi edi.

Asosiy qismning so'nggi bobida yetti faylasuf hakim: Aflotun, Suqrot, Balinos, Buqrot, Hurmus, Farfinyus va Arastu Iskandarning onasiga ta'ziya bildirgani keladilar. Shu bilan Iskandar voqeasi poyoniga yetadi.

Asar boshqa dostonlardan farqli ravishda, kattagina xotima bilan yakunlanadi. U 6 bobdan iborat bo'lib, "Saddi Iskandariy" dostonini tugallash bilan muayyan ma'noda "Xamsa"ga ham yakun yasaydi. Xotima quyidagi boblarni o'z ichiga oladi:

84-bob – Husayn Boyqaro va uning farzandlari ta'rifi.

85-bob – Hakimlar (donishmandlar) ta'rifi.

86-bob – Gadoning shohga nasihati xususida.

87-bob – So'z gavhari xususida.

88-bob – Darveshaliga nasihat.

89-bob – Xulosa.

Dostonning so'nggi bobida Navoiy unga baxt-davlat rahnamolik qilib, nihoyat, "Xamsa"ni yakunlaganini yozar ekan, "Hayrat ul ab-ror" dostoni yozilishidan boshlab "Saddi Iskandariy" yakunlanguncha bo'lgan jarayonni birma-bir eslab o'tadi. Navoiy tong otib kech kirguncha el-yurt tashvishi bilan band bo'lgani holda salaflari uzoq muddat yozgan "Xamsa"ni juda qisqa muddatda – ikki yilda yakunlaganini, agar bevosita faqat yozish uchun ketgan vaqt hisoblab chiqilsa, olti oyga ham bormasligini faxriya tarzida bayon qiladi.

Navoiy o'z beshligi kitobxonlar tomonidan qanday baholanishini bilish uchun ustoz Abdurahmon Jomiyning huzuriga boradi va unga "Xamsa"ni taqdim etadi. Jomiy asarni birma-bir varaqlab, shoirga lutf bilan

munosabatda bo‘ladi hamda bir qo‘lini uning yelkasiga qo‘yadi. Ustoz va pir Jomiyning qo‘li yelkasiga tekkach, shoir bir lahza hushini yo‘qotadi va taxayyul olamiga g‘arq bo‘ladi: Navoiy ajoyib bir gulistonda sayr qilib yurib, bir guruh suhbatdoshlarni ko‘rib qoladi. Ulardan biri shoir tomonga kelib o‘zini fors-tojik shoiri Hasan Dehlaviy deb tanishtiradi va davradagilar Navoiyni ko‘rmoqchiligini aytadi. Navoiy hayajon bilan davra ahliga yaqinlashadi. Hasan Dehlaviy ularni Navoiyga tanishtiradi. O‘rtada Nizomiy Ganjaviy, uning ikki yonida Xusrav Dehlaviy va Abdurahmon Jomiy, ularning atrofida o‘tirganlar esa Firdavsiy, Unsuriy, Sa‘diy, Sanoiy, Xoqoniy va Anvariylar edi.

Davradagilar Navoiyni ko‘rishlari bilan o‘rinlaridan turadilar va bir qo‘lidan Xusrav Dehlaviy, ikkinchi qo‘lidan Abdurahmon Jomiy tutib, Nizomiyning yoniga o‘tqizadilar. Navoiy Nizomiyga ta‘zim bajo keltirib, yoniga o‘tiradi. Nizomiy Navoiyning “Xamsa”siga yuksak baho beradi va Jomiydan shoir haqqiga duo o‘qishini so‘raydi... Shu onda Navoiy taxayyul olamidan qaytib qarasa, Jomiy qo‘lini uning yelkasidan olgan va unga qarab turgan ekan. Jomiy Navoiyni ulug‘ muddaoga yetishgani bilan qutlab, Tangriga shukrona keltirishga chorlaydi. Nihoyat, Allohdan madad so‘rab ibtido topgan “Xamsa” buyuk Yaratganga shukronalik bilan yakun topadi.

“Saddi Iskandariy” mutaqorib bahrining mutaqoribi musammani mahzuf (ruknlari va taqti’i: fauvlun fauvlun fauvlun faul) vaznida yozilgan.

Savol va topshiriqlar:

1. “Hayrat ul-abror”dan keltirilgan maqolat va hikoyatlarning mazmun-mohiyati, g‘oyasi nimalardan iborat?
2. Ulug‘ shoir “Farhod va Shirin” dotonini ijod etarkan, uni yangicha tarhda yaratish niyatini qanday tamsillar vositasida badiiy ifoda etgan?
3. Xuddi shu holat “Layli va Majnun”da qanday bayon etiladi?
4. Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” dostonida ulug‘ salaflarining ijodiy tajribasiga qanday munosabat bildiradi? Ularning Xusrav, Shirin va Farhod muhabbati mojarolaridan bahs etuvchi dostonlari xususidagi turkiy xamsa ijodkorining e’tirozlari nimalardan iborat?
5. “Fahod va Shirin” dostonidagi yetakchi obrazlarning ramziy-majoziy xususiyatlarini izohlang.

6. “Layli va Majnun” dardchil ishqiy-sarguzasht mavzusining tarixiy asosi va tadrijiy takomili xususida nimalami bilasiz?

7. Dostondagi («Layli va Majnun»dagi) tun va tush lavhalarining o‘ziga xos xususiyatlari haqida so‘zlang.

8. Layli va Majnunlarning pok sevgisi haqidagi mushohadalarinizi bayon eting. Majnunning Ka’ba ziyorati tafsilotlari lavhasini sharhlashga harakat qiling.

9. Shoh Bahromning ishqiy sarguzashtlari mavzusining tarixi va tadrijiy takomili haqida gapiring.

10. “Sab’ayi sayyor” dostonining Shoh Bahrom ishqiy saiguzashtlariga bag‘ishlangan shu mavzudagi boshqa asarlardan jiddiy farqlanuvchi jihatlari nimalarda namoyon bo‘ladi?

11. “Sab’ai sayyor” dostonidagi tush lavhasining ijtimoiy ahamiyati nimalardan iborat?

12. Iskandar haqidagi afsona va rivoyatlarning keng tarqalishini qadimgi tarixchilar qanday izohlashadi?

13. “Saddiy Iskandariy”ning nomlanishida qanday majoziy ma’no mujassam? U ni boshqa dostonlar nomlari bilan qiyosiy izohlashga harakat qiling.

14. “Iskandar va gadolikni ixtiyor etgan shahzoda muloqoti”da qanday umumbashariy muammolar xususida fikr yuritiladi?

15. Iskandarning adolatli shoh ekanligi dostonidagi qaysi lavhalarda o‘z ifodasini topgan? Ulug‘ jahongir vasiyatining mohiyati nimalardan iborat?

NAVOIY – DOSTONNAVIS. “LISON UT-TAYR” – FALSAFIY-MAJOZIY DOSTON

REJA:

1. Dostonning kompozitsion qurilishi.
2. Dostonning janr xususiyatlari.
3. “Lison-ut-tayr” dostonidagi asosiy timsollar va ularning majoziylik xususiyatlari.

“Lison ut-tayr”(“Qush tili”) Alisher Navoiy hayotining so‘nggi yillarida ijod etilgan falsafiy, ilohiy-irfoniy, axloqiy-ta’limiy doston bo‘lib, unda Haq, Borliq va Inson munosabatlariga doir ulug‘ mutafakkirning teran mushohadalari badiiy in’ikosini topgan. Shoir asarning hamd bobida Tangri taoloning buyuk yaratuvchanlik xususiyatlarini vasf qilar ekan, Allohning butun olamni vujudga keltirishdan ko‘zlagan maqsadi Inson ekanligini quyidagi satrlarida badiiylashtiradi:

Ofarinishdin qilib inson g‘araz
Oning aylab xalq ichinda beevaz
Ko‘nglin oning maxzani irfon qilib,
Ul tilism ichra o‘zin pinhon qilib.

Ulug‘ shoir dunyoqarashiga ko‘ra, Allohning olamni yaratishdan maqsadi inson bo‘lgani bois uni butun yaratqlar orasida beevaz, ya’ni tengsiz qilib vujudga keltirdi. Odamning ko‘nglini irfon-tafakkur bilan olamni anglash xazinasiga aylantirgan buyuk Tangri o‘zini mana shu ko‘ngil tilsimi ichra yashirdi. Demak, inson ulug‘ Yaratuvchini o‘z ko‘nglidan izlamog‘i, ishq o‘ti, dard kuli bilan poklanib shaffof holga kelgan ko‘ngil ko‘zqusida jilvalangan Alloh jamolini ko‘rish baxtiga muyassar bo‘lmog‘i lozim. Buning uchun riyozat bosqichlaridan sabot va matonat bilan o‘tib, ma’naviy komillik rutbasiga ko‘tarilish talab etiladi. Yuksak badiiy salohiyat sohibi bo‘lgan Alisher Navoiy olamdagi eng oliy mavjudot sanalgan insonga ilohiy ne’mat sifatida in’om etilgan ong, shuur va fikrlash qobiliyati ilm bilan uning ko‘nglini yanada ma’nan boyitishni, natijada Alloh sifatlarini o‘zida mujassam qila boshlagan ko‘ngil bilan Yaratuvchi orasida ruhan birlik hosil bo‘lishini qushlar tilidan majoziy

tasvirlaydi. Sharq xalqlari adabiyotida mavjud bo'lgan bunday adabiy tajriba Alisher Navoiyni maktab ostonasiga endi qadam qo'ygan davrlaridanoq o'ziga oshufta qilgan edi. Ulug' shoir hijriy qamariy hisob bilan 60 yoshga to'lganida, ana shu ruhda yozilgan Shayx Fariduddin Attorning "Mantiq ut-tayr" dostonini bolalik davridayoq yod olganini e'tirof etadi. Fors-tojik adabiyotining yirik namoyandasi Fariduddin Attor 1148-1151-yillar orasida Nishopur yaqinidagi Kadkana qishlog'ida tavallud topgan. Uning asl nomi Muhammad bo'lib, shoir otasi Abubakr binni Ibrohimdan meros qolgan attorlik do'konida faoliyat ko'rsatgan va tabiblik bilan shug'ullangan. Fariduddin Attor juda ko'plab ilohiy-irfoniy mohiyat kasb etuvchi asarlar hamda bir qator g'azal va qasidalar muallifidir. Manbalarda shoirning 1219-1221-yillarda vafot etganligi qayd etiladi. Alisher Navoiy "Lison ut-tayr"da Fariduddin Attorning vahdat (Alloh bilan birlashish) sirlari tavsiriga bag'ishlangan nazm va nasrda ijod etilgan adabiy merosini juda yuksak baholaydi. Shoir olamdagi dengiz va konlarda bor narsalar Attor do'konida (ijodida) ham yuzlab mavjudligini e'tirof etadi. Eng muhimi, "Mantiq ut-tayr" muallifi asarlarida insonni tubanlik botqog'idan poklovchi g'oyalar o'zining badiiy ifodasini topgan:

Odami tab'ini jahl aylab zalil,
Har yamon axloqdin qilsa alil.
Bo'lg'oli zoyil har andoq illati,
Bu do'kon ichra muhayyo sharbati.

Alisher Navoiy dostonidagi ulug' salafiga bag'ishlangan bobda Fariduddin Attorning "**Musibatnoma**"si ko'ngilga tushgan musibatga taskin berishi, "**Ilohiynoma**"si ilohiy sirlarning tugal sharhi ekanligi, "**Ushturnoma**" ("**Tuyanoma**")sida har xil nozik ma'nolar go'yo nortuyalar kabi tizib qo'yilganligi, "**Lujjai hiloj**" ("**Umr bulog'i**") asaridagi ma'no durlarining har birining qiymati butun bir mamlakat xirojiga tengligini bayon etadi. Shuningdek, shoirning qasida, g'azal va ruboiylariga yuksak baho beradi hamda "Nasr ila chun tazkira mavjud etib, Avliyo arvohini xushnud etib" baytida Fariduddin Attorning "Tazkirat ul-avliyo" asarini nazarda tutadi. Alisher Navoiy shoirning nomlari keltirilgan asarlari qanchalik tahsinga sazovor bo'lsa, uning "Mantiq ut-tayr" dostoni

ham shunchalik e'zozga arzigulik ekanligini ta'kidlaydi va Shayx ruhidan madad olib, shu yo'sinda asar yozish niyatini bayon qiladi.

“Lison ut-tayr” dostonining xos xususiyatlari haqida ko'pgina olimlar, jumladan, E.E.Bertels, V.Zohidov, N.Mallayev, B.Valixo'jayev, A.Hayitmetov, Sh.Sharipov, N.Komilov, R.Vohidov, H.Ne'matov, M.Mahmudov, I.Haqqul, S.Olim kabilar ilmiy tadqiqotlarida o'z munosabatlarini bildirishgan. Asarni eski o'zbek yozuvidagi dastlabki tanqidiy matn holidagi nashri (Toshkent:”Fan ,” 1965) Sharofiddin Eshonxo'jayev tomonidan amalga oshirilgan. Kirill yozuvidagi nashri (Alisher Navoiy. Asarlar.15-tomlik, 11-tom, T:”Fan,”1965) ham Sh.Eshonxo'jayev sa'y-harakatlari bilan chop etilgan. O'lkamizda milliy istiqlool shabadalari esa boshlagan davrlarda “Lison-ut tayr”ga munosabat ancha o'zgardi. Adabiyotshunos V.Rahmonov asarning asl matnini (ilmiy tanqidiy nashr asosida) “O'zbek adabiyoti bo'stoni” rukni ostida keng o'quvchilar ommasiga taqdim etdi. Unda olim “Ko'ngillar ham rozi” nomli so'zboshisi bilan ishtirok etib, dostonning nashri, o'rganilishi tarixi haqida teran mulohazalarini bayon etdi. Alisher Navoiy “Mukammal asarlar to'plami”(20-tomlik)ning 12-jildi “Lison-ut tayr”ga bag'ishlangan bo'lib, uni ham sharh-u izohlar bilan Sh.Eshonxo'jayev nashrga tayyorlagan.

“Lison ut-tayr” **193 kichik bobdan** tarkib topgan bo'lib, dostonning **13 bobi** an'anaviy muqaddimani tashkil etadi. Unda hamd, munojot, na't, chahoryorlar: Abu Bakr Siddiq, Umari Foruq, Usmon Zunnurayn, Hazrati Aliga bag'ishlov va hikoyatlar hamda Shayx Fariduddin Attor madhiga o'rin berilgan. Asarning asosiy voqealar tizimi **14-bobdan boshlanadi**. Kunlarning birida guliston, dengiz, o'rmon va sahro qushlari o'z guruhlari bilan bir yerga jam bo'lib majlis qiladilar. Ular muhabbat bilan kuy kuylab, yana osmonga parvoz qilmoqchi edilar. Chunki bu bazmda ularning o'rinlari belgilangan emasdi-da. Shu bois qushlar orasida nizo chiqdi. Bu kelishmovchilikning sababi tojdorlar poygohda qolib, tojsiz qushlar to'rga chiqib o'rnashgani, hunarlilar o'rnini hunarsizlar egallab olgani va to'rdagilar quyida joylashgan qushlarga nopisandona munosabat ko'rsatganlari bo'ldi. Ular sodir bo'lgan bunday mojaroni qizg'in muhokama qildilar hamda insof-u diyonatli, yaxshi tartib o'rnata oladigan va adolatli podshoga muhtoj ekanliklarini ma'lum qildilar. Qushlar orasidagi g'avg'o-

to‘polon va uning muhokamasi ishtirokchisi bo‘lgan Hudhud (Popishak) aql nuridan bahramand, boshini to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatuvchi toj bezab turgan, sharaf-u izzati yuksak qush edi. U shoh izlab, uni topa olmay, hayron bo‘lib tuigan qanotli jonivorlar davrasiga devonavor kirib **Qof tog‘ida** yashovchi **Anqo**, butun olamda **Simurg‘** nomi bilan shuhrat topgan zoti oliy qush haqida so‘zlaydi.

Borcha olam qushlarig‘a shoh ul,
Holingizdin mo‘-bamo‘ ogoh ul.
Ul yoqin sizga-u siz ondin yiroq,
Vasl anga oyin, vale sizga- firoq.
Har parida yuz tuman rangi ajib,
Lek bar rangida yuz naqshi g‘arib,
Naqsh-u rangidin xirad ogoh yo‘q,
G‘ofil erkonga xirad ikroh yo‘q.
Kim xirad idrokidin afzundur ul,
Mundin idrokig‘a topmas aql yo‘l.
Siz tushib ul shohdin behad baid,
Ul yoqinroq sizga min hablil varid.
Har kishi bo‘lsa tirik ondin yiroq,
Ul tiriklikdin o‘lum ko‘p yaxshiroq.

Qushlar Hudhudning so‘zlaridan shodlanib, Simurg‘ haqida surishtira boshlaydilar. Shunda Hudhud Simurg‘dan ba‘zi nishonalar so‘zlaydi. Keyin uning tunda Chin shahri uzra parvoz etgani, Simurg‘ parvozidan butun shahar yorishib, xalq beshuur bo‘lib qolgani, podshoh qush qanot qoqqanida, bir pari yerga tushib, bu par butun Chin mamlakatini hasham-bezakka o‘rab yuborganini bayon qiladi. Simurg‘ haqida afsona eshitgan qushlar tabiatida shavq o‘ti alangalana boshlaydi va ular bunday shohdan ayri yashash mumkin emasligini tushunib yetishadi. Hudhud qushlarni Simurg‘ni izlashga targ‘ib etadi va **To‘ti, Tovus, Bulbul, Qumri, Kaklik, Tazarv (Tustovuq), Durroj (Qirg‘ovul), Shohboz (Lochin), Shunqorga** alohida-alohida murojaat qilib, ularni Simurg‘ vasliga erishishga chorlaydi. Hudhud qushlarni ishq sirlaridan voqif qildi. U vasl va hijron haqida so‘zladi. Qushlarga o‘zlarining hijronda qolganliklari malol kelib, ular vasl haqida shirin xayolga berildilar. Qanotli jonivorlar bu yo‘lda qanchalik

mashaqqat-u azob bo‘lmasin, barchasiga bardosh berib shoh oldiga borishga qaror qilishdi. Qushlar keng samo uzra parvoz qilib ulug‘ maqsad yo‘lida qanot qoqa boshlaydilar. Bir necha kun ko‘kda katta jamoani tashkil etib, ko‘ngildagi ezgu niyatga yetish ilinji bilan harakatlanayotgan qushlar bir sahrodan uchib o‘tishadi. Yo‘lda juda ko‘p qiyinchiliklar, ranj-u alamlar ularga yuzlanadi. Odatiy hayot tarzining o‘zgarishi qushlarni toliqtiradi. Ular o‘zlari nochor ahvolda ekanliklarini Hudhudga bildiradilar. Hudhud qushlarni to‘plab bir vodiya qo‘nadi va ularning arz-dodlarini tinglaydi. Qushlar birin-ketin maqsadning ulug‘ligi, yo‘lning sermashaqqatligi-yu, o‘zlarining ojiz-u notavonliklarini vaj qilib o‘z uzrlarini bayon qiladilar. Ba‘zilari o‘zlarini shoh bilib boshqa shoh izlashga ehtiyoj yo‘qligini ham ro‘kach qilishadi. Shunda Hudhud To‘tiga hiylagarlikni kasb qilgan yashil chakmon kiygan kishi, Tovusga masxaraboz hindu, Bulbulga shohga oshiq bo‘lgan gado, Qumriga uquvsiz bog‘bon, Kabutarga ishyoqmas, tanbal kishi, Tog‘ kakligiga tolei past qallob kishi, Tazarvga Muqbil va Mudbir, Qarchig‘ayga bir tog‘lik odamning sayyoh yurgan ayiqni qo‘lga o‘rgatishi, Shunqorga bir podsho bazmida o‘zini bo‘yra shohi deb e‘lon qilgan masqaraboz; Burgutga hunarsizlikda yagona bo‘lgan zo‘r pahlavon qismati, Kuf (Boyo‘g‘li)ga ganj umidida jonidan ayrilgan telba, Humoyga savdogarning arziyas besh-o‘n dirhami evaziga dengiz tubidan sadaf izlovchi g‘avvos, O‘rdakka Makka atrofini suvda bir necha bor aylanib pulga hirs qo‘ygani bois haj farzini ado etmay dengizga g‘arq bo‘lgan savdogar haqidagi hikoyatlarni so‘zlaydi. Bu hikoyatlar uzrini bayon etgan qushlarning tabiatidagi noqisliklar bilan uyg‘unligi, ayni choqda ularda inson tabiatidagi illatlar keskin tanqid ostiga olinganligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Hudhud majlis nihoyasida Tovuqning uzrini tinglaydi. U Yaratuvchi tomonidan Toquqqa bir yerda muqim yashash hukm qilinganligini bahona qiladi. Dostonda shu o‘rinda Hudhud tilidan quyidagi ibratomuz fikrlar baytlar bag‘riga singdiriladi:

Bor oningdek qushki ochmay bol-u par,
Sidra shohi ustida aylar maqar.
Keldi xilvatgoi oning anjuman,
Sayr etar lekin yeri doim vatan.
Arsh parvoz o‘ldi-yu sidranishin,

Elga zohir aylamay parvoz ishin.
Ermas ul Simurg‘din ayru dame,
Vaslidin ko‘ngliga o‘zga olame.
Yetmayin jonig‘a hajridin gazand,
Surati vaslida har dam naqshband.

“Lison ut-tayr” qahramonlari orasida ko‘kda parvoz etish bobida o‘n to‘rt qushning eng ojizi Tovuqdir. Bu borada O‘rdak ham Tovuqqa o‘xshab ko‘rinsa-da, uning suvda bermalol suza olishi sayr-u sayohatdagi imkoniyatini ancha kengaytirgan. Har ikkala jonivorning ham ucha olish imkoniyatini asardagi boshqa obrazlar bilan qiyoslaydigan bo‘lsak, ularning qushligi, albatta, o‘ta shartlidir. Alisher Navoiy ana shu ikki obrazni shartli ravishda qushlar safiga qo‘shish bilan insonni komillik rutbasida ko‘rish, haq vasliga yetish xususidagi o‘zi e‘tiqod qo‘ygan naqshbandiya tariqati g‘oyalarini badiiylashtiradi. Buni Tovuq uzriga javoban Hudhud tilidan aytilgan yuqoridagi misralar misolida yaqqol ko‘rish mumkin. Asarda Tovuq umumiy nom sifatida Xo‘rozga nisbatan qo‘llanilgan. Shu bois bu jonivor Tangri taqdir etgan qismatidan so‘zlarkan, Yaratganning o‘zi unga subhi shomda elni toatga-namozga chorlashni va bir joyda sokin yashashni hukm qilganligi, erlik bobida esa unga omad berib, bir necha chiroyli kelinlarni (tovuqlarni) in‘om etganini ta‘kidlaydi. Xullas, Tovuq Qof tog‘iga borib Simurg‘ning vasliga yetishni o‘zi uchun ushalmaydigan orzu deb biladi. Tabiiyki, uning ojiz-u notavonligi fikrlarining ancha o‘rinli ekanligini dalillaydi. Biroq Hudhud osmonning yettinchi qavatida o‘sadigan sidra daraxti shohida maqom tutib, qimirlamay turadigan qush Simurg‘dan bir nafas ham ayri emasligini misol keltirib Tovuqning uzrini inkor etadi. Naqshbandiya tariqatidagi shiorlarni kasb etgan qush “Xilvat dar anjuman” aqidasi ga amal qiladi. Botinda Allohni zikr qilib, u haqda mushohada yuritadi. Shuningdek, bir joyda muqim turuvchi bu qush “Safar dar vatan” aqidasi ni ham amalda tadbiq etadi. U botinan parvoz etib, uni elga oshkor qilmaydi. Shu bois u Simurg‘ vaslidan bir nafas ayri emas. Tabiiyki, asarda Tovuq va sidra shohini maqom etgan qush bir yerda muqim yashovchi avom va orifning majoziy timsollaridir. Orif insonga in‘om etilgan ulug‘ ne‘mat taxayyul, tafakkur qilish va muroqabadan bahra olib, ko‘nglini Allohning jilvagohiga aylantiradi, avom esa buni xayoliga ham keltirgan emas.

Hudhud har bir qushning uzrini tinglab, ularga munosib javob qaytargandan so'ng, qushlar o'zlarining Simuig'ga bo'lgan nisbatlarini so'raydilar. Hudhud Simurg' zuhuridan so'z ochib, uning butun olam go'zalligini o'zida saqlovchi zoti avval bir maxfiy xazina ekanligini, keyinchalik u ko'zguda jilvalana boshlaganini so'zlaydi. Olamdagi barcha qushlarning shakli uning hikmatga to'la soyasidan iboratligini ma'lum qiladi. Asarda Hudhud tilidan ifodalangan fikrlarning dalili sifatida "Ul shoh hikoyatikim, husnini zohir qilurg'a ko'zguni vasila qildi" va "Iskandarning elchilikka borg'on hikoyati"ga o'rin beriladi. Qushlar Hudhuddan bu yo'lning ahvolini surishtira boshlaydilar. U bu yo'ldagi kishining eng oliy sifati ishq bo'lmog'i lozimligini bayon qiladi. Qushlar dostonidagi eng yirik hikoyat, ta'bir joiz bo'lsa, she'riy qissa deb nomlash mumkin bo'lgan Shayx San'onning ishqiy sarguzashtlarini tinglagach, Simurg' vasliga erishishga qat'iy qaror qilishadi. Endi ularning horib charchaganlari tamoman unut bo'lib, ixtiyorlarini ishq qo'llaridan olib qolgan, barchalari shavq o'tidan beqaror edilar. Ko'ngildagi niyatni amalga oshirish qat'iyati mashaqqatli yo'ldagi to'siqlardan mardonavor o'tishni talab qilardi. Biroq qushlar to'dasida zor-u zaif, ojizlar ham bor. Butun jamoani ezgu maqsad sari boshlovchi bir rahbarga ehtiyoj seziladi. Qushlar shunday rahbar sifatida Hudhudni tanlaydilar, biroq u bu ishni o'z zimmasiga olmaydi. Qushlar nomiga qur'a tashlanadi. Qur'a tashlash natijasiga ko'ra, Hudhud qushlar to'dasini Simuig'ning manzili tomon boshlovchi rahbar bo'ladi. Qanotli jonivorlar rahbarlari rahnamoligida bir necha kun parvoz yetib benihoya cheksiz kulfat va hajr shomiga qiyos qilgulik bir vodiya kelib qolishadi. Qushlardan biri bu yo'l nima sababdan bo'm-bo'shligini so'raganda, Hudhud ularga Boyazid Bistomiyni bir tunda maxluq jinsidan asar bo'lmagan vodiyni keziishi haqidagi hikoyatni so'zlab beradi. Qushlar ko'nglida vahima, qo'rquv hukmronlik qila boshlaydi. Ammo ular ortga qayta olmas edilar. Shu bois olis manzilga yetish uchun ko'ngilda xotirjamlik paydo qilish maqsadida bir yerga to'planadilar va yana Hudhudni savolga tuta boshlaydilar. Hudhudning javoblari ularni ezgu maqsad sari sabot bilan harakat qilishga chorlaydi. Ayniqsa, qushlarning rahbari o'z mulohazalarini dalillovchi payg'ambar-u ulug' shayxlar, darvesh-u zolim shohlar hamda oddiy xalq vakillari sarguzashtlari bilan

bog‘liq ibratli hikoyatlarni so‘zlashi ularni yanada ruhlantiradi. Dostondagi Shayx Najmiddin Kubroning so‘zi va itga tushgan ko‘zi, Shayx Abu Sayid Abubxayr, Odam Safiy alayhis-salom, Shayx Abu Turob Naxshabiy, zolim podshoh va ikki darvesh, Shayx Xaraqoniy, Basra shahridagi bir ochko‘z kishining choponiga tikilgan boyligi bilan suvga g‘arq bo‘lishi, o‘zini darvesh qiyofasida ko‘rsatgan bangi, Arastu va uning kofirlar ibodatxonasidan chiqqan go‘zalga oshiq bo‘lgan shogirdi, Sulaymon va Azroil, Misrdagi bir oliyhimmat kishi, Odamga sajda qilmagan Azozil, Shoh Ibrohim Adham, qiyomat kuni Jom Shayxi mast Zinda Pilning Tangriga murojaati, Xoja Muhammad Porso, Majnun anal-haq, Boyazid Bistomiyni tushda ko‘rgan murid, Shayx Abu Bakr Nishopuriy, Xoja Abdulla Ansoriy, Abu Said Xarroz, shahzoda va uning oshiqlari singari hikoyatlarda insonning nafsoniyat iskanjasidan xalos bo‘lib, komillik rutbasini qozonishi g‘oyasi o‘zining badiiy ifodasini topgan. Hudhud asl manzilga yetish uchun y yetti vodiylar: talab, ishq, ma‘rifat, istig‘no (ehtijojsizlik), tavhid (birlik), hayrat va faqr-u fano (faqirlik va yo‘qlik)ni bosib o‘tish lozimligini bayon etadi. Har bir vodiylar haqidagi Hudhudning mulohazalari hamda ularni quvvatlantirish uchun keltirgan ibratli hikoyatlar qushlarni doimo ruhlantirib turadi. Oqibatda ulardan o‘ttiztasi yetti vodiylardan o‘tib Simurg‘ manziliga etadi. Qushlar Simurg‘ jamolini ko‘rsatib o‘zlarini foniylardan boqiylikka erishtiradi, degan xayol bilan yo‘lga chiqishgan edilar, biroq ular yetib kelganda, manzillarining qay tomoniga boqishmasin, unda o‘zlarining akslarini ko‘ra boshladilar:

Ko‘rdilar o‘zni qayonkim tushti ko‘z,

Olloh-Olloh ne ajoyibdur bu so‘z.

Kim qilib Simurg‘ni o‘ttuz qush havas,

O‘zlarin ko‘rdilar ul si murg‘u bas.

Ulug‘ shoir keltirilgan iqtibosda tajnis badiiy san’atiga murojaat etib, qushlar sayridan ko‘zlangan maqsad mohiyatini kitobxon shuuriga kutilmagan tarzda singdiradi. Bu Simurg‘ jamolini ko‘rish orzusida ne-ne dengiz-u quruqliklardan o‘tgan o‘ttiz qush simurg‘ (fors-tojikcha, o‘ttiz qush) sifatida o‘zlarini ko‘rishlarida namoyon bo‘ladi. Shoir riyozat, azob-uqubat chekish poklanish asosi ekanligini nafsoniyatni yenggan insonda ruhoniylar-ma’naviyatdan boshqa narsa qolmasligini qushlar tili va qushlar

timsollarida ifodalaydi. Shuningdek, Alisher Navoiy Alloh, olam va odam birligi falsafasidan kelib chiqib quyidagi xulosani bayon etadi:

O‘z vujudingg‘a tafakkur aylagil,
Har ne istarseng o‘zungdin istag‘il.

“Lison ut-tayr”da o‘z odatiy hayot tarzidan uzilib, ezgu maqsad sari yo‘l olgan qushlarning dastlabki sinovlarga bardosh berolmay uzrxohlik qilishlarida, ularning tabiatida haddan ziyod kibr-havoga berilish mayli ustuvorligi sezilib turadi. Jumladan, Shunqor Hudhudga uzrini bayon qilarkan, o‘zining qushlar shohi ekanligini e‘tirof etadi. Hatto, mening barcha ahvolimni: qushlar orasidagi zotimni ham, otimni ham yaxshi bilasan, deya Hudhudga sha‘ma qiladi. “Xo‘b emas bir shah qo‘yub boshig‘a toj, O‘zga shahg‘a zohir etmak ehtiyoj”, - derkan o‘zidagi menlikdan iftixor tuyayotganligi sezilib turadi. Hudhudning javobida esa o‘zini podsho deb bilgan bu kibrli qush ayovsiz tanqid qilinadi:

Har kishi ermen debon ennu bo‘lur,
Kelmas ishni ilkidin dermu bo‘lur.
Qavmi nodonkim degaylar seni shoh,
Butni yo o‘tni degondektur iloh.

Hudhud tilidan so‘zlangan hikoyat ham g‘oyatda ibratli. Unda ko‘ngil yozish niyatida butun mamlakatga katta to‘y bergan ulkan hukmdor bazmida bir behayo razil kishi o‘zini bo‘yra shohi deb e‘lon qilganligi bayon etiladi. Hikoyatdan anglashilishicha, bir necha nokas masxaraboz do‘stlarini ham o‘ziga o‘xshash yasantirgan bo‘yra shohining kiyimi, o‘q-yoy soladigan xaltasi, qalqon va bayrog‘i ham bo‘yradan edi. Masxarabozlar guruhi turli buzuq, bid‘at o‘yinlar namoyish eta boshlaydi. Ularning boshlig‘i o‘zini mamlakat shohi kabi tutib, ko‘rsatayotgan hazillarini chin deb biladi. Bazm nihoyasiga yetgandan so‘ng, bu ablah o‘zicha ta‘ziya tutdi. Uni ushlab olib, soyaboni va tojini boshiga urdilar, bo‘yra to‘nini esa buzib, kuydirib yubordilar. Alisher Navoiy hikoyani quyidagi bayt bilan yakunlaydi:

Bo‘ldi bu hangomadin ogohlig‘i,
Kim tamashur ermish oning shahlig‘i.

Ko‘rinadiki, bo‘yra shohi bo‘lib o‘tgan voqealardan so‘ng, o‘zining shohligi masxara bo‘lishdan boshqa narsa emasligini anglaydi. Asardagi

qushlar ana shunday o'git-u hikoyatlar ta'sirida tabiatlarida mahkam o'rnatilgan takabburlikdan xalos bo'la boshlaydilar. Hudhud Simurg' vasliga eltuvchi yo'lni tanlaganlar uchun eng oliy sifat ishq ekanligini e'tirof etarkan, ishq ahlidan maslahat yiroqligi-yu jonon uchun jon-u jahonidan kechish hech gap emasligini so'zlaydi. Uning fikricha, oshiq tan-u jondan ham, aql-u hush-u kufr-u iymondan ham, or-u nomus, mazhab-u islomdan ham fard bo'lmog'i lozim. Ishqqa faqat shavq, yonish va dard munosibdir. Shayx San'on rivoyati asosida vujudga kelgan asardagi eng jozibali she'riy qissa qushlar ko'nglini bu yo'ldagi kulli sifat bo'lgan ishq bilan ziynatlaydi. Alisher Navoiy talqinidagi Shayx San'on — ko'ngli g'ayb sirlaridan ogoh, K a'bada shayxul-mashoyih maqomiga erishgan ulug' zot. Shohlar uning ostonasida gadolik, ogoh kishilar unga qulluq qilishdan iftixor tuyadilar. U biror g'amgin kishi haqida duo qilsa, malaklar to'dasi qo'l ko'tarib "omin"deydi. Har biri Junayd Bog'dodiy, Boyazid Bistomiy maqomidagi to'rt yuz ashob-u muridi uning atrofida. Duolari doimo ijobat bo'lguvchi bu shayx tushida biror narsa ko'rsa, shubhasiz, bu voqea uning o'ngida ham ro'y beradi. Shayx San'on bir necha tun bir xil tush ko'radi:

Kim matofi erdi bir begona bum,
Aylasa ma'lum, ul bum erdi Rum.
Onda bir dayr ichra erdi zor-u mast,
Mastlig'din dayr elidek butparast.

Shayx tushida begona bir yerni tavof qilar edi. Keyin ma'lum bo'lishicha, bu yer Rum ekan. U yerdagi bir butxona ichida zor-u mast holda turgan Shayx mastlikdan o'sha ibodatxona ahli kabi butparastlikka yuz tutgan edi. Bu balodan saqlanib bo'lmasligiga ishonch hosil qilgani bois irshod maqomidagi ulug' murshid tushda ko'rgan mamlakatiga safar qiladi. Tariqat piriga to'rt yuz murid ham bu yo'lda hamroh bo'ladilar. Ular Rumga yetib borgach, Shayx San'on ko'nglida yuz xil to'palonlar tug'yon ura boshlaydi. U hamrohlari bilan qayerga bormasin, banogoh, oldlarida g'alati butxona paydo bo'lardi. Dunyo dunyo bo'lib bu xil butxonani sira ko'rmagan, uning toqi osmon gumbaziga yetar, juft-u toqida esa ko'pgina sirlar yashirin edi. Dostonda uning tasviri o'ziga xos mubolag'ali tarzda ifoda etilgan:

Kunguridin rahnlalar imon sari,

Ishq shaynining namudori bari.
Ta'biya bar kungurida toshlar,
Ishq tig'idin kesilgan boshlar.
Ahli din boshig'a parron qilg'ali,
Olam uzra sangboron qilg'ali.
Fitna xaylig'a mamar darvozasi,
Fitnagar toqi sipehr andozasi.

Bu ajib butxona tasviriga bag'ishlangan baytlardagi mazmunda islom dini peshvosi boshiga tushuvchi ishq savdosining nihoyatda og'ir sinovlariga ishoralar borligini sezish mumkin. Barchasi ishq dog'ini oshkor etuvchi butxona kungiralar imonga rahna soladi. Kungiralarida saf tortgan toshlar ishq tig'idan kesilgan boshlarni eslatadi. Go'yo bu toshlar din ahlining boshini uchirib yuborish, olam uzra ularni toshbo'ron qilishga mo'ljallangandek. Darvozasi fitna to'dasi yurib o'tadigan joy, fitnagar toqi esa bu hunarda falakdan andoza olgan. Bularni ko'rgan Shayxning tanasida harorat ko'tarila boshlaydi. Xastahol, parishonxotir bir holatda har tarafga qarab turganida, uning qarshisida yuziga parda tortilgan bir go'zal paydo bo'ladi. Shu payt shamol kelib, uning yuzidagi pardani ko'tarib yuboradi va quyosh yanglig' ma'shuqa jamolining nuri har tarafga yoyilib ketadi. Tarso qizining husn-u jamoli Shayx San'on ko'ngliga chaqnagan chaqin bo'lib, uning es-hushini o'zidan begonalashtiradi:

Qasr uza bu shakl ila tarso qizi,
Bal quyosh ayvonida bo qizi.
Shayx ko'ngliga choqilg'och o'yla barq,
Shu'la daryosig'a joni bo'ldi g'arq.

Shayx San'on nihoyatda ezilgan va zaif holda butxona tuprog'ida xor-u zor holda yotadi. U o'zining bunday ayanchli ahvoliga yig'lab, o'tkazgan tunining nihoyatda uqubatli, do'zax o'tining tuniga o'xshash vahimali ekanligini bayon qiladi. As'hob-u murid nasihatlarini inobatga olmaydi. Ularning o'gitlariga rioya qilmoq uchun kishi o'zligini yo'qotmagan bo'lishi lozimligini bayon qiladi. Erta tongda ibodatga kelgan butxona ahli Shayxning bu holidan juda mamnun bo'ladilar. Nihoyat, nomusga chiday olmagan muridlar Shayxni yolg'iz tashlab ketishga ahd qilishadi. Shayx bir oy davomida tahqirlangan holda yotadi. Tarso qizi bu holning sababchisi

o‘zi ekanini bilsa-da, bilmaslikka oladi. Kunlarning birida bexud yotgan Shayxning oldiga nozli husni bilan butun olamga o‘t soluvchi tarso qizi kelib, u bilan hamsuhbat bo‘ladi. Shayx butxona ichida bu xil xor, ishq bandiga giriftor bo‘lishi va joniga yuz xil balolarning yuzlanishiga sabab - tarso qizining yuzini ko‘rgani ekanligini aytadi. Shunda qiz yoshi to‘qson bilan yuzga borib qolgan, eng oliy sifat egasi bo‘lgan murshiddan bunday so‘zlarni eshitganiga hayratlanib, unga ta’na qiladi. Shayxni beqarorlikda, tili bilan ko‘ngli bir emaslikda ayblaydi. Shayx o‘zining haqiqiy oshiq ekanligini bayon qilgandan so‘ng, tarso qiz o‘zining quyidagi shart va jurmona (jarima)larini oshig‘iga taklif etadi:

Kim mening vaslim tamanno aylamish,
Ixtiyor etmak kerakdur to‘rt ish:
May ichib, zunnor olib, bo‘lg‘onda mast,
Kuydurub Mus’hafni, bo‘lmoq butparast.
Ishqning bu to‘rt erur shukronasi,
Yona ikki ish erur jurmonasi.
Kim erur bu to‘rt takbiri fano,
Ul iki bu to‘rt ifnosi yano.
Xo‘kbonlig‘ keldi bir yil yonasi,
Bo‘lmoq otashgoh o‘ti devonasi.
Shayx agar bu dayr aro oshiq esa,
Ishqining da’vosida sodiq esa.
Bu edi shukrona ham, jurmona ham,
Ko‘p balolar bormu mundin yona ham.
Gar mening vaslim sanga matlub erur,
Hamnishin bo‘lmog‘lig‘im marg‘ub erur.
Bu deganlarni qabul etmak kerak,
Vasl ko‘yida nuzul etmak kerak.

Shayx San‘on tarso qizining vasliga yetish uchun barcha shartlarni bajaradi: may ichib, zunnor bog‘laydi, butparastlikni qabul qilib, Qur‘onni o‘tda kuydiradi. Bir yil davomida kunduzlari cho‘chqa boqadi, tunlari otashgohda o‘t yoqish bilan mashg‘ul bo‘ladi. Uning ixtiyoridagi to‘rt yuz as‘hob-u murid Shayxni bu ahvoldan xalos qilishga hech imkon topa olmagach, har yoqqa tarqalib ketishadi. Shayxning fano maqomiga erishgan

bir muridi bo‘lib, u hayotda ishq savdosi bilan juda ko‘p to‘qnashgan kishi edi. Murshid Rum safarini ixtiyor etganda, uning doimiy hamrohiga aylangan bu sodiq izdoshi taqdir taqozosi bilan boshqa mamlakatni maskan tutgandi. Murid Ka‘baga qaytadi. Shayxdan panohtab xonaqoh tomon yuzlanadi, biroq u yerdan biror kishini topa olmaydi. Shayx muridlarining xalfasi bo‘lgan bu kishini bo‘lib o‘tgan voqeadan xabardor qiladilar. Barcha as‘hob-u muridlarni bir yerda to‘plab, Shayx ahvolini diqqat bilan o‘rgangan “sohib dardi rindi boxabar” faqraro muridlik shartini buzganlarni qattiq qoralab, jumladan, shunday deydi:

Shayxkim pir erdi-yu sizlar murid,
Borchag‘a irshodidin behbud umid.
Faqraro sharti irodat keldi bu,
Kimni qilsa murshidi farxunda xo‘.
Xayl-u as‘hobi tashabbuh aylamak,
Tangriga lekin tavajjub aylamak.
Gar taalluq bo‘lsa, gar tajrid anga,
Har ne qilsa aylamak taqlid anga.
Siz vafosizlarg‘a faqr atvori hayf,
Ahli taqvo hirqa-u dastori hayf.

Dard sohibi bo‘lgan murid so‘zlaridan anglashiladiki, Shayx San’onni Rumda yolg‘iz qoldirgan izdoshlar faqrlik shartiga vafosizlik qilganlar. Faqrlikdagi murid-u murshidlik munosabatlari buzilgan. Unga ko‘ra, kimki qutlug‘ tabiatli bo‘lib murshidlik qilsa, muridlari ham unga o‘xshash bo‘lishlari lozim. Bundagi asosiy talab tangriga tavajjuh qilish Allohga yuzlanmoqdir. Shunday ekan, pirning qilgan amallaridan murod “tangriga tavajjuh”dan boshqa narsa emas. Shu bois Shayx yaxshi-yomon kunlarida nima ish qilgan bo‘lsa, muridlar ham unga taqlid etishlari lozim edi. Biroq ular “faqr ahli atvori” faqrga taalluqlilar sifatiga amal qilmadilar. Dard sohibi bo‘lgan murid haligi jamoa bilan biigalikda Rumga yo‘l oladi. Shayx esa butun inon-ixtiyorini tarso qizga topshirgan edi. U telba oshiq bo‘lib, maydan mast holda bexudlik dardiga muhtalo bo‘lgan, unda imon-u islom, aql, zuhd-u taqvodan asar qolmagan edi. O‘zligini tamoman unutgan oshiq oldiga kelgan as‘hobu muridni tanimaydi, ulardan yuz o‘girib, cho‘chqalar to‘dasi tomon qaraydi. Shayxning ko‘zi ishq g‘avg‘osidan xiralashib

qolganini e'tirof etgan sodiq murid safdoshlariga Allohga hamd-u sanolar aytib, Ka'baga qaytishni maslahat beradi. O'zi esa shaharga borib, otashparastlar boshlig'iga maqsadini ayon qiladi. Ko'nglida Shayxning bu darddan xalos bo'lishini niyat qilib xudoga munojot qilish, duo o'qish bilan vaqtini o'tkazadi. Tangri uning iltijolarini qabul qiladi. Sodik murid tushida Muhammad payg'ambarni ko'radi. Alloh rasuli muridning sidq ila qilgan iltijolari ijobat bo'lganini ayon qilib, jumladan, shunday deydi:

Sidq ila tuz niyatingg'a ofarin!
Sa'y-u oliy himmatingg'a ofarin!
Oncha zohir aylading ajz-u niyoz,
Kim tarahhum birla hayyi korsoz.
Ayladi ajz-u niyozingni qabul,
Nola-u so'z-u gudozingni qabul.
Tengri maxfiy hikmati izhorida,
Sayr dashtida, suluk atvorida.
Solik ollida qo'yuptur voridot,
Kim o'zin qutqarmay ondin yo'q najot.
Shayxingizg'a voride erdi qavi,
Ko'rmagan ondoq bu paydo rahravi.
Haq najot yetti karomat, shod bo'l,
Shukr aylab qayg'udin ozod bo'l.
Chun sanga yuzlandi ko'p ranj-u taab,
Haq bu lutf aylarga sen bo'ldung sabab
Sharh qildi chun rasululloh bu roz,

Shodlig' ashkin to'kub sohib niyoz. Alloh rasuli sodiq murshidning sadoqatiga tahsinlar aytib, Tangri o'z maxfiy hikmati namoyishida bu yo'lga kirganlarga voridot-olami g'ayb narsa-hodisalarini suluk ahliga zohir qilishini bayon etadi. Payg'ambar alayhis-salomning e'tiroficha, kishi o'zini bulardan qutqarmay najot topa olmaydi. Shayx San'on shunday bir sinovga yo'liqqanki, bu ahvolga hech bir yo'lovchi tushmagan edi. Alloh rasuli Shayxga sodiq muridning sa'y-harakatlari haq lutfiga sabab bo'lganini ayon qiladi. Erta tongda barcha as'hobi muridlar xalifa boshchiligida Shayx makon tutgan manzilga yo'l oladilar. Tarso qizi oshig'iga g'oyibdan ogohlik yetgan edi. U kofirlar kiyimini tashlab, yana hirqa kiyadi va butun

jamo'a Ka'ba sari ravona bo'lishadi. Tarso qizining tushiga Iso payg'ambar kirib Shayx San'on orqasidan Ka'baga borishini, Shayxdan kechirim so'rab, uning jufti haloli bo'lishi lozimligi haqida xabar beradi. Nasroniy qizi Shayx oyog'ining izi bo'lishni istab Ka'ba tavofi uchun yo'lga tushadi. Azim biyobonda qizni vahima, qo'rquv, hayrat bosib kela boshlaydi. Azob-uqubatlar shiddati uni holsizlantiradi. Oliy darajali Shayx va "muridi rahravi ogohga" bu hodisa ayon bo'ladi. Ular butun jamoa bilan voqea yuz bergan joyga yetib kelishadi. Tarso qiz Shayxga juda ko'p urzxohlik qilib, islom dinini qabul qiladi va bir oh chekib oshig'i qo'ynida jon beradi. Shayx San'on Ka'ba ziyoratiga borgandan so'ng, qazo uning yoriga qo'shganligi she'riy qissaga yakun yasovchi baytlarda o'z ifodasini topgan.

Alisher Navoiy talqinidagi Shayx San'on hikoyati o'zining nihoyatda jozibadorligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Sulukni ixtiyor etgan solik kulli sifat bo'lgan ishq bilan ziynatlanarkan, Tangrining maxfiy hikmatlari ko'z oldida namoyon bo'lishi uchun juda mushkul sinovlarga bardosh berishi, "Tangriga tavajjuh"gina solikni oliy maqomga ko'tarishi she'riy qissada o'z ifodasini topgan. Shoir Rumdagi butxona, tarso qizi tavsifini bayon etishda nihoyatda yuksak badiiy salohiyat sohibi ekanligini namoyish etadi. A s'hob-u muridlaming Shayx San'onga nasihatlarini, ayni choqda o'zligini unutgan murshidning ulaming o'gitlarini keskin rad etishi, tarso qizining dashnomlariga javoban keksa oshiqning ishq mayidan sarxushligini ifodalovchi so'zlari asar bosh qahramoni qiyofasini shunday ochib beradiki, oqibatda Shayx San'onning ishqiy kechinmalari, dard-u alamlari o'quvchi ko'z oldida aniq gavdalanadi. "Lison ut-tayr" dostonida insonning ma'naviy kamolot pillapoyalaridan odimlashishiga to'siq bo'lib, uni tubanlik, razillik botqoqlariga eltuvchi eng katta dushmani bo'lgan nafsga qarshi kurashda murosasiz bo'lishga da'vat etiladi. Ko'ngil istaklari nafs tizginiga o'tsa, uning oqibati halokat bilan yakunlanadi. Jumladan, O'rdak uzriga javoban aytilgan hikoyatda "moyai savdo dimog'iga tushib", bir yurtda o'n kun turmay dengiz orqali savdo-sotiq bilan shug'ullanib yurgan savdogar suvga g'arq bo'lib, katta bir baliqqa yem bo'lishi o'z ifodasini topgan. Savdogar Makka atrofini necha bor suvda kezib chiqqan bo'lsa-da, ko'ngil istaklarini o'z izmiga olgan nafs uning Alloh oldidagi farzini ado etishiga imkon bermaydi. Shuningdek, bir qush "Bir nafas gar

bo‘lmasa ilkimda siym, Hajridin jonimg‘a bor o‘lmakka biym”,-deya o‘z nuqsonini so‘zlab shikoyat qilganida, Hudhud basralik bir xasis kishining halokati haqida hikoya qiladi. Unda tasvirlanishicha, o‘sha tuban tabiatli kishi juda katta xazina to‘plab ulami yeiga ko‘madi. Kunduzlari ham osmonda yaraqlagan yulduzlar kabi ko‘zni oluvchi oltinlarining bir qismini tanimga quvvat, jonimga sihat bo‘ladi, deb o‘ylab to‘niga tikib oladi. Baxil kishi bir kun savdo-sotiq qilish uchun daryo sohiliga keladi. U yerda savdo qilgan molidan tushgan harom pullariga ovqatlanadi. Shundan so‘ng, daryo qirg‘og‘iga borib qo‘llarini yuvayotganda, to‘ni og‘irlik qilib suvga g‘arq bo‘ladi. Ko‘rinadiki, “Lison ut-tayr”da qalamga olingan turli hikoya, masal va qissalar uning yaxlit bir doston holida shakllanishida hamda asardagi asosiy mavzu insonni komillik rutbasida ko‘rishni har tomonlama to‘laqonli tasvirlashda imkon yaratgan. Dostonda Simuig‘ — haq vasliga vosil bo‘lish niyatida harakatlanayotgan kibrli qushlaiga turli toifa vakillari bo‘lgan kishilar, shuningdek, avliyo va nabilar, haq oshiqlarining yashash tarzi, orzu-intilishlari, maqsadlari ibrat namunasi sifatida keltiriladi. Alisher Navoiy dostonda o‘zining falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, ilohiy-irfoniy, axloqiy-ta’limiy qarashlarini turli majoziy, tarixiy va to‘qima obrazlar vositasida tasvirlarkan, inson ko‘nglini ma’rifat nurlariga oshno qilishni eng muhim muddao deb biladi. Ulug‘ shoir “Lison ut-tayr” asari bilan dostonlar turkumidan tashkil topuvchi xamsachilikda qanchalik shuhrat qozongan bo‘lsa, alohida doston ijodkori sifatida ham shunday maqom sohibi bo‘ldi. Alisher Navoiy dostonlari faqatgina turkiy adabiyot tarixida emas, balki Sharq xalqlari mumtoz badiiy ijodiyotida muhim hodisa bo‘lganligi ko‘plab ijodkor va olimlar tomonidan e’tirof etildi.

Savol va topshiriqlar:

1. Alisher Navoiy “Lison ut-tayr” asarining yozilishi tarixi haqida gapirib bering.
2. Shoir ulug‘ salafi Fariduddin Attorning qaysi asarlari haqida ma’lumot beradi?
3. Dostonning qisqacha mazmunini hikoya qiling.
4. Asardagi Simurg‘, Hudhud va boshqa qushlar timsollarining ramziy-majoziy xususiyatlari nimalardan iborat?

5. Hudhudning Tovuqqa qilgan nasihatlarida qanday ma'no mujassam?

6. Shayx San'on she'riy qissasining umumiy mazmunini hikoya qiling. Shayxning as'hob-u muridlar nasihatini rad etishi, tarso qizining oqibatda islom dinini qabul qilishini izohlang.

7. Alisher Navoiy talqinidagi "sohibi dard-u rindi boxabar" muridning boshqa muridlardan farqi nimada? Nega u boshqalarni faqraro muridlik shartini buzganlikda ayblaydi?

8. Dostonda nafsga berilishning ayanchli oqibatlari haqida qanday hikoyatlar keltirilgan?

NAVOIY – ADABIYOTSHUNOS

REJA:

1. “Mufradot” - muammo janriga bag‘ishlangan asar.
2. “Majolis un-nafois” - turkiy tildagi birinchi tazkira sifatida.
3. “Mezon ul-avzon”da aruz nazariyasiga doir masalalarning yoritilishi.

“Mufradot” - muammo janriga bag‘ishlangan asar. Alisher Navoiy badiiy ijod bilan birga ilmiy faoliyatni teng olib borgan buyuk mutafakkirdir. Uning adabiyotshunoslik, tilshunoslik, tarix, din tarixi va nazariyasiga doir ko‘plab asarlari muhim ma’lumotlarni qamrab olganligi, aniq dalillarga asoslanganligi va obyektiv xulosalarga egaligi bilan bugungi kun ilm-fani uchun ham nihoyatda qimmatlidir. Jumladan, shoir adabiyotshunoslikka doir “Mufradot”, “Majolis un-nafois”, “Mezon ul-avzon” kabi asarlarini yaratgan.

Alisher Navoiyning “Mufradot” yoki “Risolai muammo” asari hijriy 890, milodiy 1485-yilda fors-tojik tilida yaratilgan.

Risola muammo janrini yechish qonun-qoidalariga bag‘ishlangan. Ma’lumki, muammo arabcha “ko‘r qilingan”, “yashiringan” ma’nolarini bildiruvchi va bir, ba’zan esa ikki baytdan iborat mustaqil she’r turidir. Muammoda biror ism yoki narsa-buyum nomi berkitiladi. Bunda arab yozuvidagi harflar turlicha o‘zgartirish yo‘li bilan yashiringan so‘zlar topiladi. Muammo 2 xil ma’no asosiga quriladi: tashqi (chalg‘ituvchi) va ichki (asosiy).

Alisher Navoiy “Risolai muammo” asarida ungacha yaratilgan asarlarning murakkabligi va ulardagi kamchiliklar haqida gapirar ekan, o‘z asarida iloji boricha ularni bartaraf qilishga intiladi. Shoir risolaning kirish qismida g‘oyat kamtarlik bilan uni yaratishdan maqsad olimlar e’tiboriga havola qilish emas, balki keng xalq ommasi, xususan, yosh avlodga muammo sirlarini o‘rgatish ekanini ta’kidlaydi: “Bu muxtasar asarning risolalar qatoriga kirish qobiliyati va bu kaminada uni olimlar ko‘zlariga ko‘rsatish salohiyati bo‘lmasa ham, bolalarga muammo amallarini o‘rganishlarini osonlashtirish uchun yarashi mumkin”. Risolaning yozilish tarixi haqida “Xamsat ul-mutahayyirin” asarida ham ma’lumot beriladi.

Asarda aytilishicha, bir kuni Alisher Navoiy o‘zidan avval muammo haqida yaratilgan asarlar va ulardagi murakkabliklar haqida o‘ylab o‘tirganida, huzuriga Abdurahmon Jomiy tashrif buyuradi. Navoiy unga muammoga doir sodda va oddiy xalq ommasi uchun tushunarli bo‘lgan asar yozmoqchiligini aytadi. Shunda Jomiy o‘zi ham anchadan beri shu haqda o‘ylab yurganini ta’kidlab, qisqa muddat ichida “Risolai muammoi manzum” asarini yaratadi va Alisher Navoiyga ko‘rsatadi. Navoiy uning ancha murakkab (xalq ommasi uchun tushunarsiz) ekanini ko‘rib o‘zi “Risolai muammo” asarini yaratadi va Jomiyga tuhfa qiladi. Jomiy asarni nihoyatda yuksak baholab, o‘g‘li Ziyovuddin Yusuf uchun darslik sifatida tavsiya etadi. “Mufradot” asarida muammoning turli uslub va amallari ixcham, ravon tilda bayon qilinadi. Muammo amallariga keltirilgan misollar ham nihoyatda aniq va tushunarlidir.

Asarda Alisher Navoiy muammo amallarini 3 qismga ajratadi:

- 1) a‘moli tahsiliy - hosil qilish amallari;
- 2) a‘moli takmiliy - mukammallashtirish amallari;
- 3) a‘moli tasxiliy - osonlashtirish amallari.

Navoiy a‘moli tahsiliyga ta’rif berar ekan, uning intiqod (saralash) degan turini izohlab, unga ko‘ra so‘zning ba’zi harflarini olish orqali muammo hosil qilinishini aytadi va ODAM ismida:

Dili moro chu xohy boz justash

3-ohu dardu mehnat cho‘ naxustash

(Ma’nosi: Dilimizni yana axtarmoqchi bo‘lsang Oh, dard, mehnatdan birinchisini qidir) www.ziyouz.com kutubxonasi 180 Dilnavoz Yusupova muammosini misol qilib keltiradi. Bu muammoni yechish uchun oh, dard, mehnat so‘zlarining bosh harflari olinsa, ODAM ismi kelib chiqadi.

Shuningdek, MALIK ismida:

Jonibi huru so‘yi Kavсарu Firdavs mapo‘y,

Ruxi on mohu labi la’lu sari ko‘yash jo‘y

(Mazmuni: Hur, Kavсар, Firdavs tomoniga borib yurma, Ul moh (oy)ning yuzini, la’l labini va ko‘chasining boshini izla) muammosi keltirilib, bunda moh, la’l va ko‘cha so‘zlarining boshi, ya’ni birinchi harflari olinishi orqali MALIK ismi kelib chiqishi ta’kidlanadi.

Asarda shu tarzda 3 amal, 15 qism, 48 ta uslub qoidalari hamda ular bilan bog‘liq holda 121 ta muammo va uni yechish usullari ko‘rsatib beriladi. Risolada muammoning turli uslub qoidalari, yuqorida ko‘ringanidek, ixcham va tushunarli tilda bayon etilgani uchun asar o‘z davrida va undan keyin ham keng shuhrat qozondi.

“Majolis un-nafois” - turkiy tildagi birinchi tazkira sifatida. “Majolis un-nafois” (“Nafosat ahlining majlislari”) – XV asrda Movarounnahr va Xurosonda yashagan 459 ijodkor hamda adabiy hayot bilan aloqador voqealardan bahs etuvchi noyob tazkiradir. Asarning birinchi tahriri 1491-yilda vujudga kelgan bo‘lib, u 1498-yilda muallif tomonidan qayta tahrir qilingan va to‘ldirilgan. Alisher Navoiy “Majolis un-nafois”ning kirish qismida tazkirada Sulton Husayn Boyqaro tavalludi (1438) dan asar yozilgan davrgacha faoliyat ko‘rsatgan shoir va she‘riyatga aloqador siymolar haqida ma‘lumot berilganligini qayd etadi. Ayonlashadiki, “Majolis un-nafois”da muallif o‘zi bilan bir davrda yashab qalam tebratgan shoirlarning badiiy ijodiga oid adabiy-tanqidiy qarashlarini ifoda etgan, shuningdek, zamondosh tab‘ ahli hayoti va faoliyati bilan bog‘liq ma‘lumotlarni yozib qoldirgan.

“Majolis un-nafois” muqaddima, sakkiz majlis va xotimadan iborat. Muqaddimada asarning yozilishi sabablari bayon etiladi. Tazkiraning tuzilish tamoyillariga ko‘ra sakkiz majlisni uchga bo‘lib tasnif etish mumkin:

1. I-III majlislar. Bunda nomlari keltirilgan shoirlar bilan Alisher Navoiyning uchrashgan-uchrashmagani, ular bilan muloqotda bo‘lgan-bo‘lmagani asos qilib olingan. Jumladan, tazkira muallifi uch-to‘rt yoshlarida mashhur mutasavvif shoir va faylasuf Qosim Anvor (vafoti h. 735, m. 1432) ning g‘azallarini sevib yod olgani va adabiyot muhiblari davrasida ulardan namunalar o‘qib, suhbatdoshlarini xushhol qilganini xotirlab, “tayammun (biror ishni o‘ngdan boshlash) jihatidin bu muxtasarni (tazkirani ma‘nosida) alarning sharif ismi bila ibtido qil”ganini uqtiradi hamda “tabarruk bo‘lgani uchun” bu ulug‘ shoir g‘azallaridan ikki matla‘ keltiradi. Alisher Navoiy bolalik chog‘laridanoq Qosim Anvor she‘riyatining ixlosmandi bo‘lgan va umrining oxirigacha bu ulug‘ Shayxga bo‘lgan e‘tiqodi shoirni hech qachon tark etmagan: “...Va ul hazratning muborak

marqadi (qabri) Jom viloyatida Harjut qasabasidadur. Va faqir hamul ostona joro‘bkashlaridinmen”, – deya e’tirof etadi tazkira muallifi. Alisher Navoiy Qosim Anvorni o‘zi ko‘rmagan bo‘lsa-da, nihoyatda hurmat qiladi. Shu bois asar muallifi “Majolis un-nafois”ning o‘zi shaxsan uchratish sharafiga musharraf bo‘lmagan ijodkorlarga bag‘ishlangan “avvalg‘i majlisi”ni Amir Qosim Anvor nomi bilan boshlashni ulug‘ saodat deb biladi va shoir haqida ancha mufassal ma’lumot beradi.

2. IV – VI majlislar. Bu fasllarda she’riyatga daxldor shaxslar – fozillar, mirzozodalar hamda Xurosondan tashqari hududlarda yashovchi fozil va donishmand kishilar haqida ma’lumot beradi.

3. VII – VIII majlislar. Yettinchi majlisda she’r hamda nazmga mayli yuksak bo‘lgan Amir Temur va temuriy shahzodalar xususidagi mulohazalarga o‘rin berilgan bo‘lsa; sakkizinchi majlis to‘laligicha Sulton Husayn Boyqaroga bag‘ishlangan. Arab va fors-tojik adabiyotida tazkirachilik an’anasi Alisher Navoiy davriga qadar juda katta tarixiy taraqqiyot bosqichini o‘tadi. Abu Mansur as-Saolibiyning “Yatimat ad-dahr...”, Muhammad Avfiyning “Lubob ul-albob”, Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkiratkirat ush-shuaro” asarlari tazkirachilik ravnaqiga muhim hissa bo‘lib qo‘shildi. “Majolis un-nafois”, avvalo, turkiy tilda yaratilganligi bilan yuqorida nomlari keltirilgan tazkiralardan tubdan farq qiladi. Shuningdek, unda XV asrda yashab, turkiy va fors-tojik tilida ijod etgan zullisonayn shoirlar haqida ma’lumot beradi. Asarning XVI – XVIII asrlarda to‘rt marta Faxriy Hirotiy, Muhammad Qazviniiy, Shoh Ali, Abulboqi Sharif Razaviylar tomonidan fors-tojik tiliga tarjima qilinishi tazkirada davr adabiy muhiti har tomonlama mufassal yoritilganligidan dalolat beradi.

XV asrdagi zullisonaynlik an’anasi haqida Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” asari nodir ma’lumotlar beradi. Mana, o‘shalardan ayrimlari: Alisher Navoiy turkigo‘y shoir Yusuf Amiriy xususida fikr yuritarkan, yozadi: “Mavlono Amiriy turk erdi va turkcha she’ri yaxshi voqe’ bo‘lubdur, ammo shuhrat tutmabdur. Va bu bayt aning “Dahnoma”sidindur:

Ne emakdin, ne uyqudin solib so‘z,

Yemakdin to‘yub uyqudin yumub ko‘z.

Va forsiyda Shayx Kamol tatabbu’i qilibdur. Bu matla’ avningdurkim:

Ro‘zi qismat har kase az aysh baxshi xud sitond,

G'ayri zohid k -o ' riyozatho kashidu xushk mond.
Aning qabri Badaxshon sari Arhang saroydadir”.

Ko‘rinadiki, Alisher Navoiy Yusuf Amiriyga samimiyat bilan munosabatda bo‘ladi, uni o‘z davrining iste’dodli ijodkori tarzida hurmat bilan eslaydi. Yusuf Amiriyning hayot yo‘li va adabiy merosiga doir amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar ulug‘ o‘zbek shoiri ko‘rsatmalarining hayotiy va ilmiy xulosalar ekanligini tasdiqlaydi. Davlatshoh Samarqandiy o‘z tazkirasida Yusuf Amiriy haqida ma’lumot berar ekan, uning Shohruh Mirzo saltanati zamonida shuhrat qozonganligini ma’lum qiladi. Yusuf Amiriydan bizgacha yetib kelgan va ilmiy jamoatchilikka ma’lum bo‘lgan kichik she’riy shakldagi asarlardan tarkib topgan devoni, “Dahnoma”, “Chog‘ir va bang” munozarasi kabi ma’naviy merosi zamondoshlari tomonidan aytilgan samimiy mulohazalarning to‘g‘riligini ko‘rsatadi. Yusuf Amiriy o‘z zamonasining zullisonayn shoiridir. “Majolis un-nafois”da yana bir shoir haqida quyidagilar qayd etilgan: “Mavlono Hoji Abulhasan – turkdur, ammo tolibi ilmlikka mashg‘ul bo‘lib, biror nima modda hosil qilibdur, chun tab’i xo‘b erdi, she’r ayturg‘a mashg‘ul bo‘ldi. Bu turkcha matla’ aningdurkim:

Kelibtur ul gul-u bir hafta turub boradur,

Bu o‘t ko‘ngulga tushub jonni kuydurub boradur.

Muammo fanida dag‘i yaxshi erdi. “Boyazid” ismig‘a bu latif muammo aningdurkim:

Har ki binad sarvi man boloi zeboi turo,

Bar kanori dida ravshan kunad choi turo”.

Alisher Navoiy tomonidan fors-tojik tilida yozilgan muammosi latif asar sifatida e’tirof etilgan Mavlono Hoji Abulhasanning ham har ikki: turk-o‘zbek hamda fors-tojik tillarida nafis she’rlar yaratuvchi zullisonayn ijodkor bo‘lganligiga shak-shubha qolmaydi. Adabiy dalillar XV asrning birinchi yarmida o‘zbek adabiyotida katta jonlanish yuz berganligini ko‘rsatadi. Bu holatni shu adabiyotda rang-barang she’riy shakllarda yaratilgan sara asarlarda, salohiyatli ijodkorlar safining ko‘pligi misolida ko‘rish mumkin. Yana bir muhim tomoni shundaki, adabiyot maydoniga shiddat bilan kirib kelgan iqtidorli qalam sohiblari bir xalqning ma’naviy merosidan bahra olish, uni boyitish bilan kifoyalanmay, ikki xalq ma’naviy

chashmalaridan nur emib, ular zavqi, armoni, orzu-istagini hisobga olgan holda dilbar asarlar yozishgan. Ana shu tariqa turkiy xalqlarga mansub qalam ahli o'z ona tili bilan bir qatorda fors-tojik tilida ham g'oyaviy-badiiy barkamol asarlar ijod eta boshladi. Bunday xayrli urinishlar tufayli Zullisonayn ijodkorlar safi to'lishib bordi. "Mavlono Qutbiy, – deydi Alisher Navoiy "Majolis un-nafois" tazkirasida, – Sulton Mas'ud Mirzo mulozimi erdi. Sho'x tab' kishi erdi. Turkiy va forsiy she'rda jald erdi. Bu turkcha matlai mashhurdurkim:

G'uncha gar nisbat qilur o'ziga dildor og'zini.

Ey sabo eli, to'laqon ayla zinhor og'zini".

Shu tariqa, "Majolis un-nafois"da turkiygo'y va zullisonaynligi bilan shuhrat qozongan Mavlono Naimiy, Harimiy Qalandar, Mavlono Tarxoni, Darvesh Nozukiy, Mavlono Lutfiy, Mavlono Yaqiniy, Mavlono Muqimiy, Mavlono Kamoliy, Mavlono Latifiy, Mavlono Shavqiy, Mavlono Ziyo, Mavlono Gadoiy, Abulqosim Bobur Mirzo, Mavlono Bilol kabi tab' ahli haqida ham g'oyat samimiy fikr-u mulohazalar bildirilib, ularning har ikki tildagi ajoyib baytlaridan namunalar keltiriladi. Ana shu ro'yxatning o'ziyoq XV asrning birinchi yarmida adabiy muhit g'oyat gavjum bo'lganligidan darak beradi. Masalaning yana bir muhim tomoni sifatida o'sha adabiy hayotda ikki tillilikka bo'lgan ishtiyoqning tobora balandlashib borganini ko'rsatadi. "Majolis un-nafois"ga xos bo'lgan xususiyatlardan yana biri shuki, unda Xuroson va Movarounnahrdagi adabiy va madaniy hayotning ravnaqiga muhim hissa qo'shgan temuriy hukmdor va shahzodalar haqida ham ma'lumotlar keltiriladi. Tazkiraning yettinchi majlisi ulug' sohibqiron Amir Temur shaxsining badiiy adabiyotga munosabatini oydinlashtirish bilan ibtido topadi. Muallif buyuk hukmdorni "muluk shajarasining bo'stoni va salotin gavharlarining ummoni, xoqoni jahongiri sohibqiron", – deya ta'riflaydi va quyidagi ma'lumotlarni bayon etadi: "Temur Ko'ragon, agarchi nazm aytmoqqa iltifot qilmaydurlar, ammo nazm va nasrni andoq xo'b mahal va mavqe'da o'qubdurlarkim, aningdek bir bayt o'qug'oni ming yaxshi bayt aytqoncha bor". Ayonlashadiki, Amir Temur garchi badiiy ijod bilan shug'ullanmagan bo'lsa-da, juda ko'plab nazmiy va nasriy asarlardan xabardor bo'lgan, ulardan namunalar yod bilgan va adabiy davralarda faol ishtirok etgan. Alisher Navoiy "Majolis un-

nafois”da temuriy shahzodalardan Shohg‘arib Mirzo ijodi xususida kengroq to‘xtaladi, shuningdek, uning turk va fors-tojik tilidagi asarlaridan nisbatan ko‘p namunalar tanlab, tazkirasiga kiritadi: “Shohg‘arib Mirzo – sho‘x tab‘lig‘ va mutasarrif zehnlik va nozik taxayyulluq va daqiq taaqqulluq yigitdur. Nazm va nasrda naziri ma’dum va mutahayyila va hofizada adili noma’lum. Ov va qush xotirig‘a marg‘ub va qurro va o‘qush ko‘ngliga mahbub. Bu matla’ aningdurkim:

Qaysi bir gulchehra ul gulbargi xandonimcha bor,

Qaysi bir shamshod qad sarvi xiromonimcha bor.

Bu matlai ham yaxshi voqe’ bo‘lubturkim:

Tarki mehr aylab agarchi bo‘ldi jonon o‘zgacha,

To tirikman qilmag‘umdur ahdi paymon o‘zgacha.

Bu matlai xos xayol va g‘arib ado topibdurkim:

Porso yoring‘a may ichmak shior o‘lmish yana,

Baski tortarman sabu, egnim figor o‘lmish yana.

Bu forsiy matlai ham bag‘oyat oshiqona tushubturkim:

Bozam baloi jon g‘ami on mohpora shud,

Ey voy, on mariz ki dardash du bora shud.

Bu matlai ham bag‘oyat oshiqona va muxlisona va muassirona voqe’ bo‘lubturkim:

Do‘ston, hargah guzar so‘i mazori man kuned,

Joi takbiram duoi joni yori man kuned

Devon ham jam ’ qilibdur. Yaxshi matla’lari bu muxtasarg‘a sig‘mas, magar yana bir kitob bitilg‘ay”. Alisher Navoiy bu ijodkorga samimiy munosabatda bo‘ladi. Bu bejiz emas, albatta. Tazkira muallifining o‘zi mazkur sahifada bir ishoradayoq o‘sha samimiyatni qo‘zg‘atgan omilning manbai borasida gapiradi. Shohg‘arib Miizo – shahzoda. U Husayn Boyqaroning farzandi. Ammo Shohg‘arib Mirzo tabiatan boshqa shahzodalardan, shuningdek, o‘z aka-ukalaridan farq qiladi. Uning mayli ov, qush janglari singari ko‘ngil ochish o‘yinlaridan anchagina uzoqda. Bularning teskarisi o‘laroq, uning o‘qish, o‘rganish, ijod bilan band bo‘lishga rujui baland. Zotan, Shohg‘arib Mirzo tabiatidagi bu tomonlar Alisher Navoiyga ma’qul. Shuning uchun ham ulug‘shoir Shohg‘arib Mirzoni ayricha ehtirom ila xotirlaydi. Manbalarning guvohligidan ayonki, Shoh-

gʻarib Mirzo shunchaki ermak yoki shuhrat uchun onda-sonda badiiy ijodga murojaat qilgan shahzodalardan emas. Aksincha, ijod dardi uning asosiy mashgʻuloti, qalb zarurati sifatida doimiy hamdami boʻlgan.

“Majolis un-nafois”ning sakkizinchi majlisi Sulton Husayn Boyqaro ijodiga bagʻishlangan. Alisher Navoiy tazkirada maktabdosh doʻstini madh etar ekan, uni saltanat sohibi sifatida emas, balki nazm bogʻining bogʻboni, soʻz gulshanining sohibqironi, hakami tarzida sharaflashni oʻz oldida bosh maqsad qilib qoʻyadi. Shuning uchun tazkira sohibi Sulton Husayn Boyqaro faoliyatidan ana shu maqsadga xizmat qila oluvchi dalillar tanlab, oʻshalar sharhi bilan shugʻullangan. Alisher Navoiyning taʼkidicha, “ul hazratning (Sulton Husayn Boyqaroning) xoʻb ashʻori va margʻub abyoti bagʻoyat koʻptur va devon ham murattab boʻlubtur”. “Majolis un-nafois” muallifining guvohligiga koʻra, mazkur devon asosini gʻazal janrida bunyod etilgan sheʼrlar tashkil qiladi. Shuningdek, uning tuzilishi ham anʼanaviy shaklda boʻlib, toʻplamga sheʼrlar arab alifbosi sirasida joylashtirilgan. Alisher Navoiy oʻsha devondan eʼtiborga arzigulik matlallarni tanlaydi, ularni ixcham, biroq mazmundor sharh va baholar bilan toʻldirib, tazkirasiga kiritadi. Shu maʼnoda, “Majolis un-nafois”ning sakkizinchi majlisi Husayn Boyqaro ijodiy faoliyati ustida yaxlitgina tasavvur paydo qila oluvchi ixchamgina tadqiqotni xotirga keltiradi. Tazkira muallifi nazarida Sulton Husayn Boyqaro baytlarida qoʻllanilgan sheʼriy sanʼatlar ham chetda qolmaydi. Alisher Navoiy asar tabiati koʻtara olishi mumkin boʻlgan darajada maktabdosh doʻsti misralarining gʻoyaviy mazmuni, shakl va mundariyasi muvozanatini taʼminlashdagi mahorati ustida ancha jonli, hishayajondan xoli boʻlmagan fikrlarni oʻrtaga tashlaydi. Masalan, “be” harfi bilan intiho topuvchi gʻazallardan biri xususida “Majolis unnafois”da oʻqiymiz: “Bedilligʻidin telba koʻnglin tilay borgʻonin” bu gʻazalda oxirigacha musalsal aytilibdur va zebo deyilibdur:

Telbarab itgan koʻngilni istadim bar yon borib,

Togʻ-u daryo-vu biyobonlarni bir-bir axtarib...

Firoq zulmidin jongʻa oʻt va koʻnglida tobin oʻtqa tushgan qil pech-u tobigʻa tashbih qilibdur va gʻarib tashbih voqeʻ boʻlubtur:

Ey firoqning zulmidin jonimda oʻt, koʻnglumda tob,

Oʻtqa tushgan qil kabi jismim aro ham pech-u tob”.

Ta'kidlash o'rinliki, Alisher Navoiyning Husayn Boyqaro she'riy merosi xususidagi mulohazalari ayrim nuqsonlardan ham xoli emas. Xususan, o'sha davr tasvir uslubi ta'sirida aytilgan jimjimador, mubolag'ali jumlar, baho me'yorining buzilishi hollari, his-hayajon bilan aytilgan iboralar ham uchrab turadi. Ana shunday holat qator harflar bilan tugallanuvchi baytlardan oldin yoxud keyin kelgan tazkiranavis izohlarida ko'zga tashlanadi. Jumladan, "zol" harfi sarlavhasidan keyin shunday jumlani o'qiymiz: "Bu harfda dag'i muqaddam turkigo'y shuarodin, xoh Mavlono Lutfiy va xoh Mavlono Sakkokiym Movoraunnahrda malikul-kalom erdilar, nazarg'a kelmaydur, hamono yo'qtur

Qildi ruhafzo labing kulmak bila jonimni ahz,

Yig'latib kofir ko'zung ham naqdi iymonimni ahz".

Ana shu qabildagi ta'kidlar "ha", "he", "se", "sod", "zod" singari o'nlab harflar bilan yakunlanuvchi baytlardan oldin keltirilgan izohlovchi jumalarda ham yaqqol namoyon bo'ladi. Fikrimizcha, bunday o'rinlarda Alisher Navoiy aqidalarida Husayn Boyqaro salohiyatini boridan orttirib ko'rsatish, uni ma'lum darajada ilohiylashtirish mayli borday ko'rinadi. Alisher Navoiy "Majolis un-nafois"ning sakkizinchi majlisida Husayn Boyqaroni nuktasanj va hofizasi o'tkir shaxs sifatida ham ko'rsatishga urinadi. Muallifning bunday harakati, ayniqsa, o'sha majlisning ikki o'rnida yaqqol namoyon bo'ladi. Bulardan biri Mavlono Lutfiy va Alisher Navoiylar o'rtasida Amir Xusrav Dehlaviy bayti munosabati bilan bo'lgan suhbat bayonida bo'lsa (12. 207-208), ulardan ikkinchisi tazkira muallifi va Mavlono Qabuliylarning hamkorlik munosabatlariga tegishlidir. Unda hikoya qilinishicha, Mavlono Qabuliyning "tab'i turkiy va forsiy nazmg'a muloyim" bo'lib, u Hirot shahri uchun musofir hisoblanadi (12.208—209-betlar). Qunduz va Hisor tarafidan kelib qolgan bu yosh yigit Sulton Husayn Boyqaro dargohiga yo'l topish uchun o'sha zamonning an'anasiga ko'ra nazmiy vositadan foydalanmoqchi bo'ladi. Shu maqsad bilan Mavlono Qabuliy bir g'azal yaratib, uni Alisher Navoiy imtihonidan o'tkazadi. Buyuk shoir g'azalning matlasidan keyingi baytini quyidagicha tuzatib beradi:

Sarv moyil bo'ldikim, uygay ayog'ing tufirog'in,

Yo'qsa har soat sabo tahrikidin xam bo'Imadi.

Mavlono Qabuliy saroy mulozimlaridan biri orqali mazkur gʻazalni zamon hukmdoriga yetkazishga muvaffaq boʻladi. Tortiq etilgan gʻazalni koʻzdan kechirgan Sulton Husayn Boyqaro oʻsha sheʼr ikkinchi baytining Alisher Navoiy qalamiga daxldorligini his etadi va masalani oydinlashtirish muddaosida Mavlono Qabuliy saroyga chaqirtiradi. Shuningdek, oʻsha maqsadni oʻzida mujassam etgan savol bilan Alisher Navoiyga ham murojaat qiladi. Xullas, oʻz aqidasi qatʼiy ishonch paydo qilgan shoh, Alisher Navoiy va Mavlono Qabuliy obroʻyiga futur yetkazmaslikni koʻzlab masalani jamoat oldida oshkora hal etishdan saqlanadi. Shu kichkina bir lavhaning oʻzidayoq Alisher Navoiy Sulton Husayn Boyqaro faoliyatidagi uslubshunoslik, ziyraklik va andeshaning baland ekanligini koʻrsatishga erishadi.

Alisher Navoiyning “Majolis un- nafois” asarida Sharq adabiyotshunosligida shakllangan ikki anʼana: tazkirachilik va biror shoir sheʼrlariga sharh bitish uslubi koʻzga tashlanadi. Asar muallifi “Majolis un-nafois” tazkirasi vositasida XV asrda Xuroson va Muvarounnahrda yashab ijod etgan tabʼ ahliga aloqador muhim maʼlumotlarni manguga muhrladi, shuningdek, yuqorida taʼkidlangan ikki uslubni turkiy adabiyotshunoslikka olib kirdi va uning ravnaqiga muhim hissasini qoʻshdi.

“Mezon ul-avzon”da aruz nazariyasiga doir masalalarning yoritilishi. Alisher Navoiyning adabiyotshunoslikka oid yana bir risolasi “Mezon ul-avzon” (“Vaznlar oʻlchovi”) asaridir. Risolada aruz nazariyasiga aloqador umumiy maʼlumotlar keltirilishi bilan bir qatorda muallif tomonidan unga qoʻshimcha va yangiliklar ham kiritiladi. Jumladan, “Mezon ul-avzon”da aruz istilohining kelib chiqishi, ruknlar, asllar, bahrlar va bahrlar doirasi, taqtiʼ (paragdigma) va boshqa masalalar tushunarli tilda izohlanadi. Arab, fors-tojik va turkiy sheʼriyatning oʻziga xos vazni asarda deyarli har doim chogʻishtiriladi, ular oʻrtasidagi umumiylik, yaqinlik va farqli jihatlar misollar bilan oydinlashtiriladi. “Mezon ul-avzon”da har uchala xalq badiiy ijodida qoʻllanib kelingan aruzning oʻn toʻqqiz shajarasidan tavil, madid, basit, vofir va komil bahrlarida turkiy tilda juda oz ijod etilgani taʼkidlanadi. Alisher Navoiyning aruz nazariyasiga qoʻshimcha va yangiliklar kiritgani, aruz bahrlari yuzasidan tuzilgan doiralarni toʻldirishi va yangi doiralar yaratishida namoyon boʻladi. Masalan, u arab sheʼriyatiga xos tavil, madid

va basit bahrlari asosida tuzilgan, keyingi davrlarda fors-tojik tilida asarlar yaratilmagan “Doirai mushtabiha”ni “Mezon ul-avzon”ga kiritadi. Shuningdek, asar muallifi o‘zi ixtiro qilgan “Doirai mujtamia” hamda “Doirai muxtalita” haqida ma’lumot beradi. Alisher Navoiy tomonidan Sharq poetikasining tarkibiy qismi bo‘lgan aruz ilmini turkiy she’riyat qonun-qoidalari asosida yoritishi o‘z davri va keyingi asrlarda yashagan ijodkorlar uchun asosiy qo‘llanma vazifasini o‘tadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Alisher Navoiyning “Risolai muammo” asari yaratilish tarixi bilan bog‘liq nimalarni bilasiz?
2. Muammo janrining xususiyatlarini aytib bering.
3. Alisher Navoiy muammo amallarini necha qismga ajratgan? Ularni sharhlashga harakat qiling.
4. Turkiy tilda yaratilgan ilk tazkira sifatida qaysi asarni tilga olish mumkin?
5. “Majolis un-nafois” majlislarida tilga olingan shoirlar bilan bog‘liq qaysi jihatlarni bilasiz?
6. Alisher Navoiy “Majolis un-nafois”ning 1-majlisini qaysi shoir bilan boshlaydi?
7. “Majolis un-nafois”da adabiyot maydoniga kirib kelayotgan shoirlar xususida Alisher Navoiy qanday fikrlar bildiradi?
8. “Mezon ul-avzon” muqaddimasida Alisher Navoiy tilga olgan manbalarni sanab bera olasizmi?
9. “Mezon ul-avzon”da jami nechta vazn va bahrlar keltirilgan?
10. “Mezon ul-avzon”da Alisher Navoiy qaysi shoirlarning baytlaridan misol tariqasida foydalangan?

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR HAYOTI VA ADABIY FAOLIYATI

REJA:

1. Boburshunoslik tarixiga bir nazar.
2. Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va ilmiy-adabiy merosi.
3. Bobur she'riyati. G'azallarining mavzulari va badiiyati.

Boburshunoslik tarixiga bir nazar. Zahiriddin Muhammad Bobur – shoir, adib, she'rshunos – adabiyotshunos, donishmand faqih (islom qonunshunosi), tilshunos, elshunos, mantiq va riyoziyot ilmlaridan puxta xabardor jamoat aibobi sifatida o'zidan bebaho ma'naviy meros qoldirdi. Boshqa odamlarnikidan deyarli farq qilmaydigan mo'jazgina ko'ksida sherning yuragi va jur'atini ko'tarib o'tgan bu mukarram zot aql bovar qilmaydigan kashfiyotlar bilan yuzma-yuz yashab o'tdi, o'zidan sara ma'naviy xazina va nom qoldirish uchun kuiashdi. Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va faoliyati haqida ma'lumot beruvchi eng noyob ishonchi manba, shubhasizki, uning "Boburnoma"sidir. Shuningdek, bu ulug' shoir va sarkardaning qizi Gulbadanbegimning "Humoyunnoma", Muhammad Haydarning "Tarixi Rashidiy" asarlari ham "Boburnoma" maqomiga yaqin turuvchi asarlar sirasiga mansub. Buning boisi shuki, Gulbadanbegim va Muhammad Haydar Bobur Mirzo bilan yaqindan muloqotda bo'lishgani bois o'z asarlarida buyuk hukmdorning faoliyati, shaxsiyatiga aloqador qimmatli ma'lumotlarni keltirishgan. Hasanxo'ja Nisoriyning "Muzakkir ul-ahbob" (1566) tazkirasida ham Bobur Mirzo bilan aloqador ishonchli qaydlar o'z ifodasini topgan. Xuddi shunday fikrni Hindistonni idora qilgan boburiy hukmdorlar Akbarshoh, Jahongirshoh, Shoh Jahon zamonida vujudga kelgan tarixiy asarlar borasida ham aytish mumkin. Hindiston inglizlar tomonidan fath etilgandan so'ng, aniqrog'i, XVIII asrdan boshlab Boburning hayoti, faoliyati, ijodi kabi masalalar Ovrupo sharqshunoslarining diqqatini o'ziga jalb etdi. Vitsen, Jon Leyden, U.Erskin, R.M.Kalenot, Pave de Kurteyl, Denison Ross, A.Beverijd xonim, Len Pul, E.Holden, V.H.Moreland va boshqa tadqiqotchilar Boburning hayoti va faoliyatini o'rganish, asarlarini nashr va tarjima qilish bilan

shugʻullandilar. Bu olimlar orasida ingliz tarixchisi Uilyam Erskinning olib borgan izlanishlari mutaxassislar tomonidan juda koʻp eʼtirof etilmoqda. Shotlandiyalik katta yer egasining oʻgʻli boʻlgan Uilyam Edinburg universitetida tahsil olgandan soʻng, 20 yil (1803-1823) Bombayda istiqomat qilgan. “Boburnoma”ning 1809-yilda Jon Leyden (1875-1911) boshlagan tarjimasini U.Erskin nihoyasiga yetkazgan. Shuningdek, U.Erskinning “Temuriylar avlodidan boʻlmish Bobur va Humoyun davridagi Hindiston tarixi” nomli 600 sahifaga yaqin hajmdagi yirik tadqiqoti 1854-yilda, muallif vafotidan keyin nashr etilgan. Olimlarning eʼtirof etishicha, U. Erskin fors tilini mukammal bilgan va temuriylar sulolasi tarixini sinchiklab oʻigangan. Oʻzining ular haqidagi ilmiy xulosalarini asoslashda, “Tabokati Akbariy”, “Tarixi Rashidiy”, “Xulosat ul-Akbar”, “Xulosat ul-tavorix”, “Shajarat ul-atrok” kabi koʻplab ilmiy-tarixiy qoʻlyozmalardan keng foydalangan. Ingliz olimining ushbu yirik tadqiqoti qisqartirilgan holda Gʻofurjon Sotimov tomonidan tarjima qilinib nashr etildi (Uilyam Erskin. Bobur Hindistonda. Toshken: Choʻlon, 1995). Rus sharqshunoslaridan N.I.Ilminskiy, N.I.Pantusov, S.I.Polyakov, N.I.Veselovskiy, V.V.Vyatkin, A.Samoylovich, V.Bartold, afgʻon olimlaridan Ahmad Ali Kohzod, Abdulhay Habibiy, Gulchin Maoniy, hind olimlaridan Zokir Husayn, Nurul Hasan, S.A.Sharmi, R.P.Tripatxi, P.Saron, Kanunga, turk olimlaridan Fuod Kupruluzoda, Rashid Rahmati Arad kabilar ham Bobur faoliyati va merosi bilan shugʻullandilar. Boburning hayoti, faoliyati, ilmiy, badiiy merosini oʻrganish, asarlarini nashr etish borasida oʻzbek olimlari ham muayyan ishlarni amalga oshirdilar. Adibning shoh asari “Boburnoma”dan parchalar 1928-yilda Abdurauf Fitratning “Oʻzbek adabiyoti namunalari” majmuasida eʼlon qilindi. Shundan soʻng bu asar 1948-1949-yilda 2 jildda, 1960-, 1989-yillarda esa asarning toʻldirilgan nusxasi nashr etildi. Umuman, boburshunoslik ravnaqida Yahyo Gʻulomov, Vohid Zohidov, Homil Yoqubov, Porso Shamsiyev, Sabohat Azimjonova, Aziz Qayumov, Hamid Sulaymon, Said Aliyev, B.Valiyxoʻjayev, S.Hasanov kabilarning ilmiy tadqiqotlari muhim hissa boʻlib qoʻshildi. Bobur shuhratining jahonga yoyilishida turli mamlakat yozuvchilarining ham munosib hissasi bor. Jumladan, hind adibi Muni Laʼning Bobur va boburiylar haqida oltita roman yozganligi eʼtirof etiladi. Shuningdek, turli

manbalarda fransuz yozuvchilari Flora Anna Stilning “Boburxon”, Femand Grenandning “Bobur”, Amerika adiblari Harold Lembning “Bobur – sher”, Vamber Gaskonining “Bobur va uning avlodlari yoki buyuk Mo‘g‘ullar” romanlari mavjudligi haqida ma’lumotlar keltiriladi. O‘zbek yozuvchi va shoirlaridan Pirimqul Qodirov, Barot Boyqobilov, Xayriddin Sultonovlar Bobur haqida roman, esse-roman, qissa va dostonlar ijod etishdi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng, Bobur va uning ilmiy, adabiy merosiga milliy istiqlol g‘oyasi tamoyillari nuqtayi nazaridan munosabat ko‘rsatila boshlandi. Uning diniy asarlari, jumladan, “Mubayyin” nashr etildi. Mamlakatimizda Bobur xalqaro jamg‘armasi tuzilib, o‘zining serqirra faoliyatining amalga oshira boshlagani boburshunoslikda muhim voqea bo‘ldi.

Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va ilmiy-adabiy merosi.

Zahiriddin Muhammad Bobur 1483-yil 14-fevralda (hijriy 888-yil muharram oyining 2-kuni) Farg‘ona viloyatini idora qilayotgan temuriy hukmdor Umarshayx Mirzo xonadonida dunyoga keldi. Ma’lumotlarga ko‘ra, Zahiriddin Muhammad ismini yosh shahzoda uchun o‘sha davrdagi Movarounnahrning atoqli ulamolaridan bo‘lgan Xoja Nosiriddin Ubaydulloh Ahror Valiy tanlagan. Keyinchalik chig‘atoylar arabcha “Zahiriddin” so‘zini talaffiz etishga qiynalganliklari bois ota-onasi uni Bobur deb ataydigan bo‘lib qolishgan. Shunday qilib, rasmiy hujjatlarda ulug‘ shoir, adib va hukmdor nomi Zahiriddin Muhammad Bobur tarzida qo‘llana boshlangan (Erskin U . Bobur Hindistonda. Toshkent, 1995, 8-9-betlar). Umarshayx Mirzo Sulton Sohibqiron Amir Temurga to‘rtinchi avlod-evara sanaladi. Uning shajarasi: Umarshayx Mirzo – Abusaid Mirzo – Mironshoh Mirzo – Sohibqiron Amir Temur. Boburning onasi Qutlug‘ Nigorxonim o‘zbeklashgan mo‘g‘ul turklariga mansub bo‘lgan Toshkent hokimi Yunusxonning qizidir. Umarshayx Mirzo temuriy hukmdorlar orasida toj-taxt kurashlari keskinlashgan bir davrda Farg‘ona viloyatini idora qildi va bu kurashda faol ishtirok etdi. Pokiza e‘tiqodli, Hazrat Xoja Ubaydulloga irodati bor, ravon savodli bu temuriyzoda Boburning ma’lumotiga ko‘ra: “Xamsatayn va masnaviy kitoblarni va tarixlarni o‘qub edi. Aksar “Shohnoma” o‘qur edi. Tab’i nazmi bor edi, vale she’rg‘a parvo qilmas edi”. Tabiatida “hamisha mulkgirlik dag‘dag‘asi bor” bo‘lgan Umarshayx Mirzo

yurttalablik da'vosi bilan Samarqandga bir necha bor yurish qiladi. Farg'ona viloyatining osmonida urush bulutlari qalqib yurgan damlarda fojiali vafot etadi. Bu voqea 1494-yilda sodir bo'ldi. Umarshayx Mirzoning akasi Sulton Ahmad Mirzo va Toshkent hokimi Mahmudxon (Umarshayxning qaynog'asi va Sulton Ahmadning kuyovi) o'zaro ittifoq tuzib Faig'ona viloyatiga yurish boshlaydi. "Boburnoma"da Sulton Mahmud va Sulton Ahmadning "Umarshayx Mirzoning badmaoshlig'idin mutazarrir" (qo'polligidan zarar) ko'rganliklari bunday harakatning sababi sifatida keltiriladi. Axbi qal'asi (Axbikat) Umarshayx Mirzo saltanatida Andijondan keyin ikkinchi mavqega ega bo'lgan qal'a bo'lib, podshoh ko'p vaqtini o'sha yerda o'tkazar edi. "Boburnoma"da Umarshayx Mirzoning fojiali vafoti haqida quyidagilar qayd etiladi: "... Bu asnoda g'arib voqea dast berdi, mazkur bo'lub edikim, Axbi qo'rg'oni baland jar ustida voqe' bo'lubtur, imoratlar jar yoqasida erdi. Ushbu tarixda dushanba kuni ramazon oyining to'rtida Umarshayx Mirzo kabutar va kabutarxona bila uchub, shunqor bo'ldi. O'ttiz to'qquz yoshar erdi". Taomilga ko'ra, Farg'ona viloyatining taxti to'ng'ich o'g'il Bobur Mirzoga topshirildi. Shunday qilib, Bobur Mirzo "Tengri taolo inoyati bilan va chahoryori bosafolarning himmati bilan seshanba kuni ramazon oyining beshida tarix sakkiz yuz to'qson to'qquzda Farg'ona viloyatida o'n ikki yoshda podshoh bo'ldum", – deya e'tirof etadi. Yosh hukmdor mamlakatni idora eta boshlagan davr nihoyatda tahlkali edi. Unga avval otasining yaqin beklaridan Shayx Mazidbek, keyinchalik Boboquli Bobo Alibek bek atka sifatida tayinlanadi. Bobur Alloh inoyati va beklarning rahnamoligida Farg'ona viloyatida o'z idora tarzini saqlab qoladi. O'ratepa, Xo'jand, Marg'ilonni zabt etib Quvaga yaqinlashgan Sulton Ahmad qo'shinlari kutilmaganda katta talofat ko'radilar. "Biri bukim, – talofat sabablarini bayon etadi "Boburnoma" muallifi, – Quboning botqoqlik qora suyi bor, ko'prigidin o'zga yerdin kechib bo'lmas, qalin cherik kelib ko'prukda tiqilib, qalin ot va teva bu qora suvga yiqilib zoye' bo'ldi. Uch – to'rt yil mundin burunroq Chir suyining guzarida ulug' shikast topib edilar, bu voqea andin yod berib, cherik eliga vahmi g'olib bo'ldi. Yana biri bukim, ul fursatga andoq ot o'lati bo'ldikim, tavila-tavila otlar yiqilib o'la kirishdi". Qo'shini to'zigan, ustiga-ustak katta talofat ko'igan Sulton Ahmad sulh

tuzib, Samarqandga qaytishga majbur bo‘ladi. Quva voqeasidan so‘ng xastalanib qolgan Samarqand hukmdori O‘ratepada vafot etadi. Sulton Mahmudning esa Axsining qamal qilishi natija bermay, u ham orqaga qaytishga majbur bo‘ladi. Bu jang yosh taxt sohibi Boburning birinchi va juda muhim g‘alabasi edi. Bobur Mirzoning mamlakatda osoyishtalikni barqaror qilish uchun juda ko‘p ter to‘kishiga to‘g‘ri keladi. U mahalliy hukmdorlarning o‘zboshimchalikka yuz burishlari avjiga chiqqan davrda Farg‘ona viloyatini idora qilmoqda edi. Bunday boshboshdoqchilik taxt sohibi hayoti uchun ham nihoyatda tahlika solardi. Boburning ukasi Jahongir Mirzoni shoh qilish maqsadida fitna uyushtiigan Hasan Ya‘qub boshchiligidagi beklar unga qarshi suiqasd uyushtirishdi. Bobur va uning tarafdorlari sa‘y-harakati bilan fitna o‘z vaqtida fosh etildi, qo‘lga olingan isyonchi beklar jazolandi. Yovuz niyati amalga oshmaganidan alamzada bo‘lgan Hasan Ya‘qub Samarqand sari yo‘l oladi. Biroq qabih maqsadi yana xuruj qilib Axsi tomon kelganida, Qo‘qon yaqinida vafot etadi. Bobur Mirzo katta va notinch viloyatni boshqarish uchun Andijon atrofidagi shaharlarda bir necha marotaba yurishlar qilishga majbur bo‘ladi. 1495-yilda Sulton Ahmad o‘rnida bir muddat hukmronlik qilgan ukasi Sulton Mahmud vafotidan so‘ng, uning o‘g‘illari Mas‘ud, Boysung‘ur Mirzo, Sulton Ali o‘rtasida Samarqand taxti uchun o‘zaro urushlar boshlanadi. Sulton Ali Samarqandni egallaganda, bu urush alangalari yanada yolqinlana boshlaydi. Bobur Mirzo ham ulug‘ sohibqiron Amir Temur poytaxtini qo‘lga kiritish ilinjida Samarqand tomon lashkar tortadi. Bu payt Sulton Mas‘ud Mirzo Shahrisabzni o‘z idorasi ostiga olib, Samarqandga tahdid sola boshlagan edi. Hisor va Qunduzdan Sulton Husayn Mirzo qo‘shinining xavfi ham mavjud edi. Uch-to‘rt oy uch tarafdin Samarqandga qarshi hujum uyushtirilgach, Sulton Ali nomidan Xoja Yahyo kelib, ittifoq va hamjihatlikdan so‘z ochadi va Bobur Mirzo bilan o‘zaro kelishuvga erishadi. Biroq oradan ko‘p vaqt o‘tmay, Samarqand taxtini Boysung‘ur Mirzo qo‘lga kiritadi. 1497-yilda Bobur Mirzo mingga yaqin qo‘shini bilan Samarqandni qo‘lga kiritish uchun jangga otlanadi. Shahar yetti oy qamal qilinadi. Boysung‘ur Mirzo Shayboniyxondan madad kutadi, biroq Shayboniy qo‘shinlarining yordami besamar ketadi. Natijada shahar hukmdori Qunduzga Xusravshohdan panoht izlab ketishga majbur bo‘ladi.

Bobur Mirzoni Samarqand shahri ulugʻlari, beklar mamnuniyat bilan qarshi oladilar. “Boburnoma”da muallif bu voqeani iflixor bilan quyidagicha bayon etadi: “Rabiulavval oyining avoxirida (1497-yil noyabr) kelib arkta Boʻstonsarogʻa tushtum. Tengri taoloning inoyati bila Samarqand shahri va viloti muyassar va musaxxar boʻldi”. Sharqning eng yirik, boy va mashhur shaharlaridan biri boʻlgan Samarqandning qoʻlga kiritilishi yosh hukmdorni nihoyatda sevintiradi. U keyinchalik “Boburnoma”da bu azim shaharning tabiati-yu masjid va madrasalarini, Ulugʻbek Mirzo barpo etgan rasadxona-yu saroy va maqbaralarni ehtiros bilan tasvirlaydi. Afsuski, Bobur Mirzoning sevinchi uzoqqa choʻzilmaydi. Yetti oy qamal ichida qolgan shahar nihoyatda xarob holda edi. Ozuqa zahirolari tugagan, dehqonchilik oʻzaro urushlar natijasida izdan chiqqan, shahar aholisi aftoda boʻlib qolgan edi. Yosh hukmdor bu ahvoldan qutilish choralarini qanchalik izlamasin, biror maqbul tadbirni amalga oshirish imkondan tashqari edi. Bobur Mirzo qoʻshinlari Samarqanddan hech qanday oʻlja qoʻlga kiritmaydi. Avvalo, hukmdorning oʻzi xalqni talashga moneʻlik qiladi. Oqibatda oziq-ovqat tanqisligi seziladi, shuningdek, askarlar uylarini sogʻina boshlaydilar. Bittabitta boʻlib qochishga tushadilar. “Boburnoma”da taʼkidlanishicha, avval Xonquli Bayonquli, yana Ibrohim Bekchik, keyin esa moʻgʻullarning barchasi qochadi. Sulton Ahmad Tanbalning qochishi yosh hukmdorga qarshi yana bir fitnaning uyushtirilishiga omil boʻladi. “Bu fitnalarni angiz qilgʻuvchi, mundin qochib borgʻonlarni yomonlikka tez qilgʻuchi xud Uzun Hasan haromnamak ekandur, – deya taʼkidlaydi Bobur Mirzo. – Borchasi Ahmad Tanbal borgʻon bila zohir va oshkora yomonliq maqomida boʻldilar”. Yosh temuriyzoda Samarqandni qoʻlga kiritish uchun qoʻshin tortganida, Andijonni Ali Doʻst togʻoyiga, Axsini esa Uzun Hasanga ishonib topshirgandi. Samarqanddek shahri azim Bobur Mirzo tasarrufiga oʻtganida esa u ogʻir xastalikka duchor boʻladi. “Andoqkim, toʻrt kungacha tilim tutildi, – deya xotirlaydi muallif “Boburnoma”da, – ogʻzingʻa paxta bila suv tomizurlar erdi. Mening bila qolgʻon bek va begot va yigit yalang mening tirilmagimdin maʼyus boʻlub, har kim oʻz fikrida boʻldilar”. Bobur Mirzo Xoja Abdullo Mavlono qozini qochoqlarning baʼzilarini jazolash, baʼzilarini esa qayta Samarqandga yuborish niyatida Uzun Hasanning oldiga joʻnatadi. Biroq Uzun Hasan Bobur Mirzoga qarshi uyushtirilgan

fitnaga boshchilik qilmoqda edi. Bu orada u Ahmad Tanbal bilan til biriktirib, Axsi va Andijonni Jahongir Mirzoga olib berish payida bo‘ladi.

To‘lun Xoja Bobur Mirzoga e‘tiqodli bo‘lgan mo‘g‘ul beklaridan edi. U ham qochoq mo‘g‘ul askarlariga nasihat qilib, ularni hukmdorlariga itoat qilishga chaqirish vazifasi bilan Farg‘ona viloyatiga yuboriladi. Biroq g‘aflatda qolgan To‘lun Xoja Uzun Hasan va Ahmad Tanbal tomonidan mag‘lub etiladi hamda o‘ldiriladi. Xoja Mavlono Abdullo qozi Xoja Ubaydulloning muridlaridan bo‘lib, Bobur Mirzo oilasiga e‘tiqod qo‘ygan pirlardan edi. Bu ulug‘ zot Bobur Mirzoning davlatxohligi uchun o‘z ixtiyoridagi o‘n sakkiz ming bosh qo‘yni shu hukmdorga hayrixoh bo‘lgan yigitlarga ulashadi. Andijon taxti tobora tahlika ostiga qola boshlagan davrda Boburning onasi Qutlug‘ Nigorxonim va Eson Davlatbegim bilan kengashib, Samarqand hukmdoriga bir necha marta maktub yuboradilar. Natijada Samarqanddek shahri azimda yuz kun hukmdorlik qilgan Bobur Mirzo 1498-yilning fevralida Andijonga safar qilishga majbur bo‘ladi. Bir hafta yo‘l yurib Bobur qo‘shinlari Xo‘jandga kirib keladi. Bu orada bir kishi yosh hukmdor Samarqandni tashlab chiqqan kuni Ali Do‘st tog‘oyi Andijonni isyonchilarga topshirgani haqidagi xabarni yetkazadi. Ma‘lum bo‘lishicha, isyonchilar Andijonni qamal qilganda, Uzun Hasan Bobur Mirzoning betobligi, uning tili tutilib, og‘ziga paxta bilan suv tomizayotganliklarini Ali Do‘st tog‘oyiga aytib ont ichadi. Bundan sarosimaga tushgan Ali Do‘st tog‘oyi isyonchilarga qal’ani ochib beradi. Bobur Mirzoning Xo‘jandga yetib kelganidan xabar topgan “munofiqi namakharom mardak” (Uzun Hasan) Xoja Abdullo Mavlono qozini ark darvozasida beizzatona osib shahid qiladi. Bu voqea yosh temuriyzodaga nihoyatda qattiq ta’sir ko‘rsatadi. “Boburnoma”da uning tafsilotlari quyidagi alamli jumalarda o‘z ifodasini topgan: “... to podshoh bo‘lub edim, to o‘zumni bilib edim, bu yo‘sunluq ranj va mashaqqatni bilmaydur edim” (51-bet). Andijonni deb Samarqandni qo‘ldan ketgazish va taqdirning alamli “hazil”lariga duchor bo‘lib bir yo‘la har ikkalasini boy berishdek muvaffaqiyatsizlig-u yutqazishlar metin iroda sohibi bo‘lgan Bobur Mirzo belini bukolmaydi. U ota meros saltanatni tiklash niyatida tog‘asi, Toshkent hokimi Mahmudxondan madad so‘raydi. Birgalikda Andijonni egallash uchun olib borilgan janglar natija bermaydi. Bobur Mirzo goh Xo‘jand, goh

O‘ratepa, goh Konibodom atrofidagi qishloqlarda bo‘lib, tog‘alarining ko‘magi bilan ba‘zan Andijonga, ba‘zan esa Samarqandga tahdid solib turadi. Nihoyat, Xo‘jandga yetib keladi, ammo bu yer nisbatan kichikroq qasaba bo‘lgani bois Bobur tasarrufidagi ikki yuzdan ortiqroq qo‘shinni zo‘rg‘a saqlab turishi mumkin edi. Shu sababli Bobur Mirzo O‘ratepani idora qilib turgan yana bir tog‘asi Muhammad Husayn Ko‘ragon do‘g‘latdan Yor yayloq kentidagi Pashog‘ar qishlog‘ida qishlashga ruxsat so‘raydi. Bu yer Xoja Abdullo Mavlono qoziga qarashli bo‘lib, u Samarqand yo‘lida joylashgani uchun Bobur Mirzoga juda ma‘qul manzil edi. Sarson-sargardonlikda kun kechirayotgan yosh hukmdor ko‘nglida xiralashib qolgan umid chirog‘i fatilasini tozalab, unga qayta yolqinlashish baxtini hadya etgan muhim voqea ham aynan ana shu muqaddas zaminda yuz beradi. “Boburnoma”da hikoya qilinishicha, Xoja Abulmakorim ham quvg‘inga uchrab, darbadarlikda umr kechirayotgan edi. Bu ulug‘ zot Bobur Mirzoning ahvolidan xabar topib, unga juda achinadi va yosh hukmdor haqiga duo qiladi. Bu hol Bobur Mirzoga qattiq ta’sir etadi. Shu kuni peshin namozi vaqtida dara tarafda bir otliq paydo bo‘ladi. Ma’lum bo‘lishicha, u Ali Do‘st tog‘oyining navkari ekan. Otliq unga bir maktubni tutqazadi. Unda Bobur Mirzo gunohidan kechsa, Ali Do‘st tog‘oyi Marg‘ilonni uning ixtiyoriga topshirishi bayon qilingan edi. Bobur Mirzo kutilmagan bu taklifni qabul qiladi va uch kun yo‘l yurib, Ali Do‘st tog‘oyining xoinlik yo‘lini tutmasligiga ishonch hosil qilishgach, ikki yuz-u qirq kishiga yaqin qo‘shin bilan Marg‘ilonga kirib boradi. Boburning hukmronligi Ahmad Tanbal va Uzun Hasanning zolimligidan ko‘p aziyat chekkan xalq uchun nihoyatda zarur edi. Shu bois o‘z hukmdoriga xoinlik qilgan bu ikki ittifoqchining Marg‘ilonni qamal qilishi ularga hech qanday naf keltirmaydi. Bu orada Bobur Mirzo tomonidan Andijonning janubiga yuborilgan Qosimbek boshchiligidagi yuz kishilik qo‘shin Ibrohim Sori askarlarini Axsi qal’asigacha quvib boradi. Vaziyatning bunday tus olganidan xabar topgan Uzun Hasan Marg‘ilon qamaliga jalb etilgan to‘dasini Axsi tomon harakatlanishga buyruq beradi. Uning yigitlari Sirdaryoni kesib o‘tishda Boburning otliq askarlariga asir tushadi va o‘linga mahkum etiladi. Uzun Hasanning Andijonga chekinishdan boshqa chorasi qolmaydi. Biroq shahar hokimining Bobur tomoniga o‘tgani u va

hamrohlarini juda tang ahvolda qoldiradi. Nihoyat, Uzun Hasan o‘zi boshqarib turgan Axi qo‘rg‘oniga, Ahmad Tanbal va unga qo‘shilgan Jahongir Mirzo esa O‘shga tomon yo‘l oladi. Shunday qilib, ikki yillik sarson-saigardonlikdan so‘ng, hijriy 904-yil zulqa‘da (1499-yil iyun) oyida 16 yoshli Bobur Mirzo otameros poytaxti Andijonni qayta egallaydi. Ahmad Tanbal O‘shga yetib borgach, tayoq va toshlar bilan qurollangan xalqning g‘azabiga uchraydi. Bu yerda o‘zining ortiqchaligini anglagach, Jahongir Mirzo bilan hamkorlikda Qashg‘arga yaqin tog‘lar orasidagi Yorkent tomon ketadi. Axsida Bobur Mirzoning ta‘qibiga duchor bo‘lgan Uzun Hasan esa mag‘lubiyatini tan olib, mol-mulki, oilasi va hamrohlari bilan birgalikda Qorategin orqali Hisorga yo‘l oladi. Bobur Mirzoning mo‘g‘ul askarlariga javob berib yuborishi, o‘zining mardona tan olishicha, “bemulohaza hukm qilg‘oni” edi. Bunga yosh hukmdor atrofidagi beklarning qo‘lga kiritilgan mol-mulkni Uzun Hasandan qolgan mo‘g‘ul askarlari bilan baham ko‘rishni istamaganliklari sabab bo‘ldi. Askarlari soni oz bo‘lgan Bobur Mirzoning ehtiyotsizlik bilan chiqargan bu hukmi to‘rt mingga yaqin mo‘g‘ul askarlarining Ahmad Tanbal tomon o‘tishiga imkon yaratdi. Shuningdek, Toshkent hokimi Mahmudxonning o‘g‘li Sulton Muhammad Xonikaning besh-olti ming kishilik qo‘shini ham Ahmad Tanbalning iltimosiga ko‘ra unga ko‘makka keldi. Shunday bo‘lishiga qaramay, Bobur Mirzoning bek va askarlari dushmanga qarshi mardonavor kurash olib borishdi. O‘sh, O‘zgand, Andijon, Xo‘tan, Koson qal’asi, Axi, Beshharan qal’asida Bobur Mirzo qo‘shinlari goh dushman bilan yuzma-yuz keldi, goh turli tadbirlarni amalga oshirdi. Ahmad Tanbal Beshharan qal’asida yashiringanda, natijasiz urushlardan bezgan Ali Do‘st, Qambar Ali singari sarbozlar Boburni sulh tuzishga ko‘ndirishga harakat qildilar. 1500-yil fevral oyi oxirida tuzilgan sulhga ko‘ra, Axi, Koson va ular atrofidagi mulk Jahongir Mirzo ixtiyoriga o‘tadi. Sirdaryo Bobur va Jahongir Mirzo saltanati o‘rtasida chegara sifatida belgilanadi. Andijon va boshqa qasabalar Bobur Mirzo tasarrufida qoladi. Shuningdek, shahzodalar mamlakat ishlarini yo‘lga qo‘ygach, birgalikda Samarqandga yurish qilishi, Samarqand qo‘lga kiritilsa, uning taxti Bobur Mirzoga, Andijon esa Jahongir Mirzoga berilishiga ham kelishiladi. Movarounnahrda shahzodalar o‘rtasidagi ziddiyatlar tobora keskinlashib bormoqda edi. Bunday muxolifat Sulton Ali Mirzo va Muhammad Majid

Tarxon o‘rtasida ham paydo bo‘ladi. Bu shahzodalar hamkorligidan hech ish chiqmasligi aniq edi. Sulton Ali Mirzo mo‘g‘ullardan Abdulvahob degan kishini Bobur Mirzo huzuriga yuborib, uni Samarqandga kelishga da‘vat etdi. Bobur Mirzo Jahongir Mirzoga kishi yuborib, zudlik bilan Samarqandga yurish qilishini xabar qiladi. Axsida tuzilgan sulh Jahongir Mirzo tomonidan Bobur Mirzo saltanati hududiga daxl qilish imkonini bermasdi. Biroq Bobur qo‘shinlari Quvaga yetib kelganda, Ahmad Tanbalning ukasi Xalil O‘shga hujum qilgani ma‘lum bo‘ladi. Bobur Mirzo bo‘lib o‘tgan voqeadan qanchalik ranjimasin, Samarqand tomon yurishni yana davom ettiraveradi. Yosh hukmdor Ali Do‘st va Qambar Ali singari ulug‘ beklarning keyingi harakatlaridan ularga tayanish har doim ham yaxshilikka olib kelmasligini sezib qoladi. Shuningdek, Muhammad Majid Tarxon boshliq beklar ham Mir Mo‘g‘ulni yuborib, Andijon hukmdorining Samarqandga kelishiga ko‘z tikib turishgandi. Shunday qilib, Bobur Mirzo: “Samarqanddek poytaxt turg‘uncha, ne kiroyi ul qilg‘aykim, Andijondek yer uchun kishi avqot zoye’ qilg‘ay”, – degan fikr bilan yo‘lda davom etadi. Bobur Mirzo qo‘shinlari O‘ratepaga yetib kelganda, Shayboniyxon Dabusiya qal‘asida Boqi tarxonni mag‘lubiyatga uchratib, Buxoroga yurish qilgani haqida xabar keladi. Xon yurti deb nomlangan manzilda Majid tarxon boshliq Samarqand beklari Bobur Mirzoni iliq kutib olishadi. Beklar bilan birgalikda o‘tkazilgan mashvaratdan Samarqandning yirik din peshvolaridan biri Xoja Yahyoning nufuzidan foydalanib Amir Temur poytaxtini jangsiz qo‘lga kiritish mumkinligi ma‘lum bo‘ladi. Biroq Xoja Yahyoga yuborilgan vakil tayinli javob keltirmaydi. Bobur Mirzo va unga hamroh bo‘lgan beklar Shahrizabzga yetib kelishadi. Bu yerda bir-ikki hafta bo‘lganlarida, Sulton Ali Mirzo Samarqandni Shayboniyxon ixtiyoriga topshirganligi ayonlashadi. Voqea tafsilotlarini hikoya qilgan “Boburnoma” muallifi uning sababini Sulton Ali Mirzoning onasi Zuhrabegimning “bilmaslig‘idin va beaqlig‘idin” ekanligini ta’kidlaydi. Zuhrabegim o‘zining oshiqona maktubida Shayboniyxonga turmushga chiqsa, o‘g‘li unga Samarqandni jangsiz topshirishini bayon qiladi. Bundan ustalik bilan foydalangan Shayboniyxon shaharni qo‘lga kiritgach, Sulton Ali Mirzoni qatl ettiradi. Zuhrabegimni navkarlaridan biriga in‘om qiladi. Xoja Yahyoga Xurosonga ketishga ruxsat beradi va ketidan kishi qo‘yib, uni ham

o'ldirtiradi. Shunday qilib, 1500-yilda temuriylarning ko'hna poytaxti Muhammad Shayboniyxon tasarrufiga o'tadi. Bir muddat Shahrisabz – Hisor hududlarida sarson-sargardon kezgan Bobur Mirzo Samarqand xalqining ko'magiga ishonib, ikki yuz qirq kishilik navkari bilan shaharga hujum qiladi. Yetmish-sakson chog'li Bobur yigitlari tunda qal'aga norvon qo'yib, Feruza darvozasini egallaydilar. Tong otishiga yaqin Bobur Mirzo Samarqandga kirib keladi. Bo'lib o'tgan voqeadan shahar ahli hali to'la xabardor emas edi. Temuriy hukmdorni tanib qolgan do'kondorlar u haqda duo qilishardi. Ko'p o'tmay shahar xalqi voqeadan xabar topadi. Qo'llariga tosh va tayoq ko'targan kishilar to'rt yuz-besh yuz chamasi Shayboniy tarafdorlarini o'ldirishadi. Nihoyat, y yetti ming askariy quvvatga ega bo'lgan tajribali hukmdor Shayboniyxondan juda oz miqdordagi qo'shin bilan 19 yoshli temuriyzoda Samarqandni tortib oladi. Xalq Bobur Mirzoni qo'llab-quvvatlashda davom etadi. Shovdor, Sug'd va atrofdagi qo'rg'onlar uning idorasi ostiga o'ta boshlaydi. Shayboniyxon Buxoroga chekinadi. Bu orada Boqi tarxon Qarshi, G'uzorni, Abulmuhsin Mirzo Qorako'lni qo'lga kiritadi. Shayboniy qo'shinlari har tarafdin quvilib, Buxoro atrofida to'planishga majbur bo'lishadi. Yosh temuriy hukmdorning qadimiy poytaxtni nihoyatda xavfli va tajribali dushmandan tortib olishi xabari Xuroson poytaxti Hirotga ham yetib boradi. Bobur Mirzo ulug' shoir va davlat arbobi Alisher Navoiydan maktub oladi. Ayni choqda xatga javob yozib, unga turkiy bayt ham bitganligini e'tirof etgan "Boburnoma" muallifi o'zining "kitobati"ga ulug' shoirning javobi yetib kelguniga qadar "tafriqa va g'avgo" bo'lganligini bayon qiladi. Bobur Mirzo endigina badiiy ijod bilan shug'ullanib she'r mashq qila boshlaganini inobatga olsak, ulug' shoir Alisher Navoiyning maktubi siyosiy mavzuga, aniqrog'i, Shayboniyxonni mag'lub etgan Bobur Mirzoning ulkan g'alabasiga bag'ishlangan bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Bobur Mirzo Andijondan chiqqandan so'ng, uning oila a'zolari yuz tashvish va mashaqqatlar bilan O'ratepaga yetib kelishgandi. Samarqand fahtidan nihoyatda shodlangan yosh hukmdor oilasini bu azim shaharga olib keladi. U amakisi Sulton Ahmad Mirzoning qizi Oyisha Sultonbegimni o'z nikohiga olgan edi. Ko'p o'tmay Samarqandda to'ng'ich farzandi Faxruniso dunyoga keladi. Biroq bu shodlik uzoq davom etmaydi. Faxruniso chillasidan chiqmay vafot etadi.

Bobur Mirzo o'zini buyuk poytaxt taxtida ko'rib qanchalik quvonsa, har zamon tahdid solish xavfi kuchli bo'lgan Shayboniynonning ulkan qo'shinidan ham shunchalik tashvishlanardi. Bu tashvish yosh hukmdordan juda ko'p ulkan vazifalarni bajarishni talab etardi. Buni teran idrok etgan shahzoda Samarqand mudofaasini mustahkamlash maqsadida yon atrofdagi temuriylar saltanati hukmdorlariga elchilar yuborib, ulardan yordam so'raydi. Toshkent hokimi Sulton Mahmuddan to'rt-besh yuz, Jahongir Mirzodan Ahmad Tanbalning inisi Xalil boshchiligida yuz-ikki yuz kishilik qo'shin ko'makka keladi. Biroq: "Sulton Husayn Mirzodek sohib tajribalik podshohdinkim, Shaboqxonning afol va atvorini Mirzodin yaxshiroq kishi bilmas edi, hech kishi ko'makka kelmadi. Badiuzzamon Mirzodin ham kishi kelmadi. Xusravshoh xud o'zining tavahhumidin kishi yubormadi". Temuriy hukmdorlar orasidagi bunday parokandalik o'zining bahodirona ruhi, mustahkam irodasi va uzoqni ko'ra bilish qobiliyati bilan shuhrat qozongan Bobur Mirzoning yakkalanib qolishiga sabab bo'ldi. Bundan foydalangan Shayboniynon 1501-yilning bahorida yana qo'shin to'play boshlaydi. Qorako'l, Dabusiyni qayta qo'lga kiritib, Samarqandga tahdid soladi. Shu yili may oyining boshlarida Shayboniynon o'z xatti-harakatlari bilan raqibini jang maydoniga jiddiy hozirlik ko'rishga majbur etadi. Ora-sira kichik to'qnashuvlar bo'lib turadi. Boqi tarxon ming-ikki ming kishilik qo'shini bilan Keshga kirib borgan edi va ikki kun orasida Bobur Mirzoga kelib qo'shilishi taxmin qilinardi. Toshkent hokimi Sulton Mahmud tomonidan yuborilgan Sayid Muhammad Mirzo do'g'lat tongga yaqin ming-bir yarim ming kishilik lashkari bilan ko'makka kelishi kutilardi. Munajjimlarning yanglish ma'lumotlari Bobur Mirzoni madadga chiqqan kuchlar yetib kelmasdan jangga kirishga undadi. Qo'shin to'rtga ajraladi. Ko'hak daryosi bo'yida raqib bilan ro'baro' bo'linadi. Natijada Bobur Mirzo qo'shini juda katta talofatga uchradi. Ibrohim tarxon, Ibrohim Soru, Ahmad Tanbalning ukasi Xalil hamda ularning eng yaxshi yigitlari jang maydonida halok bo'lishadi. Shayboniynon qo'shiniga qarshi chiqish halokatga olib keladi, deb o'ylagan Mazid tarxon, Qambar Ali singari ulug' beklar Xusravshoh tomoniga qochishadi. Erta tongda Xoja Abulmakorim, Qosimbek va boshqa beklar bilan mashvarat o'tkazib, Samarqand qo'rg'onini berkitishga qaror qilinadi. Yosh hukmdor shahar markazidagi

Ulug‘bek madrasasining tomi ustida oq uy o‘rnatib, Qosimbek bilan mudofaani boshqarib turadi. Og‘ir kunlar boshlanadi. Keyingi yillarda Samarqand tez-tez yuz berib turgan o‘zaro urush va isyonlar tufayli boyliklari talangan, ancha kuchsizlanib qolgan edi. Shayboniynonning besh oylik qamaliga qarshi Bobur Mirzoning o‘ziga yaqin beklar va sarbozlari hamda xalq ommasi jasorat ko‘rsatishlariga qaramay, ochlik, suvsizlik shahar aholisining tinka-madorini quritadi. “Elga bisyor tanqislik bo‘ldi, – deya xotirlaydi “Boburnoma” muallifi. – Anga yettikim, faqir va miskin it etini, eshak etini yiya kirishtilar. Otqa bo‘g‘uz kam yofl bo‘ldi. Daraxtlarning bargini otqa berurlar edi. Anda tajriba bo‘ldikim, bori yafroqlardin tut yafrog‘i va qora yig‘och yafrog‘i otqa sozvorroq emish. Ba‘zi quruq yig‘ochlarni randa qilib, taroshasini suvg‘a ivitib otg‘a berurlar edi”. Oziq zahiralari tugab, atrofdan biror bir madad kutishga umid qolmagach, sarbozlar bir-ikki kishi bo‘lib qocha boshlaydi. Bu orada Shayboniynon sulh taklif qiladi. Hech qanday umidi qolmagan Bobur Mirzo sulhga rozilik beradi. Parokandalikka yuz burgan temuriy hukmdorlarning noahilligi tufayli ulkan g‘alabasini mudofaa qila olmagan yosh shahzoda azim shahar Samarqandning Shayxzoda darvozasidan ichkilari bilan chiqib ketadi. Biroq Bobur Mirzoning opasi Xonzodabegim vujudga kelgan tang vaziyat taqozosiga ko‘ra Shayboniynonga turmushga chiqishga majbur bo‘ladi. 1501-1502-yillar Bobur Mirzo hayotida sarson-sargardonchilikning achchiq alamlari bilan qarshilashish davri bo‘ldi. O‘lim tahlikasidan zo‘rg‘a qutilgan yosh shahzoda va uning hamrohlari Jizzaxda ochlik shiddatidan ham bir muncha xalos bo‘ladilar. Ular O‘ratepaga yetganlarida, Bobur Mirzoning xolasi Xo‘b Nigorxonim olamdan o‘tganligi haqida xabar keladi. Qon-qarindoshlari bilan ko‘rishmaganiga 13-14 yil bo‘lgan Qutlug‘ Nigorxonim Toshkentga yo‘l oladi. Bobur Mirzo esa O‘ratepa hukmdori Muhammad Husayn Mirzo Do‘g‘latdan Dehkat qishlog‘ida qishlashga ruxsat oladi. Bir necha kun o‘tgach, Bobur Mirzo ham Toshkentga, tog‘asi Sulton Mahmudxon huzuriga boradi. Xon O‘ratepani Bobur Mirzoga berishini ma‘lum qiladi. Biroq Muhammad Husayn Mirzo bu ishni amalga oshirmaydi. Bobur Mirzo yigitlaridan ayrimlari u bilan Dehkatda birga qolishni istamay, Andijonga ketish uchun ruxsat so‘raydi. Qosimbek bu kishilar bilan shahzodaning kiyimlaridan birini ukasi Jahongir Mirzoga

yuborishni maslahat beradi. Bobur Mirzo ukasiga bo‘rkini in’om qilishni lozim topadi. Qosimbek Ahmad Tanbalga ham biror sovg‘a yuborishni so‘raganda, shahzoda garchi istamasa-da, o‘zi uchun No‘yon Ko‘kaldosh Samarqandda tayyorlagan katta qilichini jo‘natadi. Keyingi janglarning birida Ahmad Tanbal ixtiyoriga o‘tgan shu qilich Bobur Mirzoning boshini nishonga oladi. Dubulg‘aning mustahkamligi uning salomatligini saqlab qoladi... Samarqandda mustahkam o‘rnashib olgan Shayboniyxon Toshkent xoniga qarashli Shohruhiya va Beshkentga hujum uyushtirganda, Bobur Mirzo tog‘asiga yordamga otlanadi. Sovuqning shiddatidan kunda ikki-uch kishi halok bo‘lardi. Yosh shahzoda suvning tez oqishidan faqat o‘rtasi muzdan biroz xoli bo‘lgan arig‘da 16 marta sho‘ng‘ib atrofdagilarni ko‘rsatgan jasorati bilan katta dushmaniga qarshi kurashga da’vat etadi. Shayboniyxon bahor kelishi bilan O‘ratepani talab ketganida, Bobur Mirzo Maschoda edi. U bu yerda uysiz, vatansiz tog‘lar orasida sarson-sargardon yurishidan naf yo‘qligini o‘ylab yana Sulton Mahmudxon oldiga borishga qaror qiladi. Xuddi shu payt Ahmad Tanbal o‘z qo‘shinlari bilan xonga qarshi yo‘lga chiqqandi. Bu urush Sulton Mahmudni ancha cho‘chitib qo‘yadi. Bobur Mirzo Toshkent xoniga kichik tog‘asi Sulton Ahmad – Olachaxon bilan birgalikda Shayboniyxonga qarshi kurashish rejasini aytmoqchi bo‘lib turgan paytda, Olachaxon bir yarim mingga yaqin navkar va Bobur Mirzoga mo‘g‘ulcha sovg‘a-salomlar bilan kirib keladi. O‘zaro kelishuvga ko‘ra Ahmad Tanbalga qarshi kurashda Bobur Mirzoga omad kulib boqadi. U osonlik bilan O‘shni qo‘lga kiritadi. O‘zgand aholisi kishi yuborib shaharni yosh temuriyzoda ixtiyoriga topshirishadi. Marg‘ilon xalqi shahar dorug‘asini urib, quvlab yuboradilar. Shunday qilib, Andijonni hisobga olmaganda, Sirdaryo janubidagi Farg‘ona viloyatining katta qismi Bobur Mirzoni o‘z hukmdorlari sifatida tan oladi. Andijon qal’asini zabt etish uchun olib borilgan kurashda Ahmad Tanbalning Andijondagi hukmronligiga chek qo‘yadi. Sulton Mahmudxon Andijon va daryoning quyi qismidagi yerlarni Sulton Ahmad Olachaxonga berishga qaror qilganini e’lon qiladi. Bobur Mirzoga esa Axsi beriladi. Shayboniyxonga qarshi kurashda Samarqand qo‘lga kiritilgach, u yosh temuriyzodaga, Axsi esa Olachaxonga topshirilishiga kelishib olinadi. Shu orada Ahmad Tanbal Shayboniyxonga kishi yuborib, unga itoat qilishini va birgalikda mo‘g‘ul

xonlariga qarshi kurashish istagini bildiradi. Shayboniixonning Farg‘ona viloyatiga yurish qilish haqidagi xabaridan sarosimaga tushgan mo‘g‘ul xonlari orqaga chekinadilar. Ularning O‘sh va Marg‘ilonda qo‘ygan ishonchli kishilarini xalq haydab chiqaradi. Bobur Mirzo bo‘lib o‘tgan voqealarga qanday baho berishga hayron qoladi. Vaziyatning o‘z foydasiga hal bo‘lganiga ko‘zi yetgan Ahmad Tanbal bir kuni tongda uch ming qurolli qo‘shini bilan yakkalanib Axxi qo‘rg‘onida qolgan Bobur Mirzoga qarshi tasodifan hujum qiladi. Ayovsiz va tengsiz jangda Bobur Mirzo qal‘adan zo‘rg‘a qochib qutiladi. Axxi yaqinidagi Sang degan manzilga yetganlarida, u hamrohlari bilan 8 kishini tashkil qildirdi, xolos. Fidoyi beklar yosh hukmdorni yolg‘iz qochib ketishiga imkon berishadi. Bobur Mirzo nihoyatda mustahkam irodasi, g‘ayrat-shijoati bilan keyinchalik yana Andijonda, tog‘alari huzurida to‘rt oy turadi. Movarounnahrda markazlashgan davlat barpo etishga ko‘zi yetmagach: “... tokay bu Farg‘ona viloyatida sargardon bo‘lub turmoq kerak, bir tarafga talab qiloyin”,– degan fikr bilan Xuroson sari yo‘l oladi. Xuroson mamlakati o‘z davrining eng kuchli hukmdorlaridan bo‘lgan Sulton Husayn Boyqaro tomonidan idora etilardi. Bobur Mirzo ikki ukasi, jiyani Mirzoxon va jami ikki yuz-uch yuz kishilik hamrohlari bilan safarga otlanadi. Hisor vodiysi va Qunduz hukmdori Xusravshohga yuborilgan elchi undan “ko‘ngulga yoqqudek so‘z keltirmadi”. Bu temuriyzodadan zulm ko‘rgan ko‘plab sarboz va lashkarboshilar Bobur Mirzoga kelib qo‘shila boshlaydi. Qobadiyonga yetib kelganida esa akasi Xusravshoh bilan arazlashib qolgan Boqi Chag‘aniyoni Bobur Mirzoga kishi yuborib uni o‘z hukmdori sifatida tan oladi. Shayboniixon Andijonni qo‘lga kiritib, Hisor va Xurosonga hujum qilish xavfi tobora kuchayib borayotgan bir paytda, unga qarshi mardonavor kurasha oladigan Bobur Mirzoning shuhrati orta boshlaydi. Husayn Boyqaroning Shayboniixon hujumiga qarshi mudofaani mustahkamlash haqidagi Bobur Mirzoga yo‘llagan xati ko‘plab jang-u jadallar shohidi bo‘lgan yosh shahzodani qanoatlantirmaydi. U kuchli g‘anim ustiga birgalikda hujum qilish tarafdori edi. Shayboniy qo‘shinlari shitob bilan Qunduz tomon yo‘llanganini eshitgan Xusravshoh mudofaani ta‘minlay olishiga ko‘zi yetmay, shaharni tashlab chiqadi va Bobur Mirzoga odam yuborib, o‘zining taslim bo‘lganini ma‘lum qiladi. Xusravshohdan yuz

o'g'irgan askar va qabilalar hisobiga son jihatidan ancha ko'paygan, shuningdek, undan qolgan qurol, sovut, ot anjomlari bilan o'zini tiklab olgan Bobur Mirzo uchun o'zaro urushlardan kuchsizlanib qolgan Kobul taxtini egallash nihoyatda muhim edi. 1504-yilning oktabrida hududi ancha kichik bo'lgan Farg'ona viloyatini tashlab, sarson-sargardonlikni boshidan kechirgan Bobur Mirzo Kobul va G'aznani jangsiz qo'lga kiritib, ulkan davlat taxtini egallaydi. 1505-yilning iyun oyida Bobur Mirzoning onasi Qutlug' Nigorxonim vafot etadi. Bu davrda Hisor va Qunduzni bo'ysundirgan Shayboniyxon Samarqandga borib yangi yurishlarga hozirlik ko'rmoqda edi. U Xorazmni bosib oladi, Balxni qamal qiladi. Xuroson hukmdori Sulton Husayn Boyqaro Shayboniyxonga qarshi kurashda Bobur Mirzoni ham taklif qiladi. Uning: "... Sulton Husayn Mirzodek Temurbek o'rnig'a o'lturg'on ulug' podshoh yig'noq qilib, atrof va javonibdin o'g'lonlari va beklarini tilatib, Shayboniyxondek g'animga ustiga ozim bo'lg'onda el oyoq bila borg'onda, biz bosh ila borg'aymiz, el tayoq bila borg'onda – biz tosh ila borg'aymiz", – degan fikrlari bu taklif unga nihoyatda ma'qul bo'lganidan dalolat beradi. Biroq o'z davrining yirik hukmdori bo'lgan ikki temuriyzoda ko'risha olmaydilar. 1506-yilning may oyida Sulton Husayn Boyqaro vafot etadi. Uning taxti ikki o'g'li: Badiuzzamon Mirzo va Muzaffar Mirzolar tomonidan boshqarila boshlanadi. Shayboniy qo'shinlari Balxni bosib olib, Badaxshonga tahdid sola boshlaydi. Temuriy hukmdorlar 1506-yilning 26-oktabrida Murg'obda to'planishadi. Kuchli g'animga qarshi birgalikda kurash ko'klamda amalga oshirilishi rejalashtiriladi. Shundan so'ng Bobur Mirzo Badiuzzamon va Muzaffar Mirzolarining taklifi bilan Hirotga yo'l oladi. U yerda Sulton Husayn Boyqaro maqbarasini ziyorat qiladi. "Bog'i Navda bir necha kun bo'ldim, – deya xotirlaydi Bobur, – ani munosib ko'rmay Alisherbekning uylarini tayin qildilar. Hiriya chiqquncha Alisherbekning uylarida edim". Alisher Navoiy istiqomat qilgan uy Unsiya deb nomlangan. Ulug' shoir vafot etgan bo'lsa-da, Unsiyadagi avvalgi tartib hali o'zini saqlab turardi. Yigirma kun davomida Hirotda yashagan Bobur Mirzoning siyosiy harakatlar bilan bir qatorda, adabiy faoliyatga bo'lgan mayli ham orta boshlaydi. Unga Hirot qishlash taklif qilinadi, biroq u yetarli mulozamat ko'rsatilmaganligi hamda toj-u taxtdan xavotiri ortib borgani bois Kobulga

yo‘l oladi. Qosimbekning taklifi bilan Qandahor yo‘li yiroq bo‘lganligidan tog‘ yo‘lidan borishga qaror qilinadi. Qor yog‘a boshlagan, bu yerlarda, hatto, yozda yurish ham mashaqqat edi. Chahcharon degan manzilga yetganlarida, qor otning uzangisiga yetadi, aksar yerlarda otning oyog‘i yerga tegmas edi. Boz ustiga, yo‘l boshlovchiga ehtiyoj tug‘iladi. Mahalliy aholidan biror kishini boshlab kelishga yuborilgan yigitlar uch-to‘rt kun o‘tib, yo‘lni puxta biladigan kishini topolmay qaytadilar. Umrida bunday mashaqqatga kamroq duch kelgan Bobur Mirzoning ko‘nglida kechgan fikrlarini badiiy jilolantirgan quyidagi matlasi tiliga kela boshlaydi:

Charxning men ko‘rmagan javr-u jafosi qoldimu,

Xasta ko‘nglum chekmagan dard-u balosi qoldimu?

Mashaqqatli kunlar o‘tib Kobulga yetganlarida, Bobur Mirzo yana qarindoshlarining pand berib qo‘yganlariga guvoh bo‘ladi. Kobul saroyida tarqalgan mish-mishlarga ko‘ra, Xuroson beklari va Mirzolari Bobur Mirzoni hibsga olib zindonga tashlagan emishlar. Temuriyzodaning ona tarafidan buvisi Shoh Begim o‘zining sevikli nevarasi Xonmirzo (asli ismi Sulton Vays)ni shoh qilib ko‘tarish maqsadida shaharda qolgan mo‘g‘ul beklarini birlashtirib, uning nomiga xutba o‘qittirish taraddudida edi. Isyon bartaraf etiladi. Qarindoshlar kechiriladi. Shayboniixon Balxni qo‘lga kiritgach, jang maydonini kengaytirishga botinolmay Movarounnahrga qaytadi. Bu qulay fursatdan foydalana olmagan temuriylar Xuroson taxtini dushman qo‘liga topshirishga majbur bo‘lishadi. 1507-yil may oyida katta qo‘shin bilan Xurosonga kirib borgan Shayboniixon Hirotni egallaydi. Mamlakatning boshqa viloyatlari ham sekin-asta Shayboniixon idorasi ostida birlashadi. Ana shu janglarning birida uning lashkarlari Eron hududiga o‘tib talonchilik qiladilar. Bundan g‘azablangan Eronning qudratli hukmdori Shoh Ismoil mustahkam intizomli va janglarda chiniquqan qo‘shin bilan Xurosonga qarshi hujumga o‘tadi. 1510-yilda Eron qo‘shinidan katta talofat ko‘rgan Shayboniixon lashkarlari Marvda qamalda qolib yengiladi, hukmdori vafot etadi. 1507-yilda Bobur Mirzo temuriylar sulolasining ikkinchi poytaxti Hirot qo‘ldan ketgandan so‘ng o‘g‘li Humoyun tug‘ilgan shu yilda o‘zini podshoh deb e‘lon qiladi. Bu bilan Bobur Mirzo temuriylar sulolasi inqirozga uchragan bo‘lsa, u yangi sulola boburiylarga asos solganini ma‘lum qilgan bo‘ldi. Shoh Ismoil Shayboniixoniga hujum

uyushtirib turgan bir paytda Bobur Mirzo ham azaliy dushmaniga qarshi kurashdi. 1512-yilda u Amudaryodan kechib, Hisorga tomon yo‘l oladi. Hisor, Ko‘lob, Qunduz va Badaxshonni qo‘lga kiritgan Bobur Mirzo Movarounnahrda o‘z hokimiyatini qayta barpo etishga intilardi. U Qunduzda bo‘lganida, Shoh Ismoil dan sovg‘a-salom keltirgan elchilar Bobur Mirzo uchun sira kutilmagan voqeaning sodir bo‘lishiga sabab bo‘ladilar. Shoh Ismoil Bobur Mirzoning opasi Xonzodabegim va uning o‘g‘li Xurrambekni hurmat-ehtirom bilan elchilar hamrohligida ukasi oldiga jo‘natgan edi. Bobur Mirzo bu davrda 28 yoshda edi. O‘n yillik ayriliqdan so‘ng, opa-uka bir-birlariga qanday murojaat qilishlarini bilmas edilar. Xurramshohga Balx hokimligi beriladi, biroq ikki yil o‘tgach, u vafot etadi. Xonzodabegim qolgan umrini Kobulda, podshoh ukasi huzurida hurmat-ehtiromda o‘tkazadi.

Bu voqea Shoh Ismoilning Bobur Mirzo bilan o‘zaro ittifoq tuzishiga zamin hozirlaydi. Xonmirzo o‘z hukmdori nomidan Shoh Ismoilni ulkan g‘alaba bilan tabriklab, Movarounnahrda avvalgi saltanatini tiklash haqidagi Bobur Mirzoning iltimosini unga yetkazadi. Shayboniyxon mag‘lubiyatga uchragan bo‘lsa-da, uning qarindoshlari mamlakatning kuchli markazlarini o‘z qo‘llarida saqlab turar edi. Uning o‘g‘li Temur Sulton Samarqandda, jiyani Ubaydulloxon Buxoroda, amakisining o‘g‘li Jonibek Sulton Andijonda, Abuxayrning o‘g‘li Ko‘chimxon Turkistonda, uning o‘g‘li Suyunbek esa Toshkentda hukmronlik qilar edi. Bobur Mirzo Shoh Ismoil dan madadga kelgan o‘qchi askarlar, yaqin atrofdagi qabilalardan qo‘shilgan otlig‘-u piyodalar – jami oltmish mingga yetib qolgan qo‘shin bilan Qarshiga hujum qiladi. Ubaydulloxon Qarshini tashlab Buxoroga yo‘l oladi. Buxoro qo‘lga kiritilsa, Qarshi o‘z-o‘zidan taslim bo‘lishini anglagan Bobur Mirzo Ubaydulloxondan oldin Buxoroga yetib boradi. Keyinchalik 1512-yilda Sohibqiron Amir Temurning poytaxti Samarqand uchinchi marta Bobur Mirzo ixtiyoriga o‘tadi. Tarixiy ma‘lumotlarga ko‘ra, Bobur Mirzo tomonidan Shoh Ismoilning qizilboshlar qo‘shiniga hurmat-ehtirom ko‘rsatishi sunniy va shia mazhabi o‘rtasida ixtilof chiqishiga sabab bo‘ladi. Bulardan tashqari, Samarqand hukmdori qizilboshlar qo‘shiniga qaytib ketish uchun ruxsat berishga bir oz shoshiladi. Shoh Ismoilning Iroqqa ketganidan xabar topgan Shayboniyxon

avlodlaridan bir qismi Toshkentga, Ubaydulloxon boshchiligidagi bir guruh esa Buxoroga o'tlanadi. Shiddatli janglardan so'ng Bobur Mirzo Buxorodan Samarqandga chekinishga majbur bo'ladi. Shahar qamal qilinadi. Qishdan endigina chiqqan shahar aholisi qamalga bardosh bera olmas edi. Qarshilik ko'rsatishning foydasiz ekanligini anglagan Bobur Mirzo poytaxtni tashlab, Hisor tomon yo'l oladi.

Dushman Hisorni qamal qilganda, Bobur Mirzo qo'l ostidagi askarlarini to'plab, zudlik bilan mudofaani tashkil qiladi va Shoh Ismoilning Balxdagi qo'shinlari qo'mondoni Bayramxondan yordam so'raydi. Yordamchi kuchlar yetib kelishi bilan shayboniylar chekina boshlaydi. Shu orada shoh Ismoil Amir Najim boshchiligidagi katta qo'shinni Bobur Mirzo huzuriga yuboradi. Amir Najim, Bayramxon kelib qo'shilishi bilan Bobur Mirzo qo'shinlari oltmish mingga yetadi. Bunday katta kuchga qarshilik ko'rsatishga ojiz bo'lgan shayboniylar mudofaaga o'tishga majbur bo'lishadi. Qarshi qamal qilinganida, shahar qal'asi Ubaydulloxon boshchiligida qattiq himoya qilinadi. Amir Najimning o'n besh ming kishilik shahar aholisining yoshi, jinsidan qat'iy nazar barchasini qilichdan o'tkazish haqidagi buyrug'ini Bobur Mirzo to'xtatib turishga urinadi. Biroq temuriyzoda bu jangda ikkinchi shaxs edi. Amir Najimning xunrezliklari mahalliy aholining g'azabini qo'zg'atdi. U G'ijduvonni qo'lga kiritish uchun hujumga o'tganda, muvaffaqiyatsizlikka duch keladi. Ubaydulloxonga Temur Sulton qo'shini kelib qo'shib, qo'qisdan Eron qo'shiniga qattiq zarba beradi. Yaxshi qurollangan shayboniylar qizilboshlarni mag'lub etadi. Jangda Amir Najim o'ldiriladi. G'ijduvondagi omadsizlik eroniy qo'shinining tarqab ketishiga sabab bo'ladi. Shayboniylar qo'shinining ko'payishi va Movarounnahrda mustahkam o'rnatilib olganliklari Bobur Mirzoning qayta Buxoro va Samarqandni qo'lga kiritishiga umid qoldirmadi. Shoh Ismoil va Bobur Mirzo o'rtasidagi aloqa shu tariqa xotima topadi. Movarounnahrda temuriylar hukmronligini tiklab, yirik va markazlashgan davlat tuzish uchun olib borilgan keyingi urinishlar ham natijasiz yakunlanadi. Bobur Mirzo yana Kobulga qaytadi.

Temuriylarning ikkinchi poytaxti Hirotning Shayboniyyon tomonidan istilo qilinishi Boburshohning Hindistonga bo'lgan ishtiyoqini yanada

orttirgan edi. Shunday bo‘lishiga qaramay, u Hindistonday ulkan mamlakatni 1526-yilda o‘z idorasi ostida birlashtirishga muvaffaq bo‘ldi.

Boburshoh 1519-1525-yillarda Hindistonni egallash uchun hal qiluvchi keng miqyosli beshta jangni amalga oshiradi. Bu ulkan mamlakatni bo‘ysundirish nihoyatda og‘ir kechadi. “Boburnoma”da muallif ilgari Hindistonni fath etgan Sulton Mahmud G‘aznaviy va afg‘onistonlik Shahobiddin Muhammad G‘uriylarning harbiy qudrati o‘zining imkoniyatlaridan nihoyatda yuqori bo‘lganini ta’kidlaydi. Unda qayd etilishicha, Sulton Mahmud G‘aznaviy Hindistonga yurish qilganida, Xurosonday ulkan mamlakat, Xorazm vohasi va Samarqand unga tobe’ edi. Son jihatidan nihoyatda katta bo‘lgan qo‘shini yuz ming - ikki yuz ming kishiga yetar edi. Sulton Shahobiddin G‘uriy bu mamlakatga hujum qilganda, uning akasi Xuroson mamlakatining podshosi edi. U bir yuz yigirma minglik qo‘shin bilan bu o‘lkaga kirib keladi. Har ikkala hukmdorga qarshilik ko‘rsatgan kuch Hindiston rojalari bo‘lib, bepoyon bu mamlakat yagona boshqaruv ostida birlashmagan edi. Boburshoh sarson – sargardonchilikning alamli kunlarini boshidan kechirib, vaqti-vaqti bilan ko‘plab talofatlar ko‘rib yurt va saltanat ishtiyoqi bilan Hindistonga yuzlandi. Uning idorasi ostida bo‘lgan Badaxshon, Qunduz, Kobul va Qandahor viloyatlari zo‘rg‘a o‘zini tutib turar, bu viloyatlar yuz ming kishilik qo‘shinga ega bo‘lgan shayboniylarga yaqin bo‘lganligi uchun ularga madad kuchlarini yuborib turish zarurati mavjud edi. Boburshoh 1525-yilda beshinchi marta hal qiluvchi hujum uyushtirganda Hindiston mamlakati Behradan Bahorgacha Sulton Ibrohim Lo‘diy nomli afg‘on tasarrufida edi. Boburshohning o‘n ikki ming kishilik lashkariga uning yuz ming kishiga yaqin azamat qo‘shini va mingta jangovor fili qarshi turardi.

Panjob viloyati zabt etilgandan so‘ng, Dehli sultoni Ibrohim Lo‘diyga qarshi kurashda Boburshohning kuchli harbiy salohiyati unga omad keltiidi. U “to‘lg‘ama” deb nomlangan harbiy tadbirini amalga oshirib, Ibrohim Lo‘diyga qattiq shikast yetkazadi. Ikki-uch oy vatanidan yiroqda bo‘lgan yigitlarining sustligini ko‘rib, Boburshoh ular oldida otashin nutq so‘zladi. Barchaning ruhini ko‘tarib, ularni jangga safarbar qiladi. Zambaraklarni ishga soladi va otliqlardan mohirlik bilan foydalanib, Panipatda Ibrohim Lo‘diyni mag‘lubiyatga uchratadi. 1526-yil 25-aprelda Dehlida Boburshoh

nomiga xutba o‘qiladi. Shu bilan u yangi sulola boburiylar sulolasining ulkan mamlakatiga asos soladi. Biroq xavf-xatar tamomila bartaraf etilgan emas edi. Hind va afg‘on mulkdorlari o‘zaro ittifoq tuzib, Chitora hokimi Rano Sango boshchiligida Boburshohga qarshi bosh ko‘taradi. Bo‘lib o‘tgan shiddatli janglar 1527-yilning 16-martida Boburshohning g‘alabasi bilan yakunlanadi. Bu g‘alaba Hindistonday ulkan mamlakatda turli din va millat vakillaridan tashkil topgan xalqlarning yagona markazlashgan davlat boshqaruvi ostida uzil-kesil birlashtiradi. Boburshoh va uning avlodlari Hindistonning xo‘jalik hayoti, madaniyati va obodonchiligiga katta e‘tibor bilan qarashdi. Uning saroyida ko‘pgina olimlar va shoirlar to‘planishdi. Mahalliy xalq vakillarining urf-odatlariga nihoyatda katta ehtirom bilan munosabatda bo‘lgan Boburshoh farzandlariga ham bu masalaning muhim jihatlarini teran o‘rgatdi. Natijada ulug‘ bobosi faoliyatining davomchisi bo‘lgan Akbarshoh hindlardan olinadigan g‘ayridinlik solig‘i – juz‘yani bekor qildi, ayrim qabilalarning vafot etgan erkak bilan tirik beva xotinini birga kuydirish odatini man‘ qildi, boshqa turdagi mahalliy din urf-odatlariga xolis munosabatda bo‘ldi. Shu va boshqa faoliyatlariga ko‘ra yirik davlat va jamoat arbobi Javoharla‘l Neru Boburshoh va boburiylar haqidagi o‘zining yuksak bahosini samimiy muhabbat bilan asarlarida bayon etdi. Sarson-sargardonlikda kechgan umr, bir necha bor hayotiga suiqasd uyushtirilishi (jumladan, Hindistonda uning ovqatiga zahar solib beriladi), vatandan yiroqlik Boburshoh sog‘ligiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. U “Boburnoma”da keltirilgan ruboiylarning birida kasallikning tobora xuruj qila boshlaganini bayon etadi:

Jismimda isitma kunda mahkam bo‘ladur,
Ko‘zdan o‘chadur uyqu, chu oqshom bo‘ladur.
Har ikkisi g‘amim birla sabrimdek,
Borg‘on sayi bu ortadur, ul kam bo‘ladur.

Yigirma besh-yigirma olti kun davom etgan bu kasallik dori-darmon bilan o‘nglanmaydi. Uyqusizlik va tashnalik Boburshohni holdan toydiradi. U hayotning achchiq-chuchugini ko‘rgan tajribali podshoh sifatida yaqinlariga vasiyatini ma’lum qiladi. Humoyunga adolatli siyosat yuritishni, ukalari bilan oralarida bo‘lgan gina-kudratlarni unutishni ta’kidlaydi. Umrini jang-u jadallarda o‘tkazgan Boburshoh 1530-yilning 26-

dekabrda Agrada vafot etadi. Keyinchalik uning xoki vasiyatiga ko‘ra Kobulga ko‘chiriladi. Bobur Mirzoning umri to‘s-to‘polon, urush-yurishlarda o‘tgan bo‘lsa ham, o‘z davrining ilg‘or fani yutuqlarini juda o‘tkir va betakror aql-zakovati bilan puxta egalladi. Atigi qirq yetti yil umr ko‘rgan olijanob inson va ulug‘ shoh avlodlarga o‘zining bebaho adabiy, ilmiy merosini qoldirdi. U yigirma yoshida (1503-yilda) “Xatti Boburiy”ni kashf qildi. Sharq mumtoz adabiyotining turli janrlarida ajoyib she‘rlar yozib, devon tartib berdi. “Bobumoma”day ulkan hajmli tarixiy-badiiy asarini yaratib, turkiy nasr imkoniyatlarining beqiyos ekanligini amalda isbotladi. Adabiyotshunoslik borasida turkiy aruzning xususiyatlariga oid “Muxtasar” asarini yozdi. Din asoslariga bag‘ishlangan she‘riy risolasi “Mubayyin”ni yaratdi. Shuningdek, naqshbandiy tariqatining peshvosi Xoja Ahrori Valiyning “Volidiya” asarini she‘riy usulda turkiy tilga tarjima qildi. Bulardan tashqari, Bobur Mirzoning musiqa va harbiy bilimlarga oid risolalar yozgani ham manbalarda bayon etiladi, biroq bu asarlarning taqdiri hamon noma‘lumligicha qolmoqda.

Savol va topshiriqlar:

1. Bobur Mirzo hayoti va faoliyati haqida ma‘lumot beruvchi mo‘tabar manbalardan qaysilarini bilasiz?
2. Ulug‘ hukmdor va ijodkorning hayoti va faoliyati borasida ilmiy izlanishlar olib borgan sharqshunos olimlardan kimlarni bilasiz?
3. Bobur Mirzo nomining jahonga tanilishida ijod ahlidan kimlarning xizmatlari singgan?
4. “Boburnoma” muallifi otasi Umarshayx Mirzo haqida qanday ma‘lumotlar keltiradi?
5. Bobur Mirzoning Faig‘ona viloyati taxtiga o‘tirishi tarixi haqida so‘zlang.
6. Yosh hukmdorning Samarqandni egallab, keyinchalik birato‘la bu azim shahar va Andijon taxtini qo‘ldan berib qo‘yishiga sabab nima?
7. Bobur Mirzoning: “Samarqanddek poytaxt turg‘uncha, ne kiroyi ul qilg‘aykim, Andijondek yer uchun kishi avqot zoe’ qilg‘ay”, – degan fikrlarini izohlashga harakat qiling.

8. Yetti ming askariy quvvatga ega bo'lgan tajribali hukmdor Shayboniyxondan juda oz sonli qo'shin bilan o'n to'qqiz yoshli temuriyzoda Samarqandni tortib olib, nima sababdan uni yana qo'ldan chiqaradi?

9. Bobur Mirzoning sarson-saigardonlikda o'tkazgan yillari haqida ma'lumot bering.

10. Kobul va G'azna Bobur Mirzo ixtiyoriga qachon o'tdi?

11. Husayn Boyqaroning Shayboniyxonga qarshi birgalikda kurashda Bobur Mirzoni ham taklif etganini yosh temuriyzoda qanday qabul qildi?

12. Bobur Mirzoning Hirotda o'tkazgan kunlari haqida nimalar bilasiz?

13. Xonmirzoning isyoni haqida gapirib bering.

14. Muqammad Shayboniyxoning taqdiri nima bilan yakun topadi?

15. Bobur Mirzo o'zini podshoh deb e'lon qilishining boisi nima?

16. Shoh Ismoil tomonidan kelgan elchilar Bobur Mirzo uchun qanday kutilmagan voqeaning sodir bo'lishiga sababchi bo'ldilar?

17. Bobur Mirzo Samarqandni uchinchi marta qo'lga kiritganida, yana qanday xatolari tufayli uni tashlab ketishga majbur bo'ldi?

18. Boburshohning Hindistonni egallashi tarixi haqida nimalarni bilasiz?

19. Bobur Mirzo qanday adabiy, ilmiy asarlar muallifi sanaladi?

20. Shoirning manzum asarlari deganda qaysi manbalar nazarda tutiladi?

21. Bobur Mirzo she'riyatidagi yetakchi janrlar qaysilar? Ularning mavzulari, o'ziga xos xususiyatlari haqida nimalarni bilasiz?

22. Shoir tuyuq janrini uning qanday ko'rinishlariga murojaat etish bilan yanada boyitdi?

“BOBURNOMA” ASARI TAHLILI

REJA:

1. “Boburnoma” – qomusiy asar.
2. “Boburnoma”ning yozilishi tarixi, tuzilishi va o‘ziga xos xususiyatlari.
3. Asarda Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Husayn Boyqaro ijodiy faoliyatiga munosabat.

“Boburnoma” – qomusiy asar. Zahiriddin Muhammad Bobur o‘z davrining katta bilimdoni sifatida asrida mavjud bo‘lgan barcha bilimlarni puxta o‘igandi va o‘zlashtirdi. Undagi ana shu donishmandlik zarrama-zarra asarlariga ko‘chib bordi. Xususan, o‘lmas “Boburnoma”ga kelib muallifdagi keng qamrovli bilim zahirasi o‘zining butun tajassumini topdi. Natijada qomusiy asar – “Boburnoma” vujudga keldi. Ushbu javohir xazinasi paydo bo‘lgan zamonidayoq, o‘zi va muallifiga beqiyos shuhrat keltirgan ediki, bu an‘ana hozirga qadar davom etmoqda. “Boburnoma” va uning muallifi bu sha‘n-u shavkatga to‘la sazovor. Chunki “Boburnoma” badiiy, tarixiy, yodnoma asar sifatida adabiyotshunos va tarixchi, tilshunos va urfshunos, tabiyot va jug‘rofiya sohasi, shuningdek, yana bir qator mutaxassislarga qimmatli ma‘lumotlar bera oluvchi bebaho ganjinadir. Shuning uchun ham bu asar turli davrlarda yashab, turfa tillarda so‘zlashgan sharqshunoslar diqqatini jalb etdi, dunyo kengliklarida aks-sado berib keldi. “Boburnoma” –Zahiriddin Muhammad Boburning goh ixtiyoriy, goh majburiy tarzda janggohlarda kechgan sarguzashtlarining aql va ko‘ngil mezonlarida o‘lchangan esdaliklaridir. Bu tarixiy-badiiy asar 1494-1530-yillardagi, Bobur Mirzoning Farg‘ona viloyatining hokimi bo‘lganidan boshlab Kobulda o‘zini podshoh deb e‘lon qilgani va nihoyat, Hindistonda boburiylar sulolasiga asos solishi bilan bog‘liq voqealarni o‘z ichiga qamrab oladi. Asar dastlab “Vaqoye” nomi bilan atalganligini muallifning o‘zi ruboiylaridan birida eslatib o‘tadi:

Bu olam aro ajab alamlar ko‘rdum,
Olam elidin turfa sitamlar ko‘rdum.
Har kim bu “Vaqoye”ni o‘qur, bilg‘aykim,
Ne ranj-u ne mehnat-u ne g‘amlar ko‘rdum.

Bobur Mirzo esdaliklari keyinchalik “Voqeoti Boburiy”, “Tuzuki Boburiy”, “Tavorixi Boburiy”, “Boburiya” tarzda atalib, nihoyat, “Boburnoma” nomi bilan shuhrat qozondi. Jahondagi eng nodir memuar namunasi sifatida e’tirof etilgan bu noyob durdonaning yozilishi tarixi haqida turli xil fikrlar bildirilgan. Ko’pchilik tadqiqotchilar Bobur Mirzo dastlabki yillardan boshlab o’z sarguzashtlari va turli xil tarixiy voqealarni xotira daftarlarida aks ettirib borgan va keyinchalik hayotining Hindiston davrida “Boburnoma”ni yozgan, degan fikrni ilgari suradilar. Taniqli adabiyotshunos, akademik B.Valiyxo’jayev “Boburnoma”ning yozilish sanasi 925-hijriy — 1518-1519-yildan boshlanib, keyingi yillarda sodir bo’lgan voqealar tarixiylik tamoyiliga ko’ra ketma-ket yozib borilganligini keltirilgan asosli dalillarga tayanib e’tirof etadi. Shuningdek, olim “Boburnoma”da hijriy 910, 915-924, 927-931-yillardagi, ya’ni 16 yillik voqealar bayonining uchramasligini mavjud qo’lyozmalardagi kamchiliklar sifatida emas, balki muallifning o’ziga xos uslubi sifatida baholaydi. Shu bois tadqiqotchi “Boburnoma”dagi 16 yilga tegishli bo’lgan voqealar bayonining uchramasligini asarning yaxlitligiga katta ta’sir ko’rsatmaydi, deya ta’kidlaydi (Qarang: O’zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik, 2-tom, Toshkent: «Fan», 1978, 64-77-betlar. Valiyxo’jayev B. Mumtoz siymolar. Toshkent, 2002, 290-297-betlar).

“Boburnoma” o’ziga xos tuzilishga ega bo’lgan nasr namunasidir. Unda ma’lum bir sanaga oid muhim bir voqea hikoya qilinadi, so’ng voqea sodir bo’lgan joy (viloyat, shahar)ga tavsif beriladi. Uning geografik o’rni, o’simlik va hayvonot dunyosi, xalqining urf-odatlar, yirik inshootlari o’quvchiga tanishtiriladi. Bo’lib o’tgan voqeaning asosiy ishtirokchilari xususida asarda mufassal ma’lumot keltiriladi. Chunonchi, muallif ularning tug’ilgan yili, nasl-nasabi, shakl-u shamoyili, xulq-atvori, urushlari, viloyati, avlodi, xotinlari, umarosi haqida bilganlarini bayon qiladi. Shu tariqa o’quvchi asarning bosh qahramonlari boshidan kechirgan jang-u jadallarni ko’z o’ngidan o’tkara boshlaydi. Asarning sodda va ravon uslubda yozilganligi kitobxonni voqealar girdobiga chorlaydi. U XV — XVI asrdagi Muvarounnahr-u Xuroson, Afg’oniston-u Hindistondagi ko’plab tarixiy shaxslar, bu mamlakatlardagi turli viloyatlarning tabiati, shaharlari va ulardagi memoriy yodgorliklar, asar muallifining jang-u jadallardagi ruhiy

holati bilan bir qatorda, uning bunyodkorlik faoliyati, ilm-u ijodi bilan yaqindan tanishadi. Shunday qilib, “Boburnoma”da, eng avvalo, ancha muallifning hayotiga doir mufassal tarzdagi qaydlar hamda Husayn Boyqaro, Umarshayx Mirzo, Sulton Ahmad Mirzo, Sulton Mahmudxon, Shayboniyxon, Xusravshoh, Badiuzzamon Mirzo, Muzaffar Mirzo, Mo‘min Mirzo singari katta-kichik toj-u taxt egalari, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Muhammad Solih, Kamoliddin Binoiy, Behzod, Mirak naqqosh, Husayn Udiy singari adabiyot va san’at arboblari haqida atroflicha hikoya qilinadi. “Boburnoma” madaniy hayotga doir keltirilgan dalillarning mohiyati va ilmiy qimmatini nuqtayi nazaridan g‘oyat muhim bo‘lib, bevosita shu vazifani zimmasiga olgan tazkiralalar bilan bimalol raqobat qila olishga qodir asarlardandir. Mazkur asar, eng avvalo, o‘z muallifining qamrovli faoliyati va ijodiyoti haqida mukammal tasavvur hosil qila olishi bilan qadrlidir. Asarda tarixiy shaxs, sarkarda, davlat va jamoat arbobi Bobur Mirzo bilan bir safda yetuk olim, donishmand adabiyotshunos, zukko tanqidchi va zabardast shoir qiyofasidagi Bobur Mirzo ham harakat qiladi, qadam tashlaydi. Bobur Mirzoda tajassumini topgan badiiyatga ixlos va ishtiyoq, baland iqtidor va she’riy salohiyat asarning umumiy ruhiga o‘z ta’sirini o‘tkazib, muhrini bosgan. Uning mutolaasi bilan mashg‘ul bo‘lgan kitobxon sahifalardagi har bir lavha tasvirida buni yorqin his etadi. Fikrimizcha, asar ta’sir kuchini baland ko‘taigan, uning serzavq va o‘qishlilikini ta’min etgan omillardan biri ham ana shu fikriy teranlik, yuksak hissiyot va shoirona zavqdir. Bobur Mirzo qonida jo‘shib turgan she’riyatga bo‘lgan baland mehr uni, hatto mag‘lubiyat va ruhiy tushkunlik chulg‘agan damlarda ham tark etmaydi. Aksincha, unga madad va dalda beradi, so‘lg‘in kayfiyatini ko‘taradi, umid va ishonch sari boshlaydi. Zabardast adibdagi mana shu ikki qarama-qarshi qutb talvasasi “Boburnoma”da o‘chmas iz qoldirgan. Asarning 1501 —1502-yillar voqealari bayoni qismidan o‘sha tushkunlik, ruhiy qiynalish azob-iztiroblari aks etgan mana bu mo‘jaz parchani olib ko‘raylik: “Bizga qurbon iydi Shohruhiyada bo‘ldi. Betavaqquf o‘tub, xon qoshig‘a Toshkantga bordim. Bu ruboiyni aytib edim. Ma’lum qofiyasida taraddudim bor edi, ul mahalda she’r mustalahotig‘a muncha tatabbu’ qilmaydur edim. Xon xushta’b kishi edi, she’r aytur edi, agarchi sar-u somonlik g‘azali kamroq edi, bu ruboiyni

xonga o‘tkarib, taraddudimni arz qildim. Ko‘ngul tingudek shofiy javob topmadim... Ruboiy budur:

“Yod etmas emish kishini mehnatda kishi,
Shod etmas emish ko‘ngulni g‘urbatda kishi.
Ko‘nglum bu g‘ariblikda shod o‘lmadi hech,
G‘urbatda sevunmas emish, albatta, kishi”.

Bobur Mirzoning mana bu matlaida ham shu ruhiy holat hukmron:

Jonimdin o‘zga yori vafodor topmadim,
Ko‘nglumdin o‘zga mahrami asror topmadim.

Ko‘rinadiki, ham Farg‘ona, ham Samarqandni qo‘ldan chiqargan Zahiriddin Muhammad Bobur she‘riy sehra suyangani, dil rozini unga to‘kib solgan va shu bilan oshufta qalbiga tasalli bergan. Yana muhimi shundaki, Bobur Mirzoga xos adabiy odat-dalillar, voqealar, shaxslarga xolisona qarash xususiyati shu parchadan ham zohir bo‘ladi. Garchi Toshkent hokimi unga arzigulik javob qilmagan bo‘lsa-da, ulug‘ adib uning fazilati – tab‘i nazmi borligi va xushfe‘lligini, shuningdek, nuqsoni – tuzukkina iste’dodi bo‘la turib, yaxshi asarlar yarata olmaganini ro‘yi rost ko‘rsatib o‘tadi. “Boburnoma”dagi mana shu parchalar ham g‘oyat muhimdir. “U fursatlarda birar, ikkirar bayt aytur edim. Vale g‘azal tugatmaydur edim. Birgina turki ruboiy aytib yibordim. Ruboiy:

Ishlar bori ko‘nglungdag‘idek bo‘lg‘usidur,
In‘om-u vazifa bori buyrulg‘usidur.
Ul g‘alla-u muhmalki deb erding, berdim,
Muhmalg‘a bo‘y-u g‘alladin uy to‘lg‘usidur.

Mullo Binoiy bu ruboiyning ilk misrasi qofiyasini radif qilib, o‘zga qofiya bilan bir ruboiy aytib o‘tkardi:

Mirzomki shohi bahr-u bar bo‘lg‘usidur,
Olamda hunar birla sar bo‘lg‘usidur.
Bir muhmal uchun muncha inoyat bo‘ldi,
Musta‘mal agar desam, nelar bo‘lg‘usidur.

Ul fursatda Xoja Abulbaraka Firoqiy Shahrisabzdin Samarqandga kelib edi. Dedimkim, o‘shul radif va qofiyada aytmoq kerak edi. Bu ruboiyni Xoja Abulbaraka aytdi. Ruboiy:

Bu javrki qildi davr surulg‘usidur,

Sulton-u karam ul uzrni qilg'usidur.

To'kulg'an agarchi to'lmas, ey soqiy,

To'kulg'onimiz bu davrda to'lg'usidur".

Ko'chirilgan parcha bir necha fikrni o'rtaga tashlash imkonini beradi. Bulardan birinchisi, yuqorida ta'kidlanganidek, she'riyatning Bobur Mirzo uchun oshufta ko'ngilga tasalli berish vositasi vazifasini o'tagani, ayni choqda, ijodkor to'liqlik ruhiy olamining asarga singib borishidir. Ikkinchidan, ko'zdan kechirilgan lavhalar Bobur Mirzo ijodiy takomil yo'lini tiklashda, muallif asarlarining paydo bo'lish tarixi, shu bilan bog'liq ravishda u yoki bu asar maydonga kelgan paytdagi uning shaxsiy kayfiyatini (albatta, ulug' shoir hamma she'riy asarlarining ham emas) aniqlashda "Boburnoma"ning zaruriy manba ekanligini ko'rsatadi. Yana, shu kichik bir manzaraning o'zi Zahiriddin Muhammad Boburning ijod ahliga xayrixohlik bilan qaraganidan, ularga moddiy va ma'naviy madad ko'rsatib turganidan dalolat beradi. Bobur Mirzo ruboiysi va unga Kamoliddin Binoiyning javobiya she'ri buning yorqin dalilidir. Kamoliddin Binoiyning bu ruboiysi ikkinchi bir jihatdan ham g'oyat muhim. Ya'ni, uning o'zbek tilini yaxshigina bilganligi va ba'zan bu tilda qalam tebratib, shiringina she'rlar bitib turganligidan nishonadir. Bobur Mirzoning sertashvish va mashaqqatli hayotidan yana bir lavha. Muallif yozadi: "Ushbu chashmadin yuqori Mascho doxilidur. Quyi Palg'arg'a taalluqdur. Ushbu chashma boshida, chashma yoqasidag'i toshida qazib, bu uch baytni sabt ettim:

Shunidamki, Jamshedi farrux sirisht,

Ba sarchashmae bar sange navisht:

Barin chashma chun mo base dam zadand,

Biraftand to chashm barham zadand:

Giriftem olam ba mardi-yu zo'r,

Yalekin naburdem bo xud ba go'r.

Ul Ko'histonda bu rasmdurkim, toshqa qazib, abyot va nimalar bitirlar". Bu she'riy parcha nashrga tayyorlovchilar tomonidan quyidagicha izohlangan: "Eshittimki, qutlug' tabiatli Jamshid bir buloq boshida tosh ustiga shunday deb yozgan ekan: "Bu buloq tepasida bizlar singari ko'p kishilar kelib o'lturdilar, ketdilar va yo'q bo'ldilar. Olamni mardlik va zo'rlik bilan oldik, lekin o'zimiz bilan go'rga eltmadik".

Keltirilgan iqtibos Bobur Mirzo hayotining 1501 – 1502-yillaridan bir lavhadir. Movarounnahrğa hujum boshlagan Shayboniyxon zarbasiga qarshilik ko‘rsata olmagan Bobur Mirzo Dahkatga va undan Obburdanga, u yerdan esa Maschoga o‘tadi. Eslatilgan chashma Obburdandan sal quyiroqda joylashgan ekan. Ammo bu misolni keltirishdan murod bular emas. Balki Bobur Mirzoning ijodiy faoliyatidagi muhim bir nuqtani – adabiy san’at ma’nosidagi zullisonaynlik va fors-tojik adabiyotiga bo‘lgan ehtiromining nihoyat balandligini ta’kidlashdir. Uning har bir jumlası olam-olam mazmun tashiydi. Bu o‘z-o‘zidan qo‘lga kelmaydi, albatta. Bunda muallif zakovati va til bilishdagi donishmandligi namoyondir. Bobur Mirzo o‘zidagi ana o‘sha ilohiy inoyatni chuqur tushungan va unga doimiy amal qilgan. Shu vajdan duch kelgan voqeani, qo‘lga tushgan ma’lumotni “Bobumoma”ga kiritmaydi, balki ularni tanlaydi, saralaydi, zarur, yangi va o‘quvchi uchun foydali bo‘lishi mumkin bo‘lganlarini bu nodir kitobiga kiritadi. Mascholiklarning toshga nimadir bitish odati ana shunday nozik, muhim va shu joy ahli uchun xos hodisa ediki, Bobur Mirzo uni ilg‘ab oldi, “Bobumoma”ga kiritdi va o‘zi ham amal qildi. Bobur Mirzoning bu juz’iy harakatida shirin bir orzu, umidbaxsh ramz yashirinday tuyuladi. Yoki ulug‘ sarkarda va shoir toshdagi bitiklar umri yashovchanligining o‘z asariga ko‘chishini nihoniy orzu qilib ko‘rgan bo‘lsa, ajab emas. Mashaqqatlarga to‘la qisqa umri davomida badiiy ijod bilan mashg‘ul bo‘lgan, o‘zbek va fors-tojik tillarida ba’zan o‘ynoqi she’riy asarlar bunyod etgan, necha ilmiy risolalar meros qoldirgan va nihoyat, “Boburnoma”day yuksak ma’naviy xazinani yaratgan Bobur Mirzoning o‘sha ezgu istagi rost bo‘lib chiqdi. Uning tabarruk nomi va latif satrlari jonsiz va sovuq toshdan vorislarining qaynoq qalbiga ko‘chdi va asrlar osha ular bilan birga yashab, nafis bir zavq hadya etib, sinchkov muxlislari tilida aks-sado berib kelayotir. Yuqorida ko‘rib o‘tilgan lavhalar Bobur Mirzo hayotining fojialarga to‘la davrlariga to‘g‘ri keladi. Ikki karra Samarqandni qo‘ldan chiqargan buyuk sarkardaga Andijon taxti ham buyurmadi. Ahmad Tanbal xiyonat yo‘lini tutdi va Bobur Mirzoni shaharga kiritmadi. Yigitlari to‘rt tomonga tarqalib ketdilar. Ahmad Tanbal ta’qibini susaytirmadi. Bu yetmaganidek, uning muborak boshi uchun katta boylik ham va’da qildi. Ana shu yo‘sin taqdir shamoli Bobur Mirzoni Badaxshon kentlariga uloqtirdi. Yusuf dorug‘a kabi yigitlari ham

xiyonat yo‘liga o‘tib oldilar. Ikki kundir taxt sohibi tuz tatigan emas. Bunday g‘arib holatlar unga kuchli ta’sir ko‘rsatdi va o‘z iboralari bilan aytganda “o‘zumni o‘lumba qaror berdim” (175-bet). Bobur Mirzo tang vaziyat bilan yuzma-yuz keldi. Boz ustiga, Yusuf dorug‘a “yana bir mardak” bilan birga oljani olishga shoshilmoqda. Dunyodan umidini uzgan Bobur Mirzo oxirat yo‘lini tanladi. Musulmonligi g‘olib keldi. Ariqda oqayotgan suvdan tahorat olib, vidolashuv namoziga cho‘kka tushdi. Ikki rak‘atlik namoz munajoti uchun peshonasini yerga qo‘ygan Bobur Mirzoni lahzalik g‘aflat uyqusi elitdi. Tush ko‘radi. Xoja Ahrorning o‘g‘li Xoja Yahyoning farzandi Xoja Ya‘qub qashqa ot mingan bir dasta yigitlari bilan ro‘parasida turibdilar. Aytidilar, bizni sizga Xoja Ahror yubordilar va dedilarkim “Har yerda mushkul ish tushsa, bizni nazarig‘a kelturub yod etsun, biz anda hozir bo‘lurmiz”. Xushxabar kayfiyati bilan boshini ko‘targan Bobur Mirzo yana o‘lim tahlikasiga duch keldi. Yusuf o‘z sherigi bilan uni bandi qilishga shoshilmoqda edi. Tarvuz qo‘ltiqdan tushdi, xayol o‘z holicha qoldi. Yo‘q, mo‘jiza ro‘y berdi. Otlar dupuri quloqqa chalinadi. Bobur Mirzoning 10-15 chog‘lik sadoqatli yigitlari uni izlab kelgan edilar. Ularni ham uning (Bobur Mirzoning) Kamon kentida nochor ahvolda ekanligidan tushlarida Xoja Ahror Valiy xabardor qilganlar. Bugina emas, ulug‘ Xoja uning istiqbolli kelajagi haqida ham bashorat qilgan ekanlar. Aytilganlar afsona emas, rostgo‘y Bobur Mirzoning o‘z iqrori. Muhimi, o‘sha lavhalar rost bo‘lib chiqdi va hayot qiyosida o‘zini oqladi. Ko‘ziga tik boqqan o‘limlardan xalos topib, yangidan dunyoga kelgan Bobur Mirzo “tokay bu Farg‘ona viloyatiga sargardon bo‘lib turmoq kerak, bir tarafga talab qiloyin” (176-bet) tarzida qat’iy hukm chiqardi va mulki afg‘on tomon yo‘l oldi. Ana shu tariqa ilohiy inoyat ila yo‘g‘rilgan bu ulug‘ zot umr yo‘lida naqshbandiya arbobi Xoja Ahror zulmat bag‘rim chok etuvchi mash’ala vazifasini o‘tagan. Yuqorida ko‘zdan kechirilgan juda ko‘p sonli dalilllar, manzaralardan ayonki, Zahiriddin Muhammad Bobur tabiatidagi san’at va adabiyotga bo‘lgan g‘oyat baland muhabbat, yurakdan shaydolik faqatgina uning she’riy asarlari doirasida qolib ketmagan, balki adib va adabiyotshunosning adabiy-tanqidiy qarashlariga ham ko‘chgan. Muallif tabiatidagi ko‘lamli qarashlar ijod ahli va adabiy muhit manzaralarini baholashda ravshan ko‘rinadi. Bobur Mirzo “Boburnoma”da o‘nlab qalam

sohiblari xususida qimmatli ma'lumotlarga joy berib, g'oyat sharaflari va muhim savob ishni bajarib ketdi. Uning bu sharofatli ishi, birinchidan, XV asrning ikkinchi yarmidagi Xuroson-u Movarounnahrning gavjum adabiy muhiti haqida boy taassurot bersa, ikkinchidan, Bobur Mirzoning aruz nazariyasiga oid chuqur ilmiy, rang-barang ma'lumotlarga boy "Muxtasar" asarining tug'ilishiga doya bo'lgani shak-shubha qoldirmaydi. Buni "Muxtasar" – "Risolai aruz"da keltirilgan badiiy parchalar juda ko'pchilik qismining shu davr adabiy muhitiga taalluqli ekanligi, unda Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Badriddin Hiloliy, Muhammad Solih, Amir Shayxim Suhayliy, Mavlono Osa'iy, Kamoliddin Binoiy, Bihishtiy, Hisomiy, Sayfiy Buxoriy kabi shoirlar she'rlarining misol sifatida tez-tez keltirilishi ham quvvatlaydi. Ikkinchidan, "Boburnoma"da Hirot adabiy maktabida tarbiya topgan, unda balog'atga yetib, shuhrat taratgan tab' ahlining nomi bot-bot ko'zga tashlanadiki, bu ham Bobur Mirzoning o'sha shahar madaniy hayotiga katta qiziqish bilan boqqanligini ko'rsatadi. Bizning ushbu xulosamizni "Boburnoma"da keltirilgan mana bu jumlar ham quvvatlaydi: "Sulton Husayn Mirzoning zamoni ajab zamone edi, ahli fazl va benazir eldin Xuroson, bataxis Hiri shahri mamlu edi. Har kishiningkim bir ishga mashg'ullug'i bor edi, himmati va g'arazi ul edikim, ul ishni kamolga tegurg'ay". Ko'zdan kechirilgan parchaning yana bir fazilati shundaki, o'sha jumlar asar muallifining Sulton Husayn Boyqaro saltanati davrida Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiylar homiysi, sarkori bo'lgan Hirot adabiy muhiti haqida o'rta tashlanadigan mulohazalarining debochasi vazifasini o'taydi. Bobur Mirzo ana shu yakunlovchi hukm, xulosaning isboti uchun davr madaniy hayotidan xilma-xil dalillar keltirib, kitobxonlarni qanoatlantiradi. Bobur Mirzo tomonidan "Boburnoma"ga kiritilgan nodir ma'lumotlar faqat adabiy hayotga tegishli bo'lmay, balki keng qirralidir. Unda shoirlar bilan bir qatorda taniqli xattotlar, musiqa olamining donishmandlari, zamona zukkolari tomonidan e'tirof etilgan mudarrislar, naqqosh-u musavvirlar, tarix sohasining bilimdonlari va hokazolar haqida ham ixcham, aniq va odilona fikrlar o'rta tashlanadi. O'shalardan ayrimlarini ko'rib o'taylik. "Boburnoma"da Mavlono Shayx Husayn, Mullozodai Mullo Usmon, Mir Jaloliddin kabi olimlar nomi zikr etilgan. Bobur Mirzoning hassosligi shundaki, ular haqida kichkina bir

jumlada katta haqiqatni ifodalashga erishgan: “Yana Mavlono Shayx Husayn edi... Hikamiyot va aqliyot va kalom ilm ini xo‘b bilur”. “Yana biri Murtoz edi, Hakamiyot va ma’qulotni yaxshi bilur edi, aning uchun bu laqab bila mulaqqab bo‘lubturkim, bisyor ro‘za tutar erkandur”. “Yana bir Mir Jaloliddin muhaddis edi. Hadis ilm ini Xurosonda oncha bilur kishi yo‘q edi, xeyli muammardur”. Muhimi shundaki, Bobur Mirzo har bir tarixiy shaxsning o‘ziga xos xislatiga, ajralib turuvchi fazilatiga alohida e’tibor bilan qaragan. “Boburnoma”da madaniy hayot talqini haqida gap ketar ekan, unda yetakchi qaydlarni adabiyot ahliga doir mulohazalar tashkil etishini zo‘r qoniqish bilan ta’kidlash joizdir. “Boburnoma”ning bu sohadagi ma’lumotlarini, eng avvalo, ikki qismga ajratish mumkin. Birinchisini turli ijtimoiy tabaqalardan chiqqan va shu sohaning fidoyilari sifatida tanilgan ijodkorlar borasidagi gaplar tashkil etadi. Ikkinchi guruhga arkoni davlat vakillaridan tab’i nazmi bo‘lganlari kiradi. Bobur Mirzoning ijodkorlar haqidagi ma’lumotlari tarixiylik nuqtayi nazaridan haqqoniy va ishonchli bo‘lganligi bilan ayricha e’tiborga loyiq. To‘g‘ri, uning fikrlari ba’zan bir yoqlamalikdan, shaxsiy mayl aralashuvidan ham xoli emas. Ulkan adib qarashlaridagi bunday juz’iy nuqsonlar o‘z vaqtida o‘zbek adabiyotshunosligiga paydo bo‘lgan ishlarda qayd qilingan va munosib baho berilgan edi. Taniqli olim B.Valiyxo‘jayev o‘zining “XV – XIX asrlar o‘zbek adabiy-tanqidiy qarashlari tarixidan” nomli tadqiqotida Zahiriddin Muhammad Boburning adabiy-tanqidiy qarashlari ustida ham batafsil to‘xtaladi va Shayboniyxon – Bobur, Muhammad Solih – Bobur munosabatlari misolida uning qarashlarida shaxsiy raqobat ta’siri, tarfakashlik alomatlari borligini ko‘rsatadi (Sam DU. Asarlar, 138-nashr, 104-bet). Lekin Boburning dunyoqarashida chegaralangan aqidalar emas, balki mavjud turmushga, hayotga va uning go‘zalligiga, inson va uning fazilatlariga qiziqish, ularni qo‘llash asosiy o‘rinni egallar edi. Uning she’riyati ham, “Boburnoma”si ham va shularda ifoda etilgan adabiy-tanqidiy qarashlari ham shunday dunyoqarashga asoslanadi. Shuning uchun Bobur Mirzoning adabiy-tanqidiy qarashlari bugungi adabiyotshunoslik talablariga to‘la mos keladi va XV-XVI asrlar adabiyotini o‘rganishda ishonchli manba bo‘la oladi. Bobur Mirzoning Sulton Husayn Boyqaro saltanati davridagi shuaro xususidagi ma’lumotlari Alisher Navoiyning

tabarruk nomi bilan ibtido topadi. “Boburnoma” muallifi Alisher Navoiy haqida nisbatan mutassalroq to‘xtalgan va aytish mumkinki, ulug‘ o‘zbek shoirining hayot yo‘li, ijodiyoti bobidagi asosiy nuqtalarni qamrab olishga erishgan. Jumladan, Alisher Navoiyning Sulton Husayn Boyqaroga tegishliligi, Xuroson davlati tizimida tutgan mavqeyi, tabiati, san’at ahliga g‘amxo‘rligi, oilaviy hayoti va vafoti singari masalalar uning yozuvlarida aksini topadi. Jumladan, Bobur Mirzo yozadi: “Yana Alisherbek edi, begi emas edi, balki musohibi edi, kichikligida hammaktab ekandurlar... Samarqandga bordi... Alisherbekning mijozi nozuk bila mashhurdir. El nazokatini davlatining g‘ururidin tasavvur qilur edilar. Andoq emas ekandur, bu sifat anga jibilliy ekandur. Samarqandta ekanda ham ushmundoq nozuk mijoz ekandur... Ahli fazl va ahli hunarga Alisherbekcha murabbiy va muqavviy ma’lum emaskim, hargiz paydo bo‘lmish bo‘lg‘ay... O‘g‘ul va qiz va ahli ayol yo‘q, olamni tavi fard va jariyda o‘tkardi... Mirzo (Sulton Husayn Boyqaro) bilan ko‘rishib qo‘pquncha bir holat bo‘ldi, qo‘polmadi, ko‘tarib eltdilar. Bir bayti hasbi hoi voqi’ bo‘lubtur.

Bu dard ilaki o‘larmen, maraz chu zohir emas,
Tabiblar bu balog‘a ne chora qilg‘aylar”.

Biz bu yerda Bobur Mirzo bergan ma’lumotlarning Alisher Navoiy shaxsiyati va ijtimoiy faoliyatiga taalluqli o‘rinlarini ko‘chirdik. Aytish kerakki, Bobur Mirzoning bu mushohadalari ixcham xulosalar bo‘lib, ularga buyuk shoirning yuzlab olijanob ishlari asos bo‘lgan. Bobur Mirzo Alisher Navoiyning kichik zamondoshi sifatida o‘sha xayrli ishlarning aksariyatini eshitgan, Hirotda uning uyida yashagan paytida ko‘rgan va yuqoridagi xulosalarga kelgan. Bu parchada Bobur Mirzo zukkoligini tasdiq etuvchi kichkina bir lavha diqqatni o‘ziga tortadi. U ham bo‘lsa, Alisher Navoiy tabiatidagi nozik mijozlik bilan bog‘liqdir. Garchi Alisher Navoiy haqida ma’lumot beruvchi manbalarning aksariyati masalaning bu tomoniga ishora qilsa-da, Bobur Mirzochalik ravshan va chuqur tavsif bermaydi. Bobur Mirzoning donishmandligi shundaki, Alisher Navoiy tabiati, fe’l-u atvoridagi o‘sha jihatni qayd etadi, el orasida yurgan gaplarga ham ishora qiladi, ularning barchasini to‘plab aql va adolat mezonidan o‘tkazgach, qat’iy hukmini o‘rtaga tashlaydi. O‘zining o‘rtaga tashlagan lo‘nda mushohadasi tasdig‘i uchun Bobur Mirzo Alisher Navoiy faoliyatining

Hirot davriga emas, balki Samarqanddagi yillariga ishora qiladi. Zotan, mantiq va odillik ham shuni taqozo etardi. Alisher Navoiy Samarqandda oddiygina tolibi ilm bo'lgan chog'larida, hatto o'z tirikchiligini zo'rg'a tebratgan bo'lsa-da, tabiatida o'sha noziklik mavjud edi. Modomiki shunday ekan, bu holat na munosabat va na boylik, mol-u dunyo bilan bog'liq bo'lmay, balki uning qoni va joniga ona suti bilan singgan xususiyatdir. Bobur Mirzo Alisher Navoiy ijodi haqida batafsil ma'lumotlar keltirar ekan, faqat ro'yxatni berish bilan kifoyalanmay, ularga o'z munosabati, nuqtayi nazarini ham bildirishga harakat qiladi: "Alisherbek naziri yo'q kishi edi, turkiy til bila to she'r aytubturlar, hech kim oncha ko'p va xo'b aytqon emas... yana ba'zi musannafoti borkim, bu mazkur bo'lg'onlarga boqa pastroq va sustroq voqi' bo'lubtur. Ul jumladin insholarini Mavlono Abdurahmon Jomiyga taqlid qilibtur". Biz bu o'rinda ataylab Bobur Mirzoning tanqidiy fikrlarini ko'chirdik. Bobur Mirzo Alisher Navoiyning "Xamsa", "Xazoyin ul-maoniy" va "Lison ut-tayr" asarlarini e'tirof etadi hamda ularning katta mahorat mevasi ekanligini tan oladi. Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub", "Xamsat ul-mutahayyirin", "Muhokamat ul-lug'atayn", "Majolis un-nafois" kabi bir qator asarlari Zahiriddin Muhammad Boburga "pastroq" va "sustroq" bo'lib ko'rinadi. Nazarimizda, masalaning bu tomoniga qo'shilish qiyin. Alisher Navoiy qalami ostidan chiqqan asarlarning badiiy mahorati va g'oyaviy yo'nalishi jihatidan bir xil mezonda o'lchash va teng qo'yish da'vosini mustasno qilgan holda keyingi asarlarining ham kamsitilishiga norozimiz. Shu o'rinda yana bir nozik jihatni ham hisobga olishga to'g'ri keladi. Alisher Navoiy yaratib qoldirgan ma'naviy meros chinakamiga katta xazina. Undagi dur-u javohirlar miqdori va qimmatini aniqlash bir kishining qo'lidan keladigan ish emasligi o'z-o'zidan ayondir. Shu ma'noda Bobur Mirzo ma'lumotlariga tanqidiy qarash lozim. Bobur Mirzo bitta shaxs bo'lgani uchun ham u Alisher Navoiyning barcha asarlarini tahlil etish va xolisona baholashga qodir emasligi hech kimga sir emas. Bu ishning murakkabligini bugungi navoiyshunoslik misolida ham ko'rish mumkin. Hozirga qadar Alisher Navoiy adabiy merosini tadqiq qilishga bag'ishlangan o'nlab doktorlik va yuzlab nomzodlik tadqiqotlari yozilgani, o'nlab ilmiy to'plamlar, elliklab turli hajmdagi kitoblarning bosilib chiqqanligiga qaramay, hali ham buyuk

mutafakkir ijodida o'rganilmagan, tadqiqotchisini kutayotgan sohalar juda ko'p. Masalaning bu jihatida Bobur Mirzo oldida turgan mushkilotni hisobga olib, uni to'g'ri tushunish zarurligini ko'rsatadi. Yana Alisher Navoiy o'z maktublarini yig'ishtirib, to'plam ("Munshaot") tuzganligi Bobur Mirzo uchun Abdurahmon Jomiyga taqlidday tuyuladi. Adabiy jarayonda, daho san'atkorlar faoliyatida ko'zga tashlanadigan yaxshi, ijobiy an'analarni o'rganish, davom ettirish sharaflı ish. Bobur Mirzo ham taqlidni salbiy ma'noda qo'llamagan bo'lishi mumkin. Bobur Mirzo Alisher Navoiyning adabiy faoliyati xususidagi gaplarini davom ettirar ekan, uning "Mezon ul-avzon"i haqida yozadi: "Yana "Mezon ul-avzon" otliq aruz bitibtur, bisyor madhuldur. Yigirma to'rt ruboiy vaznida to'rt vaznida g'alat qilibtur. Ba'zi bahrning avzonida yangilibtur, aruzga mutavajjih bo'lg'on kishiga ma'lum bo'lg'usidur". Bobur Mirzo "Boburnoma"da "Mezon ul-avzon"dagi nuqsonlarni qayd qilgani holda, "Muxtasar" – "Risolai aruz" asarida bu haqda hech narsa demaydi. Mazkur asar ustida maxsus ilmiy kuzatishlar olib borgan va uni nashrga tayyorlagan Saidbek Hasan "Boburnoma"dagi ma'lumotlarga qaytib, u haqda o'z fikrini bayon etadi: "Fikrimizcha, – deydi Saidbek Hasan "Muxtasar"ga yozgan so'zboshisida, – Bobur "Mezon ul-avzon"ning xattot tomonidan yanglish ko'chirilgan nusxasidan foydalanib, keyinchalik esa mazkur ruboiy vaznlarida nuqsonlar yo'qligini aniqlagach, bu haqda gapirishni lozim topmagan bo'lishi kerak" (10-b.). Saidbek Hasanning bu fikriga qo'shilsa bo'ladi. Chunki shunday holat yuz bermaganida, Bobur Mirzo bu masalaga qaytgan va yo ishora qilgan bo'lardi. Alisher Navoiy va Bobur Mirzo munosabatlari haqidagi bahsimizning yana bir e'tirozli parchasini keltirish bilan yakunlaymiz. "Boburnoma" sohibi Alisher Navoiyning zullisonayn ijodkor ekanligini inobatga olib, uning fors-tojik tilidagi merosi haqida yozadi: "Forsiy devon ham tartib qilibtur. Forsiy nazmda "Foniy" taxallus qilibtur, vale aksar sust va furudtur".

Zahiriddin Muhammadning bu fikrlariga munosabat bildirishdan avval shu masalaga taalluqli ayrim parchalarni ko'zdan kechiraylik. Alisher Navoiyning o'zi yozadi: "Yana forsiy g'azaliyot devoni Xoja Hofiz tavridakim, jami' suxan adolar va nazm piyrolar nazarida mustahsan va matbu'dur tartib beribmenkim, olti mingdin ab'yoti adadi ko'prakdur..."

(Alisher Navoiy. Asarlar. 15 jildlik, 14-jild. Toshkent, 1967, 125-b.). Fors-tojik adabiyotining tenggi yo‘q san’atkori Abdurahmon Jomiy Alisher Navoiyning “Tuhfat ul-afkor” qasidasini mutolaa qilar ekan, undan olgan zavq va taassurotlarini nazmga ko‘chiradi. Alisher Navoiyning o‘zi olti ming baytdan ziyodroq fors-tojik tilidagi asarlarining zamon donishmandlariga manzur bo‘lib, ular tahsiniga sazovorligini qayd etadi. Uning “Tuhfat ul-afkor” falsafiy qasidasi buyuk Jomiyning yuksak bahosini olganligi, hatto, ramziy sovg‘alar (bo‘rk va ro‘mol) bilan taqdirlangani ma’lum. Abdurahmon Jomiy qalb daflarida Alisher Navoiy merosiga doir bunday samimiy gaplarni ko‘plab uchratish mumkin.

Fors-tojik adabiyotining zukko donishmandi akademik A.M.Mirzoyev Alisher Navoiyning fors-tojik tilidagi merosi bilan uzoq yillar shug‘ullandi va qimmatli xulosalarga keldi. Olim Alisher Navoiyning o‘sha tildagi merosiga tayanib, uni XV asr adabiyotining Abdurahmon Jomiydan keyingi buyuk siymosi tarzida qadrlaydi. Fikrimizcha, aksariyat asarlari “sust va furud” bo‘lsa, Alisher Navoiy bu qadar taqdirga sazovor bo‘lmagan bo‘lar edi. Zahiriddin Muhammad Bobur Abdurahmon Jomiyga baland e’tiqod, ixlos va hurmat bilan munosabatda bo‘ladi. Uni Hirot shoirlarining “saromad va sardaftari” tarzida qayd qilar ekan, samimiyat ruhi ufurib tuigan qalb so‘zlarini izhor etadi: “Ul jumladin biri Mavlono Abdurahmon Jomiy edikim, zohir va botin ulumida ul zamonda ul miqdor kishi yo‘q edi. She’ri xud ma’lumdir. Mulloning janobi andin oliyroqdurkim, ta’rifqa ehtiyoji bo‘lg‘ay...”. Bobur Mirzoning Abdurahmon Jomiy haqidagi aqidalari shular bilan xotimalanmaydi. Balki asarining boshqa o‘rinlarida ham ustoz ijodkorning tabarruk nomini tilga oladi, undan cheksiz hurmatini darig‘ tutmaydi. Jumladan, fors-tojik adabiyotining ko‘zga ko‘ringan arboblardan biri Abdullo Hotifiyni yodga olganda, uning Abdurahmon Jomiyga yaqin qarindoshligi borligini ta’kidlab o‘tadi: “Yana Abdullohi masnaviygo‘y edi, Jomdindur. Mulloning xoxarzodasi bo‘lur, taxallusi “Hotifiy” edi. “Xamsa” muqobalasida masnaviylar aytibdur. “Haft paykar” muqobalasida aytqon masnaviysiga “Haft manzar” ot qo‘yubdur. “Iskandarnoma” muqobalasida “Temurnoma” aytibdur. Bu masnaviylardan “Layli va Majnun” mashhurroqtur. Agarchi latofati shuhraticha yo‘qtur”. Ko‘rinadiki, Zahiriddin Bobur Hotifiy ijodiyotining yetakchi qirralarini

qamrab olishga intilgan. Lekin xotimada yana boburona uslub g'olib keladi, Hotifiydagi katta ijodiy qobiliyatdan ko'z yummagani holda, uning shaxsiyatidagi latofatsizlikni tanqid qiladi. Muhimi, Bobur Mirzo ma'lumotlari Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois"idagi qaydlariga rost keladi. Alisher Navoiy ham Abdullo Hotifiydagi balandparvozona yurishni ma'qul ko'rmaydi. "Agarchi zohir yuzidin, – deb yozadi Alisher Navoiy, – Hazrati Maxdumi Nuranga o'zin qarobat tutar, ammo ma'ni yuzidin bag'oyat yiroqdur". Umuman, Alisher Navoiy va Zahiriddin Bobur ma'lumotlari deyarli bir-biriga monand. Faqat birgina masnaviy nomida tafovut bor. Alisher Navoiy: "Iskandarnoma" muboqalasida "Zafarnoma" nazmiga mashg'ul erdi", – deb yozadi. Bobur Mirzo esa uni "Temurnoma" tarzida keltiradi. Alisher Navoiy u haqda ma'lumot berganda, Abdullo Hotifiy asarini endi yozishga kirishgan edi. Zahiriddin Bobur esa bu shoir masnaviysini nihoyasiga yetkazgandan keyin uni ko'rgan bo'lishi mumkin. Muallif esa o'z masnaviysini dastlab "Zafarnoma" deb atagan va ijodiy ish intihosida uning nomini o'zgartirgan bo'lsa, ajab emas. Shunday qilib, ijodkor shaxsi, uning xatti-harakatiga munosabat masalasida Alisher Navoiy va Zahiriddin Bobur qarashlarining bir-biriga hamohangligi Abdullo Hotifiyga berilgan ma'lumotnoma misolida yana bir karra yorqin namoyon bo'ladi. "Boburnoma"da tab'i nazmi bo'lgan bir qator temuriy shoh va shahzodalar, vazir-u vuzarolarning nomlari ham zikr etilgan. Yuqorida ko'rganimiz singari bu o'rinda ham Zahiriddin Bobur jiddiy va imkon qadar odillik bilan mavjud adabiy dalillarni ko'zdan kechiradi, ularga shaxsiy munosabatini bildiradi. Chunonchi, Umarshayx Mirzo, Hasan Ya'qubbek, Kichik Mirzolar haqida Bobur Mirzo mulohaza yuritar ekan, ularning fe'l-u atvoridagi o'ziga xos jihatlarini ko'rsatishga intiladi. Masalan, Hasan Ya'qubbekning "kichik ko'ngulluk, yaxshi tab'liq, chust va chaspon"ligini e'tirof etar ekan, Umarshayx Mirzoning "tab'i nazmi bor»ligi, "vale she'rga parvo qilm as"ligini ko'rsatadi. Bobur Mirzoning shahzodalardan Muhammad Husayn Mirzo va Shohg'arib Mirzolar haqidagi fikrlari ham alohida e'tiborga molikdir. "Boburnoma" sohibi Muhammad Husaynning tab'i nazmi borligini aytib, undan bir bayt keltirsa, Shohg'arib Mirzo haqida nisbatan kengroq to'xtaladi: "Yana Shohg'arib Mirzo edi, – deb yozadi Bobur Mirzo o'sha asarida, – bukri edi. Agarchi hay'ati yomon edi, tab'i

xo‘b edi. Agarchi badani notavon edi, kalomi marg‘ub edi. “G‘aribiy” taxallus qilur edi. Devon ham tartib qilib edi. Turkiy va forsiy she‘r aytur edi. Bu bayt aningdurkim:

Dar guzar didam pariyo‘e shudam devonaash,

Chist nomi o‘, kujo boshad nadonam xonaash. (Mazmuni: Guzarda bir pariyuzni ko‘rib, devona bo‘ldim. Uning ismi nima, uyi qaerdaligini bilmadim).

... Otasining zamonida o‘q naql qildi. Andin o‘g‘ul, qiz qolmadi”. Bu parchaning qimmati shundaki, qayta-qayta ta’kidlanganidek, Bobur Mirzo uchun na joy, na mavqe, na husn-u chiroy, balki shaxsning u yoki bu soha uchun qilgan xizmati, o‘ziga xos fazilat-u belgilari, ma’lum sohada qo‘shgan yangiligi birinchi o‘rinda turadi. Muallif ana shu talablar doirasida u yoki bu san’atkor, shoir va tarixiy shaxsga baho beradi. G‘aribiy garchi bukri bo‘lsa-da, “kalomi marg‘ub”, Bobur Mirzo uchun o‘sha fazilat muhim va shuning uchun u haqda samimiyat bilan mulohaza yuritadi. “Boburnoma”ning qator sahifalarida Sulton Husayn Boyqaroga alohida ixlos va muhabbat bilan muomalada bo‘linadi. Muallif u haqda bilganlarini kitobxon bilan baham ko‘radi. Zahiriddin Boburning Sulton Husayn Boyqaro saltanati, yurishlari, arkoni davlati, nasl-nasabi, shajarasi haqidagi ishonchli ma’lumotlari XV asr tarixini o‘rganishda muhim manbadir. “Boburnoma” muallifi Sulton Husayn Boyqaroning shoirlik salohiyatini keng sharhlaydi: “... Tab’i nazmi bor edi. Devon ham tartib qilib edi. Turkiy aytur edi. Taxallusi “Husayniy” edi. Ba’zi baytlari yomon emastur. Vale Mirzoning devoni tamom bir vazndadur, bovujudkim, ham yosh, ham saltanat bila ulug‘ podshoh edi, kichiklardek qo‘chqor saxlab, kabutar saxlab, kabutar o‘ynar edi, tovuq ham urushqa solur edi”. Keltirilgan parchadan ko‘rinadiki, “Boburnoma” sohibi Husayn Boyqaro faoliyatiga har tomonlama baho berishga erishgan. Tahlil jarayoniga tortilgan iqtiboslardan ayonlashadiki, “Boburnoma” o‘z muallifi adabiy-tanqidiy qarashlarini o‘rganishda bebaho dalillar bera oladi. Shuningdek, unda o‘nlab fors-tojik, o‘zbek tilida hamda har ikki tilda ijod qilib, o‘lmas asarlar yaratib qoldirgan shoirlar haqida g‘oyat aniq va zarur ma’lumotlarni keltirgan. Masalaning bu jihati “Boburnoma”ning o‘zbek va tojik adabiyotshunosligi uchun XV – XVI asr birinchi yarmi adabiyoti tarixini

o'iganishda muhim manba sifatidagi qimmatini oshiradi. Ikkinchidan, bir qavm, bir qardosh maqomidagi o'zbek va tojik xalqlari adabiy birodarligi nurli sahifalari sifatida xizmat qiladi.

Savol va topshiriqlar:

1. "Boburnoma"ning yozilishi tarixi, tuzilishi va o'ziga xos xususiyatlari haqida nimalarni bilasiz?
2. "Boburoma"da muallifning o'z asarlari yozilishi tarixi xususida qanday lavhalar keltirilgan? Asar asosida Bobur Mirzoning adabiyot va madaniyat homiysi sifatidagi faoliyati haqida so'zlang.
3. Asarda Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Husayn Boyqaroning ijodiy faoliyatiga qanday munosabat bildiriladi?

MUHAMMAD SOLIH VA XOJA HAYOTI VA IJODI

REJA:

1. Muhammad Solih hayoti va ijodi.
2. “Shayboniynoma” – tarixiy doston.
3. Xojaning hayoti va ijodi.
4. Xojaning “Miftoh ul-adl” va “Gulzor” asarlari.
5. Hikoyatlarning mavzu ko‘lami va g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari.

Muhammad Solih hayoti va ijodining o‘rganilishi tarixi. Muhammad Solih – o‘zbek mumtoz adabiyotining taniqli namoyandalaridan biridir. XV asrning ikkinchi yarmi XVI asrning 30- yillarida yashab ijod etgan bu iste’dodli shoir haqida Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois”, Zahiriddin Muhammad Boburning “Bobumoma”, Zayniddin Vosifiyning “Badoye’ ul-vaqoye’”, Xondamirning “Habib us-siyar”, Hasanxoja Nisoriyning “Muzakkir ul-ashob”, Som Mirzo Somiyning “Tuhfai Somiy”, Mirzo Haydarning “Tarixi Rashidiy”, Lutf Alibek Ozarning “Otashkada” kabi qator manbalarda so‘z yuritiladi va turli bayozlarda uning ijodidan namunalar keltiriladi. Shuningdek, shoir qalamiga mansub “Shayboniynoma” dostonidagi muallif tarjimayi holiga oid qaydlar ijodkor haqida ma’lum tasavvurlarni hosil qilishda imkon beradi. Muhammad Solih – zullisonayn shoir. U turkiy va fors-tojik tillarida ijod qildi. Alisher Navoiy “Majolis un-nafois” da shoirning “Tab’ida xeyli diqqat birla choshni bor”ligini, xattotlik bobida ham qobiliyatli ekanligini e’tirof etadi va uning quyidagi matlaini namuna sifatida keltiradi:

Nayam oshufta, gar po‘shid kokul mohi tobonash,

Chi g‘am az tiragii shab, chu boshad subh poyonash.

(Mazmuni: Yorning kokili yorqin oydek yuzini yopib turgan ekan, undan parishon emasman. Oxirida yana tong otishi ma’lum ekan, tunnning qorong‘uligidan ne g‘am?)

Alisher Navoiy nazariga tushgan ushbu bayt ijodkorining yetuk shoir ekanligidan dalolat beradi. Unda oshiqning ma’shuqa visoliga vosil bo‘lishiga ishonchi keltirilgan tamsil asosida yorqin namoyon bo‘lgan. Shoir yorning qop-qora kokilini tunga, uning yorqin oydek yuzini tongga

o‘xshatadi. Tundan so‘ng tong otishi yor jamoli yuzidan sochlarini olishi bilan uyg‘undir. Ulug‘ mutafakkir Alisher Navoiyning tazkirasida Muhammad Solihning “Shayboniynoma” dostoniga munosabat bildirilmaydi. “Majolis un-nafois”dagi qaydlar Muhammad Solih ijodining dastlabki bosqichiga taalluqlidir. “Shayboniynoma” esa shoir ijodining ikkinchi bosqichi, uning Shayboniixon xizmatiga kirganidan keyingi davriga tegishli bo‘lib, doston ijod etilgan vaqtda Alisher Navoiy bu foniy dunyo bilan vidolashgan edi. Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma”da Muhammad Solihning g‘azaliyotini qoniqish bilan e’tirof etgan holda, Shayboniixoniga bag‘ishlangan turkiy masnaviysini “bisyor sust va furudtur” – deya baholash bilan kifoyalanib qolmaydi. “Boburnoma” muallifi “ani o‘qug‘on kishi Muhammad Solih she‘ridin be’tiqod bo‘lur”, – deya ta’kidlaydi. Muhammad Solih sohib devon shoir sifatida go‘zal nazmiy durdonalar yaratgan bo‘lsa-da, undan ayrim namunalargina bizgacha yetib kelgan, xolos. Adabiyotshunos Akromjon Ibrohimov yuqorida nomlari tilga olingan mumtoz manbalar asosida Muhammad Solih she‘riy merosi haqida ma’lum tasavvur hosil qilish uchun ulardan namunalar keltiradi. Tadqiqotchi diqqatini o‘ziga jalb etgan shoirning quyidagi bayti ijodkor salohiyati haqida yaxshigina taassurot qoldirishi bilan ahamiyatlidir:

Asiri olami surat mabosh Solehi nodon,

Biyo ba olami ma’ni, ki olami digar ast in.

(Mazmuni: Surat olamining asiri bo‘lma, ey nodon Solih, Ma’no olamiga kelki, bu olam boshqa olamdir)

Taniqli adabiyotshunos A.Hayitmetov “Hayotbaxsh chashma” kitobida (Toshkent, 1974, 136-b.) shoirning 2 ta, E.Shodiyev esa “O‘zbekiston madaniyati” gazetasida (1972-yil 11-iyul) 10 ta g‘azalini turli bayoz va majmualardan aniqlab e’lon qilishdi. Biroq shoirning devoni haligacha ilm ahliga ma’lum emas. Shu bois Muhammad Solihning ijodiy salohiyatini, adabiyotimiz tarixida tutgan mavqeini hozirgacha to‘la holatda saqlanib qolgan “Shayboniynoma” dostoni asosida baholash mumkin. Dostonning qo‘lyozma nusxalari juda oz bo‘lib, uning 1510-yilda, shoir hayotligi davrida ko‘chirilgan nusxasi bizgacha yetib kelgan. Bu noyob nusxa Avstriya poytaxti Vena kutubxonasida saqlanadi. Mazkur qo‘lyozma taniqli sharqshunos olim Herman Vamberining diqqatini o‘ziga jalb etgan. Olim

1885- yilda shu nusxa asosida asarning nemischa tarjimasi bilan Venada nashr ettirdi. Shu tariqa “Shayboniynoma” XIX asrning oxirlaridan qayta ilm ahli nazariga tushib qoldi. 1908-yilda rus sharqshunos olimi P.M.Melioranskiy o‘sha qo‘lyozmaning fotonusxasi va H.Vamberi nashri asosida Sankt-Petrburgda asarning ikkinchi nashrini amalga oshirdi. Keyinchalik dostonidan parchalar turli majmualardan o‘rin ola boshladi. O‘zbekistonda “Shayboniynoma”ning to‘la nashrini 1961-yilda Nasrulla Davron chop ettirdi. 1989-yilda taniqli olim Ergashali Shodiyev dostonni qayta nashr ettirdi. Har ikkala nashr uchun ham rus olimi P.M.Melioranskiy e‘lon qilgan nusxa asos bo‘lib xizmat qilgan. E.Shodiyev “Shayboniynoma”ni qayta nashr etish jarayonida N.Davron nashridagi ayrim matniiy nuqsonlarni bartaraf etishga jiddiy e‘tibor qaratadi (Qarang: Muhammad Solih. Shayboniynoma. Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1989, 9 -10 -b.). Muhammad Solihning hayoti va ijodi haqida nomzodlik dissertatsiyasini (1950-yil) yozgan A.Ibrohimov shoir haqida atroflicha ma’lumot beradi va “Shayboniynoma”ni teran tahlil qilishga harakat qiladi (Qarang: O‘zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik, 3-tom. Toshkent: «Fan», 1978, 88-104-b.). Ayni holat taniqli adabiyotshunos N.Mallayevning “O‘zbek adabiyoti tarixi” (Toshkent: O‘qituvchi, 1976, 609-633-b.) kitobida ham kuzatiladi.

Muhammad Solih 1455-yilda Xorazmda dunyoga keldi. Uning otasi Amir Nur Saidbek temuriy hukmdorlardan Ulug‘bek va Jo‘gi Mirzo saroyidagi e‘tiborli kishilardan biri bo‘lib, keyinchalik Abu Said Mirzo idorasi ostida bo‘lgan Xorazm viloyatida ancha vaqt hokimlik qilgan. Bobosi Amir Shoh Malik esa Ulug‘bek Mirzoning vasiysi va tarbiyachisi, shuningdek, Amir Temur va Ulug‘bek Mirzo saroylarida katta nufuzga ega bo‘lgan amirlardan edi. Muhammad Solih onasining nomi ma’lum emas. “Shayboniynoma”da uning Buxorodan ekanligini dalillovchi bir bayt uchraydi:

Men bu so‘z birla Buxoro keldim,
O‘z onam uyini manzil qildim.

Abu Said Mirzo poytaxti Hirot bo‘lgan Xuroson mamlakatini o‘z tasarrufiga o‘tkazgandan keyin, Husayn Boyqaro harbiy salohiyatini tiklash niyatida mamlakatning turli viloyatlarini qo‘lga kiritish uchun harakat qila

boshlaydi. 1467-yilda Husayn Boyqaroning shunday jangovor harakatlardan biri Xorazmni qoʻlga kiritishga qaratilgan edi. Manbalarda maʼlumot berilishicha, mudofaa choralarini yaxshi tashkil etolmagan Xorazm amirlari Husayn Boyqaroning hujumiga bardosh berolmay qochib ketadilar. Bundan gʻazablangan Abu Said Mirzo hamma amirlarini Xorazmga joʻnatib gunohi ayon boʻlgan har bir kishiga jazo berish haqida farmon beradi. Xorazm himoyasiga beparvo munosabatda boʻlganlikda ayblangan Amir Nur Saidbek zudlik bilan Hirotga olib kelinadi. Abu Said Mirzo uning butun mol-mulkini talon-taroj ettiradi, oʻzini esa Ixtiyoriddin qalʼasiga qamattiradi. Keyinchalik Nuriddin Abdurahmon Jomiyning iltimosiga koʻra Amir Nur Saidbek avf etiladi. Bu voqeadan soʻng bir oz muhtojlik azobiga giriftor boʻlgan Amir Nur Saidbek keyinchalik oʻz mavqeyini qayta tiklashga erishadi. U yana katta amirlar qatoridan joy olishga muvaffaq boʻladi. Biroq bu nufuzini saqlab qolish unga nasib qilmaydi. 1469-yilda Hirot taxti Husayn Boyqaro idorasi ostiga oʻtgandan soʻng, Abu Said Mirzoning koʻplab yaqin amir va beklari jazoga tortiladi. Ayni paytda Marv shahrida boʻlgan Nur Saidbek ham qatl qilinadi. Muhammad Solih “Shayboniynoma”da yoshlik yillarida boʻlib oʻtgan bu voqealarni quyidagicha xotirlaydi:

Laqabi Solih-u oʻzi tolih,
Nur Said oʻgʻli Muhammad Solih.
Mundoq ayturki, xudodin taqdir,
Chun otam ishiga berdi tagʻyir –
Chiqdi Xorazm diyori qoʻlidan,
Xivaqu Kot hisori qoʻlidan.
Tushti andin guzori Marv sori,
Anda sovrildi ev-u eli bari.
Ayladi noʻsh shahodat jomi,
Anga noʻsh oʻldi saolat jomi.
Mani gardun sitami qildi yetim,
Ayladi kishvari gʻam ichra muqim.
Xorliqlar bila oʻstum bisyor,
Zorligʻlar bila koʻrdum ozor.
Har falokatki boʻlur dunyoda,

Hech qaysidin eman ozoda.

Muhammad Solih mana shunday kulfatlar bilan qarshilashganiga qaramay, yoshlik chog'larida qunt va havas bilan o'qiydi. Zamonasining ulug' donishmandi va shoiri, naqshbandiya tariqatining yirik peshvosi Abdurahmon Jomiydan tahsil oladi. U arab va fors-tojik tilini mukammal o'rganishga harakat qiladi. Shu tillarda bitilgan adabiy asarlar bilan yaqindan tanishadi. Shuningdek, tarix, falsafaga oid asarlarni sevib mutolaa qiladi. Xattotlik sirlarini puxta o'rganib, bu sohada ancha muvaffaqiyat qozonadi. Shoirning o'z e'tirofiga ko'ra, u goh Xurosonda, goh Samarqandda temuriy hukmdorlar saroyida xizmat qiladi. Jumladan, u Sulton Husayn Boyqaro saroyida mulozimlik bilan mashg'ul bo'ladi. Biroq bu faoliyat uzoqqa cho'zilmaydi. Muhammad Solih otasi mol-mulkingning talon-taroj bo'lishi hamda fojiali vafot etishiga temuriylar sababchi bo'lganidan nafratlanganligi bois Shayboniyxon xizmatiga o'tganligini ta'kidlaydi. Alisher Navoiy esa "Majolis un-nafois"da uning saroydan ketishini quyidagicha izohlaydi: "Anga ham g'arib sahva tushtikim, Sulton Sohibqiron (Husayn Boyqaro) qullig'idin g'aybat (ko'zga ko'rinmaslik, yashirinish) ixtiyor qildi. Ba'zi derlarki, bexudlig' (aqlsizlik) olamida yamon musohiblar (do'stlar) ani bu yamon yo'lg'a tutubturlar". Shunday qilib, Muhammad Solih Alisher Navoiy e'tirof etgan "yamon muhosiblar"idan biri Mullo Abdurahimning taklifi bilan 1499-yilda Shayboniyxon xizmatiga o'tadi. Bu davrda Movarounnahrni tarqoqlik va boshboshdoqlik bilan idora etayotgan temuriy hukmdorlarga qarshi mulktalablik iddaosi bilan ketma-ket hujum uyushtirib turgan Shayboniyxon Muhammad Solihning taklifini mamnuniyat bilan qabul qiladi. U shoirga "amir ul-umaro" ("ulamolar amiri"), "malik ush-shuaro" ("shoirlar sultoni") unvonlarini beradi. Shayboniyxonning bunday iltifoti o'ziga xos siyosiy ahamiyatga molik edi. Bu bilan u temuriylardan norozi bo'lgan yirik amaldorlar, olim-u shoirlarni o'ziga og'dirib olishga intilardi. Shayboniyxon "samimiyat"iga ishongan Muhammad Solih singari mulkni idora etishga qodir, harbiy salohiyatga ega bo'lgan kishilar unga sadoqat bilan xizmat qila boshladilar. Bunday xizmatning har qanday mukofotga loyiqligini teran idrok etgan Shayboniyxon, manbalarda ma'lumot berilishicha, Buxoroni egallab, Samarqand tomon otlanganida, Muhammad Solihni o'z o'rnida

Buxoroda dorug'a vazifasida qoldiradi. Muhammad Solih Shayboniyxonning juda ko'plab yurishlarida u bilan birga ishtirok etadi. Bir oz muddat Qunduzda bo'ladi. 1504-yilda Shayboniyxonning ukasi Sulton Mahmud vafot etgach, hukmdorining ruxsati bilan Buxoroga keladi. 1504-1505-yillarda Xorazmning qamal qilinishida qatnashadi. Shayboniy qo'shinlari Xorazmga o'tlanib Qorako'lga kelganda, Chorjo'y hokimi Amir Yorali uni sovg'a-salomlar bilan qarshi olib, o'zining taslim bo'lganini ma'lum qiladi. Shayboniyxon Muhammad Solihni Chorjo'y hokimi qilib qoldiradi. Viloyatda tartib-intizomni o'rnatgan Muhammad Solih yana hukmdori ortidan Xorazmga yo'l oladi. Bu orada qamalda qolgan Xorazm hokimi Chin So'fi Xuroson hukmdori Husayn Boyqarodan madad so'raydi. Husayn Boyqaro Shayboniyxonni chalg'itish maqsadida goh Qunduz, goh Chorjo'y va Movarounnahrning boshqa viloyatlariga hujumlar uyushtira boshlaydi. Muhammad Solih yana Chorjo'yga qaytadi. Shahar qal'asini mustahkamlaydi, askarlarni jangga tayyorlaydi. "Shayboniynoma"dan ma'lum bo'lishicha, temuriy hukmdorlar Muhammad Solihni o'zlariga og'dirib olish niyatida unga elchi yuboradilar. Elchi Chorjo'y hokimining asli chig'atoy ulusidan ekanligini eslatib, uning tilidan quyidagilarni bayon qiladi:

Dedilar: "Sen chig'atoy elisen,
Ushbu yerda Chig'atoy xayli sen.
Na deb o'zbek bila yovar bo'ldung?
Xong'a bu yanglig' chokar bo'ldung?"

Muhammad Solihning temuriylardan nafratlanligi, ularga nisbatan ko'nglida kek saqlab tuigani muallifning dostonida bitilgan quyidagi javoblarida ham yanada yorqinroq namoyon bo'ladi:

Men dedim: "Senga javobim o'qtur,
Mundin o'zga base so'zum yo'qtur.
Javringizdin otam o'ldi netoyin,
Boshima qayg'u o'kuldi netoyin?
Men otam qoni bila qotlonomen,
Men o'zum jonim uchun qotlonomen".

Muhammad Solih yana qaytib Xorazmga, Shayboniyxon huzuriga boradi. Xurosonning chegara viloyatini qo'lga kiritgunlariga qadar o'sha

yerda qoladi. Shoirning 1506-yildan keyingi hayoti haqida ma'lumotlar juda oz saqlanib qolgan. Manbalarda e'tirof etilishicha, u Ashxobod yaqinidagi Niso shahriga dorug'a etib tayinlanadi. Bu yerda u Shayboniyxon vafot etgunga qadar, 1510 -1511-yillargacha faoliyat ko'rsatganligi taxmin qilinadi. Keyinchalik u Buxoroga qaytib, umrining oxiriga qadar shu yerda istiqomat qilgan. Ilmiy manbalarda shoirning vafot etgan sanasi Lutf Alibek Ozarning "Otashkada" asaridagi qaydga asoslanib hijriy 941, melodiyl 1535-yil ekanligi ma'lum qilinadi.

"Shayboniynoma" – tarixiy doston. XVI asrning boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy voqelik, temuriylar sulolasining tarix sahnasidan chiqib ketishi va shayboniylar avlodi hukmronligiga asos solinishi tarixnavislik hamda badiiy ijodda o'z ifodasini topa boshladi. Bundan manfaatdor bo'lgan Muhammad Shayboniyxon temuriylardan arazlab uning xizmatiga bel bog'lagan shoir-u olimlar, shuningdek, o'z saroyida faoliyat ko'rsatayotgan ijodkorlarni yuqoridagi voqelik tarixiga oid adabiy, tarixiy asarlar yozishga da'vat etardi. Natijada Mullo Shodiyning 76 bobdan iborat "Fathnomayi xoniy" ("Xonning g'alabasi") nomli manzumasi, Kamoliddin Binoiyning "Shayboniynoma" va "Futuhoti xoniy" ("Xonning g'alabasi") nomli tarixiy asarlari, Ro'zbexonning "Mehmonnomayi Buxoro" asari vujudga keldi. Bulardan tashqari, noma'lum muallif tomonidan "Tavorixi guzida – nusratnoma" deb ataluvchi nasr namunasi hamda Muhammad Solihning "Shayboniynoma" dostoni o'zbek tilida ijod etildi. "Shayboniynoma" - Muhammad Shayboniyga bag'ishlangan doston bo'lib, uning temuriylarga qarshi yurishlari asarda o'z ifodasini topgan. Doston 76 bob, 8902 misradan iborat. Dostonning 16 bobi an'anaviy muqaddimadan tarkib topgan. Unda Alloh hamdi, munojot, Muhammad payg'ambarga bag'ishlangan na't (1-3-boblar), so'z ta'rifi (4-bob), Shayboniyxon aqlining, ilmining, faqri va sulukining, hilmining, Qur'on o'qurining, tab'ining, qilichining, jibasining, karamining, hunarining ta'rif-u tavsifi (5-14-boblar), kitob nazmining sababi (15-bob) va Mullo Abdurahimning ta'rifi (16-bob) kabilar o'rin olgan. Asarning asosiy voqealari 17-bobdan boshlanadi. Bu boblarda 1499-1500-yillarda Shayboniyxonning Turkistondan Samarqandga qo'shin tortib kelishi, Samarqandni bosib olish uchun dastlabki urinishlarining barbod bo'lishi va chekinishi, Buxoro viloyatining hokimi

Boqi Tarxon va uning qo‘shinini Dabusiya qo‘rg‘onida (hozirgi Ziyovuddin yaqinida) qamal qilib Buxoroni bosib olishi voqealaridan boshlab, 1506-yilda Xorazmni bosib olib g‘alaba bilan Buxoroga qaytishigacha bo‘lgan voqeylik tarixiylik tamoyili asosida badiiy ifoda etiladi. Dostonning yozilgan sanasi asarda ko‘rsatilgan emas. Shayboniixonning Hirotni egallashi va o‘z nomiga xutba o‘qitganligi voqeasi “Shayboniynoma”da ifoda etilmaganligiga ko‘ra, uni 1506-1507- yillarda yozilgan, deyish mumkin. Muhammad Solih asarning bosh qahramoni Shayboniixonni ilohiy siymo sifatida haddan ortiq madh etadi. Dostonning to‘rtinchi bobida ilohiy ne‘mat sanalgan so‘z ta’rifiga o‘rin berilganidan so‘ng, so‘zi “ishqi jahoni”-yu “g‘ayb lisoni” bo‘lgan, o‘zi “oshiq”-u “orif”, “Tangrining soyasi” Shayboniixon madhiga o‘tiladi. “G‘aybdan oti Muhammad bo‘l”gan Shayboniixon, shoirning fikricha, har jihatdan yakto. U nafsi ustidan g‘olib kelgan zot. Dini iymon yo‘lida g‘azot qiluvchi bu ulug‘ xonning niyati shariatga ziynat, ahli islomga quvvat berishdan iboratdir. Tangri amrini jon qulog‘i bilan eshituvchi bu xon adolatini ehson bilan namoyon qiladi. Shuningdek, muallif Shayboniixonning Qur‘on tilovat qilishi, ilmi-yu hilmi haqida quyidagi ehtirosli baytlarni bitadi:

Suyubon asrag‘oni qur‘ondur,
 Yugurub quvlag‘oni shaytondur.
 Nafsini o‘ziga dushman bildi,
 Dushman o‘lturmokini fan bildi.
 Nuktasi nuktayi qur‘oniydur,
 Majlisi – majlisi ruhoniydur.
 Dardmandona chekibon ovoz,
 Qilsa qur‘on o‘qiraoqni og‘oz.
 Yig‘latur tengrisevar qullarni,
 Bog‘latur dev kelur yo‘llarni.
 Ilm ahlini ajoyib istar,
 Jahl qilg‘onni bag‘oyat qistar.
 Ishi-yu kuchi bori hilm bila,
 So‘zi-yu uni bori ilm bila.

Muhammad Solih o‘z hukmdori ta’rif-u tavsifini yuqoridagi ehtirosli baytlarda ifodalash bilan cheklanib qolmaydi. U “Hazrati imom uz-zamon,

xalifat ul-rahmon Shayboniyxonning aqlining ta'rifidur", "Ul hazratning tengri inoyat qilg'on ilmining tavsifi", "Ul hazratning faqrining bayoni va sulukining dostonidur", "Ul hazratning hilmining hikoyatidur", "Ul hazratning qur'on o'qurining rivoyatidur", "Ul hazrat tab'ining maddohligi", "Ul hazratning qilichining madhguzorligi", "Jibasining sifati", "Hunarlarining vasfi" singari qator boblarda Shayboniyxonni ko'klarga ko'tarib maqtaydi. Bu ham yetmagandek dostonning asosiy qismida ham bosh qahramon ta'rifiga tez-tez murojaat etiladi. Uning Shayboniyxon haqida: "Podshoh uldur-u andin o'zga, Koinot ichra ko'runmas ko'zga" mazmunidagi balandparvoz fikrlari muallifning niyati bosh qahramon shaxsiyatini benazir, o'ta ulug' qahramon darajasiga ko'tarishdan iboratligini yaqqol namoyon qiladi. Shu bois Muhammad Solih Shayboniyxon shaxsini ulug'lash maqsadida uni ko'proq din-u iymondan so'zlatishga harakat qiladi. Jumladan, Xonikaxon va Alachaxonni mag'lub etgan Shayboniyxon ularga pand-nasihatlar qiladi. Nafsi ammoraning yetti boshli ilonga o'xshatib, ular: "shavkat", "hasad", "jahl", "badxo'y" – yomon odat, "g'azab", "tuli amal" – dunyoga hirs qo'yish, "o'lmoqi xalq ila dag'al" – xalqqa qo'pol munosabatda bo'lish ekanligini anglatadi. Shuningdek, Shayboniyxon mo'g'ul xonlariga inson tanasida mavjud bo'lgan bu ilonnafsi ammoraning yo'qotish uchun ko'p riyozat chekish kerakligi haqida va'z o'qiydi. Ayni holat Muhammad Solih orzusidagi hukmdorni tasvirlash imkonini hosil qiladi. Shoir Shayboniyxonning juda ko'plab xunrezliklar qilganiga guvoh bo'lsa-da, uni darveshtabiat podshoh sifatida tasvirlaydi:

Bordur ul podshohi nekandesh,
Toshtdin xon-u ichidin darvesh.
Ichida bo'lmasa erdi bu hol,
Qoydin o'lg'oy edi zohir bu maqol.
Ko'p karomate ko'rubmen xondin,
Ko'p maqolat eshitibmen xondin.

"Toshidin xon-u ichidin darvesh" – o'rta asr ijodkorlari orzusidagi hukmdor tasviri; Muhammad Solih Shayboniyxon siymosida shunday podshohni ko'rishni orzu qiladi. To'g'ri, uning hukmdori haqida bitgan balandparvoz baytlarida taxayyulga erk berganligi, mubolag'aviy tasvirlar

vositasida Shayboniynonni tarixiy shaxsdan adabiy qahramon darajasiga ko'targanligi anglashilib turadi. Biroq ayni holat shoirning dostonnavislikdagi bir usuli sifatida namoyon bo'lganligini unutmaslik lozim. Muallif "Shayboniynoma"da qanchalik taxayyulga erk bermasin, u hayotiylikdan tamomila uzilib qolmaydi. Zero, ijodkorning tarixiy voqealar tasvirida imkon qadar xolislikka rioya qilishga intilganligi seziladi. Doston tarafkashlik va biryozlamalikdan xoli bo'lmasa-da, uning ko'pgina o'rinlarida hayotiy haqiqat balqib ko'zga tashlanadi. Bu holat shoirning adabiy niyatlaridan biri ko'rgan-kechirganlarini nazmga solishdan iboratligida namoyon bo'ladi. Shoir Shayboniynonni vasf etarkan, bir o'rinda o'sha maqsadini o'quvchiga ayon qiladi:

Har neki ko'rdum cherikida bir-bir,

Borchasin nazm ila qildim tahrir.

Muhammad Solih temuriy hukmdorlar haqida fikr yuritganda, ularni tahqirlash, mazah qilishga intiladi. Bu bilan shoir dilidagi alaminini yumshatishga harakat qiladi. Uning Shayboniynonni ko'klarga ko'tarib, temuriylarni qattiq tanqid qilishi tarixiy haqiqatga nisbatan biryozlama, tarafkashlik bilan munosabatda bo'lganligini dalillaydi. Biroq temuriylar inqirozi sabablari bayon etilgan ba'zi o'rinlardagi shoirning fikrlarini xolisona qabul qilmaslikning iloji yo'q:

Bul jamoatki, ko'rarsen holo,

Tana – tirno bilan boshlab g'avg'o.

Ichadurlar kecha – kunduz boda,

Din-u iymon soridin ozoda.

Bir - biri bila muxolif borchas,

Bir - biridin taqi xoyif borchas.

Atodin bordur o'g'ul noxushnud,

Atoni o'g'ul etay der nobud.

Ato ham bordur o'g'uldin bezor,

O'lturur o'g'lini yig'latib zor.

Temuriy hukmdorlar orasidagi boshbodoqchilik Zahiriddin Muhammad Boburning Movarounnahrda markazlashgan davlat barpo etish orzusi bilan olib borgan harakatlarini chippakka chiqardi, uning yakkalanib qolishiga sababchi bo'ldi. Ota-o'g'il va aka-uka orasidagi bunday tarqoq

harakatlar toj-taxt kurashlari Shayboniyxonga ancha qo‘l keldi. Muhammad Solihning dostonnavislikdagi ikkinchi uslubi – ko‘rgan-kechirganlarini bayon qilishi asar bosh qahramonining juda ko‘plab kirdikorlarini fosh etishga sabab bo‘ldi. Ijodkor Shayboniy va uning tarafdorlarini ijobiy, temuriylarni esa salbiy qahramon holida tasvirlashga harakat qilsa-da, ba‘zan o‘zi bilib-bilmay tarafdorining haqiqiy basharasini ham ochib tashlaydi. Bu holat goh xalq ommasining tilidan bayon etilsa, ba‘zan Shayboniyxonning turli shahar va qo‘rg‘onlarni qamal qilishida, shuningdek, g‘alaba nashidasini surib qilgan pastkashliklari tasvirlangan lavhalarda namoyon bo‘ladi. Shayboniyxon dostondagi dastlabki voqealar tasviridanoq o‘quvchida yomon taassurot qoldira boshlaydi. Jumladan, u Buxoroni zabt etgach, Boqi Tarxonning mol-mulkini talon-taroj qilish bilan cheklanib qolmay, uning o‘n ikki yoshli nabirasiga ham uylanadi. Dostondagi norasida bir qizchaga nisbatan Shayboniyxonning “oshiqona” munosabati tasviri uning sha’niga dostonida bitilgan balandparvoz baytlarning maishiy buzuc bu hukmdor bilan hech qanday aloqadorligi mavjud emasligidan dalolat berganday bo‘ladi:

Keldi ulug‘ onasi xidmatg‘a,
Bir nabira cbekibon hazratg‘a.
Ul nabira o‘n ikki yoshida,
Lek yuz fitna oning boshida.
Aqd etib oni qo‘lig‘a oldi,
Naqdi ishqini ko‘ngulga soldi.
Ul nabiraning atosi – Barlos,
Bo‘ldi Barlosg‘a xon qarindosh.
Bo‘ldi xon ko‘ngli base moyil ango,
Ko‘ksi uzra yosodi manzil ango.

Dostonida Shayboniyxon tabiatidagi bunday pastkashlik Samarqandni olish arafasida Sulton Alining onasi Zuhrabegimning unga elchi yuborib, farosatsizlarcha oshiqlik taklifini bayon etishi va unga javoban o‘zini g‘oyibona “oshiq” sifatida ko‘rsatgan. Shayboniyxon shaharni qo‘lga kiritgach, Zuhrabegimni birovga in’om qilishida, Sulton Alini esa qatl etishida ham namoyon bo‘ladi. Shuningdek, uning Boburning opasi Xonzodabegimga “oshiqi beqaror” bo‘lib, Samarqandni uning visoliga erishish

uchun zabt qilganini pesh qilishi ham o'quvchida yomon taassurot qoldiradi. Bu ham yetmagandek Shayboniyxon qayerni qo'lga kiritisa, o'sha yerning hukmdorini tahqirlash, mazax qilishda davom etadi. Jumladan, u Toshkent hokimi Sulton Mahmudxonni asir olib, uning oila a'zolaridan yosh qizchani o'z nikohiga oladi. Muhammad Solih hukmdorining bu nomunosib qiliqlarini ham xursand bir kayfiyatda, katta ehtiros bilan vasf etadi. Shoir yosh qizchaning Shayboniyxon oldiga kelishini Sulaymon oldiga kelgan Bilqisga qiyoslaydi. Boshqalarning fojiasidan lazzatlanish kayfiyatida bitilgan bu doston kitobxon ko'nglida noxush bir manzara, kuchli nafrat ham paydo qiladi. Shoir Shayboniyxonni benazir, o'zi orzu qilgan hukmdor sifatida tasvirlashga qanchalik harakat qilmasin, uning ko'rgan-kechirganlari tasviri ezgu adabiy niyatini amalga oshirishida mone'lik qiladi. Shu bois, dostonda taxayyulga erk berish (xayolotga tayanish) uslubidan haqqoniy tasvir tarzi yetakchilik qila boshlaydi. Dostonda tarixiy voqelikni boricha tasvirlash, unga va tarixiy shaxslarga muallifi munosabatidan qat'iy nazar, "Shayboiynoma"ni o'zbek mumtoz adabiyotidagi dastlabki tarixiy – jangnoma masnaviy bo'lishini ta'min etgan. Dostondagi ana shu yetakchi uslubiy jilo Shayboniyning xalq boshiga solgan og'ir kunlarini fosh etishga ham imkon yaratgan. U qaysi bir shaharni, qo'rg'onni ololmasa, uni uzoq muddat qamal qiladi. Qamalda qolganlaming tinkasini quritib, ochlik azobiga giriftor etadi. Buni dostondagi juda ko'plab lavhalar misolida aytish mumkin. Awalo, shuni ta'kidlash o'rinliki, muallif Shayboniyxonning harbiy salohiyatini ko'rsatish uchun shahar va qo'rg'on qal'alarini nihoyatda baquwat, uni muhofaza qiluvchilarni esa o'ta tajribali ekanligiga e'tiborni qaratadi. Jumladan, dostonda Dabusiya qal'asi quyidagicha tasvirlanadi:

Voqean qal'alari mahkam edi,
Kinavar xalqi taqi hamdam edi.
Qal'asi qal'al Haybar yanglig',
Haybari ellari kofar yanglig'.
Qal'aning avji Surayyo erdi,
Tubida xandaqi daryo erdi.
Yana atrofida jarlar behad,
O'tmoq andin qututub musta'bad.

Qush ucha olmas edi jarlaridin,
Uchsa kechgay edi parlaridin.

Bunda shoir o'sha davrdagi qal'alarining ancha mustahkam bo'lganligiga diqqatni qaratadi. Shunday bo'lsa-da, Shayboniyxon bu qal'ani zabt etadi. Oqibatda esa:

Bir tuman xalq qirildi bori,
Bo'ldi zohir sifati qahhori.
Kim yog'iqsa shahi Shayboniyg'a,
Ushbu kun kelgusidur jonig'a.

Muhammad Solih minglab odamlarning halok bo'lishini o'zining yagona "adolat mezon" – Ishahi Shayboniyxonga qarshi chiqqanligining oqibati, deya baholaydi. Unga bo'ysunmaganlar fojialar girdobida qolib, ayanchli ahvolda vafot etadi. Masalan, Shayboniyxon Sulton Ali qo'lidan Samarqandni to'itib olgach, Qorako'l, Qarshi, G'uzor va Kesh kabi shaharlar aholisi xonga qarshi isyon ko'taradi. Shayboniyxon bu isyonlarni bartaraf etish uchun shahar qal'alarini qamal qilish uslubidan foydalanadi. Ikki oy davom etgan Qarshi qamali aholi o'rtasida o'lat kelib chiqishi bilan yakunlanadi:

Tashqari elga g'animat tushti,
Ichkari elga o'lat yopushti.
Goh yuz kishi o'ldi bir kun,
Goh o'n kent eli bo'ldi bir kun.
Bo'ldi andoq o'latikim davron,
Ul o'latni ko'rub o'ldi hayron.
Iki oykim qabal erdi anda,
Oz kishi qoldi o'shul qo'rg'onda.
Qolg'ani ham bori bemor edilar,
G'ussa-yu g'am qo'lida zor edilar.

Bu holat Samarqand, Andijon, Urganch va boshqa shaharlarning aholisi boshiga ham tushadi. "Shayboniynoma"dagi Samarqandni Bobur Mirzo qo'lidan tortib olish uchun qamal qilinishi voqealari alohida ahamiyatga molik. Unda muallif tarixiy voqealarga xolislik tamoyillari nuqtayi nazaridan baho berishdan tamomila chekingani ko'zga tashlandi. Ijodkor Bobur Mirzo va uning tarafdorlarini qora bo'yoqlarda tasvirlash uchun

atayin taxayyul uslubiga (shoirona erkin fantaziyaga) murojaat etadi. U o‘zi shohidi bo‘lmagan o‘ta ayanchli tarixiy voqea-hodisalarni aynan ana o‘sha badiiy uslubga tayanib shaxsiy aqidalariga uyg‘un manzaralar yaratishga muyassar bo‘ladi. Natijada dostonda badiiy ifodasini topgan Samarqand shayxulislomi Abulmakorim hamda Bobur Mirzoning shahar aholisiga murojaati shoirning adabiy niyatini yorqin namoyon qilish maqsadida biryoqlamalik bilan tasvirlanadi. Avaliga Abulmakorim qamalda qolgan shahar aholisini Bobur Mirzodek sulton borligi hamda qal’a devorlarining mustahkamligi bilan tinchlantirishga harakat qiladi. Uning tilidan badiiy ifodalangan parchalarda esa Muhammad Solih fikrlari vositasida Shayboniyxonning zulm va zo‘ravonlikka asoslangan hukmdor ekanligi fosh bo‘lib qoladi:

Dedi: “Ey xalq, bilinglar tahqiq,
Kim budur xon Shayboniyg‘a tariq.
Kim bu qo‘rg‘onni qo‘lig‘a olsa,
Fathining ko‘sini munda cholsa,
Bo‘lur o‘g‘lonlaringiz barcha asir,
Ag‘niyo dog‘i bo‘lur barcha faqir.
Qo‘lungizdin chiqor ayvon-u saroy,
Foqay-u faqr qilur sizni gadoy.
Bir labi nong‘a bo‘lursiz muhtoj,

Borcha ul xong‘a bo‘lursiz muhtoj”. Bunday tasvirlar kitobxon ko‘z o‘ngida muallifning sodir bo‘lgan voqea-hodisaga haqqoniy nigoh bilan nazar solganini namoyon qilgandek bo‘ladi. Biroq shoir keyingi lavhalarda Abulmakorim so‘zlaridan ta’sirlangan xalqning shahar mudofaasini tashkil etishga astoydil bel bog‘laganliklarini ularning tilidan masxaraomuz va istehzo bilan tasvirlaydi:

Olishib qal’ani biz soqlog‘ali,
Solishib qal’ani biz soqlog‘ali.
Itlarim izgacha hosil so‘yoli,
It eti yoyirgo ko‘ngul qo‘yoli.
Angocha soqlag‘oli qo‘rg‘onni,
Jonig‘a yetkuroli ul xonni.

Samarqand ayni pishiqchilik paytida qamal qilinadi. Ona-yer saxovatidan tamomila uzilib qolgan shahar aholisi bu davrda katta oziq-ovqat zahirasiga ega emasdi. Dostonda tasvirlanishicha, o'sha yili qovun va uzum juda mo'l bo'lgan. Shoir uzumning surxak, la'li yakdona, bedana kabi navlari tasviriga e'tiborni qaratadi. Anorlar qizarib kelganda, qo'rg'ondagi aholining holi ancha yomonlashib qoladi. Ayni holat Muhammad Solih va uning hukmdoriga xush yoqadi. Shu bois shoir tasviridagi tabiat go'zalliklari kitobxonga zavq uyg'otmaydi, aksincha, Shayboniyxon tilidan badiiy ifoda etilgan quyidagi baytlar uning g'azabini qo'zg'aydi:

Bizga yo'q hech tarafdin tashvish,
Qabomoqdin base yo'q yaxshiroq ish.
Toshqori meva-yu oshliq bisyor,
Harna lashkarga kerak bor tayyor.

Shayboniy qo'shinlari Samarqand qal'asini ishg'ol etish uchun bog'rog'larga qiron keltiradi. Mevalari pishib turgan daraxtlar tomiriga bolta urilib, ulardan narvonlar yasaladi. Bunday mudhish manzaralarning guvohi bo'lgan shoir ba'zan tutaqib ketadi. Uning shoirona qalbi larzaga keladi, nochor ahvoldagi el-ulusga achinganday bir kayfiyat girdobida qoladi. Shahar aholisining xor-u zor, talon-taroj bo'lgani va ochlik azobiga giriftor etilganiga achinadi. Shunday bo'lsa-da, ijodkor o'z hukmdori va uning lashkarini qoralay olmagan uchun ham bunday mudhish voqealarning sababkori shu bog'rog'larning egalari ekanligini ta'kidlashga majbur bo'ladi. Uning fikricha, bu yerlarning sohiblari o'ta xasis odamlar. Chunonchi, ular yerga tushib yotgan olmani qullariga olishini ta'qiqlaydilar. Hatto, bir bemor o'z ehtiyoji uchun bir anor olishni xohlasa, unga qo'pol muomalada bo'ladilar. Oqibatda nafs ularga hujum qiladi. Bog' egalari Tangrining bunday shirn ne'matlaridan mahrum etiladi. Ko'rinadiki, Muhammad Solih sodir bo'lgan tarixiy voqealarga o'z munosabatini bildirib, kitobxonni o'z fikrlariga ishontirishga harakat qiladi. Biroq shoirning olti oy davom etgan azob-uqubatlar, qahraton qishda jon saqlash imkoniyatiga ega bo'lmagan minglab muhtoj-u himoyasiz kishilarning halok bo'lishini ehtiros bilan tasvirlashi kitobxonni uning bunday fikrlariga alam va anduh bilan munosabatda bo'lishga majbur qiladi:

Chun Samarqand bu nav' o'ldi xarob,

Bo'ldi ko'p qaht bo'lurg'a asbob.
Kuz bu nav' erdi ulusning holi,
Yozg'a shahr o'ldi ulusdan xoli.
Qish qotig' kedi-yu ko'p yog'di qor,
O'ldi och-u yalong'och el bisyor.
Ko'chalar bo'ldi o'lukdin mamlu,
Shahar bo'ldi yigrudek usru.

Muhammad Solih shahar ko'chalari o'likdan to'lib ketgani, ularga na kafan, na tobut, na tuproq topilganini, jonsiz tanlar e'zoz qilinmagani-yu , ularga janoza o'qilmaganini ham yuqorida kuzatilganidek tantanavor uslubda badiiy ifoda etadi. Bunday mudhish voqeaning guvohi bo'lgan osmon ko'z yosh to'kib, ko'cha-ko'yda yotgan murdalarni yuvadi. Keyinchalik yoqqan qor esa ularni kafanga o'ragan bo'ladi:

Avvalo bir necha yog'di yomg'ur,
Tomdi ko'kning yoshi muldur-muldur.
Yuvdi ul qaht oro o'lg'onlarni,
Shahr aro ev-eli bo'lg'onlarni.
Yog'di yomg'ur so'ngidin muncha qor,
Kim, o'luklarga qilib mehr izhor.
Borchasin ko'mdi-yu qildi pinhon,
El ko'zidin kim erur endi yomon.

Muhammad Solih faqat Samarqand shahri qamali tasvirida emas, boshqa shahar va qo'rg'onlarning qal'alari Shayboniyyon tomonidan o'rab olinishi lavhalarida ham o'sha badiiy uslubiga sodiq qoladi. Masalan, u Shayboniyyon Uiganchni qamal qilganda Husayn Boyqaro kengash chaqirgani, o'z holini bayon qilib aytgan so'zlari va temuriyzodalarning xatti-harakatlari tasvirida xayolot olamiga beriladi. Qamalda qolgan shahar aholisining fojiali qismatini ehtiros bilan tasvirlaydi. Ochlik azobidan jon saqlash ilinjida qolgan kishilar it va eshak etini eyishga majbur bo'lishadi:

O'zga qo'rg'onda o'la boshladi el,
It etiga o'luka boshladi el.
Eshak-u it eti doru bo'ldi,
Davr qo'rg'onda bu tavr evruldi.

Bunday o'ta dahshatli voqealarga ko'p guvoh bo'lgan shoir loqaydlik va beparvolik bilan ko'rgan-kechirganlari tasvirini davom ettiradi. Shahar aholisining hatto o'lgan odamning go'shtini yeyishga majbur bo'lgani ijodkorga jiddiy ta'sir ko'rsatmaydi. Muhammad Solih bu hodisani shunchaki ochlikdan qutilish yo'li, deya baholaydi:

Yedilar yoshg'ina o'g'lonlarni,

Ju'din qutqaribon jonlarni.

Shayboniyxon va uning tarafdorlari qamal va xalqni o'ldirish bilan cheklanib qolmaydi. Ular zabt etgan yerlarini talon-taroj qiladi, xotin-qizlarni tahqirlaydi, ularning sha'niga isnod keltiradi. Muhammad Solih hukmdorining bu xatti-harakatlarini qanchalik oqlashga urinmasin, dostonning juda ko'p o'rinlarida uning zolimligini fosh etib qo'yadi. "Maqtash" bahonasida Shayboniyxonning haqiqiy basharasini badiiy aks ettirish yo'lidan boradi. Adolat bilan aytganda, Muhammad Solihning bundan boshqa chorasi ham yo'q edi. Dostonning mana shu xususiyatlari uning mumtoz adabiyotdagi mavqeyini belgilashda asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi. "Shayboniynoma" biryoqlamalik va tarafkashlik mahsuli sifatida vujudga kelgani bois doston tanqidiy nuqtayi nazardan o'iganishga loyiqdir. Unda o'nlab shayboniyyodalar va temuriylarning nomlari keltiriladi. Hayoti ma'lum yillarining jang-u jadallarda kechishi shoir ijodining g'oyaviy-badiiyatiga ham o'z nuqsini urgan ko'rinadi. Buni birgina ikki sulolaga oid hukmdorlar nomlarining dostonda ro'yxatsimon qaydlar holida keltirilishida ham ko'rishimiz mumkin. Asarda tasvirdan ko'ra bayonchilikning ustun qo'yilishi, uning ishtirokchilari badiiy siymosini kitobxon ko'z o'ngida yetarli gavdalantirish imkonini bermaydi. Biroq ayrimlari aytilgan mulohazalar shoir badiiyat qoidalariga yetarlicha e'tibor qilmagan, deya xulosa chiqarishga asos bo'lolmaydi. Dostondagi qal'alar, Samarqand atrofidagi bog'-rog'lar tasvirida shoir tashbeh, tashxis, talmeh, sifatlashlardan mahorat bilan foydalanadi. Dostonning ayrim o'rinlarida shoirning badiiy salohiyatini ko'z-ko'z etuvchi baytlar mavjud bo'lsa-da, undagi mazmun, chin insoniylikka xos bo'lmagan g'oyalar tasviri o'quvchining nafratiga sazovor bo'ladi. Jumladan, Toshkent hokimi Sulton Mahmud Xonikaxon mag'lub etilganda, uning eng kichik qizi

Shayboniyxonga tortiq etiladi. Muhammad Solih dostonning mana shu lavhalarida o'sha norasida pok qizchaning mubolag'aviy tasvirini keltiradi:

Dedilar: "Borchasidin zeboroq,
Husn ichra borchasidin ra'noroq.
Yosh bila dog'i kichikroq boridin,
Baxt ila bori biyikroq boridin.
Bor emish xong'a munosib mohi,
Ul sanamlar arosida shohi.
Sarv oning qomatidin sharmanda,
Zuffiga anbari sor banda.
Munfail ko'zlaridin ohuyi chin,
Ichi qon bog'ladin g'amdin miskin.
Chin mo'g'ulchin ul erur olamda,
Yo'qtur ul tavr bani odamda.
Na Xito mulkida andoq topilur,
Na Xo'tan shahrida ul nav kelur.
Lo'batlari chin degonning o'zidur,
Suratlari chin degonning o'zidur".

Shoirning tasvir jarayonida mubolag'a badiiy san'atiga ko'proq murojaat etganligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Ayni choqda o'sha qizchaning husn va "baxt"da yaktoligi "kichikroq" va "biyikroq" so'zlarini qarshilantirish bilan mayyanlashtirilgan. Keyingi baytlarda shoir muddaosini amalga oshirishda husni ta'lilga murojaat etadi. Sanamlar orasida shoh bo'lgan bu qizning qomatidan sarvning qomati uyaladi. Uning shahlo ko'zlari oldida Chin ohusining ko'zlari xijolat chekadi. Ko'rinadiki, shoir yuksak badiiy salohiyat sohibi sifatida qahramonlar siymosini kitobxon ko'z o'ngida yorqin gavdalantirishga harakat qiladi. Biroq bu holat dostonning ba'zi lavhalaridagina kuzatilgani, shunda ham o'quvchi ko'z oldida ta'riflanayotgan qahramon siymosidan ko'ra Shayboniyxonning maishiy buzuqligi ko'proq namoyon bo'lishi bois undagi badiiyat o'z kuchini yo'qotganday tuyuladi. Biroq yuqorida ta'kid etganimizday bunday g'ayri insoniy harakatlar Muhammad Solihning ham qalbiga u qadar xush yoqmagan. U ham "aytsam tilim kuyadi, aytmam dilim" qabilida ish tutib, o'sha ayancli manzaralarning mubolag'aviy tasvirini berish bilan qalbiga

taskin-tasalli bergan ko‘rinadi. Ayni holatni ijodkor juda ko‘p murojaat etgan qarshilantirish san‘atiga murojaat misolida ham kuzatish mumkin:

Toshqori chu meva bisyor o‘ldi,
Ichkori xalq dilafkor bo‘ldi.
Toshqori meva sarosar pishti,
Ichkori ochlig‘idin el shishti.
Oqibat qolmadi nomus elga,
Bo‘ldi g‘avg‘o-yu g‘alomus elga.

Umuman olganda, “Shayboniynoma” o‘zining sodda va ravon uslubda yozilganligi, o‘ziga xos badiiyati bilan XVI asr o‘zbek mumtoz adabiyotida yaratilgan adabiy asarlardan ajralib turadi. U o‘z davri o‘zbek adabiy tilining muhim yodgorligi bo‘lishi bilan ham ahamiyatlidir. Asar ijodkori dunyo-qarashining murakkabligi, tarixiy voqealar va tarixiy shaxslar tasvirida tarfakashlik, biryoqlamalik unsurlarining ko‘pligidan qat’iy nazar, uning juda ko‘plab lavhalari tarixiy haqiqatni tiklashga imkon yaratadi. Dostonning ayni jihatlari uning adabiy-tarixiy qimmatini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, “Shayboniynoma” - tarixiy-jangnomaning mumtoz adabiyotimizdagi ilk namunasi bo‘lishi bilan ham katta ma’naviy-badiiy ahamiyatga molikdir.

Xoja va uning adabiy merosi. Xoja taxallusi bilan ijod qilgan ulug‘ mutafakkir adib va shoir Ibodulla Sayyid Podshoxoja ibn Abdulvahobxoja o‘zining muhim ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta’limiy mazmunda bitilgan kichik nasriy hikoyalari bilan shuhrat qozongan yirik ijodkordir. Adibning hayoti va ijodiy faoliyati haqida uning o‘z asarlari “Miftoh ul-adl” va “Gulzor” hamda XVI asr adabiy hayot oynasi bo‘lgan Hasanxoja Nisoriyning “Muzakkirul-as’hab” tazkirasida ma’lumot keltiriladi. Kichik nasriy hikoyalardan tashkil topgan “Miftoh ul-adl” (“Adolat kaliti”), “Gulzor” singari asarlar hamda “Maqsad ul-atvor” nomli pand-nasihatchilik mazmunidagi doston ijod etgan bu ulug‘ so‘z san’atkorining hayoti va ijodiy faoliyati asosan XX asrning birinchi yarmidan o‘rganila boshlandi. Bu boradagi dastlabki izlanishlarni taniqli adib va adabiyotshunos olim Abdurauf Fitrat boshlab berdi. Xojaning hayoti va ijodiy faoliyati haqida nomzodlik dissertatsiyasini yozgan olim Maig‘uba Mirzaaxmedova bu haqda quyidagi mulohazalarini bayon etadi: “Fitrat tomonidan “Miftoh ul-

adl” hikoyalarining nashr etilishi Xoja ijodini o‘rganish va unga dastlabki qiziqish boshlanishidan darak beradi” (Mirzaaxmedova M. Xoja. Toshkent: Fan, 1975 ,5-b.). Tadqiqotchi A.Fitrat, N.Mallayev, V.Zohidov, S.Qosimov singari adabiyotshunoslarning bu boradagi izlanishlarini ilmiy jihatdan tahlil qiladi. A.Fitrat “O‘zbek adabiyoti namunalari” (Toshkent — Samarqand, 1928) majmuasida “Miftoh ul-adl”dan sakkizta hikoyaga o‘rin beradi. Biroq olim asar noma’lum qalamkash tomonidan ijod etilganligini e’tirof etadi. Shuningdek, u “Miftoh ul-adl”ning yozilgan davrini XIV asr sifatida ko‘rsatadi. Bu fikr keyingi yillarda nashr etilgan majmualarda, hatto taniqli sharqshunos olim E.E.Bertels tadqiqotlarida ham o‘z hukmronligini saqlab qoladi. Adabiyotshunos V.Zohidov Xoja va uning asarlari haqidagi maqolalarida “Miftoh ul-adl” XVI asrning taniqli adibi Xoja tomonidan Shayboniixonning o‘g‘li Muhammad Temur Sultonga bag‘ishlab yozilganligini ma’lum qiladi (Zohidov V. “Miftoh ul-adl” va “Gulzor” haqida. “O‘zbek adabiyoti tarixidan (mualliflarning maqolalar to‘plami). Toshkent, 1961). Shuningdek, olim S.G‘aniyeva bilan hamkorlikda har ikkala asardan namunalarni nashr ettirdi (Poshshoxo‘ja. “Miftoh ul-adl” va “Gulzor”dan. Toshkent, 1962.). Adibning hayoti va faoliyatiga oid mavjud fikrlarga aniqlik kiritish adabiyotshunos A.Ibrohimovning ilmiy izlanishlarida ham ko‘zga tashlanadi. Tadqiqotchi “Xoja hayoti va ijodi haqida ba’zi ma’lumotlar” (“O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali, 1965 yil, 4-son) nomli maqolasida Hasanxoja Nisoriy adibning o‘g‘li ekanligini keltirilgan asosli dalillar bilan isbotlaydi. Xojaning hayotiga doir birmuncha mufassalroq ma’lumotlar Ismoil Bekjonning “Shoir va davlat arbobi” (“O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” haftanomasi. 1991-yil 15-mart) nomli maqolasida uchraydi. Ulug‘ adib va shoir, zamonasining yirik davlat arbobi bo‘lgan Xojaning hayoti, ijodiy merosining o‘rganilishi tarixidan ayon bo‘ladiki, bu borada adabiyotshunosligimiz oldida yechimini kutib turgan muammolar hali juda ko‘p. Avvalo, adib asarlarini to‘la holda qayta nashr etish davrimizning kechiktirib bo‘lmaydigan vazifalaridandir. Shuningdek, adibning ijodiy merosi yuqorida nomlari keltirilgan qator maqolalar va M.Mirzaaxmedovaning risolasida ham adib hikoyalari davr mafkurasi nuqtayi nazaridan tahlil jarayoniga tortilganligini unutmaslik lozim. Bulardan tashqari, ularda ilohiy-irfoniy mazmunda bitilgan hikoyalarni

tahlil etishdan ochiq-oydin voz kechilganligi koʻzga yaqqol tashlanadi. Aytilganlarni inobatga olib, biz ham mavjud manbalar asosida ijodkorning hayoti va ijodi haqida fikr yuritishga harakat qildik.

Podshoxojaning hayoti va ijodi. Podshohxoja 1480-yilda Xurosonning Niso viloyatida zamonasining yetuk ziyolilaridan boʻlgan, turkiy va fors-tojik tillarida dilbar sheʼrlar hamda nasr namunalarini ijod etgan Abdulvahobxoja binni Sulaymonxoja oilasida dunyoga keladi. Manbalarda maʼlumot berilishicha, bu kishining shajarasi turk mashoyixlaridan Zangi otaga, undan esa Ahmad Yassaviyning ustozlari Arslonbobga borib taqalgan. Abdulvahobxoja Bugʻraxonning qizi Anbar onaga uylangan va Niso viloyatida istiqomat qilgan. Uning “Orif” taxallusi bilan ijod qilganligi ilohiy va irfoniy ilmlardan yaxshi xabardor boʻlganligidan dalolat beradi. Oila muhiti Podshoxojani ilmga havasini juda erta uygʻotgan koʻrinadi. Maʼlumotlarga koʻra, u dastlab otasi qoʻlida, keyinchalik Niso va Marv madrasalarida tahsil oladi. Fozil kishilar xonadonida tarbiya topgan Podshoxoja adabiyot bilan birga fiqh, tasavvuf, riyoziyot va handasani puxta oʻrganadi. Uning yoshlik yillari Husayn Boyqaro saltanatining tobora inqirozga yuz tuta boshlagan davriga toʻgʻri keladi. Tarixdan maʼlumki, Badiuzzamon Mirzoning oʻgʻli qatl etilgandan soʻng (1497 yil oktabr) ota-oʻgʻil, aka-ukalar oʻrtasidagi adovat yanada alangalanadi. Badiuzzamon Mirzo va uning tarafdorlari boʻlgan temuriy shahzodalar otalariga qarshi qilich qayrab jang maydoniga oʻtlanadilar. Bu davrlarda, aniqrogʻi, 1496-yildan Podshoxoja rasmiy lavozimlarda faoliyat koʻrsata boshlaydi. U Niso va Obivard hokimi Kepak Mirzo (asli ismi Muhammad Muhsin Mirzo) tomonidan vaqf mulki hisob-kitoblarini yuigizuvchi – sadrlik lavozimiga tayinlanadi. Podshoxojaning bu muhim vazifaning necha yil davomida ado etib kelgani haqida maʼlumotlarga ega emasmiz. Biroq tarixiy voqealarga tayanib shuni aytish mumkinki, yosh shoir bu faoliyatini uzoq yillar davom ettirgan emas. Shayboniyxon 1507-yilda Hirotni oʻz tasarrufiga oʻtkazgach, Kepak Mirzo hamda Abumuhsin Mirzo Mashhad yaqinidagi mavzelardan birida Shayboniyxonning oʻgʻli Temur Sulton va Ubaydulloxon tomonidan asir olinib qatl etiladi. Shuningdek, bu ikki shahzodaning yaqinlari ham shu davrda yo asir olingan, yo oʻldirib yuborilgan. Xoja 1500-yildanoq temuriylaiga xizmat qilishni toʻxtatgan koʻrinadi. 1508-yilning aprel oyida

Shayboniyxon Movarounnahiga qaytayotib, Nisoda to‘xtaydi va Hirotdan Muhammad Solihni chaqirtirib, uni shu viloyatning hokimi etib tayinlaydi. Bu davrda Podshoxoja yetuk shoir va adib sifatida ancha tanilgan edi. Shayboniyxon unga Durun nohiyasining hokimligini ishonib topshiradi. 1508 -1510 - yillarda adib Valiahd Temur Sultonga bag‘ishlangan “Miftoh ul-adl” nomli asarini yozadi. 1510-yilda Muhammad Shayboniyxon Hirotni Ismoil Safaviy qo‘shinlariga jangsiz topshirib, mustahkam istehkom sifatida Marvga chekinadi. U yaqin atrofdagi hokimlar, jumladan, Xojani o‘z oldiga chaqiradi. Shu yilning 10-dekabrida esa u qurshovda qolib, fojiali o‘lim topadi. Ubaydulloxonning o‘z vaqtida yetib kelishi Xoja, Shayboniyxonning boshqa a‘yonlari va ichkilarini o‘limdan qutulib qolinishiga sabab bo‘ladi. Bu mudhish voqealardan keyin, Xoja bir muddat Samarqandda, 1513-yilning oxiridan Buxoroga kelib yashay boshlaydi. 1514-yilgacha u Temur Sulton, keyinroq Ko‘chkunchixon xizmatida bo‘ladi. 1515 -1516-yillardan e‘tiboran esa u Karmana hokimi Jonibek Sulton xizmatida sadrlilik lavozimida faoliyat ko‘rsata boshlaydi. Jonibek Sulton Xojaning halol va pok insonligiga amin bo‘lgach, unga sadrlikka qo‘shib eshik og‘oligi lavozimini ham beradi. Adibning bu davrdagi hayoti birmuncha osoyishta kechadi. Shu bois u Nizomiy Ganjaviyning “Panj ganj”iga javoban Jonibek Sultonga bag‘ishlangan “Maqsad ul-atvor” dostonini yozadi. Ma’lumotlarga ko‘ra, shoir Karmanadagi siyosiy barqarorlikka ishonib xamsa yozish fikrida ham bo‘lgan. Biroq davlat ishlari, harbiy safarlar ijodkorning bu orzusini amalga oshirishga imkon bermagan. 1529-yilda Jonibek Sulton vafot etadi. Shu yilning yozida Ubaydulloxon Xojani sadrlikka ishga oladi. Kuzda esa u Hirotni qamal qiladi. Shahar aholisi bilan har ikkala tomonning manfaatlarini ko‘zlab sulh tuzishga erishgani uchun Ubaydulloxon adibni shahar shayxulislomligi va Abdulla Ansoriy mozori shayxligiga tayinlaydi. 1533-yilda Ubaydulloxon bosh xonlikni qabul qilgandan so‘ng, Xoja Buxoroga kelib, sadri a‘zamlik mansabiga ko‘tariladi. 1534-yilda Ubaydulloxon Xurosonga navbatdagi zafarli yurishini amalga oshiradi. U Nishopurga kelganida, katta harbiy yig‘in o‘tkazadi. Mashvaratda 1526-yildan beri Balx viloyatini idora etayotgan Kistan Qaro ibn Jonibek ham ishtirok etadi. U otasi Jonibek Sulton huzurida ko‘p yillar faoliyat ko‘rsatib, davlatni idora etish borasida katta tajribaga ega bo‘lgan Podshoxojani

Balxga yuborishni Ubaydulloxondan iltimos qiladi. Shundan so'ng Xoja Balxda avval sadrlilik, ko'p o'tmay shayxulislomlik vazifasini bajaradi. U bu shaharda o'ziga xos adabiy muhit tashkil etishga harakat qiladi. Ma'lumotlarga ko'ra, 1539-yili Kistan Qaroi Odilga bag'ishlab "Layli va Majnun" dostonini, "Gulzor" asarini yozadi. 1543-yilda Balx hokimi Kistan Qaro ruhiy kasallikka chalinganidan keyin, Xoja o'z vazifasidan kechib, ijod bilan mashg'ul bo'ladi. Adib 1566-1567-yillarda Buxoroda vafot etadi va Bahouddin Naqshband maqbarasi yoniga dafn qilinadi.

Xojaning "Miftoh ul-adl" va "Gulzor" asarlari. Xojaning "Miftoh ul-adl" va "Gulzor" asarlari XI asrdan o'ziga xos an'ana tusini olgan pand-nasihat ruhida yozilgan badiiyat namunalari turkumiga mansubdir. Turkiy yozma nazm namunalari bu hodisa (ya'ni pandnoma asarlar yaratish an'anasi) ilk bor Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" dostonida qahramonlarning o'zaro suhbatiga tayanish uslubida o'z ifodasini topgan. Ahmad Yugnakiy ayni yo'nalishni muayyan voqealar tizimiga ega bo'lmagan "Hibat ul-haqoyiq" dostonida hadislar asosida badiiylashtiradi. Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostonida o'quvchiga pand-nasihat berish maqolat va she'riy hikoyalar, "Lison ut-tayr"da esa Hudhud hamda masnaviyda ishtirok etadigan boshqa qushlar tilidan so'zlangan hikoya va masallar tarzida amalga oshiriladi. Xojaning kichik nasriy hikoyalardan tarkib topgan "Miftoh ul-adl" va "Gulzor" asarlari ko'proq fors-tojik adabiyotining taniqli namoyandalari Kaykovusning "Qobusnoma", Shayx Sa'diy Sheroziyning "Guliston", "Bo'ston", turkiy mumtoz adabiyotning eng yirik vakili, ulug' mutafakkir adib Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarlariga o'xshab ketadi. Sa'diy Sheroziyning "Guliston" asari XIV asr ijodkori Sayfi Saroyi tarafidan "Gulistoni bit-turkiy" nomi bilan erkin-ijodiy tajima qilinishi uning musulmon mintaqa xalqlari orasida ancha shuhrat topganligidan dalolat beradi. Bunday kichik nasriy hikoyalar ijod etish an'anasi Xoja davriga qadar Nosiruddin Rabg'aziyning "Qisasi Rabg'uziy" asarida ham ma'lum ma'noda uchrashi kuzatiladi. Ko'rinadiki, Xoja o'ziga qadar vujudga kelgan boy adabiy an'anadan ilhomlanib, ixcham hikoyalari ijod etishga kirishadi. Ayni holat adib hikoyalari qahramonlari sifatida tanlangan Iskandar, Doro, No'shiravon, Sulton Mahmud, Sulton Malikshoh, Bahrom Go'r kabilarning XVI asiga qadar badiiy adabiyotda

tarixiy shaxslikdan allaqachon badiiy timsol darajasiga ko'tarilganligi, ular haqidagi xalq og'zaki ijodida mavjud bo'lgan turli hikoya va rivoyatlar mumtoz ijodkorlar qalamida sayqallanib, voqealar tizimga aylanib qolganligini ham tasdiqlaydi. Shuningdek, Xoja o'sha kichik nasriy yaratmalarida turli ijtimoiy tabaqaga mansub bo'lgan kishilar shohlar, vazirlar, amaldorlar, ruhoniylar, olimlar, hunarmandlar, dehqonlar, cho'ponlar, darveshlar, o'g'rilar, bezorilar qiyofasini yaratadi-ki, bu holat ham an'ana tusini olishga ulgurganligi ayon haqiqatdir. "Miftoh ul-adl", "Gulzor" asarlarining ko'plab qo'lyozma nusxalari bir kitob holatida muqovalangan shaklda bizgacha yetib kelgan. Shu bois "Miftoh ul-adl" "Gulzor"ning tarkibi sifatida talqin qilinib kelinadi. Ulardagi mazmun va uslubning uyg'unligi shunday xulosaga kelishga asos bo'lgan.

"Gulzor" kichik muqaddima, kitobning tasnifi va ta'lifi bobi hamda davlatni boshqarishda insof va adolat bilan ish ko'rish, raiyatga munosabat, axloq-odob masalalariga bag'ishlangan qirqqa yaqin hikoya to'plamlaridan tashkil topgan. Asar yagona voqealar tizimiga ega emas. Asarda hikoyalardan tashqari bir qancha qit'a, ruboiy, masnaviy, g'azal va boshqa janrdagi kichik she'riy parchalar mavjud. Kitob so'ngida she'riy xotima berilgan. "Gulzor" asaridan o'rin olgan nazmiy parchalar Xoja hikoyalarida ilgari surilgan g'oyaviy mazmunni muayyanlashtirish, qissadan hissa chiqarishga xizmat qildirish maqsadida bitilgan. "Miftoh ul-adl" o'n besh bobdan iborat bo'lib, unda olimlar, odil sultonlar, zolim podshohlar va diyonatsiz beklar, hukmdorlarga mute' bo'lmoqlik, shohlarning beklar va vazirlar bilan mashvarat qilmoqlari, hukm chiqarmoq bayoni singari mavzulardagi ijodkorning mulohazalari hadislarga tayanilgan holda keltiriladi, ana o'sha fikrlar tasdig'i uchun turli hikoyalarga o'rin beriladi (1-7-boblar). Bular orasida "Iskandar va Mag'rib sulton", "Iskandar va Doro", "Sulton Mahmud, vazir va ikki boyqush", "Sulton Mahmud G'aznaviy va Ayozi Xos", "Bahrom Go'r, uning vaziri Rostiravshan va cho'pon", "Mahmud G'aznaviy va tolibul ilm", "No'shimvon va Ozarbayjon begi", "Mo'min podshoh va tundagi o'g'rilar" singari asar tadqiqotchilari tomonidan shartli nomlangan hikoyalar muhimdir. To'planning 8-15-boblarida da'vo qilmoq, ont ichmoq, o'g'rilik, zino

haddi, quzb haddi, ta'zir haddi, g'azot haddi, sayd qilmoqning bayoni kabi xilma-xil masalalar haqida adibning mulohazalari keltiriladi.

Hikoyatlarning mavzu ko'lam va g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. "Miftoh ul-adl" va "Gulzor"dagi ko'plab hikoyalarning bosh qahramonlari hukmdorlardir. Xoja o'z davrining yirik jamoat arbobi, peshqadam din peshvosi sifatida diniy qadriyatlardan nur olgan, Qur'oni karim hamda hadisi sharif g'oyalari badiiy ifoda etilgan kichik nasriy durdonalari bilan zamon hukmdori, shayboniy shahzodalarga pand-nasihat qilishni nazarda tutadi. Shu bois uning hikoyalarida podshoh, vazir va beklar timsoliga tez-tez murojaat qilinadi. Ayniqsa, adib Iskandar va No'shiravonning ibratli siymosini adolat timsoli darajasiga ko'tarishga harakat qiladi. Hikoyalaridan birida tasvirlanishicha, bir viloyat hokimining odilligi va yurtining ma'murligi Iskandarni hayratga soladi. Unda hikoya qilinishicha, Iskandar Zulqarnayn bir viloyatga boribdi. U yerda suruv-suruv qo'ylar bo'lib, cho'poni yo'q ekan, mevalari pishib yotgan bog'lar bor-u, bog'boni yo'q ekan, mol-matolarga to'la do'konlar bor-u, sotuvchi hamda qorovuli yo'q ekan. Iskandar bu viloyatning tartib-qoidalaridan nihoyatda taajjublanibdi. Shunda u viloyatning podshohi: "Bizning oramizda biror kishi muflis (qashshoq) bo'lsa, barimiz yig'ilib, mol jam qilib, ul kishini mol va amvol bilan hamda jamiyatda o'zlarimiz birlan teng qilurmiz...", - debdi. Iskandar bu viloyatning tartib-qoidalaridan g'oyat shod va mamnun bo'libdi. Iskandan Zulqarnayn adolati bilan dong taratgan hukmdor bo'lsa-da, viloyat hokimi bu borada undan yanada tajribaliroq bo'lib chiqadi. Adib mulkning ma'murligi-yu, xalqning saodati hukmdorga bog'liqligini keltirilgan ixcham hikoyada badiiy tasvir etadi. Hukmdor va xalqning bir-birini yaxshi anglashi, ularning o'zaro jipsligi nurli kelajakka asos bo'lsa, noahillik esa mamlakatni vayron etib, ulus boshiga qonli musibatlar keltirishi tarixiy haqiqatdir. Adib zamonasining yirik mutafakkiri sifatida ayni mavzuda juda ko'plab hikoyalar ijod etgan. Bular orasida "No'shiravon va Hakim" tarzida shartli nomlangan quyidagi hikoya nihoyatda ibratlidir

No'shiravon beklari va hakimlarini yig'ib, xalq bilan qanday munosabatda bo'lish haqida kengashganida, beklar xalqdan olinadigan soliqni ko'paytirib, qo'shinni mustahkamlash kerak, deyдилar. Donishmand Abuzarjumhur esa, bu xato yo'ldir, bu yo'l el-yurtni ham, davlatni ham

xonavayronlikka olib boradi, deydi. Uning taklifi bilan beklar bir joyga, uning o'zi boshqa bir joyga ovga chiqadilar va shikorlarini (ovdan olingan o'ljalari) podshoga keltirib beradilar. Beklar birinchi kuni ko'p ov ovlaydilar, biroq ikkinchi kuni o'ljasiz qaytadilar. Chunki birinchi kundagi dahshatli ov hayvonlar va qushlarni to'zg'itib, qo'rqitib qo'ygan ediki, tum-taraqay qochib, g'oyib bo'lishadi. Donishmand esa oz bo'lsa ham, har kuni ma'lum o'lja bilan qaytadi. Podsho uning oliq-soliqni ko'paytirishga qarshi e'tirozi to'g'ri ekanini e'tirof qilib adolat bilan ish ko'radi.

Raiyatni tadbir ila rom qil,
Adolat saririda orom qil.
Raiyatga adl ila qilsang maosh,
Kam o'lmas sabo sufrasi ichra osh.
Chiqorg'il raiyatni g'am chohidin —
Yonmog'oyse oning dudi ohidin.
Sitamkash agar oh cheksa sahar,
Kuyar ohuning o'tidin bahr-u bar.
Eshik yopma mazlurning yuziga,
Ko'zung och, quloq sol, oning so'zig'a...

Ko'rinadiki, No'shiravon atrofidagi zolim bek va hokimlar podsho hamda xalq orasida ziddiyat chiqarishga harakat qilishadi. Hukmdorning kengash o'tkazishi ana shunday nizoning oldini olishga xizmat qiladi. O'zaro fikr almashinish asosida No'shiravon bek va hokimlariga o'z bahosini bera olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Abuzarjumhurning tadbirkorligi va nihoyatda donoligi esa xalqni kulfatlardan asraydi. Hikoyada halol va tadbirli donishmandlarni saroyga chorlash, ular bilan kengashib el-ulus manfaatiga muvofiq farmonlar chiqarishga undash g'oyasi o'z ifodasini topgan. Unda qissadan hissa chiqarish maqsadida bitilgan masnaviyning keltirilishi ham g'oyatda ibratlidir. Masnaviyda sitamkashning tong saharcha chekkan ohidan bar-u bar (quruqlik-suvlik) — butun olam kuyishi nihoyatda ta'sirchan ifoda etilgan. She'riy parcha so'ngida mazlumlarga mushfiq bo'lish, butun vujud bilan ularning arzu dodini tinglashga da'vat etiladi. G'am-tashvishli kishilarning musibatiga sherik bo'lish hadislarida o'z ifodasini topgan eng olijanob fazilatlardandir. Adib yoshligidan ilohiy-irfoniy ilmlardan puxta xabardor bo'lgani bois o'z

asarlarida ularga juda ko‘plab murojaat etganligi kuzatiladi. “Miftoh ul-adl” va “Gulzor”da zolim podshohlarni to‘g‘ri yo‘lga soluvchi donishmand vazirlar obrazi tez-tez ko‘zga tashlanuvchi hikoyalar ham o‘rin olgan. Ularning donoligi ba‘zan taklif etgan tadbirlarida namoyon bo‘lsa, ba‘zan voqea-hodisalardan ibratli xulosa chiqarishlarida ko‘zga tashlanadi. Sulton Mahmudning vaziri boyqushlar suhbatini hukmdoriga to‘g‘ri talqin qilib yetkazishi bilan uni adolat yo‘liga boshlaydi: Sulton Mahmud G‘aznaviy zolim, uning vaziri Xo‘ja Hasan dono va odil ekan. Ular kunlardan bir kun ovga chiqishibdi. Vazir shaharning chetida sayrayotgan ikki boyqushni ko‘rib oh tortibdi. Yig‘labdi. Bundan taajjublangan Sultonga u: “Ul bir boyqush bul boyqushga aytaturkim, ikkimiz quda bo‘laylik, qizingni maning o‘g‘lumg‘a bergil, taqi qalin ne tilar bo‘lsang berayin, der. Ul aytaturur: maning qizimning qolinig‘a o‘n ming buzug‘ uy kerakdur. U aytaturur: agar Sulton Mahmud tirik bo‘lsa, bir yildan so‘ng yuz ming uy desang ham berayin, dedi. Man shul so‘zg‘a yig‘ladim”, - deydi, Sulton: “Man shuningdek zolimturmankim, maning zulmimdin bir yilda yuz ming uy xarob bo‘lur?! —deganda, vazir: “andoq ermish” deydi. Shunda Sulton: “ne qilmoq kerak?”, deb so‘rasa, vazir: “adl qilmoq kerak va taqi zulm qilmoqdin tavba qilmoq kerak...”, -deb javob beradi. Sulton Mahmud qilgan ishlariga tavba qiladi, adolat bilan davlatni boshqaradi, “kechalar darveshlarning libosin kiyib, eshikdin eshikka yurur erdi: qayda bir tul xotun yo bir miskin bo‘lsa, anga ehson qilur erdi”. Hikoyada zolim hukmdor pand-nasihat bilan to‘g‘ri yo‘lni ixtiyor etishi mumkin, degan g‘oyaga badiiy libos kiydirilgan. Dono va oqil vazir Xo‘ja Hasan podshoning zulmkorligini ro‘yi rost, betgachoparlik qabilida emas, balki majoziy ma‘no tashuvchi tamsilni sharhlash yo‘li bilan ayon qiladi. Bu kichik nasr namunasi o‘ziga xos uslubda, taxayyul mahsuli sifatida vujudga kelgan. Xoja ijodida bunday hikoya namunalari ancha topiladi. Avvalo, ijodkor boyqushlar xalq nazarida, baxtsizlik va xarobalik ramzi ekanligidan mahorat bilan foydalanganligini ta‘kidlash lozim. Hikoya o‘ziga xos nasr namunasi bo‘lib, unda adib janr talablaridan chekinganligi kuzatilmaydi. Unda ortiqcha ashyo timsolining uchramasligi, o‘zaro muloqot usulidan mahorat bilan foydalanilganligi o‘sha “mitti” asarlar ijodkori badiiy salohiyatining yuksakligidan dalolat beradi. Adibning boshqa hikoyalari

ham xuddi ana shunday fazilatlarini o‘zida mujassamlashtiiganligi bilan ahamiyatlidir. Xoja hikoyalari orasida axloqiy-ta’limiy mohiyat kasb etuvchi, insonni ma’naviy komillikka da’vat etuvchi hikoyalar ham mavjud. Ma’naviy komillikning asosi — nafsni mag‘lub etmoqdir. “Shayx va murid” hikoyasida buning uchun kishidan nimalar talab qilinishi haqida bahs yuritiladi: Bir murid Shayxning oldiga kelib, o‘zining ko‘p gunoh qilganini aytadi va Shayxdan tavba va inobat berishni so‘raydi. Shayx, sening ko‘ngling bir hovuzdir, unga besh arig‘dan suv kiradi, sen loyqa suv bilan hovuzni iflos qilasan, shu arig‘lar suvi yo‘lini bog‘lasang, hovuz toza bo‘ladi, “bir arig‘ - ko‘zingning yo‘lidirkim, musulmonlarning ahli — ayoliga xiyonat birlan boqmag‘aysan. Yana bir arig‘ - og‘zingning yo‘lidirkim, andin yomon, harom nimalarni emag‘aysan. Yana bir arig‘ - ilik - qo‘llaringdurkim, kishini nohaq urub, mollarini olmag‘aysan. Yana bir arig‘ - oyoqlaringning yo‘lidurkim, aning birlan nomashru’ yo‘llarg‘a bormag‘aysan, misli bo‘zaxona va sharobxona va mafaqa. Yana bir arig‘ - quloqlaring yo‘lidurkim, g‘iybat so‘zlarni eshitmagaysan”, deydi. Murid bularni qabul qiladi, ko‘ngil hovuzi pok boiadi. Halollik va poklik — insonni komillik rutbasiga eltuvchi yo‘ldir. Hikoyadagi shayx timsoli irshod maqomiga yetgan ulug‘ zot. Shu bois u tasavvufning olijanob g‘oyalaridan o‘z muridini xabardor qiladi. Ko‘ngil pokligiga faqatgina so‘zda tavba qilish bilan erishib bo‘lmaydi. Buning uchun insonning xatti-harakatlaridan poklik balqib turishi, u ezgu xulq sohibiga aylanishi bilan erishiladi. Shayxning so‘zlari — adibning fikrlaridir. Insonni razillik olamidan tamomila xoli holda komillik maqomida ko‘rish Xojaning ezgu orzularidan biri ekanligi hikoyadan anglashilib turadi. Shuningdek, adib o‘z asarlarida xudbinlikni qattiq qoralaydi. “Sulaymon va obi hayot” hikoyasi buning yorqin namunasidir: Bir kishi Sulaymonga obi hayot keltiribdi. Sulaymon kishilarni, hayvonlarni, qushlarni yig‘ib suvni ichish-ichmaslik haqida kengashibdi. Kengashga faqat Butimor degan qush kelmagan ekan. Butimorni chorlash uchun Sulaymon ot yuboribdi. Butimor kelibdi. Sulaymonning taajjubiga Butimor: “Ot vafo dashtida o‘tlog‘on ermasdur va it vafo dargohidin ketkon ermas”, debdi. Obi hayot masalasida esa u agar bu suv barcha yor-do‘stlaringga, qarindoshlaringga yetsa, ichsang bo‘ladi, bo‘lmasa befoyda. Chunki hamma o‘lib ketaveradi, yolg‘iz o‘zing qolasan. Bunday hayotning

ma'nisi bormi debdi. Bu gap Sulaymonga ma'qul tushibdi, u obi hayotdan voz kechibdi.

Tiriklik yor-u dildor ila xushtur,
Tiriklikni netarsan bo'lmasa yor?!
O'luk sonida ko'r, tema tiriktur –
Kishikim, yo'q anga yori vafodor.
Kishi yolg'uz jahonda bo'lmadi shod,
Nechakim bo'lsa olamda namudor...

Ko'rinadiki, Xoja hikoyalarida doimo olijanob g'oyalar ulug'lanadi. Insonni baxtli va saodatli ko'rish orzusi uning barcha asarlarida qaysidir jihat bilan aks etgan. U kichik hikoyalar ustasi sifatida ularga insoniyat uchun nihoyatda muhim bo'lgan umuminsoniy qadriyatlar, o'lmas g'oyalarni singdira olgan. Hikoyalar sodda va ravon uslubda yozilganligi, o'ziga xos tuzilishi, g'oyaviy-badiiy jihatdan mukammalligi va til xususiyatlari nuqtayi nazaridan nihoyatda qimmatlidir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Xojaning hayoti va faoliyati haqida ma'lumot beruvchi mo'tabar manbalar hamda uning o'rganilishi tarixi haqida ma'lumot bering.
2. Adibning oila muhiti haqida nimalar bilasiz?
3. Xoja sadrlik faoliyatini qachondan boshlagan, u shayboniylar xizmatiga o'tib qanday lavozimlarda faoliyat ko'rsatdi?
4. "Miftoh ul-adl" qachon yozilgan va kimga bag'ishlangan?
5. "Maqsad ul-atvor" dostonining yozilishi tarixi haqida gapirib bering.
6. Adibning Balxdagi ijtimoiy-siyosiy va adabiy faoliyati haqida so'zlang.
7. "Miftoh ul-adl" va "Gulzor" asarlari uslubi, g'oyaviy-badiiy xususiyatlariga ko'ra mumtoz adabiyotimizdagi qaysi asarlarga o'xshaydi?
8. "Gulzor" va "Miftoh ul-adl" asarlarining bir-biridan farqli, o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
9. Xoja hikoyalarining mavzu rang-barangligi, qahramonlari haqida gapirib bering.
10. Hukmdorlar hamda axloqiy-ta'limiy mavzuda bitilgan hikoyalarni g'oyaviy-badiiy jihatdan tahlil qiling.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. 2-жилд. Лирика (У.Тўйчиев ёзган). – Тошкент: Фан, 1992.
2. Адабиёт назарияси. Икки томлик. 2 том. – Тошкент: Фан, 1992.– Б. 448.
3. Avaznazarov O. Navoiyshunoslik. – Тошкент: Fan va ta’lim, 2023.
4. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 20 жилдлик. – Тошкент: Фан, 1987-1988. 1-2-жилдлар.
5. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 20 жилдлик. – Тошкент: Фан, 1988-1990. 3-6-жилдлар.
6. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 20 жилдлик. – Тошкент: Фан, 2003. 20-жилд.
7. Alisher Navoiy. Ayyomi visol o‘ldi yana: Yangi topilgan g‘azallar. – Тошкент: Adabiyot va san’at, 1995.
8. Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. Фаройиб ус-сиғар. 10 жилдлик. 1-жилд. – Тошкент: Гафур Ғулом, 2011.
9. Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. Ҳайрат ул-аброр. 10 жилдлик. 6-жилд. – Тошкент: Гафур Ғулом, 2011.
10. Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. Фарҳод ва Ширин. 10 жилдлик. 6-жилд. – Тошкент: Гафур Ғулом, 2011.
11. Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. Лисон ут-тайр. 10 жилдлик. 9-жилд. – Тошкент: Гафур Ғулом, 2011.
12. Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. Маҳбуб ул-қулуб. 10 жилдлик. 9-жилд. – Тошкент: Гафур Ғулом, 2011.
13. Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. Муҳокамат ул луғатайн. 10 жилдлик. 10-жилд. – Тошкент: Гафур Ғулом, 2011.
14. Алишер Навоий. Хамсат ул-мутаҳаййирин. Тўла асарлар тўплами. 5-жилд. – Тошкент, 2011.
15. Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадойиъу-с-санойиъ. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981.
16. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002.

17. Болтабоев Ҳ. Шарқ мумтоз поэтикаси манбалари. Биринчи китоб. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008.
18. Бурҳонуддин Рабғузӣ. Қиссаси Рабғузӣ. – Тошкент: Ёзувчи, 1990.
19. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 1993.
20. Vohidov R., Eshonqulov N. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi, 2006.
21. Воҳидов Р. Алишер Навоӣ ва илоҳиёт. – Бухоро, 1996. – Б.142.
22. Djurayeva X. Husayniy adabiy merosi manbalari va matniy tadqiqi. – Toshkent, 2018
23. Исҳоқов Ё. Навоӣ поэтикаси. – Тошкент: Фан, 1983. – Б.25.
24. Жабборов Н. Адабиёт ва миллий маънавият. – Тошкент: Маънавият, 2015.
25. Жабборов Н. Замон. Мезон. Шеърят. – Тошкент: Гафур Ғулом номидаги НМИУ, 2015.
26. Комилов Н. Тафаккур карвонлари. – Тошкент: Маънавият, 1999. – Б.280.
27. Комилов Н. Хизр чашмаси. – Тошкент: Маънавият, 2005.
28. Маҳмудов Ж., Карамий М. Манбаларда Паҳлавон Маҳмуд Пурёрвалий зикри. – Тошкент, 2007.
29. Очилов Э. Бир ҳовуч дур. – Тошкент: О‘zbekiston, 2011.
30. Rahmonov N. O‘zbek adabiyoti tarixi (Eng qadimgi davrlardan XV asrning birinchi yarmigacha). – Toshkent: Sano-standart, 2017,
31. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. – Toshkent: Tamaddun, 2018.
32. Сирожиддинов Ш. Матншунослик сабоқлари. – Тошкент: Navoiy universiteti, 2019.
33. Султон И. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – Б.392.
34. Фитрат А. Адабиёт қоидалари. – Танланган асарлар. Тўртинчи жилд. – Тошкент: Маънавият, 2006.

- 35.Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунуну-л-балоға. – Тошкент: Хазина, 1996.
- 36.Юсупова Д. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи (Алишер Навоий даври). –Тошкент, 2013.
- 37.Юсупова Д. Аруз вазни қоидалари ва мумтоз поэтика асослари.– Тошкент, 2018.
38. Yusupova D. Aruz va mumtoz poetikaga kirish. – Toshkent: Akademnashr, 2020.
39. Ўзбек адабиёти тарихи. Беш жилдлик. 2-жилд (ХВ асрнинг иккинчи ярми). – Тошкент: Фан, 1977.
- 40.Қаюмов А. Шеърят жиолари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1997.
- 41.Ҳайитметов А. Навоий лирикаси (Тўлдирилган ва тузатилган иккинчи нашр). – Тошкент: Ўзбекистон, 2015.
- 42.Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. – Тошкент: Шарқ, 1999.
- 43.Хусайний А. Бадойиъу-с-санойиъ. – Тошкент: Адабиёт ва санъат,1981.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
Pahlavon Mahmud hayoti va ijodi	4
Rabgʻuziy hayoti va ijodi.....	13
Xorazmiy va Sayfi Saroyi hayoti va ijodi.....	23
Durbek hayoti va ijodi	45
Haydar Xorazmiy hayoti va ijodi.....	55
Atoiy va Sakkokiy hayoti va ijodi	72
Lutfiy va Husayniy ijodi	89
Navoiy lirikasi.....	105
Navoiy – xamsanavis	129
Navoiyning “Xamsa” asari tahlili	135
Navoiy – dostonnavis. “Lison ut-tayr” – falsafiy-majoziy doston.....	182
Navoiy – adabiyotshunos	199
Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va adabiy faoliyati.....	210
“Boburnoma” asari tahlili	233
Muhammad Solih va Xoja hayoti va ijodi	249
Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati.....	278

AROFATOY MUYDINOVA

O‘ZBEK ADABIYOTI II

Darslik

Muharrir: X. Tahirov

Texnik muharrir: S. Meliqo‘ziyeva

Musaxhih: M. Yunusova

Sahifalovchi: A. Muxammadiyev

Nashr. lits № 2244. 25.08.2020 y.

Bosishga ruxsat etildi 14.07.2025 y.

Bichimi 60x84 ¹/₁₆. Ofset qog‘ozi.

“Times New Roman” garniturası.

Xisob-nashr tabogi. 17,5.

Adadi 100 dona. Buyurtma № 20.

«Sarbon LLS» MChJ bosmaxonasida chop etildi.

Nashriyot tel. raqami +998 (97) 017-01-01

+998 (94) 673-66-56

QAYDLAR UCHUN

QAYDLAR UCHUN

ISBN 978-9910-9027-7-2



9 789910 902772